

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL OF  
«SCIENTIFIC PROGRESS»

ISSN: 2181-1601

The 21<sup>st</sup> Century Skills for  
Professional Activity



Proceedings of the 6<sup>th</sup> International  
Scientific-Practical Distance  
Conference

2021, JUNE 15



[www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz)

UZBEKISTAN

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL OF  
«SCIENTIFIC PROGRESS»  
ISSN: 2181-1601

# THE 21<sup>st</sup> CENTURY SKILLS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY

PROCEEDINGS OF THE 6<sup>th</sup> INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC-PRACTICAL DISTANCE CONFERENCE



[www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz)

TASHKENT, UZBEKISTAN  
2021, JUNE 15

**EDITOR-IN-CHIEF**

**SHAKHLO BOTIROVA**

Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor  
Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region

**EDITORIAL BOARD**

**GULJIHAN NURISHEVA**

Doctor of Philosophy, Professor  
National University of Kazakhstan named after Al Farobi

**RAKHMATULLA BEKMIRZAEV**

Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor  
Jizzakh State Pedagogical Institute named after Abdulla Qodiri

**GULCHEHRA GAFFAROVA**

Doctor of Philosophy, Professor  
Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region

**SHOIRA DONIYAROVA**

Doctor of Philology, Associate Professor  
Jizzakh State Pedagogical Institute named after Abdulla Qodiri

**MARAT SULTONOV**

Doctor of Chemical Sciences, Associate Professor  
Jizzakh State Pedagogical Institute named after Abdulla Qodiri

**SAYFULLA BOBOEV**

Doctor of Biological Sciences, Associate Professor  
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

**ATANAZAR SEYTNAZAROV**

Doctor of Technical Sciences, Associate Professor  
Academy of Sciences of Uzbekistan

**ZUKHRA YAKHSHIEVA**

Doctor of Chemical Sciences, Associate Professor  
Jizzakh State Pedagogical Institute named after Abdulla Qodiri

**OYBEK HAYITOV**

Doctor of Psychological Sciences, Associate Professor  
Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan

**MUKADDAS ABDURAKHMANOVA**

Candidate of philological sciences, Associate Professor  
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

**BERDIYOR SAPAROV**

Doctor of Philosophy in Philosophy, Associate Professor  
Tashkent State Agrarian University

**OTABEK NASIROV**

Candidate of Historical Sciences, Associate Professor  
Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region

**MIRZOALI KHUDOYBERGANOV**

Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Associate Professor  
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

**SURAYYO ESHONKULOVA**

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor  
Jizzakh State Pedagogical Institute named after Abdulla Qodiri

**SHOIRA ABDUJALILOVA**

Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor  
Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region

**BAKHODIR MUMINOV**

Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
Tashkent State Agrarian University

**NODIRA SOBIROVA**

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor  
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

**NODIRA SOATOVA**

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor  
Jizzakh State Pedagogical Institute named after Abdulla Qodiri

**EDITORIAL BOARD**

**HABIBULLA AHADKULOV**

Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Associate Professor  
Northern University of Malaysia

**MAVLUDA RAKHIMSHIKOVA**

Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor  
University of South Kazakhstan named after Mukhtar Auezov

**KULASH TULENTAEVA**

Candidate of Historical Sciences, Associate Professor  
National University of Kazakhstan named after Al Farobi

**OLIM ESHONOV**

Candidate of Medical Sciences, Associate Professor  
Bukhara State Medical Institute

**NIGORA ASHURMETOVA**

Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
Tashkent State Agrarian University

**ULUGBEK MINGBOEV**

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor  
Jizzakh regional Center for Retraining and Advanced Training of Public Educators

**IRODA AZIMOVA**

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor  
University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

**JUMMAGUL ABDURAKHMONOVA**

Candidate of Historical Sciences, Associate Professor  
Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region

**SOFIYA DJUMAEVA**

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor  
Tashkent Regional Center for Retraining and Advanced Training of Public Educators

**NAVBAHOR UMAROVA**

Doctor of Philosophy in Psychology, Associate Professor  
Uzbek State University of Physical Culture and Sports

**MAVJUDA TILAKOVA**

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor  
Jizzakh Regional Center for Retraining and Advanced Training of Public Educators

**FURKAT RAJABOV**

Doctor of Philosophy in Geography, Associate Professor  
Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region

**DILFUZA MAHMUDOVA**

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor  
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

**ILHOMJON ASLANOV**

Doctor of Philosophy in Geography, Associate Professor  
Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Engineers

**NILUFAR JURAEVA**

Candidate of Technical Sciences, Associate Professor  
Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region

**MARINA KOSBERGENOVA**

Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Associate Professor  
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

**MASHKHURAKHON DARMONOVA**

Doctor of Philosophy in History, Senior Researcher  
Academy of Sciences of Uzbekistan

## ПРОБЛЕМЫ ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ

Мухитдинова Барно Бахтияровна  
Учитель школы № 249 Алмазарского района г. Ташкент

**Аннотация:** Человек по существу своему многомерен и многосложен. В нём несколько пластов жизни: телесная, душевная, мыслительная, духовная. И всегда он вынужден собирать себя воедино, координировать проявления всех своих «составляющих» - воли, разума, чувств. Сначала ребёнок чувствует, затем понимает, оценивает, и самое главное, начинает творить.

**Ключевые слова:** Воспитание, проблемы, дети и другие

Воспитание чувств – самое трудное в работе учителя. Говоря о воспитании молодого поколения, хотелось бы отметить, чтобы каждый из нас, особенно юноши и девушки, вступающие в самостоятельную жизнь, всегда помнили мудрые наставления нашего великого просветителя Абдурауфа Фитрата: «Будет ли народ продвигаться к достижению конкретной цели, процветать, будет ли счастливым, уважаемым и сильным, или же будет слабым, жить в нужде, несчастий, забвении и в подчинении у других - все это зависит от того, какое воспитание дети получают от своих родителей, в семье».<sup>1</sup> Какие бесценные, поистине золотые слова! Воспитание молодежи в духе национальных и общечеловеческих ценностей остается для нас вопросом, никогда не теряющим свою актуальность и значимость. Нынешнее стремительно меняющееся время, расширяющаяся глобализация открывают перед человечеством, особенно молодежью, все новые и новые, огромные возможности.

Без приобщения детей и молодежи к национальному, мировому искусству, духовному и культурному наследию предков, не мыслимо воспитание гармонично развитого поколения. В Республике Узбекистан уделяется огромное внимание проблеме «всестороннего духовно-нравственного воспитания подрастающего поколения, создания условий для наиболее полного раскрытия творческого потенциала детей, более глубокого понимания и привития любви к музыке и другим видам искусства, познания ими великого всемирного наследия в области музыкального и изобразительного искусства»<sup>2</sup>. Истинное творчество всегда духовно. Оно развивает чуткость души, пробуждает совесть, поддерживает духовность. В педагогике существует термин «воспитание красотой», ведь с самого раннего возраста ребёнок наиболее восприимчив к прекрасному и детское творчество абсолютно совершенно. Раннее обращение к красоте облагораживает душу, утончает чувства, делает желание творить

<sup>1</sup> Доклад Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиёева на торжественном собрании, посвященном 24-й годовщине принятия Конституции Республики Узбекистан // Народное слово. - Ташкент, 2016. - 8 декабря - С.1-

<sup>2</sup> Постановление Президента Республики Узбекистан о Государственной программе по дальнейшему совершенствованию деятельности детских школ музыки и искусства на 2016 – 2020 годы. с.1

насушной потребностью. Творчество не всегда есть некое создание произведения искусства или науки, сначала человек чувствует и познаёт красоту природы, затем красоту искусства и, наконец, приходит к пониманию высшей красоты: красоты человека, его труда, поступков. Когда родители не уделяют ребенку внимания, когда он растет, как трава, то успеваемость бывает разной, но чаще плохой, так как ребенок не чувствует контроля со стороны старших. Во время гриппа и каких-нибудь иных заболеваний, протекающих с высокой температурой, слабость, апатия, резко усиливаются. В это время не просто нарастает слабость, рассеивается внимание, ухудшается память и пр. Родители же вместо того, чтобы заставить ребенка заниматься дробно, дозированно, разумно чередуя периоды отдыха с периодами работы, заставляют сына или дочь заниматься без перерыва, чтобы наверстать упущенное. В результате ребенок еще больше выматывается, его продуктивность падает едва ли не до нуля, а родители, одержимые идеей, чтобы их ребенок был лучше всех, неумолимо заставляют его усиленно заниматься, подстегивают его честолюбие, дают ему крепкий чай и кофе, накачивают витаминами, все средства с их точки зрения, хороши, главное, чтобы ребенок наверстал упущенное за время болезни. В результате интеллектуального и физического утомления он все больше и больше будет запускать школьный материал. Пойдут двойки, вызовы родителей на собрания, ссоры дома, взаимные обвинения, от которых выносливость школьника выше не станет, объем знаний не возрастет, так как материал бесповоротно запущен, ребенок разучился систематически заниматься, у него нарастают неверие в свои силы и недовольство окружающими. В ответ на нотации родителей, которые только требуют, но не помогают, формируются реакции протеста: ребенок портит вещи отличников, чтобы скомпенсировать свои недостатки.

Взаимоотношения родителей и детей должны строиться с учетом физических и интеллектуальных возможностей детей. Любовь и требовательность должны гармонично сочетаться. Все остальные шаги будут так или иначе связаны с проблемой родительской любви, любви в меру, без крайностей, любви, не отрывающейся от земли.

#### **Литература:**

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по воспитанию физически здоровой, духовно и интеллектуально развитой молодежи, поднятию системы ее образования на качественно новый уровень» ПҚ-3907 от 14.08.2018 г., СЗ, N 33, ст. 677,
2. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по инновационному развитию сферы культуры и искусства в Республике Узбекистан» ПП-3920 от 26.08.2018.
3. Хрипкова А.Г., Колесов Д.В. Мальчик – подросток – юноша. М.: 1982
4. Колесов Д.В. Предупреждение вредных привычек у школьников. М.: 1984.

## ТАРИХИЙ-ФАЛСАФИЙ МЕРОСНИ ЎРГАНИШНИНГ БАЪЗИ КОНЦЕПТУАЛ-МЕТОДОЛОГИК МУАММОЛАРИ

Мўминова Мавжуда Жўраевна

Марғилон Педагогика коллежи умумкасбий фанлар кафедраси ўқитувчиси

**Аннотация.** Мақолада тарихий-фалсафий меросни ўрганиш, уни тиклашдаги илмий холислик, фалсафий жараён ривожланишининг тўғри назарий-услубий асосда ёритилиши, унинг асил мазмун-моҳиятини ҳаққоний тадқиқ ва таҳлил қилиш ҳақида сўз юритилади.

**Калит сўзлар:** тарихий-фалсафий мерос, фалсафий тафаккур, тарихийлик, мантиқийлик, илмий холислик, онтологик, гносеологик, диалектик услуб, ижтимоий-фалсафий фикр.

Тарихий-фалсафий ҳақиқатни тиклашда илмий холислик, мантиқийлик услубларига риоя қилиш муҳим назарий-методологик аҳамиятга эгадир. Зеро, фалсафа тарихининг турли муаммоларини, ўтмишдаги фалсафий оқимлар, таълимотлар, мазҳаб ва диний ирфоний сулукларни, мураккаб фалсафий баҳсларни тўғри ва тушунарли талқин қилмасдан туриб, тарихий-фалсафий ҳақиқатни тиклаб бўлмайди. О.Файзуллаев ёзганидек, “бизнинг тарихий-фалсафий меросимиз ниҳоятда катта, ундан фойдаланишимиз керак. Ҳозирги замон жаҳон фалсафаси ютуқларидан баҳраманд бўлмоғимиз шарт. Бу иккала ютуқ бир-бири билан узвий боғлиқдир, уларни кўплаб файласуфлар авлоди яратган”.

Тарихийлик ва мантиқийлик усуллари бир-бири билан боғлиқ ва ўхшаш бўлиши билан бирга, уларнинг фарқли жиҳатлари ҳам мавжуд: “Тарихий тадқиқотнинг вазифаси у ёки бошқа ҳодисаларнинг конкрет шарт-шароитлари ва асосларини, уларнинг бир хил тарихий зарурий босқичлардан иккинчи хил тарихий зарурий босқичларга ўтишларининг тарихий изчиллигини очиб беришдан иборат. Ижтимоий-фалсафий фикр тарихи билан танишиш шундан далолат берадики, турли фалсафий ғоялар бир-бирини инкор қилган, бир тузумдан иккинчи тузумга ўтишда олдинги даврлардаги ижобий ғоялар кейингисига ўтган ва фалсафий фикрни шу тарзда бойитиб, ривожлантириб борган. Лекин бир даврдан иккинчи даврга фақат ижобий фалсафий қарашлар ўтган, дейиш ҳам тўғри бўлмайди, албатта, баъзи салбий ижтимоий фикрлар ҳам ўтиб келган. Улар тарихий-фалсафий фикр тараққиётига тўсқинлик қилган. Муҳаммад Ал-Хоразмий, Абу Наср Форобий, Абу Али ибн Сино, Абу Райҳон Беруний ва бошқалар “Авесто” китобидаги фалсафий ғоялар, қадимги юнон фалсафий фикрини танқидий ўрганиб, ўзгартирган, улар асосида ўз фалсафий таълимотларини яратганлар.

Тарихий-фалсафий ҳақиқатни тиклашда анализ ва синтез услуби ҳам муҳим рол ўйнайди. Анализ ва синтез бутунни қисмларга ажратиш ва бутунни

қисмлардан бирлаштириш, деган маънони беради. Энди қиёслаш услубига келсак, у ижтимоий-фалсафий мероснинг турли муаммоларини холисона тадқиқ қилишда, мутафаккирларнинг ижтимоий-фалсафий, сиёсий ва ахлоқий қарашларини қимматли, илғор ва ўз даври учун аҳамиятли томонларини очишга ёрдам беради. Қиёсий-тарихий услуб фалсафа тарихида муайян даврдаги фалсафий, социологик, ижтимоий-ахлоқий таълимотлар, қарашлар ва ғояларни бир-бирига солиштириш натижасида уларнинг бир-биридан фарқли ва муштарак жиҳатларини кўрсатиб беради. Буюк аллома Абу Райҳон Беруний ўз асарларида қиёсий услубни кенг қўллаган. У “Ҳиндистон” ва бошқа асарларида турли динларга ўз муносабатини билдирган, ҳиндлар ва мусулмонларнинг урф-одати, маросимлари, расм-русумларини фарқли ва ўхшашлик жиҳатларини кўрсатган ҳолда, зарарлиларини танқид қилган, кастачиликни қоралаган [4, 98-108].

Шуни таъкидлаш лозимки, илк ўрта асрларда Ўрта Осиё юнон фалсафасидан баҳраманд бўлди. Юнон мутафаккирлари Птолемей, Аристотель, Платон, Эпикур ва бошқаларнинг табиий-илмий ва фалсафий асарлари юнончадан араб тилига таржима қилинди. Абу Наср Форобий, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино уларни мутолаа қилиб шарҳлар битдилар, шу асосда ўзлари фалсафий таълимот ва илмий мактаблар яратдилар. Уйғониш даври деб аталган бу даврда қадимги юнон маданияти, фалсафаси Ўрта Осиё мутафаккирлари дунёқарашининг шаклланишида, шубҳасиз, ғоявий манба бўлиб хизмат қилди ва ворисийлик вазифасини ўтади, аммо, Ўрта Осиё ижтимоий-фалсафий фикрининг қўшни Шарқ мамлакатлари ҳамда араб фалсафаси билан муштараклиги ва ғоявий яқинлиги бу минтақа фалсафасининг ўзига хослиги бошқалардан фарқ қилувчи жиҳатлари мавжудлигини асло инкор қилмайди.

Хулоса қилиб айтиш лозимки, салафларнинг бой фалсафий қарашларини, уларнинг замонлар оша бизгача етиб келган қимматли фикрларини ҳаққоний таҳлил қилмасдан туриб, тарихий-фалсафий ҳақиқатни ва тарихий хотирани тиклаб бўлмайди, буларсиз ёш авлод онгини ўстириш ва ўтмишга нисбатан миллий ғурурини ошириш мумкин эмас. Республикамиз Президенти Ш.М.Мирзиёев алоҳида таъкидлаганидек, “Ўзбек халқининг неча минг йиллик тарихида қандай мураккаб даврлар, оғир синовлар бўлганини барчамиз яхши биламиз. Биз аждодларимизнинг ёрқин хотирасини асраб-авайлаб, қалбимизда, юрагимизда абадий сақлаймиз”. Бу эса халқимизнинг бой маънавий меросини илмий холислик асосида, чуқур ва ҳаққоний тадқиқ этиш зарурлигини тақозо этади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
2. Файзуллаев О. Фалсафа ва фанлар методологияси. - Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2000.
3. Философия луғати. –Тошкент: Ўзбекистон, 1976.
4. Ашрафян К.З. Беруни о кастах Инди //Беруни и гуманитарные науки. - Ташкент: Фан, 1972.
5. Чингиз Айтматов, Мухтор Шохонов. Чўққида қолган овчининг охи-зори. - Тошкент: Шарқ, 1998.

## QARAQALPAQSTAN SHÁRAYATINDA ALLIUM SEPA L.-NÍŇ ÓSIW HÁM RAWAJLANIW BİOLOGİYASI

S.Kalbaeva

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı, student

**Annotatsiya:** Maqalada domalaq piyazdıń ósiw hám rawajlanıw biologiyası, bio-ekologiyalıq, morfologiyalıq ózgeshelikleri haqqında ilimiy maǵlıwmatlar keltirilgen.

**Tayanış sózler:** eki jıllıq, tamır, paqal, japıraq, gúl, miywe, tuqım, ósiw hám rawajlanıw, vegetatsiya, generativ organ.

Domalaq piyaz (*Allium sepa* L.) –Alliaceae tuqımlasına kiretuǵın bir jıllıq yamasa eki jıllıq shóp deneli baw-baqsha ósimlik. Biyikligi 60-100sm [1]. Jer astında aq túbiri boladı. Paqalı uzın, ishi gewek, orta bólimi juwanayǵan boladı. Japıraǵı uzın cilindr tárizli, ótkir ushlı ishi quwıs bolıp, paqalǵa qına menen ornalasqan. Gúlleri ápiwayı sayamanǵa toplanǵan. Miywesi shar sıyaqlı boladı. Piyaz may-iyun aylarında gúlleydi, tuqımı iyul ayında pisedi [2]. Piyaz kópshilik mámleketlerde, ĞMDA-nıń barlıq aymaǵında egiledi. Domalaq piyaz jabayı túrde ushıraspaydı. Qaraqalpaqstanda barlıq rayonlarda baw-baqsha ósimlik sıpatında har túrli sortları egiledi.

Piyaz ósimliginiń ósiw hám rawajlanıw dáwiri tómendegi mina fazalardan ibarat: tuqımniń kógeriwshenligi, náliniń kógeriwi, japıraq shıǵarıwı hám tamır jayıwı, shaqaları hám tamırlarınıń jayılwı, piyazlıqtıń payda bolıwı, top gúllerdiń payda bolıwı, güllewi, zúraát toplawı, pisip jetilisiwi.

Piyaz náli egilgennen keyingi 8-10 kúnleri kórine baslaydı, dáslepki waqıtlarda áste rawajlanadı. Birinshi ayda 4-5 haqıyqıy kishkene japıraqları payda boladı, sońınan úlken ólshemdegi vegetativ organlarınıń ósiwi tezlesedi (25 sm ge shekem), iri piyazlıqlarınıń payda bolıwı támiyinlenedi.

Qolaysız shárayatlarda, ásirese ıǵallıq jetispegende hám jer qattı bolıp qısqanda, domalaq piyazdıń japıraqlarınıń payda bolıwı hám ósiwi toqtaydı, piyazlıǵınıń payda bolıwı baslanadı, jasıl japıraqları kewip túsip qaladı. Qurǵaqshılıq tamam bolıwı menen piyazlıǵınıń payda bolıwı dawam etetuǵın bolǵanlıqtan, japıraqları qaytıp óspeydi qálpine kelmeydi, al chesnoktıń piyazdan ózgesheligi, japıraqları ósiwi múmkin. Bular kóp jıllıq piyazlarǵa da tiyisli qurǵaqshılıq japıraqlarınıń ósiwin toqtatıp qoyadı, sońınan suw berilse, olar ósiw processin dawam ettiredi.

Domalaq piyaz piyazlıǵınıń payda bolıwı hám pisiwi hám kóp jıllıq piyaz ósimliginiń shaqalawı olardıń birinshi jıl ósiwinde tamamlanadı, onnan keyin tınısh ósiw dáwiri baslanadı. Bul hár qıylı sortta hár qıylı boladı. Domalaq piyaz hám chesnokta laydan 6 ayǵa shekem, kóp jıllıq piyazlarda bir neshe hápteden ibarat boladı. Piyaz ómiriniń ekinshi jılında japıraqlarınıń ósiwi menen bir qatarda güllewshi shaqası payda boladı. Shańlanıwdan tuqım piskenge shekem 45-55 kún ketedi.

Piyazdın barlıq túrleri suwıqqa shıdamlı, olardıń tuqımları 2-3°C da ósip baslaydı, biraq optimal ósiw temperaturası 18-20° C bolıp, bunda 10-20 kúnde nálleri ósip shıǵadı. Piyaz nálleri báhárgi suwıqlarǵa shıdamlı, biraq túngi ayazǵa, ásirese 3-5°C dan tómenine júdá sezgir boladı, domalaq piyaz 1-3°C qa shekemgi suwıqqa shıdaydı. Piyaz hám chesnoktıń japıraqlarınıń jayılıwı ushın optimal temperatura 18-25°C. Piyazlıǵınıń payda bolıwı hám pisiwi ushın temperaturanıń 27-30°C qa shekemgi kóteriliwi jaǵımlı boladı, bul piyazlıq japıraqlarınan plastikalıq zatlardıń ushıp shıǵıp ketiwin támiyinleydi, olardıń pisiwin tezletedi. Tamırlar ushın optimal temperatura jer betindegi bólegine qaraǵanda tómenlew boladı. Olar hátte 2-3°C da ósip baslaydı, 20° C dan artıq temperatura olardıń ósiwin toqtatadı. Domalaq piyazdın generativ organlarınıń payda bolıwı ushın eń optimal temperatura 5-12°C. Tómen temperatura -1° +1°C hám ádewir joqarı temperatura ( 12-15°C dan joqarı) bul processti toqtatadı. Piyazdın bul ózgesheligi olardı saqlawda esapqa alınadı.

Piyazdın barlıq túri ıǵallıqtı kóp talap etetuǵın ósimlikler, domalaq piyaz vegetatsiyanıń birinshi dáwirinde japıraq aparatınıń jedel ósiwi hám hálsiz tamır sistemasına, piyazlıqtıń payda bolıwı waqtında kerek boladı. Piyazdın jetilisiw dáwirinde ıǵallıqtıń artıqsha bolıwı japıraqlarınıń túsiwin hám túyneginiń pisiwin keshletedi. Bunday piyaz saqlawǵa shıdamsız. Kóp jıllıq piyazlar pútkil vegetatsiya dáwirinde ıǵallıq talap etedi. Olar onsha uzaq dawam etpeytuǵın ıǵallanıwǵa shıdamlı boladı [3]. Piyazlardın kópshilik túri ushın kúnniń uzaq bolǵanı jaqsı, túslik sortları ushın optimal kún uzınlıǵı 13-15 saat.

Piyaz áyyemgi egin esaplanıp, onnan insan kóp mın jıllar dawamında paydalanıp kelgen. Biziń eramızǵa shekemgi 4000 jıllar aldın piyaz Aziya elleri- İran, Qıtay, İndiya, Awǵanstanda belgili boldı, kópshilik izertlewshiler olardı piyazdın watanı dep esaplaydı. Piyaz Aziyadan Egipetke, onnan Gretsiyaǵa hám Rimge ótti. Oraylıq Evropaǵa V-VI ásirlerde, Rossiyaǵa XII-XIII ásirlerde alıp kelindi. Ol barlıq jerde ósirildi hám bahalı baw-baqsha ósimligi esaplanadı.

Piyazdı kóplep óndiriwshiler-AQSh, Yaponiya, Egipet, Turtsiya, İndiya, Qıtay, Pakistan, Evropa elleri (İspaniya, İtaliya, Ruminiya, Polsha, Germaniya, Vengriya), Latin Amerikası elleri (Argentina, Braziliya). Piyaz Uzaq Shıǵısta, Orta Aziya, Kavkazda ósiriledi.

Juwmaqlap aytqanda, domalaq piyaz (*Allium sepa* l.) biziń shárayatta jaqsı ósip rawajlanadı, vegetatsiya dáwiri tolıq ótip, gúllep tuqım hám miywe beretuǵın baw-baqsha hám bahalı dárilik ósimlik esaplanadı.

#### **Paydalanılǵan ádebiyatlar:**

1. Prator O'., Shamsuvalieva L. va boshqalar. Botanika. – T.:«Ta'lim», 2010.
2. Baxiev A., Dawletmuratov S. Qaraqalpaqstanıń dárilik ósimlikleri hám olardı qollanıw//Nukus «Qaraqalpaqstan» 1986.-67-69 b
3. Ostanqulov T.E., Zuev V.İ., Qodirxo'jaev O.Q. // “Sabzavotchilik” Tashkent, 2009.10 b.

## SHARQ VA G'APB MAKTABLARIDA QADRIYATLAR TIZIMI VA AKSIOLOGIK ONG RIVOJLANISHIGA DOIR QARASHLAR

Abdunnopov Abdulatif Abdulxaq o'g'li  
Botirov Boburbek Ulug'bek o'g'li  
Farg'ona politexnika instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qadriyatlar falsafasining Sharq olamida shakllanishi, aksiologik dunyoqarash elementlarining ijtimoiy xayotdagi ahamiyati, ijtimoiy qadriyatlarning asarlarda talqin etilishi va yoshlarda aksiologik ongni rivojlantirish haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** qadriyat, ijtimoiy qadriyatlar, qadriyatshunoslik, aksiologik ong, aksiologik dunyoqarash, qadriyatli munosabat, aksiologik baho.

Bizga ma'lumki, jamiyat madaniyati ma'naviy-axloqiy qadriyatlarsiz yashay olmaydi. Bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri ma'naviy merosimizni chuqur o'rganish hamda rivojlantirishdir. Chunki mustaqillik sharofati ila milliy qadriyatlarimiz tiklanib, dunyoviy va diniy bilimlarga ega bo'lish uchun barcha imkoniyatlar eshigi ochildi.

Umumiy dunyoqarash sistemasiga aksiologik dunyoqarash elementlari qo'shilishi bilan ijtimoiy sub`ektlarning voqelikka munosabatida qadrlash tuyg'usi, qadriyatli munosabat va aksiologik baho yaqqol ko'zga tashlana boshalaydi. Bunda aksiologik printsiplar kishilarning voqelikka munosabatlarini, bir-birlariga nisbatan o'zaro aloqalarini tartibga soluvchi ma'naviy mezonlar sifatida namoyon bo'ladi. Ular kishilarning faoliyatlarini amalga oshirishdagi manfaat va maqsadlarida ham ko'zga tashlanadi.

Qadriyatlar mavzusi ko'hna va navqiron Sharq, uning tarkibiy qismi bo'lgan Markaziy Osiyo va O'zbekiston mutafakkirlari hamda olimlari uchun ham begona emas! Qadriyatshunoslik tarixining eng teran jihatlarini faqat G'arbdan emas, balki Sharqdan qidirish ham foydadan holi bo'lmasa kerak. Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Najmiddin Kubro, al-Buxoriy, at-Termiziy, Yassaviy, Ulug'bek, Behbudiy, A.Avloniy kabi mutafakkir va olimlarning ijodida ham bu mavzuning izlari bor. Gap ana shu izlarni izlab topishda, ularni unutmaslikda, yangilab turishda, zamona realliklari nuqtai nazaridan xolisona talqin qilishdadir. Qadriyatlar muammosining falsafiy-tarixiy tahlili zaminimizda yaratilgan qadimgi naqlar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarga, ya'ni xalq og'zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. Xalq og'zaki ijodida ko'proq umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlarga e'tibor berilgan, ularning mohiyati, mazmuni turlicha talqin qilingan. Spetamen, Alpomish, To'maris va Shiroq to'g'risidagi dostonlarda vatanparvarlik, xalq va yurt ozodligi uchun fidoiylilik ruhi badiiy tasvirlangan

Tarixiy tajriba, an`analarning meros bulib utishi bularning barchasi yangidan yangi avlodlarni tarbiyalaydigan kadriyatlarga aylanib kolmogi lozim.

Kadriyatlar jamiyat rivojining negizi, millatning tarixiy tarakkiyotida erishilgan yutuklarini avlodlardan avlodga utkazuvchi kudratli omildir. Tarixga nazar tashlar ekanmiz, xar bir davlat uzining tarix utmishdan kolgan milliy kadriyatlarini rivojlantirmay turib tarakkiy etmagan. Yoshlar ongida milliy va umuminsoniy kadriyatlarni shakllantirish uchun kuyidagi omillarni amalga oshirish lozim:

1. Yoshlarda mukaddas sanalgan ona Vatanga sadokat, ota-onaga xurmat tushunchalarini va tasavvurlarini kengaytirish;
2. Iymon, vijdon va burch xakida real tasavvurlarni paydo kilish;
3. Sadokat, dustlik tushunchalarini singdirish;
4. Mamlakat tarixini chukur va asosli tarzda, milliy goyaga asoslangan xolda tushuntirish.

Shu bilan birga bugungi kunda an`anaviy kadriyatlarimizni demokratik jamiyatning kadriyatlari bilan uygunlashtirish kelajakda yanada ravnak topishimizning mamlakatimiz jaxon xamjamiyatiga kushilishining garovidir.

Qadriyatshunoslik muammosi bilan bevosita shug'ullanuvchi mutaxassislar, falsafiy bilimlarning shu sohaga aloqador olim tadqiqotchilari zimmasiga nihoyatda katta vazifalar tushmoqda. Qadriyatlar omilining ta`sirchanligini oshirish, yoshlarda zamonaviy aksiologik dunyoqarashni shakllantirish borasida ya`na bir qator vazifalar bor. Qadriyatlar mavzusi bilan bog`liq muammolarni tadqiq qilish doirasini kengaytirish, uning jahon, mintaqa va respublikamizga xos namoyon bo`lib xususiyat va jihatlarini tahlil qilishni zamonaviy talablar darajasiga ko`tarish borasida aniq rejalarini ishlab chiqish va ular asosida faoliyat olib borish zarur.

Qadriyatshunoslik qonuniyatlarining mahalliy sharoitimizda qay tariqa amal qilishini namoyon qilish asosida, bu fanning istiqbollarni va samarasini ko`rsatish uchun, mustaqil ruspublikamiz jahon qadriyatshunosligi yutuqlarini keng targ`ib qiladigan qo`llanma va kitoblarni chop etishni, aksiologiyaning zamonaviy muammolariga bag`ishlangan ilmiy anjumanlar o`tkazishni yo`lga qo`yish lozim.[1.83]

M.S.Kagan asarlarida ijtimoiy qadriyatlarning o`zgacha talqini taklif qilinadi. Bir tomondan, u ijtimoiy qadriyatlarni turli siyosiy partiyalar va harakatlardan iborat bo`lgan ijtimoiy guruhlar o`rtasida hokimiyat uchun kurashdir, degan falsafiy tasavvurdan kelib chiqib talqin qiladi. Boshqa tomondan, ijtimoiy qadriyatlarni tavsiflashda muallif shundan kelib chiqadiki, ular “ijtimoiy ongning ijtimoiy-psixologik darajasida milliy fe`l-atvor, tabaqa psixologiyasi, sinfiy o`zlikni anglashning makroguruh uchun umumiy bo`lgan jihatlarini sifatida vujudga keladi va mafkuraviy darajada nazariyachilar tomonidan shakllantiriladi. [2.100].

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, jaxonda kechayotgan ma`naviy, madaniy jarayonlar yoshlarning borlik, undagi moddiy va ma`naviy ne`matlarni kadrlash tuygusini shakllantirish muxim axamiyat kasb etmokda. Bu esa yoshlarda aksiologik ongni xar tomonlama shakllantirish va rivojlantirish, qadriyatshunoslikning ijtimoiy xayotda ahamiyatli ekanligini bildiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Nazarov.K «Kadriyatlar falsafasi». T.2004 yil 83-bet.
2. Kagan M.S. Filosofskaya teoriya tsennosti - SP(b): 2005. –S. 100.

## **ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИ ҚОНУНЛАРИ ВА УЛАРНИ АНГЛАШ ЗАРУРИЯТИ**

Расулова Шоира Азизовна

ФарПИ “Ўзбекистон тарихи ва ижтимоий фанлар” кафедраси ўқитувчиси

Жамият жуда мураккаб организм бўлиб, унга хос бўлган энг муҳим хусусиятлардан бири доимий равишда ривожланиш ва тараққиёт жараёнини бошдан кечирishi билан изоҳланади. Мавжуд адабиётларда, хусусан, соҳага оид тушунчалар луғатларида “ривожланиш” тушунчасининг маъноси “табиат ва жамиятдаги қонунли ўзгариш; бир сифат ҳолатидан бошқасига, эскидан янгига ўтиш. Ривожланиш натижасида объектнинг таркиби ёки структурасининг янги сифат ҳолати вужудга келади. Ривожланиш табиат, жамият ва билиш тарихини тушунтиришнинг умумий тамойилидир”, [1;322] дея изоҳланади. Ушбу изоҳдан маълум бўладики, ривожланиш табиат, жамият ва билиш жараёнларига тааллуқли воқелик сифатида сифат ёки сон ўзгаришларини ифода этадиган тушунчадир. Шу билан бирга мазкур манбада ривожланишнинг икки шакли мавжудлиги ҳам қайд этилади: “объектнинг секин аста содир бўлувчи миқдор ўзгаришлари билан боғлиқ эволюцион ривожланиш ва объект тузилмасидаги сифат ўзгаришларидан иборат инқилобий ривожланиш. Эволюцион ривожланиш жамиятда бир тизимнинг аста - секин, кескин портлашларсиз бир сифатий асосдан иккинчи сифатий асосга ўтишини, инқилобий ривожланиш эса кескин портлаш йўли билан бир сифатий асосдан иккинчи сифатий асосга ўтишини билдиради” [1;323].

Аслида ривожланиш ва тараққиёт жараёнларини англашга қизиқиш инсониятнинг узоқ ўтмиши, яъни антик даврлардан бошлабқ муайян тоифадаги кишиларнинг эътиборини тортганлиги тафаккур тарихидан яққол кўриш мумкин. Масалан, Платон ва Аристотель асарларида “ривожланиш” ва “тараққиёт” алоҳида воқелик ёки фалсафий тушунчалар сифатида қаралмаса-да, бироқ бу жараёнларнинг воқеилик сифатидаги моҳияти уларнинг назаридан четда қолмаганлигини кўрамиз. Жумладан, уларнинг фаолият, эзгулик, интилиш, ҳаракат, сабаб, оқибат каби жараёнлар ҳақида билдирган фикрларини ўрганиш муаммога оид фалсафий хулосаларга келиш имконини беришини таъкидлашимиз мумкин. Бироқ улар умумфалсафий ва умумвоқеиликларга оид талқинлар бўлиб, уларни ҳар қандай ўзгаришга, ҳаракатга, яъни жамиятдан ташқари бўлган жараёнларга ҳам тадбиқ этиш мумкин. Антик давр мутафаккирлари назарида ушбу жараёнлар гоҳ ошқора, гоҳ яширин тарзда кечади, инсон ақлу идроки эса номаълум, яширин воқеиликларни, табиат ва жамият қонунларини излаб топиши билан қудратлидир.

Инсоннинг онгли мавжудот эканлигини англаш, ён-атрофига назар ташлайдиган, унда кечадиган ҳодисаларга асос қидирадиган бўлганлиги ва бефарқ бўла олмаслиги феноменининг шаклланиши инсоннинг ижтимоий

мавжудот сифатида ана шу ён-атрофни англаши билан боғлиқ воқеилик эканлиги ҳақида ҳам сўз юритиш имконини беради. Кишилик жамиятига хос бўлган бундай мавжуд бўлиш ва ривожланиш жиҳатлари аввало жамиятнинг имманент (ўзгармас) қонунларида акс этади.

Бунда баъзи мутахассислар собиқ иттифоқ тузумининг емирилиши ва бутунлай парчаланишидан кейинги жараёнларга тадбиқан тўрт гуруҳга ажратишиб кўрсатишади. Жумладан, табиат билан жамият ўртасидаги муносабатларнинг ривожланиш қонунларини биринчи гуруҳга киритганлар ва уларни “умумпланетар қонунлар” деб аташган [2;32]. Бу қонунларни изоҳлашда, улар моҳиятига кўра, жамият тараққиётини биосфера ва ноосфера билан боғлиқ тарзда қарашни ифода этиши нуқтаи назаридан ёндашишган. Жамият табиатнинг ажралмас қисми, у ижтимоий хусусиятлари билан ажралиб турса-да, ўзи учун зарур бўлган барча неъматларни, мавжудлик ва ривожланиши учун зарурий моддаларни аслида табиатдан олади. Моддий оламнинг бирламчилиги, ижтимоий онг ва жамиятнинг ривожланиши ана шу табиат инъомлари туфайлидир.

Бутун инсоният ва давлатчилик пайдо бўлганидан бошлаб, ҳозиргача амал қилиб келаётган қонунлар эса иккинчи гуруҳга киритилган ва улар “умуминсоний қонунлар” деб аталган. Бундай гуруҳга мансуб қонунларга "ижтимоий эҳтиёжлар билан ижтимоий манфаатларнинг ўзаро уйғунлиги қонуни, жамият моддий ҳаёти билан маънавий ҳаётининг мувофиқлиги, маънавиятнинг фаоллиги, моддий бойликларни яратиш ҳамда уларни истеъмол қилишнинг бир- бирига мутаносиблиги каби қонунлар киради"[2;33].

Кўришиб турибдики, бу ўринда асосий эътибор ижтимоий қонунларга, жамият ҳаётини ва ривожланишини белгилаб берувчи жиҳатларга қаратилган. Ваҳоланки, жамиятнинг талаб ва эҳтиёжлари умуминсоний қонунлар гуруҳига киради. Бинобарин, ижтимоий қонунлар умуминсоний характерга эга бўлиб, улар кишиларнинг талаб ва эҳтиёжлари тизимида алоҳида ўрин эгаллайди.

Учинчи гуруҳ қонунларга эса “инсониятнинг тарихий тажрибаси давомида кўпгина халқлар, миллатлар ҳаётида ўхшаш шарт шароитда айнан бир хилда амал қилган ва қилаётган қонунлар киради”, деб қаралган ва улар “умумий қонунлар” туркумини ташкил қилиши таъкидланган[2;33]. Мисол тариқасида бозор иқтисодиёти, талаб ва таклиф, рақобат, инфляция қонунлари ана шу гуруҳдаги қонунлар эканлиги уқтирилган.

Тўртинчи гуруҳни “жузъий қонунлар” ташкил этиши таъкидланган ва ушбу ўринда “Муайян жамият ривожланишининг аниқ бир босқичлари, ҳолати тўғрисида тўлиқ тасаввур ҳосил қилиш учун умуминсоний ва умумий қонунларни билишнинг ўзи етарли эмас, чунки муайян бир жамиятни, ундаги ҳодиса ва жараёнларнинг мазмун моҳиятини билиш аввало, жузъий қонунларни билишни такозо этади”, дея алоҳида урғу берилган[2;33].

Жамият тараққиёти қонунларини таҳлил қилиш энг аввало уларда инсон манфаатлари устиворлиги акс этганлигини кўрсатади. Шундай экан, жамият

тараққиёти билан инсоний манфаатлар ўртасидаги диалектик боғлиқликни англаш, илмий билиш ва изоҳлаш ҳар бир давр ва босқичда турлича бўлган бўлса-да, жуда муҳим аҳамият касб этган. Фақат бунда инсон билимларининг чекланганлиги жамият ҳаёти ва тараққиётини, унинг ички зиддиятлари ва тўқнашувларини, пировардида эса ривожланиш қонунларини объектив билишга, очиқ беришга имкон беравермаган. Баъзи ҳолларда жамиятнинг объективлик билан бирга субъективликнинг бирлигидан иборат ҳодиса эканлиги “ўз кучини кўрсатган”, яъни айрим субъектив мотивлар ҳам бунга халақит қилган ҳолда имкон бермаган. Аммо О.Конт ҳақи равишда назарда тутганидек, “позитив билим” қанчалик объектив, рационал бўлмасин, улар ҳам чекланганлигини ҳеч қачон эсдан чиқариб бўлмайди. Шундай экан, айрим ҳолларда инсон ўй-хаёли, орзу-ниятларини кенгайтирувчи гносеологик хусусиятлардан ҳам рационал фойдаланиш, жамият тараққиётини башорат қилишга ёрдам берувчи баъзи фаразларга ҳам таяниш мумкин бўлади. Бу эса ўз навбатида жамият тараққиётининг қонунлари ҳақидаги қарашларни фақат рационал билимлардангина иборат деб, уларни мутлоқлаштириш ўринли эмаслигини кўрсатади. Зеро, ҳар қандай назарий фалсафий қараш, субъектив воқеилик сифатида, объектдан узоқлашган, ўй, хаёлда шаклланган, гоҳо эса рационалга зид фараз бўлиши ҳам табиий ҳолдир. Бу эса билиш объекти жамият ва унинг тараққиёти бўлган ижтимоий билиш учун ҳам тегишлидир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7-жилд. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2004.
2. Holmirzaev, N. National experience in the formation of working culture. *Ekonomika i sotsium*, 2019 - [elibrary.ru](http://elibrary.ru) №-4, 41-42 <https://elibrary.ru/item.asp?id=38594995>
3. Azimov Ulugbek Abdukhalilovich, Nematjohnova Sadokat Karimovna Mechanisms of formation of axiological understanding of the youth in the civil society // *Проблемы Науки*. 2019. №12-2 (145). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mechanisms-of-formation-of-axiological-understanding-of-the-youth-in-the-civil-society> (дата обращения: 28.05.2021).
4. Азимов Улугбек Абдухалилович, Умурзаков Ахмаджон Махаматович, Абдурахмонов Гайратжон Зокирович Духовное мировоззрение и его влияние на национальные ценности // *Вестник науки и образования*. 2019. №19-3 (73). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/duhovnoe-mirovozzrenie-i-ego-vliyanie-na-natsionalnye-tsennosti> (дата обращения: 28.05.2021).

## **QISHLOQ XO‘JALIGIDA NOANANAVIY ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANIB ELEKTR TA‘MINOTI ISHONCHLILIGINI OSHIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH**

Jumayev Axrom Asror o‘g‘li  
Amrullayev Behzod Boburovich

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti  
Buxoro filiali

**Annotatsiya:** Ushbu maqola qishloq xo‘jaligida noanaviy energiya manbalaridan foydalanib elektr ta‘minotining ishonchliligini oshirish bag‘ishlangan qisqacha ma‘lumot keltirilgan. Dunyo mamalatlari energetikasining yoqilg‘i resurlarini o‘rganib chiqib, O‘zbekistonda mavjud noan‘anaviy energiya manbalari qarab chiqilgan. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo‘yicha O‘zbekistonda bajarlayotgan loyihalar tahlil qilingan. Hozirgi kunda noanaviy elektr manbalaridan foydalanib qishloq xo‘jaligida elektr ta‘minotining ishonchlilik darajasini o‘rganishga qaratilgan tadbirlar taklif qilingan.


**Kalit so‘zlar:** Quyosh energiyasi; noanaviy energiya; biomassa energiyasi; gidroenergetika.

Bugungi kunda insoniyat oldida kelajak avlodlar uchun atrof-muhitni toza holda saqlab qolish muammosi turibdi. Buning uchun organik yoqilg‘ilardan foydalanib ishlab chiqariladigan energiya miqdorini kamaytirish hamda ekologik toza energiya ishlab chiqarishdan iboratdir. Shuning uchun dunyo mamlakatlarida qaytalanuvchi energiya manbalaridan foydalanib toza ekologik energiya ishlab chiqarishga qiziqish taborooshib bormoqda. Hozirgi kunda asosan quyidagi qaytalanuvchi energiya manbalaridan foydalanib energiya ishlab chiqarilmoqda:

- Quyosh energiyasi;
- Shamol energiyasi;
- Gidro energetika (o‘rta-, kichik- va mikro gidroenergetika);
- to‘lqinlar energiyasi;
- suv sathlarinig ko‘tarilib-tushish energiyasi;
- geotermal suvlar va geyzerlar energiyasi;
- biomassa energiyasi.

Hozirgi kunda jamiyatning rivojlanishini uning energiya bilan ta‘minlanganligi belgilaydi.

Ammo energiya iste‘molining kundan-kunga oshib borishi hamda uni ishlab chiqarish uchun organik yoqilg‘ilardan foydalanish, atrof-muhitni global ifloslanishiga olib kelmoqda va natijada insoniyat hayotiga jiddiy xavf solmoqda.




1-rasm. Respublikamizda organik yoqilg'ilar va suv energiyasidan ishlab chiqarilayotgan elektroenergiyaning miqdori (%).

Respublikamizda bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan elektroenergiyaning 84,7% organik yoqilg'ilardan foydalanadigan issiqlik elektrostansiyalarida ishlab chiqariladi. Umumiy ishlab chiqariladigan energiyaga nisbatan atigi 14,5% elektroenergiya GESlar yordamida ishlab chiqariladi (1-rasm). Kelajakda O'zbekiston Respublikasida qaytatiklanuvchi energiya manbalaridan quyidagi miqdorda foydalaniladi (2-rasm) [1,2]:

- ◆ quyosh energiyasidan 98,8 % ;
- ◆ gidro energetikadan 1,0 % ;
- ◆ shamol energiyasidan 0,2 %.

Quyida jadvalda O'zbekiston Respublikasi hududidagi eng muhim qaytatiklanuvchi energiya manbalarining turlari va miqdorlari keltirilgan.




2-rasm. O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarining texnik imkoniyatlari sxemasi.

O'zbekiston Respublikasi hududidagi eng muhim qayta tiklanuvchi energiya manbalarining turlari va miqdorlari (mln.t.n. e.) . Jadval.

Qaytalanuvchi energiya manbalari	Yalpi potensial	Texnik potensial	O'zlashtirilgan

turlari	mln.t.n.e	MVt.s	Mln n.e	MVt.s	Mln.t. n.e	MVt.s
Quyosh energiyasi	50973	592,9x109	176,8	2,08x109	-	-
SHamol energiyasi	2,2	25,6 x106	0,4	4,7x106	-	-
Gidro energiya	9,2	107x106	1,8	21 x106	0,6	7x106
Biomasslarenergiyasi	10,8	125,7x106	4,7	54,7 x106	-	-
Geotermal suv energiyasi	0,4	4,7x106	-	-	-	-
<b>JAMI</b>	<b>50984,6</b>	<b>593x109</b>	<b>179,0</b>	<b>2,1x109</b>	<b>0,6</b>	<b>7x106</b>

Hozirgi kunda O‘zbekistonda qaytalanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo‘yicha juda ko‘p ilmiy-tadqiqot, loyiha hamda quribishga ushishishlari xalqaro grantlar va loyihalar asosida bajarilmoqda [2](3-rasm).



3-rasm. Qaytalanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo‘yicha O‘zbekistonda bajarilayotgan loyihalar.

#### Адабиётлар рўйхати:

1. O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirish istiqbollari. YUNDP, Toshkent, 2007. –92 bet.
2. Majidov T.SH. Noana’naviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalari Toshkent, 2014. –177bet.
3. Петин В. А. П29 Проекты с использованием контроллера Arduino. — СПб: БХВ-Петербург, 2014. — 400 с.: ил. — (Электроника) ISBN 978-5-9775-3337-

## ТИЗИМЛИ ЁНДАШУВНИНГ ЗАМОНАВИЙ ФАНЛАРДАГИ ЎРНИ

Умурзақов Ахмаджон Махаммадович  
Фарғона политехника институти ўқитувчиси

Ҳозирги постноклассик фанда “тузилма” тушунчаси “тизим” ва “фанлараролик” тушунчалари билан боғлиқ деб қаралади. Функция – бу биринчи навбатда айрим компонент (таркибий қисм нинг жами хўжалик тизими эҳтиёжларига, яъни ўз вазифвларига қараганда юксакроқ ташктийлик даражаси ёки манфаатларига нисбатан бажарадиган роли ҳисобланади. Бунда яққол ва яширин (латент) функциялар бўлишини айтиб ўтиш лозим. Яширин функциялар фақат вақт ўтиши билан юзага чиқади ва у ёки бу даржада шу фаолият тадқиқотчи олимнинг эълон қилнган ният – истакларига қараб ажралиб туради. Бундан ташқари, функция дейилганда тизим доирасида турли жараёнлар ўртасида мажбур бўлган боғланишлар ҳам англаниши мумкин. Бизнинг назаримизда, табиатшунослик фанлари бағрида худди шу яширин функциялар орқали фанлараро ёндажувлар ривожининг янада юксакроқ шакли синергетик ёндашув камол топди ва ўзининг асил маҳмунига эга бўлди. Тизимли шархлаш постноклассик фаннинг турли илмий билиш стандартларини, алоҳида ва хусусий муаммоларини таҳлилдан ўтказишда тизимли ёндашувни қўллашни назарда тутди. Бунда тадқиқотчи постноклассик фан талабини бошқа, илгари мавжуд бўлган талабларга таққослаш орқали унинг моҳиятини ва мазмунини англаб етишга, алоқаларнинг хусусиятини аниқлашга алоҳида эътибор беради.

Тизимли ёндашув эски ва янги билимларда мавжуд камчиликлар ва зиддияларни (қарама-қаршиликларни) аниқлаш ва бартараф этишга, шунингдек илмий ҳамжамият томонидан расман бекор қилинмаган, аммо эски илмий муомалада йўқолгани туфайли амал қилмай қўйган догматик билимлардан тозалашга қўмақлашади.

Тизим ўзини қайта қуриб, янги ташкилий даражада вужудга келиши учун оз миқдорда энергия билан таъсир кўрсатиш кифоядир. Л.Берталанфий фикрича, “тизимли ёндашувгина турли – туман ҳисси муаммоларни бирлаштириш (интеграллаштириш) уларни ягона умуммахражга келтириш ва шу йўл билан энг мураккаб турли-туман муаммолар гуруҳини ягона муаммо тарзида намоён қилишга имкон беради”[1]. Бу ягона муаммо мураккаблиги айрим хусусий муаммолар аралашмаларининг тўплами мураккаблигидан кам бўлмайди, бироқ бу ягона, ҳамма жиҳатларни қамровчи бўлади. Тизимли ёндошув – тизимдан ташқарида бўлганда унчалик боғланмагандек, ёки мутлақо боғланмагандек кўринган объектлар, жараёнлар, ҳодисалар асосидаги асос бўлувчи интегратив “бирлаштирувчи” ягона сифатни топишга имкон беради.

Тизим ҳақидаги таълимот бу нуқтаи назардан қуйидаги тадқиқотларда асқотиши мумкин.

- Билиш ва фаолиятнинг турли соҳаларига тегишли масалаларнинг бир тарзи илгари суриш ва ечишнинг концептуал асосини яратишга;
- Дастлабки ҳолатда қўйиш анча аниқсизликка эга бўлган муаммоларнинг умумий методологиясини белгилаш;
- Вазият, ўзаро таъсир, мақсад сари йўналганлик, мураккаблик, тараққиёт сингари категориясини тадқиқ қилиш;
- Омиллар, категориялар ва бутунча миқдорий бериш аппаратини ишлаб чиқиш;
- Унчалик аниқ бўлмаган шароитларда катта масштабдаги ноаниқ масалаларни ҳар қилиш техникасини белгилаш имконини беради;

Шу нуқтаи назардан қараганда умуман фанда тизимли ёндошувнинг барқ уриб ривожланиши, нафақат табиат ва жамият воқеиликларнинг тизимли ташкил топишида балки табиат ва жамиятни ўзлаштириш ва ўзгартиришда мақсадга мувофиқлик, бир бутунлик тизимли интегратив (бирлаштирувчи) характер касб этиб бераётганлиги билан ифодаланadi. Бу эдни замонавий амалий эҳтиёждир. Бу гапларни бизнинг бозор иқтисодиёти муносабатларига асосланиб, Жаҳон цивилизациясида ўз ўрнини топишга йўл олган мустақил Ўзбекистондаги жараёнлар учун алоҳида уқтириш мумкин. Бизнинг замонамизда техника, технология муносабатлари иқтисодий, маънавий, ижтимоий ва сиёсий ҳодисаларнинг, ҳатто ижтимоий психологик, ижтимоий-маънавий муносабатларининг тобора интеграллашиб бориши кузатилмоқда. Умуминсоният башарият миқёсида барча жараёнларнинг глобаллашуви экологик, озик-овқат, сихат-саломатликни сақлаш, маънавий-моддий кадриятларни миллий умуминсоний муаммолар иштирокчилиги масалалари тараққиёти ана шу руҳда рўй бермоқда.

Фалсафа фан табиатшунослик бу муаммоларни баён этиш ва ечишга уринишда ўз-ўзидан шу вазият намоён бўлмоқда. Инсон ва инсон, инсон ва жамият, давлат ва давлат, миллат ва миллат ниҳоясида жамият ва табиат муносабатлари шу жараёнлар ифодасидир.

“Тизимли ёндошув фан тараққиёти унинг тушунчалар аппаратини такомиллаштириш математикани жорий этиш, автоматлаштирилган бошқариш тизимларини яратишнинг асос базасидир”[2]. деб ёзади Р.Л.Аков. шунинг учун ҳам тадқиқодчиларнинг тизимнинг қайси характеристикаси қайси параметрини тадқиқ қилсалар, ўша жиҳатидан келиб чиққан ҳолда таъриф берадилар. Агар тизимли ёндошувнинг илгари сурилган таърифларидан умумлаштириб гапирилса, тизим бу бирор тарзда ўзаро таъсирлашаётган компонентларнинг йиғиндиси комплексидир.

Хуллас, тизимни таҳлил этиш, унинг таркибидаги унсурларини ўзаро муносабатлари ва алоқалари орасидан тизим ҳосил қилувчилари тизимга яхлитликни бахш этади. Ҳар қандай тизим уни ўраб олган муҳит билан бирга мавжуд.

**Фойдаланилган манбалар ва дабиётлар рўйхати:**

1. Берталанфий Л. Фон История и синтез общее теории систем. В кн: Системные исследования. Ежегодник 1973. М.: Наука. 1973 й., 20-37 ст
2. Аков Р.Л. Системы организация и междисциплинарные исследования. Исследования по общей теории систем М. 1969 134-164 ст.
3. Усмонова Мухтасар Акбаровна, Расулова Шоира Азизовна Влияние темперамента на деятельность и поведение человека // Вестник науки и образования. 2019. №19-3 (73). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-temperamenta-na-deyatelnost-i-povedenie-cheloveka>(дата обращения: 28.05.2021).
4. Азимов Улугбек Абдухалилович, Умурзаков Ахмаджон Махаматович, Абдурахмонов Гайратжон Зокирович Духовное мировоззрение и его влияние на национальные ценности // Вестник науки и образования. 2019. №19-3 (73). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/duhovnoe-mirovozzrenie-i-ego-vliyanie-na-natsionalnye-tsennosti> (дата обращения: 28.05.2021).
5. Олтмишева Насибaxon Гуламжоновна, Мамаюнусова Матлюба Исмаиловна Особенности формирования личности // Проблемы Науки. 2020. №1 (146). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-formirovaniya-lichnosti> (дата обращения: 31.05.2021).
6. Хосилов Мислиддин Шарипович Психологические особенности развития мотивации студентов в достижении успеха в образовательном процессе // Проблемы Науки. 2019. №12-2 (145). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/psihologicheskie-osobennosti-razvitiya-motivatsii-studentov-v-dostizhenii-uspeha-v-obrazovatelnom-protssesse> (дата обращения: 28.05.2021).

## **ЎРТА ОСИЁДА КАНДАКОРЛИК, МИСГАРЛИК ВА ХАЛҚ АМАЛИЙ САНЪАТИ ТАРАҚҚИЁТИ**

Довидова Гулноз Мирзакаримовна

Фарғона имконияти чекланган шахслар учун ихтисослаштирилган касб-хунар  
мактаби Тарих фани ўқитувчиси

**Аннотация:** Мақолада Ўрта Осиёда кандакорлик, мисгарлик ва халқ амалий санъати тараққиёти босқичларига оид тарихий маълумотлар баён этилган

**Калит сўзлар:** кандакорлик, меҳроб, қошин, ғишт, нимғишт, нақш

Ўзбек халқ амалий безак санъатининг энг кенг тарқалган турларидан бири кандакорликдир. Кандакорлик деганда металлдан ясалган бадий буюмларга ўйиб ёки бўртик қилиб нақш ишлаш тушунилади. Ўзбекистон худудида жойлашган Ўрта Осиё шаҳарларида металлдан ясалган бадий буюмлар ишлаб чиқариш қадимдан ривожланиб келаётган санъат бўлиб, бу санъат ўзининг қадимийлиги билан кулолчиликдан кейин иккинчи ўринда туради. Савдо-сотикда қадимдан кандакорлик буюмларига талаб катта бўлган. Бу асарлар рамзий ифодаларнинг янги услублари ҳамда ғояларини тарқатиш манбаи бўлиб хизмат қилган. Маҳаллий санъат асарлари қўшни мамлакатлар санъатининг энг яхши ютуқлари билан бойиб борган. Қадимда буюм яшаш урф бўлиб қолган. Маҳаллий усталар олтин, кумуш, жез, мис ва бошқа металллардан ҳар хил буюмлар ясаганлар. Қадимги ва илк ўрта аср кандакорлиги асосан кумуш буюмларда ўз ифодасини топди.

XVI-XVIII асрнинг бошларида Ўрта Осиёда хўжаликнинг турғунлик даври бўлди. Чунки ички нотинчликлар ишлаб чиқаришда ва савдога катта таъсир этди. Ҳунармандчилик буюмлари ишлаб чиқариш тўхтади, лекин қурол-яроғлар ишлаш ва уни безаги янада ривож топди. Бухоро, Хива, Самарқанд ва Фарғона водийларидаги шаҳарлар аслаҳа ва жанг кийимлари тайёрлайдиган асосий марказлар ҳисобланган. Амир ҳамда саркардалар учун мўлжаллаб ясалган қалқонлар, шамширлар, дубулғалар, ойболталар, энли камарлар, ханжарлар, ўйма нақшлар, қимматбаҳо металл ва ранг-баранг тошлар билан безатилган. Кейинчалик эса учта марказлаштирилган давлат Бухоро, Қўқон ва Хива хонликлари ташкил этилиб хўжалик ишлари қайта тиклана бошлади. Ҳунармандчилик аста ривожлана бошлади.

XVIII-XX асрларда кандакорлик яхши ривожланган бўлиб, Бухоро, Қўқон, Хива, Самарқанд, Шаҳрисабз, Қарши ҳамда Тошкент шаҳарлари кандакорлик буюмлари чиқариладиган марказлар бўлган. Бой хонадонлари нақш туширилган идишлар билан безатилган. Улар хонадон соҳибининг давлатмандлигини намойиш қилиб турган. XIX аср ўрталарида вопурушлар пайдо бўлган. Фарғона водийсида дўкондор Бухоро ва Тошкентда эса вопуруш (олиб-сотар)лар деб юритилади. XIX аср ўрталаридан бошлаб вопурушлар ҳунармандлардан

буюмларни арзон баҳоларга сотиб олар эдилар. Уларни савдогарларга оширилган нархда ўтказганлар ёки бозорларга олиб бориб сотганлар. Улар халқ амалий санъати усталарининг тайёрлаган гилам, офтоба, қутича, қилич, ҳар хил идиш ва бошқаларини халққа етказиб беришда «Савдо воситачилари» ролини ўйнаганлар. Ўрта Осиёнинг Россияга қўшилиши фабрика молларини келиши ва уни шу ерда ишлаб чиқарилиши маҳаллий хунармандчилар ишига жиддий таъсир этди. Шунинг учун ҳам хунармандлар талабига бўлган эҳтиёж пасайиб кетди.

XIX аср охирига келиб кандакорлик буюмларини ясаш ва безаш буйича ҳар бир шаҳар, вилоят учун ўзига хос миллий характерга эга бўлган мактаблар очилди. Бу даврда ҳаттоки ҳар бир кандакорнинг ўзига хос услуби ва мактаби бўлиб у узи безаган идишларининг шакли ва орнаментлари билан бошқалардан фарқ қилган. Кандакорлик техникасининг ўзига хос маҳаллий хусусияти биринчидан, зарбанинг чуқур ёки юзалигида, иккинчидан, нақшлар сирти ва заминнинг безагига қўлланиладиган усуллардан иборатлигидир. Буни турли туман ва вилоятлардаги металл буюмларининг барча белгиларини ўзаро солиштириб аниқлаш мумкин. Бу буюмларнинг нафосатлигига, гўзаллигига, умумийлигига эга бўлган мактаблар вужудга келган. Қуйида шу мактаблар кандакорлиги билан танишиб чиқамиз.

Бухоро кандакорлик идишлари содда ҳамда сиполиги билан фарқ қилган. Чекма ҳамда катак билан техник усулларни ишлаш жуда кенг қўлланилди. Мис буюмларининг замини кесма услуб билан безатилиб, сирти қалай билан қопланган ҳоллардагина заминга чекма гуллар ўйилган. Чекма бу, ҳар хил катта ва кичик нукталар зарб қилинган нақш замини ва гулнинг сиртини жимжимадор қилиб безатиладиган усул. Чекма чекув қалам асбоби билан бажарилади. Бухоро мис буюмларидаги нақшлар меъморчилик мотивига хос бўлиб, аниқ ва ёрқин тасвирланган. Улар меҳроб, қошин, ғишт, нимғишт ва бошқа нақшларни ишлатганлар. Кейинчалик XIX ва XX аср бошларида қадимий ёзувларни нақшга қўшиб безатиладиган бўлди. Кандакорлар мис буюмларига араб ёзувини ўсимлик нақшига ўхшатиб зарб қилдилар. Бу ҳам ўзига хос нафис ва бадиий кўриниш беради. Бухоро усталари ичида «минокорий» номли бўяш услуби машҳур сирли ранг «эмални» мисга гул қилиб солиш мумкинлигини исботлаб берди. Бухоро кандакорлик мактаби намояндалари Шоди Муҳаммед Баротбой, уста Шариф, Салоҳиддин, Ҳаким Бухорий, Дўстмуҳамедов, Фани, уста Ғулом, Муҳаммадризо, Олим Абдусаломов, Ғулом Хасанов, Облоёр Йўлдошев, Уста Беги, Норсолихов, Мукаррамов, Мухтор Мухсинов, Кори Шариф, уста Ҳамид ва Ғулом, Абдусалом, Ахмаджон, Сулаймон, Салимжон Ҳамидовлардир.

Тошкент XVIII асрнинг охирларида Ўрта Осиёнинг йирик шаҳарларидан бири бўлиб, унинг Афғонистон, Хитой ва Россия давлатлари билан савдо алоқаси жуда яхши бўлган. Россиядан мис, темир, кумуш сотиб олинарди. Тошкентни Россия босиб олгандан сўнг у йирик шаҳарга айланди. Шаҳарда хунармандлар маҳаллалари барпо бўлди.

**Адабиётлар**

1. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Т.:Мехнат 1991. Б.271
2. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Т.:Мехнат 1991. Б.272
3. Ўзбекистон халқ санъати. Тошкент. 1979. Б. 68
4. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Т.:Мехнат 1991. Б.279
5. Азимов И. Ўзбекистоннинг нақшу нигоралари. Тошкент. 1987. Б.87
6. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Т.:Мехнат 1991. Б.280
7. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Т.:Мехнат 1991. Б.280
8. Akbar Hakimov. Toshkentning An'anaviy hunarmandchiligi. Moziydan sado. 2009. №2
9. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Т.:Мехнат 1991. Б.280

## BERUNIY ME'ROSINI PEDAGOGIK O'RGANISH


Azizova Nilufar Abdupattayevna

Farg'ona imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabi  
Matematika fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada alloma Abu rayhon Beruniy me'rosida matematika faninini o'rganishning bugungi kun pedagogik ahamiyati taxlil qilingan

**Kalit so'zlar:** Beruniy, fizika, matematika, radius,

**Beruniy Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad** (973.4.9, qad. Kot (Kat) sh. — 1048.11.12. [G'azna](#) (hoz. Afg'onistonda) — ulug' o'zbek mutafakkir olimi, o'rta asrning buyuk daholaridan. O'z zamonasining hamma fanlarini, birinchi navbatda falakiyot ([astronomiya](#)), fizika, riyoziyot (mat.), ilohiyot, ma'danshunoslik fanlarini puxta egallagan. Bu fanlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan uning nomi [dunyo](#) fanining buyuk siymolari qatoridan joy oldi. Uning naslnasabida «berun» so'zi «tashqi shahar», «Beruniy» esa «tashqi shaharda yashovchi kishi» ma'nosini bildiradi.



Alloma Abu Rayhon Beruniy asarlarini o'rganganimizda bugungi kun matematika fanini o'rganishdagi ahamiyati katta ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Quyida Abu Rayhon Beruniyning ikkita masalasini keltirib o'tamiz.

**1-masala:** Olimlar uzoq zamonlardan oq yerni shar shaklida ekanligi haqida fikr bildirishgan va uning radiusini aniqlash bilan shug'illanishgan. Shulardan biri – yunon olimi Eratosfen bo'lgan. Uning hisoblariga ko'ra Yer radiusi 6311 kilometr.

Keyinchalik ham olimlar yer radiusini aniqroq hisoblash borasida turli usullarni qo'llaganlar. Ular olgan natijalar bir –biridan katta farq qilardi. Beruniyning o'zi ham mustaqil ravishda yer radiusini aniqlash borasida izlanishlar olib borib, yangi usul ishlab chiqdi. Abu Rayhon Beruniy Hindistonda bo'lganda Nandna qal'asi yaqinidagi to'da o'lchash ishlarini olib bordi. “Tog' atrofi keng dengiz sirti kabi telis edi”, - deb yozadi Beruniy. Olim tog'ning tepasiga chiqib yer bilan osmonning qo'shilgan joyini, ya'ni gorizont chizig'ini topadi va gorizontning pasayish burchagini usturlob yordamida aniqlaydi. Shakildagi B nuqtaning holatini aniqlash uchun olim yozadi: “Dengizda yoki sahroda shunday nuqtani topish kerakki, tog'dan quyoshning botishini quyosh gardishining yarmi g'oyib bo'lguncha kuzatish kerak”. Yer shari radiusini aniqlashning Beruniy taklif qilgan usuli sodda va chiroyli geometric mulohazalarga asoslangan.


Chindan ham, tog'ning balandligi  $MA=H$ ,  $\angle BAD=\alpha$  deylik. Beruniy ayni shu kattaliklarni o'lchagan.  $BC=R$ -yer radiusi bolsin  $AB \perp BC$  bo'lishi ma'lum, demak, uchburchak ABC – to'g'ri burchakli.  $\angle ACB = \angle BAD = \alpha$ , chunki bu burchaklarni tashkil qiluvchi tomonlar o'zaro perpendikulyar.

U holda ACB uchburchakdan  $\cos\alpha = \frac{BC}{AC}$ , ammo  $BC = R$ ,  $AC=R+H$  bo'lgani

uchun  $\cos\alpha = \frac{R}{R+H}$  bo'ladi. Bundan esa yer radiusini aniqlashga doir beruniy topgan

ushbu  $R = \frac{H \cos\alpha}{1 - \cos\alpha}$  formulani – yer radiusini aniqlashning Beruniy formulasini hosil

qilamiz. Bu formulaga ko'ra Beruniy yer radiusini  $R=6399,58$  km ekanini topadi. Hozirgi, zamonaviy usullarda hisoblash natijasida  $R=6371,11$  km ekani ko'rsatiladi. farqi 28,47 km, bu esa atigi 0.4 foizni tashkil etadi.



8-rasm

**2-masala**(Quduqning chuqurligini topish): buning uchun DC kesmaning davomidagi C va M nuqtalarda turib, usturlob yordamida  $\alpha$  va  $\beta$  burchaklar aniqlanadi. MC kesma ham o'lchanadi:  $MC=h$ . to'g'ri burchakli  $\triangle ADM$  dan:

$ctg\beta = \frac{MD}{AD}$ , bundan  $MD = AD \cdot ctg\beta$ . Shuningdek, to'g'ri burchakli  $\triangle ADC$  dan:  
 $ctg\alpha = \frac{CD}{AD}$ , bundan  $CD = AD \cdot ctg\alpha$ . Quduqning chuqurligini  $H$  desak,  $CD=H$ .

Ammo  $h = MD - DC = AD \cdot ctg\beta - AD \cdot ctg\alpha = AD \cdot (ctg\beta - ctg\alpha)$ ,  $AD = \frac{h}{ctg\beta - ctg\alpha}$  va

$AD = \frac{CD}{ctg\alpha} = \frac{H}{ctg\alpha}$ . Ad ning topilgan ikki ifodasini o'zaro tenglab, quduqning

chuqurligini  $H = \frac{h \cdot ctg\alpha}{ctg\beta - ctg\alpha}$  ekani topiladi.

### Адабиётлар

1. Turayeva M. Y., Allaberganova M. R. matematika darslarida tarixiy bilim berish bilan o'quvchilarda o'zlikni anglash hissini tarbiyalash //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 49-50.
2. Ravshanbekovna A. K. Xalq pedagogikasi vositasida o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. II.
3. Davlatova H. D., Davlatova N. D. Ta'lim va tarbiya berishda innovatsion yondashuv //Интернаука. – 2020. – №. 20-4. – С. 50-51.

## **DARSLARDA KOMPYUTER DASTURLARINI QO‘LLASHNING AHAMIYATI VA ROLI**

Dexqonboyeva Saltanat  
Norboyeva Baxtiniso  
JDPI

**Annotatsiya:** Maqolada, bugungi axborot texnologiyalar davrida barcha darslarni, shu jumladan texnologiya darslarini axborot texnologiyalari, zamonaviy kompyuter dasturlari va multimediya imkoniyatlaridan foydalanib darslarni tashkil qilish hamda uning afzallik tomonlari haqida yoritib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Innovatsion texnologiya, pedagogik texnologiya, multimediya, kompyuter dasturlari, 3di max, Power Point, motivatsiya.

Jamiyatimizda rivojlanishining chuqur iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar ro‘y berayotgan hozirgi bosqichida o‘quvchilarga ta‘lim-tarbiya berish sifatini oshirish yo‘llari va vositalarini izlab topish zamonaviy pedagogikaning asosiy dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Mamlakatimizda ta‘lim tizimiga davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan harakatlar strategiyasida ta‘lim tizimini qayta ko‘rib chiqish va uni yanada takomillashtirish vazifasi belgilab berildi. Bu muammolarni to‘laqonli hal etishda o‘qituvchi – pedagoglarning intellektual salohiyati va kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham qilinayotgan ishlarni pedagogik tahlil qilish ta‘lim – tarbiya jarayonlari darslarni o‘tish samaradorligini taminlash zaruriyati kelib chiqadi. Jamiyatimiz, xususan xalq ta‘lim tizimini informatizatsiyalashtirish va kompyuterlashtirish jarayonlari qator muammolarni hal qilish va ularni muayyan faoliyat sohasida amalga oshirish bir qator o‘ziga xos talab va sharoitlarga bog‘liq bo‘ladi. Jumladan ta‘lim tizimida ham yangi informatsion texnologiyalarni – kompyuter va uning asosida ishlaydigan tizimlarni joriy qilish hamda ularni qo‘llash tizimini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Shu munosabat bilan o‘quv jarayoniga kompyuter va uning asosida ishlaydigan tizimlarni dars jarayonida qo‘llash lozim bo‘ladi. Negaki bugungi kunda hamma hujjatlar, darslar, onlain tizim orqali bo‘lmoqda shuning uchun informatsion muhitni dars jarayonida shakillantirish kerak. Har bir pedagog, bo‘lajak o‘qituvchi va albatta o‘quvchilar ham kompyuterda ishlash, hamda kompyuter qurilmalari orqali darsni o‘tishni rivojlantirish lozim bo‘ladi. Darsni kompyuter va u orqali ishlaydigan tizimlar yordamida o‘tish bu dars samaradorligini oshiradi. Birinchi holatda: Bilim va ko‘nikmalar o‘zlashtirish jarayonida kompyuterni imkoniyatlarini anglash kompyuter savodxonligini oshirishdan iborat. Ikkinchi holatda: Kompyuterning o‘qitishni samaradorligini oshiradigan va jadallashtiradigan kuchli dastur hisoblanadi. Bugungi kunda har bir pedagog va o‘quvchilarni kompyuter savodxonligi yaxshi rivojlangan bo‘lishi kerak.

Zamonaviy texnologiyalari (electron pochta, internet, Web texnologiya multimediya texnologiya, masofaviy o'qitish va boshqalar o'quv jarayonida foydalanish ularning ilmiy metodik asoslarini chuqur o'rganishni talab etadi. Jumladan bu jarayonga "inson-kompyuter" tizimi sifatida qarash bir qator o'z yechimini kutayotgan muammolarni keltirib chiqaradi. Bu tizimda boshqa har qanday tizimdagi kabi boshqaruvchi va boshqariluvchi ob'ektlar bo'lib, ular orasida to'g'ri va teskari aloqalar mavjuddir. Ushbu tizimga yangi ob'yekt sifatida kiritilgan va axborot texnologiyasining asosini tashkil etgan zamonaviy kompyuter o'quv jarayonidagi aloqalarni o'z tasirini o'tkazadi, bu esa o'z navbatida ta'lim berish metodida ma'lum o'zgarishlarga olib keladi. Hozirgi paytda texnologik ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga talabalarni axborot va kompyuter texnologiyalarining qo'llanilishi sohalari bilan tanishtiruvchi "Informatika va axborotlar texnologiyasi" "Internet tizimi" kabi fanlar kiritilgan Amaliyot shuni ko'rsatmoqdagi axborot va kompyuter texnologiyalarining keng taraqqiyotga qaramay, ularda bo'lajak texnologiya ta'limi o'qtuvchilarini tayyorlash jarayonida foydalanish uchun zaruriy nazariy va amaliy yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Ta'limda axborot texnologiyasi – bu qo'yilgan ta'limiy maqsadlarga erishishga imkon beradigan, nazariy asoslangan ta'lim jarayonini amalga oshirishning shakl,metod va vositalarining yig'indisidir. Bunda u tegishli ilmiy modellashtirishga (loyihalashtirishga) tayanadi, bu jaryayonda ushbu maqsadlar bir

Xulosa qilib aytganda, texnologiya mashg'ulotlarida va darslarida dars sifatini va samaradorligi oshirish sifatida bundan tashqari o'quvchini darsga bo'lgan qiziqishini ortirish sifatida zamonaviy kampyuter dasturlaridan foydalanish, psixologik – pedagogik bilimlar asosida o'quv – tarbiyaviy faoliyatni to'g'ri tashkillashtirishga imkon yaratadi. Bundan tashqari texnologiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish:

- O'quvchilarning idrok qilish faoliyatini rivojlantiradi va o'quv jarayonini faollashtiradi;
- Bilim va ko'nikmalarni mustahkamlaydi;
- Qisqa vaqtda katta hajmdagi ishlar bajariladi;
- O'quvchilar nazariy bilimlarini tekshirish jarayonini tezlashtiradi;

#### **Foydalanilgan dabiyyotlar:**

1. Abduraimov Sh.S, To'rabekov F.S. Mehnat ta'limi fanini o'qitishga innovatsion yondashuv // Pedagogik kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonida pedagogic va axborot -kommunikatsion texnologiyalardan qo'llash muammolari.
2. Hamidov J.A., To'rabekov F.S O'quv jarayonida kompyuterli o'qitish texnologiyasidan foydalanish samaradorligini aniqlash mezonlarini tanlash va asoslash. Innovatsiya g'oya, texnologiya va loyihalarni ishlab chiqarishga tadbiiq etish muammolari.
3. T.S.Safarov, Sh.U.O'roqov, R.R.Baxromov. "Informatika va axborot texnologiyalari".
4. <http://www.pedagog.uz>

## IX-XII ASRLARDA DUNYOVIY ILM-FAN RIVOJI

Raupova Rahimaxon Xolmatovna

Fargʻona imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabi  
Fizika fani oʻqituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada Oʻrta Osiyoda IX-XII asrlarda yetishib chiqqan allomalar va ularning ilm fan rivojiga qoʻshgan hissasi toʻgʻrisida fikr yuritilgan.

**Kalit soʻzlar:** «Bayt ul hikma», «algoritm», astronomiya, «Alfraganus», Renessans, Islom mafkurasi

IX-XII asrlarda mamlakat maʼnaviy hayotining asosi islom mafkurasi edi. Somoniylar islom mafkurasining rivojiga katta ahamiyat berdilar. Buxoro Sharqda islom dinining eng nufuzli markaziga aylandi. Masjid, madrasa va xonaqolar qurish uchun maxsus joylar ajratildi. Arab tili va uning imlosi joriy etildi.

Movarounnahrda koʻp oʻtmay hatto ona tilidan koʻra arab tili va yozuvini yaxshiroq bilgan bilimdonlar paydo boʻldi. Mahalliy bilimdonlar oʻz vatanida quvgʻin ostiga olinib, koʻpgina tolibi ilmlar xalifalikning markaziy shaharlari-Damashq, Qohira, Bagʻdod, Kufa va Basraga borib bilim olishga va arab tilida ijod qilishga majbur boʻladilar. Davlatni boshqarishda abbosiylar maʼmuriyati koʻplab bilimdon siymolarga muhtoj edi, chunki arablar orasida shu davrda davlat ishiga yaroqli boʻlgan bilimdonlar hali oz, borlari ham zaif edi.

Eng mashhur madaniyat markazi shu davrda Bagʻdod shahri edi. Bagʻdodda «Bayt ul hikma» (donishmandlar uyi) tashkil etilgan edi. «Bayt ul hikma»da Ahmad Fargʻoniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad ibn Abdulloh Marvaziylar taʼlim olganlar.

IX-X asrlarda Oʻrta Osiyoda fan ilmiy asoslarga ega edi. Uning ildizlari Oʻrta Osiyo, ayniqsa, Xorazm, shuningdek Bobil, eron, Hindistonning antik dunyosiga va qadimgi madaniyatiga borib taqalar edi. IX-XII asrlarda arab tilida asarlar yozgan eng mashhur olimlar Ahmad Fargʻoniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abusalx Masihiy, Abulhayr Xammor, Abunosir Arron va boshqalar edi.

Buyuk matematik, astronom va geograf olim Muhammad Muso al-Xorazmiy (783-850) nomi fan tarixida alohida oʻrin tutadi. Olim oʻzining «Hisob al-Jabr va al-Muqobala», «Hind hisobi haqida kitob», «Quyosh soatlari haqida risola», «Astronomik jadvallar» singari asarlari bilan «Algebra» faniga asos soldi. Uning arifmetika risolasi hind raqamlariga asoslangan boʻlib, hozirgi paytda biz foydalanayotgan oʻnlik hisoblash sistemasining Yevropada tarqalishiga sabab boʻldi. Allomaning «al-Xorazmiy» nomi «algoritm» shaklida fanda abadiy muhrlanib qoldi. Olimning «Kitob surat al-arz» nomli geografiyaga doir asari shu qadar fundamental ahamiyatga egaki, u arab tilida koʻplab georafik asarlarning yaratilishiga zamin yaratdi. Uning Sharq geografiasining otasi deb nomlanishi ham shundan Xorazmiy yaratgan

«Zij» Ovro'pada ham, Sharqda ham astronomiya fanining rivojlanish yo'llarini belgilab berdi. Alloma qalamiga mansub «Kitob at-tarix» («Tarix kitobi») asari Movarounnahr, Xuroson va Kichik Osiyo xalqlarining VIII-IX asrlarga oid tarixini to'laqonli yoritishda muhim qo'llanmadir. Al-Xorazmiyning arab ilmiy dunyosining yirik markazi Bag'doddagi Ma'mun akademiyasida ishlagan davrlari uning iste'dodining eng barq urgan payti bo'ldi. U shu akademiyaning rahbari sifatida ilm ahliga ibrat bo'ldi.

O'rta Osiyolik buyuk allomalar orasida Ahmad al-Farg'oniy (797-865) nomi alohida ko'zga tashlanib turadi. Olimning to'liq ismi Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniy bo'lib aslida Farg'onaning Quva shahrida tavallud topgan. Ilm yo'lida zahmat chekib ko'p yurtlarni kezgan. Umrining ko'p qismini xorijiy ellarda, xalifalik markazlari o'tkazgan. Uning butun ongli hayoti va faoliyati fan yo'lga bag'ishlangan. Ahmad al-Farg'oniy yetuk astronom, matematik va geograf olim sifatida shuhrat topgan. Juda ko'plab fundamental asarlarning muallifi Bag'doddagi Baytul Hikma (akademiya) ning nomdor namoyondalaridan biridir.

U xalifalik poytaxti Bag'dodda yoki Suriya, Misrda bo'lmasin o'sha joydagi ilm ahli bilan bahamjihat bo'lib o'sha davr fanining turli yetilgan dolzarb muamolarini hal etishda faol ishtirok etdi. Jumladan, uning Yer shari xaritasini tuzishdagi Suriya shimolida, Sinjor sahrosida yer meridiani bir darajasining uzunligini o'lchashdagi yohud Misrning qon tomiri-Nil daryosi suvi sathini o'lchashdagi ulkan xizmatlari benazirdir. Al-Farg'oniy ilmiy salohiyatining mahsuli bo'lgan «Astronomiya asoslari haqida kitob», «Asturlob yasash haqida kitob», «al-Farg'oniy jadvallari», «Oyning Yer ostida va ustida bo'lish vaqtlarini aniqlash haqida risola», «Yetti iqlimni hisoblash haqida», «Al-Xorazmiy», «Zij»ining nazariy qarashlarini asoslash nomli kitoblari haqli ravishda jahon fani xazinasining noyob durdonalari sanaladi. Al-Farg'oniyning fandagi ulkan shuhrati, Sharqu G'arbda ham birdek ulug'lanib kelinadi. U g'arb olimlari orasida «Alfraganus» nomi bilan mashhur.

Mustaqil O'zbekiston zaminida bu alloma nomini e'zozlab, 1998 yilda bu zoti sharif tavalludining 1200 yilligini shodiyona sifatida nishonlaganimiz tarixiy haqiqatning tiklanganligi bo'ldi. «Ahmad al-Farg'oniy,-deb ta'kidlagandi I.A.Karimov alloma yubileyi tantanalarida so'zlagan nutqida, kishilik tarixidagi ilk uyg'onish davrining eng zabardast va yorqin namoyondalaridan biri o'z zamonasi fundamental fani asoschilaridan edi. Uning merosi insoniyatning yangi ilm cho'qqilariga ko'tarilishiga sababchi bo'ldi butun ma'rifiy dunyo olimlari uchun dasturulamal bo'lib xizmat qildi».

### **Adabiyotlar**

1. Murtazayeva R.H. O'zbekiston tarixi. Ma'ruzalar matni. – Toshkent, 2000.- B.24.
2. Buyuk siymolar, alomalar. – Toshkent: Meros, 1995.-B.38.

## ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА

**Рахимова Арофат Хамдамбековна**

Учитель русского языка и литературы Юнусабадского района Государственной специализированной общеобразовательной школы №17 город Ташкент

**Аннотация:** В статье говорится о применении инновационных технологий на уроках русского языка. Рассматриваются некоторые технологии, которые применимы на занятиях. Раскрывается суть инновационных технологий в целом.

**Ключевые слова:** Инновационные технологии, обучение, русский язык и другие

Термин «инновация» понимается как нововведение, специально разработанное или «случайно открытое» в педагогической практике. Определение «инновация» как педагогический критерий встречается часто и сводится, как правило, к понятию «новшество», «новизна». Между тем инновация в точном переводе с латинского языка обозначает не «новое», а «в новое». Именно эту смысловую нагрузку вложил в термин «инновационное» в конце прошлого века Дж. Боткин. Он и наметил основные черты «дидактического портрета» этого метода, направленного на развитие способности ученика к самосовершенствованию, самостоятельному поиску решений, к совместной деятельности в новой ситуации. В инновационном обучении происходит усвоение знаний и умений и опыта мышления на базе подкрепления рационального эмоциональным. Активное функционирование интеллектуальных и волевых сфер психики ребенка обеспечивается включением его эмоциональных сфер, что ведет за собой обязательное участие в учебном процессе.

Актуальность инновационного обучения состоит в следующем:

- соответствие концепции гуманизации образования;
- преодоление формализма, авторитарного стиля в системе преподавания;
- использование личностно ориентированного обучения;
- поиск условий для раскрытия творческого потенциала ученика;
- соответствие социокультурной потребности современного общества самостоятельной творческой деятельности.

*Основными целями инновационного обучения являются:*

- развитие интеллектуальных, коммуникативных, лингвистических и творческих способностей учащихся;
- формирование личностных качеств учащихся;
- выработка умений, влияющих на учебно-познавательную деятельность и переход на уровень продуктивного творчества;
- развитие различных типов мышления;
- формирование качественных знаний, умений и навыков.

Остановимся на некоторых из них.

**Метод «ИНСЕРТ»**

«ИНСЕРТ» (INSERT – Interactive Noting System for Effective Reading and Thinking) – прием маркировки текста – интерактивная система заметок для эффективного чтения и размышления.

Знак «галочка» (✓) – отметьте в тексте уже известную вам информацию;

Знак «плюс» (+) – отметьте новую информацию;

Знак «минус» (–) – отмечается то, что идет вразрез с имеющимися у вас представлениями, то, о чем вы думали иначе;

Знак «вопрос» (?) – отмечается то, что осталось непонятным и требует дополнительного изучения и понимания, то, о чем вы бы хотели узнать подробнее.

Знак «восклицательный знак» (!) – отмечается то, что вызвало интерес и желание узнать об этом больше.

При чтении удобно заполнять таблицу:

**V-(уже знал)**

– (новое или противоречащее прежним знаниям)

+ (интересно)

? (неясно, есть вопросы)

! (хочу узнать больше)

Большое значение для раскрытия творческого потенциала ученика имеют и нетрадиционные формы домашнего задания, которые призваны, с одной стороны, закреплять знания, умения и навыки, полученные на уроке, а с другой стороны, позволяют ребёнку проявить самостоятельность, самому найти решение нестандартного вопроса, задания.

Типы домашнего задания:

-творческая работа;

-лингвистическое исследование текста;

-подготовка иллюстраций к литературным произведениям, создание видеоклипов по литературным произведениям;

-рисование обложек, диафильмов к литературным произведениям;

художественное чтение;

-инсценировка художественного произведения;

-исторический комментарий к произведениям (слайд – шоу);

-создание самостоятельных литературных произведений различных жанров;

-продолжение неоконченных произведений;

-наблюдение за природой (фото и видеосъемка);

-подготовка словарных диктантов;

-составление вопросника к зачету по теме;

-составление конспекта, опорных таблиц;

-презентации (обзор героев произведения, биография писателя);

письмо по памяти.

Взаимодействия с группой на уроках и вне их, обеспечения сотрудничества обучающихся на уроке учитель гуманитарий обязан создавать атмосферу доверия, взаимного уважения между преподавателем и учащимися, вовлекать учащихся в активную самостоятельную деятельность. На уроках - зачётах возможно осуществлять групповую работу, что способствует воспитанию коллективизма, создаются условия для раскрытия и проявления индивидуальных особенностей учеников. Кроме того, на таком уроке создается атмосфера сотрудничества ученик – ученики, а участие консультантов и ассистентов на этапе проверки обеспечивает сотрудничество учитель – ученики. Для развития интереса к русскому языку следует включать в урок исторические, этимологические справки, которые могут заинтересовать детей, проводить игровые формы работы: «Составь слово», «Третий лишний», «Переводчик», «Эрудит», «Собери пословицу», «Шеренга», «Перевертыш», «Паутина слов» и др., использовать творческие эксперименты, метод проектов, нестандартные уроки, конкурсы, олимпиады. Использование данных технологий на уроках имеет большие преимущества. Учебный процесс становится для учащихся интересным, что повышает активность учащихся, развивает навыки самостоятельно получать знания в процессе взаимодействия и поиска. Повышается качество и прочность полученных знаний. Развиваются исследовательские навыки и умения, формируются аналитические способности учащихся. Параллельно с процессом обучения идет развитие коммуникативных качеств и формирование лидерских качеств личности.

Говорить о современном уроке можно много. Как не потеряться в целом океане технологий, методик, приемов? Как это совместить в рамках одного урока? Ответ прост – нужен адаптивный урок – сочетание элементов различных технологий, создающих комфортную среду урока. Применяя различные технологии на уроках, мы добиваемся успеха: результаты обучения становятся выше. Мы чувствуем себя более уверенно, так как владеем современными методиками

#### **Литература:**

1. Канарская О. В. Инновационное обучение. СПб,
2. Логвина И., Мальцева-Замковая Н., Рождественская Л. Есть «Надежда»! Итоги сетевого образовательного проекта. Русский язык за рубежом, 4,
3. Мировые образовательные технологии: основные тенденции, проблемы адаптации и эффективность. Материалы республиканской научно- методической конференции, 25-26 апреля, Алматы,

## MATEMATIKANI TEXNOLOGIYA YORDAMIDA O'QITISHNING AFZALLIKLARI

Azima Asadova

Buxoro viloyati Buxoro tumani 15-umumta'lim maktabi oqituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada maktab hamda litseylarda matematika fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayonida oquvchilarga bilim berish, ularni darslarni yaxshi ozlashtirishdagi qulay usullar hamda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni dars jarayoniga olib kirish masalasi korib chiqilgan hamda ayrim yonalishlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** matematika, innovatsion texnologiya, multimedia, vizual shakllar, geometriya, online kalkulator, platform, matematik dasturlar.

Afsuski, hamma ham matematikani yaxshi ko'rmaydi. Ba'zilariga bu zerikarli, boshqalarga qiyin bo'lishi mumkin! Matematika darslarida qiziqarli matematik dasturlardan foydalangan holda siz har kimga matematikaning haqiqatan ham qanchalik qiziqarli ekanligini kashf etishingiz mumkin. Xosh, Matematikani texnologiya yordamida o'qitishning afzalliklari nimada? Texnologiya-matematik sinflarida o'qitish uchun dinamik imkoniyatlarni taqdim etadi. Biz qiziqarli va interaktiv vositalar yordamida o'quv jarayonini tashkil etishimiz va tushunchalarni hayotga tadbiiq etishimiz mumkin. Shuningdek, biz barcha o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish va moslashtirilgan o'quv tajribalarini yaratish uchun qo'shimcha yordamlarni taklif qilishimiz mumkin. Matematikani oqitishda innovatsion texnologiyani o'zlashtirganimizda o'quvchilar foyda olishlari mumkin bo'lgan ba'zi muhim usullarni keltirib otaman.

Texnologiyalar yordamida matematikani o'qitishda:

- Multimediadan foydalaning

Multimedia ta'limni hayotga olib keladi! O'quvchilarga ko'nikma va tushunchalarni rivojlantirishga yordam berish uchun biz videolar, animatsiyalar, qiziqarli filmlar va boshqa ommaviy axborot vositalarini o'quv jarayoniga jalb qilishimiz mumkin. Va bu o'quvchilarimizga ularning bilimlari to'g'risida ishonch va g'ayrat bag'ishlashga yordam beradi! Nyu-Jersi shtatining Union Bich shahridagi uchinchi sinf o'qituvchisi janob DeMaio o'quvchilariga ko'paytirish jadvallari va ayirboshlashda qarz olish kabi sinf mavzularini tushunishga yordam berish uchun moslashtirilgan filmlar yaratadi. U maktabdagi o'qituvchilar va Stiven va Endi qo'g'irchoqlari kabi takrorlanadigan sevimli obrazlari aks etgan "o'qitish" darslari va musiqiy videokliplari bilan YouTubedagi kanalni boshqaradi. Filmlarni tomosha qilish juda yoqimli shu orqali bola onggiga osongina matematika ilmini kirita olamiz. Ushbu sayt silkasini sizlarga ham taqdim etaman. <https://youtu.be/aLhtpGugc9I>

-Interaktiv vizuallashtirish mavjud texnologiyalarni qo'llang!

Interaktiv vizuallashtirish texnologiyalari o'quvchilarga matematik tushunchalarni ko'rish va ular bilan o'zaro aloqada bo'lish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Oquvchilar o'yinlar, simulyatsiyalar va raqamli vositalar yordamida fanni chuqur organishlari mumkin. O'qituvchilar va oquvchilar uchun eng zo'r platformalardan biri bu veb-grafikali kalkulyator Desmos. Desmos sinfidagi mashg'ulotlar sahifasi o'quvchilarni matematik g'oyalar bilan o'ynash va sinashga, shuningdek almashish va hamkorlik qilishga jalb qilish uchun ajoyib online platforma hisoblanadi. Ushbu foydali pltforma sayt manzilini ham sizlarga taqdim etmoqchiman.  
<https://www.desmos.com/calculator?lang=ru>

-Matematik tushunchalarni haqiqiy dunyo bilan bog'lang!

O'qituvchilar texnologiyadan foydalangan holda o'quvchilarga matematikada o'rganayotgan tushunchalarini kundalik hayotga qanday tatbiq etishlarini ko'rishda yordam berishlari mumkin. O'qituvchi Jenni Magiera shogirdlariga muammolarni hal qilish uchun ishchi varaq berish o'rniga, supermarketning sut yo'lakchasida qisqa videoni yozib, eng yaxshi shartnoma qanday bo'lishini hal qilish masalasini o'rta tashladi. U shogirdlariga javonlarda ko'rilgan narxlar va reklama aktsiyalariga qarab pishloqning qaysi markasi va hajmini sotib olishni aniqlashga chaqirdi. Zamonaviy innovatsion texnologiya bizga matematik darslarni texnologiya yordamida kengaytirish va boyitish imkoniyatini beradi. Ushbu maqolaning oquvchi uchun ilmiy foydasi-darslarni qiziqarli tashkillashda foydalanishlari mumkin bo'lgan eng qiziqarli matematik dasturlar jamlanmasi, ularning qisqacha tariflarini keltirib otilishidir. Ushbu matematik dasturlar o'qituvchilarga darslarini yanada interaktiv va qiziqarli qilishga yordam beradi. Hozirgi kunda barcha yoshdagi qiziquvchilar uchun dasturlar mavjud. Umid qilamanki, o'qituvchilar uchun ushbu matematik vositalar o'quvchilarga matematikani ularga kulgili tarzda o'rgatish yoki muammolarni hal qilishda yordam berish orqali ko'proq yordam beradi. Ushbu dasturlarning aksariyati bepul. O'qituvchi sifatida sizlar qilishingiz kerak bo'lgan yagona narsa - o'quvchilaringiz ushbu dasturlarni o'zlarining smartfonlariga yuklab olishlari va o'rnatishlari kerak. \*GeoGebra- bu dinamik matematik dastur. Bu boshlang'ichdan tortib to mutaxassisgacha bo'lgan har qanday ta'lim darajasi uchun yaratilgan. Ushbu dastur geometriya, algebra, elektron jadvallar, grafikalar, statistika va tahlillarni, hisob-kitoblarni bir foydalanuvchi uchun qulay paketga birlashtiradi. GeoGebra hamjamiyati juda tez kengaymoqda va dunyo bo'ylab millionlab foydalanuvchilarga ega. Ular butun dunyo bo'ylab dinamik matematik dasturiy ta'minotni etkazib beruvchisi.

\*Geometry Pad-geometriyani o'rganish va muhim konstruktsiyalarni mashq qilishning qiziqarli usulini taklif etadi. Bu geometriyani o'rganishda sizning shaxsiy yordamchingiz. Oquvchilar o'zlarining geometrik konstruktsiyalarini osongina taqdim etishlari, o'lchovlar qilishlari, kompasdan foydalanishlari va turli xil geometrik shakllar bilan tajriba o'tkazishlari mumkin. Ushbu dasturni yuqoridagi GeoGebra matematik vositasi bilan taqqoslash mumkin va iPad va Tabletlarda foydalanish uchun mo'ljallangan.

\*Photomath-Ushbu dastur matematik ko'nikmalaringizni oshirish uchun tarkib bilan bog'liq matematik muammolarni tushunishga yordam beradi. Har oyda ular 1 milliondan ortiq matematik muammolarni hal qilishadi va tushuntirishadi. Matematik muammolarni skanerlash orqali ushbu dastur sizga darhol uni hal qilishda yordam beradi. Siz buni mobil qurilmangizdagi kameradan foydalanib qilishingiz mumkin. Matematikada qanday muammo borligini aniqlagandan so'ng, dastur sizga bosqichma-bosqich tushuntirish beradi. Fotomatika sizga haqiqiy hayotda o'qituvchi bajarganidek animatsiyalar yordamida hisoblash qadamlarini tushuntiradi!

\*Khan Academy-dasturi matematikadan o'quv qo'llanmalaridan foydalanadigan videofilmlardan, mashq mashqlaridan foydalanadi va shaxsiy boshqaruv paneliga ega, shuning uchun siz sinfda va tashqarida o'zingizning tempingiz bilan o'qishingiz mumkin. Matematikadan tashqari, ular fan, kompyuter dasturlari, (san'at) tarixi, iqtisodiyoti va boshqalarni taklif qilishadi. Ular taqdim etadigan barcha tarkiblar bepul, chunki ular har kimga va hamma joyda bepul jahon darajasidagi ta'lim berishni xohlashadi. Khan akademiyasi - bu ko'ngillilar va homiylar hamjamiyati bilan ishlaydigan notijorat tashkilot.

\*Shapes 3D - bu geometriyani o'rgatadigan AR dasturidir. Siz prizmalar, piramidalar, Platonik qattiq jismlarni yaratishingiz mumkin. Boshlash uchun oson raqamni tanlang va eng murakkab raqamlarga yetguncha asta-sekin yig'ing. Ushbu vosita o'qituvchining qobiliyatini yaxshilamoqchi va siz ko'rsatolmaydigan narsalarni jismoniy vositalar yordamida yoki sinf ichida namoyish etish imkoniyatini beradi. Bunday innovatsion talim texnologiyalarini dars jarayonlariga olib kirish oquv jarayoni sifatini oshiradi, oquvchilarning tasavvurini, matematik ongini shakllantirishga oz tasirini albatta sezilarli hamda ijobiy korsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. M. Barakayev “Ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari” metodik qo’llanma.
2. Sh.A.Alimov, O.R.Xolmuhamedov, M.A.Mirzaahmedov. Algebra, 8-sinf uchun darslik. Toshkent, “O`qituvchi” 2019 yil.
4. Ishmuhammedov R. , Abduqoditov A. , Pardayev A. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar”
5. M.Barakayev “Zamonaviylashuv sharoitida matematika fanini o’qitish texnologiyalari” metodik qo’llanma. T. 2017-yil.

## DARS – MUQADDAS

Adamova Raxila Ilhomovna

Olimova Muyassar Jumaniyazovna

Xorazm viloyati Shovot tumani 43-maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ta'lim-tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi o'sib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan hamda jamiyatda o'z munosib o'rnini egallashga qodir bo'lgan - komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishi keltirilgan

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, tarbiya, bilim, dars va boshqalar

Dunyo bo'ylab yuz berayotgan o'zgarishlar, axborotga ega bo'lishning ochiqligi ta'lim sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, o'qitish usullari, mazmuni, uni tashkil etishning pedagogik-psixologik maqsadini ham o'zgartirish, o'quvchilarni mustaqil faoliyat ko'rsata olish, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishni talab etmoqda. Shundan kelib chiqqan holda bugungi kun o'qituvchisi tayyor elektron resurslardan foydalanib dars o'tish bilan chegaralanmasdan, ta'limiy resurslarni yaratish hamda ularni amalda qo'llovchi o'qitishning zamonaviy texnologiyalaridan samarali foydalanishi, fan va uning tarkibiga kiruvchi bilimlar mazmunini o'quvchilarga yetkazish malakasiga ega shaxs sifatida faoliyat olib borishi, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishi, ularning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirib, o'z-o'zini tahlil qilish, o'z ustida ishlash va bilimlarini takomillashtirishni o'rgatishi zarur. Chunki zamonaviy texnika bilan ishlash qobiliyatiga ega, zamonaviy ta'lim jarayonining mohiyatini to'laqonli tushuna olgan,

Xalqimizning shunday ezgu maqsadlarini ro'yobga chiqarish yo'lida mustaqillik yillarida Yurtboshimiz rahnamoligida ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini zamon talablari darajasiga ko'tarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanishi barcha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni talab etmoqda. Bu o'z o'rnida har bir tizim xodimi, ayniqsa, o'qituvchilar zimmasiga yanada yuksak mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi. Negaki, rad qilib bo'lmaydigan bir haqiqat bor - qilingan barcha sa'y-harakatlar oxir-oqibat o'qituvchi mehnati orqali o'z natijasini namoyon etadi. Shunday ekan, pedagoglardan vijdonan mehnat qilish, yorug' kelajagimiz oldidagi mas'uliyatlik, ko'rsatilayotgan yuksak e'tiborga munosib javob berish talab etiladi. Bu esa farzandlarimizning chuqur bilim egallashlarida asosiy rol o'ynaydigan sifatli darsda namoyon bo'ladi.

Bugun har bir o'qituvchi o'ziga ishonib topshirilgan har bir soat darsni muqaddas deb bilishi va unga zarracha xiyonat qilib bo'lmasligini his etishi lozim. Ana shu maqsadda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilib, ta'lim jarayoniga

tatbiq etilayotgan "**Dars - muqaddas**" deb nomlangan, umumta'lim maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda o'qituvchilarga yordam beradigan tavsiyalar majmui e'tiboringizga havola etilmoqda. O'ylaymizki, ushbu tavsiyalarga fidoyi o'qituvchilarimiz ijodkorlik bilan yondashgan holda, ularni o'zlarining yangidan-yangi tajribalari bilan boyitadi.

Budungi kunda har bir o'qituvchi o'tadigan bir soatlik dars mashg'ulotini muqaddas deb bilmog'i va unga zarracha xiyonat qilib bo'lmasligini his etmog'i lozim. Xalq ta'limi vazirligi tomonidan isjlab chiqilgan va ta'lim jarayoniga tatbiq qilingan "Dars-muqaddas!" tadbiri umumta'lim maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb qilmoqda.

"Dars-muqaddas!" shiori ostida bir soatlik dars mashg'uloti o'qituvchilarning ijodiy intilishlarini amalga oshirishda muhim poydevor vazifasini o'tab kelmoqda. Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda biz o'quvchi-yoshlarni kelgusida komil inson bo'lib yetishishlari uchun darslarimizni turli interfaol usul va metodlar, multimedialar orqali o'tkazib bormoqdamiz.

Maktabimizda jami 30 nafar o'qituvchi bo'lib ular alohida dars o'tish tajribalariga ega. Ilm maskanimizda deyarli har kuni ochiq darslar o'tkazib boriladi. Ulardan farzandlarimiz yangi bilimlarni puxta egallab, kelajakda yurtimizga munosib og'il-qizlar bo'lishi maqsadini diliga tuyishadi.

#### **Foydalaniladigan adabiyotlar**

1. Daniyarov B. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalar// Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish: muammo va yechimlar to'plami-Toshkent 2012.
2. Ziyonet.uz

## **JISMONIY TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA TA'LIM USLUBLARINING AHAMIYATI**

Tangatarov Mansur Bekniyozovich  
Navoiy viloyati Xatirchi tumani 2-umumta'lim maktabi Jismoniy tarbiya fani  
o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishda ta'lim, uslublari va metodlarining ahamiyati xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** metod, uslub, ta'lim, jismoniy tarbiya, dars

Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya tadbirlari o'quvchilarni sog'lomlashtirish va jismoniy rivojlantirish, hayot faoliyatiga tayyorlash maqsadi tashkil etiladi.

Jismoniy tarbiya tadbirlarining asosiy vazifasi jismoniy harakatlarga o'rgatish va sport turlari harakatlari texnika va taktikasini shakllantirishdan iborat bo'ladi. Jismoniy tarbiya tadbirlari o'quvchilarning jismoniy tarbiya darslarida va sinfdan tashqari mashg'ulotlar shakllarida o'tkaziladi. Jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarni jismoniy harakatlarga o'rgatish, jismoniy harakat malaka va ko'nikmalirini shakllantirishga qaratilgan bo'ladi.

O'quvchilar jismoniy harakatlarni takrorlab bajaradilar. Amaliy bajarish jarayonlarida o'quvchilarda jismoniy harakatlar malaka va ko'nikmalari shakllanib boradi. Mashqlar va harakatlarni bajarishda sodir bo'ladigan xatolar va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha o'qituvchilar uslubiy tavsiyalar va ko'rsatmalar berib boradilar.

Jismoniy tarbiya darsini boshqa fan predmetlaridan asosiy farq qiluvchi tomonlari zal sharoitida va sport maydonlarida shug'ullanuvchilarni o'quv faoliyatlarini tashkil etilishining qiyinchiligidan iborat.

Bu rejada o'qituvchilarni jarohatlanish xavfini oldini olishlikda o'qituvchi ustiga katta ma'suliyat va javobgarlik yuklatiladi. Bu pedagogni qo'yilgan vazifadan kelib chiqib, dars mazmuni va uni o'tish joylarini shunday tashkil kilishlari kerakki, yukori ta'lim, sog'lomlashtirish va tarbiyaviy samaradorlikka erishib, vaqtni behudaga sarflanishini, jarohatlanishni oldini olishi kerak.

O'quvchilar faoliyatini tashkil etish uchun dars amaliyotida shug'ullanuvchilarni boshqarishni oldingi usullaridan foydalaniladi. Oddiy boshqarish usuliga birgalikda harakat qilish uchun mashqni ko'rsatish va uni bajarish, bir mashg'ulot o'rnini ikkinchisi bilan almashtirishlar.

Darsni tashkil etishda mashqlarni bajarishni xilma-xil usullaridan foydalaniladi.

**Navbatma –navbat usul** - bir o'quvchi bir mashqni bajarib bo'lgandan so'ng ikkinchi o'quvchi shu mashqni bajarishga kirishadi, undan so'ng uchinchi o'quvchi boshlaydi. Bu usul qoidaga binoan o'rgatishni birinchi boskichida qo'llaniladi.

**Potok usulida** esa bir o'quvchi bir mashqni bajarilishini tugallamasidan ikkinchi o'quvchi shu mashqni bajarishga kirishadi. Shunday qilib, bu usulni o'quvchilar akrobatik yo'lakda oldinga dumbaloq oshishni tayanib sakrashni vazifa qilib olganlarida bajaradilar. Bu usulni o'quvchilar mashqlarni o'zlashtirib olganlaridan so'ng qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ba'zi xollarda mashqlarni galma-gal bajarish usulidan foydalaniladi. To'pchani mo'ljalga urishni, uloqtirish yoki basketbol to'pini bir-biriga uzatishni o'rgatilayotganda o'quvchilar yuzma-yuz ikki qatorga saflanadilar. Mashqlar o'quvchilar tomonidan bir qatordan ikkinchi qatorga uloqtirish orqali bajariladi. Bu usul o'quvchilarni o'zaro munosabatini, bir-biriga o'rgatishini va harakatini baholashni o'rgatadi. Bu usul o'rgatishni hamma bosqichida qo'llanishi mumkin. Mashqlarni bir vaqtda bajarish usulini izoh-zaruriyati bo'lmasa kerak. Aytish mumkinki bu usul jarayonida o'quvchilar bir vaqtda bir mashqni o'zini yoki boshqa vazifani bajarish mumkin. Mashqlarni bir vaqtda bajarish topshiriq bilan bog'liq bo'lishi mumkin, juft bo'lib, uch kishilashib, biri bajarganida qolgani yordam beradi va baholaydi, ko'rsatma beradi.

Mashqlarni navbat bilan bajarish, "to'lqinli" 4-6 va undan ko'proq odam mashg'ulot o'rniga, zaruriy asbob –anjomlarni mavjudligiga bog'langan holda foydalaniladi. Amaliy ishda frontal, guruhli va alohida, yakka mashg'ulotlarni tashkil qilish metodlari qo'llaniladi. Frontal metodning mohiyati shundan iboratki, sinfni hamma o'quvchilari bir vaqtda bir topshiriqni bajarish uchun jalb etiladi. U o'quvchilarni yangi materiallar bilan tanishtirishda va oddiy mashqlarni o'rganishda, yordam va uni himoya qilish hamda yaxshi o'zlashtirib olingan mashqlarni takomillashtirishda qo'llaniladi. Uning afzallik tomoni, o'quvchilarni harakat faoliyatlarga jalb etish ya'ni darsni yuqori zinchligiga erishish imkoniyatini beradi.

Murakkab mashqlarni chuqur o'rganishda guruhli metodlardan foydalaniladi. Bu metod jismoniy gap me'yorlarini aniqlash vazifani o'quvchilar tomonidan qanday bajarilayotganini yaxshi kuzatish, va xatolarini to'g'rilash imkonini beradi. Bir vaqtda shuni yoddan chiqarmaslik zarurki, bu metodlarni qo'llash me'yor zichlikni pasayib ketishiga olib keladi. Shuning uchun oz bolalarni qamrab oluvchi snaryadlar bo'lsa navbat kutib turgan bolalarga zaruriy yordamchi mashqlarni berishlik maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, jismoniy sifatlarni tarbiyalash uchun organizmga yuqori talablarni qo'yish zarur bo'ladi, ya'ni mashqlarni charchash darajasiga etkazib bajarish talab etiladi. Bunday sharoitda nazorat darslari jarayonida yaratiladi. Ko'pincha nazorat darslarida ba'zi bir o'quvchilar o'quv darsiga qaraganda ko'proq narsani o'zlashtirib oladilar. Bunga mashg'ulotdagi o'zaro yordam ruhi ma'lum darajada ijobiy ta'sir etadi. Jismoniy tarbiya amaliyotida ko'pincha o'quv, nazorat yoki mashqlanish darslari kam uchraydi. Har bir mashg'ulotda o'rgatish, nazorat va mashqlanish elementlari mavjud bo'ladi. Shuning uchun doimo yodda tutish kerakki, har bir aniq belgilangan dars ostida o'rganish, mashqlantirish yoki nazorat vazifalarini hal etish yotadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Саламов Р.С. «Спорт машғулотларининг назарий асослари» ЎзДЖТИ. Нашриёт матбаа.Т-2005.
2. Саламов Р.С; Юнусова Ю.М. «Жисмоний тарбия назария ва усулияти» Ўқув қўлланмаси. ЎзДЖТИ. Тип.Т-1997.
3. [www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)

**INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA G'AYRIODATIY BIRIKMALARNING  
LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI (A.QAHHOR VA ERNEST XEMINGUEY  
IJODIDA)**

Dexqonova Muattarxon Ilhomovna  
Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ingliz va o'zbek adabiyotida leksik-semantik birliklarni ingliz adabiyoti vakili Ernest Xeminguey va o'zbek adabiyoti namoyondasi Abdulla Qahhor ijodi misolida o'rganib chiqish

**Kalit so'zlar:** leksik-semantik birliklar, peyzaj, metaforik obraz, minimalizm, lingvostilistik xususiyatlar

Xeminguey– zamonaviy Amerika adabiyotining taniqli adiblaridan biri. Har bir ijodkorning o'ziga xos asar yozish uslubi bo'lganidek, Xemingueyning ham o'ziga xos takrorlanmas uslubi bor. Xeminguey peyzaj tasvirida ham metaforik obrazlarni ishlatishdan, tabiat hodisalarini boshqa hodisalar bilan solishtirishdan qochgan. U so'zlarning to'g'ridan-to'g'ri ma'nolarini berishga, tabiat tasvirini imkon qadar his qiladigan qilib yozishga harakat qiladi. Qisqalilik va ma'nodorlikka erishgan holda, adabiy faoliyatining dastlabki paytlaridayoq yozuvchi o'zi uchun “ayzberg tamoyili” deb atagan usul ishlab chiqdi. Bu haqda o'zining “Death in the afternoon” asarida shunday degan: “Agar yozuvchi o'zi yozmoqchi bo'lgan narsani haqiqatda yaxshi bilsa, o'sha bilganlarining ko'pini tushirib qoldirishi mumkin. Agar u ishonarli qilib yoza olsa, o'quvchi tushurib qoldirilgan narsalarni ham o'zi anglab yetadi. Ayzbergning mahobatlilik shundaki, uning faqat sakkizdan bir qismigina suv yuzasida ko'rinib turadi”. Bu narsa Xeminguey asarlaridagi qisqalilik va aniqlikni ta'minladi. Xeminguey asarlarining lingvostilistik xususiyatlarini uning “Chol va dengiz” asari misolida tahlil qilaylik. 84 kun mobaynida Santiago birorta ham baliq tutolmaydi. Lekin, u odatiga ko'ra har kuni dengizga chiqishni kanda qilmaydi. Bir kuni u olis dengizga chiqadiva ulkan marlinni tutib oladi. Lekin bu bilan uning sarguzashtlari tugamaydi. U o'zi tutgan marlinni akulalardan himoya qilish uchun ular bilan olishadi, ammo oxir-oqibat u faqatgina marlin suyaklari bilan qoladi va sohilga qaytib keladi. Bu voqea keksa baliqchini ruhiyatini sindirmaydi, aksincha, o'ziga bo'lgan ishonchini qaytarib beradi. Adibning ilk hikoyalari kabi bu qissa sintaksisi ham o'zining sifat va tasvirlashlar kam ishlatilgan sodda gaplardan tuzilganligi bilan ajralib turadi. Uning ayzberg tamoyiliga ko'ra asar sintaksisining soddaligi o'quvchini sodda gaplar ortiga yashiringan chuqur ma'no qatlamlarini osonroq tushinib yetishiga yordam beradi. Xeminguey sintaksisi ushbu asar nazmining o'ziga xosligini ta'minlagan. Bunday o'ziga xoslik qisman sintaksis va qisman so'zlarning tanlanishi orqali ta'minlangan. Gaplarning qayerda, qanday tuzilganligi o'quvchini asardagi fikrlar oqimiga olib kirib ketadi. Quyidagi misol fikrimiz isboti:

“He no longer dreamed of storms, nor of woman, nor of great occurrence, nor of great fish, nor fights, nor contests of strength, nor of his wife. He only dreamed of places now and of the lions on the beach. They played like young cats in the dusk he loved them”

Bu sodda gaplardan tuzilgan parcha. Bundan maqsad faqatgina soddalikni ta'minlash emas, balki asar oqimini yaratish hamdir. Bu yerda stakatoning ishlatilishi asardagi ma'nolarni to'la ifodalab bergan. Masalan, yuqorida keltirilgan parchada alohida-alohida berilgan gaplar chol har kuni omadli bo'lishiga urinayotgani uchun uning nazarida vaqt tez o'tib ketayotgandek tuyilayotganini ifodalab bergan. Bu yerda fikrlar oqimining tezligi dabdabali va qo'polroq tarzda berilgan.

“Adabiyot ko'ngil ishi, ilhom samarasi,-deydi A. Qahhor o'zining “Suhbat” degan maqolasida.-Tuyg'usiz, ilhomsiz yozilgan asar changlanmagan gulga o'xshaydi-meva tugmaydi. Ko'ngil rozi bo'lgan asargina kitobxonning ko'ngliga yo'l topadi, kitobxonning ko'nglida meva tugadi. Adabiyotimizda ilhomsiz yozilib, kitobxonning ko'ngliga yo'l topolmagan, topa olmayotgan, demak adabiyotdan benom-nishon ketgan, ketadigan asarlar oz emas. A.Qahhor har bir asar ilhom bilan yozilishini ta'kidlar ekan, ilhomning makoni esa xalqning dilida - majburiyat emas, zaruriyat, xohishga aylangan mehnatning shavkati, baxtiyor odamning qahqahasida, jabrdiyda ko'z yoshida, oshiq va ma'shuqlarning ko'zlari va so'zlarida, odamda mehr va g'azab uyg'otadigan hodisa va voqealarning mag'zida bo'lishini istaydi. Shuning uchun ham A.Qahhor 1965-yil prozasi haqida fikr-mulohazalar bildirar ekan, eng avvalo badiiy mahorat chiroyli iboralar, chiroyli ifodalar, ayniqsa voqealar, kulgili yoki qayg'uli holatlar topish emas, xalqqa aytadigan gapi naqadar muhim, naqadar katta, naqadar zarur bo'lsa, kitobxonning qalbiga olib kiradigan pishiq obrazlar yaratilishini, uning kitobxonning qalbiga olib kiradigan badiiy obrazlari ham shu qadar kuchli bo'lishini uqtiradi.

“Anor” hikoyasiga yozuvchi xalq qo'shig'idan olingan quyidagi ikki misrani epigraf qilib keltiradi:

Uylar to'la non, och-nahorim, bolam,  
Ariqlar to'la suv, tashnayi zorim, bolam.

Bu epigraf o'tmishda mehnatkash xalq hayoti nihoyatda og'ir bo'lganligihaqida hikoyada ilgari surilganini to'liqroq tushunishimizga yordamlashadi.

Xeminguey ijodida ko'rganimiz kabi A. Qahhor ham asarlarida asosan sodda gaplardan foydanadi, gaplarga ortiqcha zeb bermaydi. Ammo voqealar bayoni shunday bayon qilinadiki, kitobxonni qahramon tuyg'ulariga tuyg'udosh qilib qo'yadi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Хашимов Г. М. Типология сложных предложений разносистемных языков. Т. «Фан» 1991
2. Лидский Ю. Я. Творчество Эрнеста Хемингуэя. Изд. 2-е. –К.: Наукова думка, 1978
3. Qo'shjonov M. “Abdulla Qahhor mahorati”. Т. G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988
4. Sanjar Sodiq “So'z san'ati jozibasi”. Т. “O'zbekiston”, 1996

## ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ИМЕНИ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОГО НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Аширкулиева Гулширин Довлатовна

Учитель средней школы №10 Турткульского района Республики Каракалпакстан

**Аннотация:** Имя существительное в русском языке является отдельной частью речи, обозначающей предмет и обладающей развитой морфологией, унаследованной в основном из праславянского языка.

**Ключевые слова:** школа, обучение, русский язык и другие

Грамматическая категория числа является у имён существительных словоизменительной и строится как противопоставление двух рядов форм — единственного и множественного числа. Присущие древнерусскому языку особые формы двойственного числа в современном русском языке не сохранились, имеются лишь остаточные явления (формы множественного числа названий парных предметов: *берега, бока, уши, плечи, колени*; формы существительных *час, ряд, шаг* в сочетаниях типа *два часа*). У названий исчисляемых предметов и явлений форма единственного числа обозначает единичность, множественного числа — количество более одного: *стол* — мн. ч. *столы*, *день* — мн. ч. *дни*, *дерево* — мн. ч. *деревья*, *гроза* — мн. ч. *грозы*. Существительные с абстрактным, собирательным, вещественным значениями относятся к *singularia tantum*: *толщина, баловство, зверьё, молоко*, либо к *pluralia tantum*: *хлопоты, финансы, духи, консервы*. В тех случаях, когда у слов *singularia tantum* возможно образование форм множественного числа, такому образованию обязательно сопутствуют те или иные семантические осложнения: ср. «видовое множественно» типа *вино* — мн. ч. *вина*, *красота* — *красоты*, «эмфатическое множественное» при обозначении большого количества типа *вода* — мн. ч. *воды*, *снег* — *снега* и т. д. Число существительных выражается также синтаксически — числовой формой согласуемого или координируемого слова или числительным: *новая книга* — мн. ч. *новые книги*, *Студент читает/читал* — мн. ч. *Студенты читают/читали*, *Я рад* — мн. ч. *Мы рады*. У несклоняемых существительных и существительных *pluralia tantum*, обозначающих исчисляемые предметы, синтаксический способ выражения числа является единственным: *новое пальто, одно пальто* — мн. ч. *новые пальто, три пальто*; *одни ножницы* — мн. ч. *двое ножниц, одни сутки* — мн. ч. *четверо/несколько/много суток*. Наиболее характерным морфологическим признаком имен существительных в русском языке является грамматическая категория рода. Как известно, в единственном числе имена существительные относятся к одному из трех родов: мужскому, женскому и среднему. Во множественном числе категория рода отсутствует, и поэтому существительные, употребляющиеся только во множественном числе, категорией рода не

обладают. Отнесение одушевленных имен существительных (названий лиц мужского и женского пола) к мужскому или женскому роду связано с реальными родовыми представлениями, т. е. у многих одушевленных существительных понятия «род» и «пол» совпадают. Однако не у всех. Так, названия ряда животных, птиц, рыб в одной форме либо мужского, либо женского рода употребляются для обозначения и самца и самки (например: карась -мужского рода: щука -женского рода). Что же касается неодушевленных существительных, то род у них не связан с реальными представлениями, а имеет лишь грамматическое значение. Трудности овладения категорией рода обусловлены разнообразием языковых средств выражения категории рода в различных группах существительных, логической немотивированностью рода в некоторых названиях живых существ и во всех названиях неодушевленных предметов, отсутствием единой основы для классификации существительных по родовому признаку. Трудности усугубляются тем, что в родном (узбекском) языке учащихся нет родовой дифференциации существительных, т.е. нет грамматической категории рода. Поэтому вопросам усвоения учащимися категории рода и связанных с ней форм согласования требует уделять особое внимание. При изучении морфологии учащиеся должны приобрести прочные навыки различения грамматического рода существительных и правильного употребления родовых форм в связной речи. Для этого в учебниках предусматривается знакомство с основными теоретическими положениями, а также практическая отработка умений употребления в речи существительных того или иного рода. Многие ошибки в русской речи учащихся объясняются незнанием рода существительных. Эти ошибки в согласовании прилагательных, порядковых числительных, притяжательных и других согласуемых местоимений, а также глаголов прошедшего времени. Не умея определять род существительных, учащиеся при составлении предложений допускают ошибки в согласовании с этими существительными других частей речи. Этим объясняются также многие ошибки учащихся в употреблении существительных в различных грамматических формах. Необходимо вспомнить употребление личных местоимений он и она, а также притяжательных и указательных местоимений мой, твой, этот, тот. Нужно стремиться к тому, чтобы учащиеся по словам мой, твой в тексте могли бы определить, что существительные, к которым эти местоимения относятся, мужского рода, и подобным образом различали бы существительные женского и среднего рода. Следует повторить и употребление глаголов прошедшего времени с существительными мужского и женского рода: по этим глаголам ученики также должны уметь распознавать род существительных в тексте.

### **Литература**

1. Зализняк А. А. Русское именное словоизменение. М.: Наука, 1967. (и переиздания)
2. Лопатин В. В., Улуханов И. С. *Русский язык // Языки мира: Славянские языки* / РАН. Институт языкознания; Ред. колл.: А. М. Молдован, С. С. Скорвид, А. А. Кибрик и др. — М.: Academia, 2005.
3. [razrabotki/nauchnaia-stat-ia-na-tiemu-osobiennosti-izucheniia-imieni-sushchestvitiel-nogh.html](#)

## TA'LIM TIZIMIDA O'QUV-TARBIYAVIY JARAYONNING SAMARADORLIGINI YANADA OSHIRISH

Artikova Dilfuza Maratovna

Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 233-maktabining fizika fani o'qituvchisi

**Annotasiya:** Bugungi kunda O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, mutlaqo yangicha qarash barpo etildi, desak mubolag'a bo'lmaydi. O'rta umumiy ta'lim maktablari o'quvchilarga 9 yil davomida tasdiqlangan me'yoriy xujjatlar asosida o'ziga xos darajada yakuniga yetgan zamonaviy bilim berishni nazarda tutadi. Akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlari esa, o'quvchi yoshlar o'z qiziqishlaridan kelib chiqib ixtiyoriy-majburiy holda bilim, malaka va ko'nikmalarni chuqurlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

**Kalit so'zlar:** o'quv, tarbiya, imkoniyatlar va boshqalar.

Ma'lumki, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 23 sentyabrdagi 406-sonli qarorida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga asosan akademik liqeylar va kasb-hunar kollejlari tarmog'ini yaratish va rivojlantirish, ularni respublika xududida maqbul joylashtirish va zamonaviy talablarga muvofiq texnika va o'quv jihozlari bilan ta'minlash bo'yicha qator vazifalar belgilangan. Mazkur qarorga ko'ra yangi o'quv muassasalarida dars beradigan o'qituvchilarning ilmiy, hamda uslubiy tayyorgarlik darajasiga bo'lgan talab alohida o'rin tutadi. O'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish ham yangicha talab asosida hal etilmoqda. Qanday turdagi muassasa bo'lmasin, yoki qanday ko'rinishdagi o'quv predmeti bo'lmasin, prezident ta'kidlab o'tganidek, milliy g'oya va uni tamoyillari bilan uzviy sug'orilgan bo'lishi talab etiladi. Shuning uchun ham davr talabidan kelib chiquvchi o'quv-uslubiy majmualarning yangi avlodini yaratish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Xususan, liqey va kollej o'quvchilarini fizika o'qitish jarayonida: nazariy va amaliy bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lish, tafakkur doirasining etarli shakllangan bo'lishi talab etiladi.

Fizika o'qitish pedagogik jarayon bo'lib, o'qituvchi raxbarligi va boshqaruvida ta'lim oluvchilarning fizika fani asoslarini egallashi, olingan bilimlarini hayotda qo'llay bilishi, hayotda keng tarqalgan asbob va uskunalar bilan muomala qila olish ko'nikmasini egallashidir. O'qitish natijasida talabalarda umumiy politexnik ta'lim, to'g'ri ilmiy dunyoharash, insoniylik tuyg'ulari va shu kabilar shakllanishi kerak. Barkamol o'qituvchi faqat fan asoslarini yaxshi bilishi va uni o'qitish metodlarini mustahkam egallash bilan cheklanib qolmay, balki o'qitish jarayonida talabalarning fanni o'zlashtirishning psixologik qonuniyatlarini amaliy ko'nikma va malakalar xosil qilish va uni rivojlantirish, fikrlash qobiliyatini o'stirish yo'llarini izlash, o'qitishda shaxs kamolotidagi tarbiyaviy masalalarni hal etishi lozim. Shuningdek, o'qituvchi psixologik qonuniyatlarni izchil qo'llay bilishi ham talab etiladi. Talabalarning kamolotida ijtimoiy xayotiy tajriba muxim axamiyatga ega. Demak, o'qituvchi bu

muxim faktorni ham yodda tutishi kerak. Talabanning muhit ta'sirida faol o'zgarib borishini tahlil etib borish o'qituvchi faoliyatining samarali bo'lishiga sabab bo'ladi.

O'qitish jarayoni uzluksiz ravishda talabanning o'z-o'zini kamolot sari intilishiga va bu borada ijobiy yutuqlarni qo'lga kiritib borishiga erishmoq zarur.

Psixologik jihatdan insonning rivojlanishining shart sharoitlaridan biri, uning tabiiy xususiyatlari xisoblanadi.

Aqliy rivojlanish talabanning biologik va fiziologik etilishiga ham bog'liq. Bu faktorni o'quv tarbiya jarayonida hisobga olish zarur. O'qitish talabalarning har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta'sir etishi kerak. O'qituvchisining psixik rivojlanishining bevosita xarakatlantiruvchi kuch yangilik bilan eskilik o'rtasidagi dialektik harama-harshilikdir. Bu haramaharishilik o'quvtarbiya jarayonida paydo bo'ladi va hal etiladi. harama-harshiliklar hal etila borgan sari rivojlanish yangi bosqichga ko'tarila boradi. O'rta umumta'lim tizimida fizikani yaxshi o'rganish, bu fanni mukkamal o'rganishga asos hisoblanadi. Fizikaga oid asosiy qonunlarni va hodisalarni bilmay turib, tabiiy fanlarning o'rganishga kirishib bo'lmaydi.

Fizika ta'limi jarayonini takomillashtirishning eng mu'im jihatlari quyidagilardir:

o'qitish sifatini, mehnat va axloq tarbiyasini kuchaytirish;

o'qituvchilar va ta'lim oluvchilar mehnatini to'g'ri baholash;

o'qitishni kundalik hayot bilan bo'lashni amalda mustahkamlash;

ta'lim oluvchilarni ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashni yaxshilash.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ziyonet.uz
2. Zamonaviy ta'lim/2020

## АХБОРОТ ХАФВСИЗЛИНИ ТАЪМИНЛАШ ВА АХБОРОТ УЗАТИШНИНГ ХУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ: ХАЛҚАРО ВА МИЛЛИЙ ТАЖРИБА

Касимова Гулнозахон Мансуровна

Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университети  
магистранти

**Аннотация:** Замонавий ахборот бозорини шакллантиришда ахборот хавфсизлиги, айниқса, болаларнинг ахборот хавфсизлигини таъминлаш муаммолари алоҳида ўрин эгаллайди. Шундай экан, жамиятнинг ахборот хавфсизлигини таъминлаш давлат ва унинг ваколатли органларининг асосий вазифаси бўлиб қолаверади. Ахборот хавфсизлиги деганда - шахс, жамият ва давлатнинг хавфли ахборотлардан ҳимояланганлик ҳолати тушунилади.

**Калит сўзлар:** Ахборот хавфсизлиги, конфиденциаллик, бузғунчи, миллий хавфсизлик, хавфсизлик механизмлари, яхлитлик, ваколат бериш, фойдаланишни назоратлаш.

Жаҳон тажрибасидан маълумки, давлат ахборот инфраструктурасининг ривожланиши барча соҳаларни, шунингдек, одамларнинг дунёқараши ва уларнинг ижтимоий ҳаётига жиддий таъсир ўтказди. Бугунги кунда ахборот технологиялари, автоматлаштирилган тизимлар ва маълумотлар базаси давлат структураларини, иқтисодиётни ва мамлакат хавфсизлигини бошқаришнинг ажралмас қисми бўлиб келмоқда. Шу боис Ўзбекистонда ҳам ахборот манбалари ва замонавий технологияларни ривожлантиришга йўналтирилган миллий қонунчилик асослари яратилди, у давлат ахборот инфраструктурасининг шаклланишида ижобий рол ўйнамоқда. Шунга қарамадан ахборотни қабул қилиш, қайта ишлаш, сақлаш ва узатиш тизимларидан фойдаланишда ҳимоя ва киришни чеклаш воситаларидан минимал ҳолда фойдаланилмоқда. Бунда миллий хавфсизликка таъсир қилувчи маълумотларнинг чиқиб кетиши ва давлат ахборот майдонига кириб келиш хавфи ўсиб боради.

Ахборот технологиялари турли ахборот тарқатиш манбаси экан, бунда ахборот хавфсизлигини таъминлаш бир томондан давлатнинг ушбу соҳадаги сиёсатининг устувор йўналишларидан бўлса, жамиятда болаларнинг ахборот хавфсизлигини таъминлаш иккинчи асосий ва муҳим давлат устувор сиёсати ҳисобланади. Компьютер техникаси ва ахборот тизимларининг иқтисодда, бошқаришда, алоқада, илмий тадқиқотларда, таълимда, хизмат кўрсатиш соҳасида, тижорат, молия ва инсон фаолиятининг бошқа соҳаларида қўлланилишининг ривожини ахборотлаштириш ва, умуман, жамият ривожини белгиловчи йўналиш ҳисобланади. Компьютер техникасининг қўлланиши эвазига эришилувчи самара ахборот ишланиши кўламининг ошиши билан ортиб боради. Ушбу техниканинг қўлланиш соҳалари ва кўлами унинг ишлашининг

ишончлилиги ва барқарорлиги муаммолари билан бир қаторда унда айланувчи ахборот хавфсизлигини таъминлаш муаммосини туғдиради.

Ахборот хавфсизлиги – ахборотнинг номақбул (ахборот муносабатларининг тегишли субъектлари учун) ошкор қилинишидан (конфиденциаллигининг бузилишидан), бузилишидан (яхлитлигининг бузилишидан), сирқиб чиқишидан, йўқотилишидан, модификацияланишидан ёки фойдаланувчанлик даражасининг пасайишидан ҳамда ноқонуний тиражланишидан ҳимояланганлиги. Ушбу ходисаларнинг сабабчиси тасодифий таъсирлар ёки бузғунчининг (нияти бузукнинг) атайин рухсатсиз фойдаланиши натижасидаги таъсирлар бўлиши мумкин. Жамиятнинг жадал суръатларда ахборотлаштирилиши сабабли ахборот хавфсизлиги муаммоси ниҳоятда долзарб ва доимо шундай бўлиб қолади. Ҳозирда 29 август 1997 йили қабул қилинган “Ўзбекистон Республикасининг миллий хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” қонуни амалда. Ушбу қонунга асосланиб миллий хавфсизлик тушунчасига қуйидагича таъриф бериш мумкин. Ўзбекистон Республикасининг миллий хавфсизлиги деганда Ўзбекистон Республикасининг суверенитетини ифодаловчи ва ҳокимиятнинг ягона манбаи ҳисобланувчи кўп миллатли халқининг хавфсизлиги тушунилади. Миллий хавфсизликнинг, шартли равишда, қуйидаги ташкил этувчиларини кўрсатиш мумкин:

- иқтисодий хавфсизлик;
- ички сиёсий хавфсизлик;
- ижтимоий хавфсизлик;
- маънавий хавфсизлик;
- ҳалқаро хавфсизлик;
- ахборот хавфсизлиги;
- харбий хавфсизлик;
- чегаравий хавфсизлик;
- экологик хавфсизлик.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, болаларимизнинг китоб билан мулоқотда бўлиши, интернет тармоғидан ахборот олиши, руҳиятини соғлом ва бунёдкорликка ундовчи ахборотлар билан мустаҳкамлаб боришида давлат хавфли ахборотларнинг эркин айланишининг олдини олиш, бунда эса мавжуд қонунчиликни такомиллаштириш, таълим тизимини мустаҳкамлаш, болаларда эркин фикр юритиш ва ўзини қизиқтирган барча саволларга жавоб оладиган мулоқот майдонини янада кенгайтириш муҳим ҳисобланади.

#### **Фойдаланилга адабийотлар:**

1. С.К. Ғаниев, М.М. Каримов, К.А. Ташев Ахборот хавфсизлиги. “АЛОҚАЧИ” – 2008.
2. Васильков А. В. Васильков А. А. Васильков И. А. Информационные системы и их безопасность. Москва-2011.

3. В. П. Мельников, С. А. Клейменов, А. М. Петраков Информационная безопасность и защита информации. Москва Издательский центр “Академия” - 2009
4. Васильков А. В. Васильков И. А. Безопасность и управление доступен в информационных системах. Москва-2010.
5. В. Ф. Шаньгин Комплексная защита информации в корпоративных системах. Москва ИД “ФОРУМ” – ИНФРА-М 2010.

## SHOIR YANGILAGAN KO‘HNA MUHABBAT

**Shirinboyev Xudoynazarbek Tolib o‘g‘li**

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari insituti  
Qarshi filiali talabasi

**Annonatsiya:** Shoir Abdulla Oripov she‘rlaridagi jilo, rang-tasvir, borliqni yaratish, unga jon ato etish kabi izohlar adibning qanchalik ulug‘vor ekanligining yorqin asosi.

**Kalit so‘zlar:** yulduz, yor, yuzma-yuz, yaxshilik, yomonlik.

Adabiyotimizda Abdulla Oripovning “Mitti yulduz”i porlaguncha muhabbat mavzusi eski ohanglarda, siyqa obrazu tashbehlarda kuylanar edi. Birovlar yorning qoshu ko‘zini maqtab ovora bo‘lsalar, ba‘zilar bevafo yorga ta‘na toshlarini otib charchamas edilar. Abdulla Oripov she‘riyatidagi oshiq obrazi esa armonli muhabbatga duchor bo‘lib, bir umr “hayot barcha ne‘matlarini ayamasa-da, muhabbat taqdiridan maqtan olmay” o‘tishga mahkumdir. Lekin u munisa qizga hech qachon ta‘na toshlarini otmaydi, bevafoqlikda ayblamaydi, balki –Nega bir tosh bo‘lmagansan, seni avaylab, Til ostimga solib yursam jonimga joylabdeya armon qiladi.

Jo‘nar bo‘ldim men bundan diltang, Yo‘llarimga qarab qolding sen. Sochginangni tarab qolding sen. O, bilaman, badjahl otang. Ostonangga yo‘ltmas seni. Shoirga “uzalgan qo‘llari” bilaguzuk bilan bog‘langan qizning munis va ma‘yus surati ko‘z o‘ngimizda muhrlanib qoladi. “Bilaguzuk bilan bog‘langan” qo‘llar tasvirida ham, shoirning “Bilaguzuk banding uzilsin, yor qo‘lini qisgandan ko‘ra!” – deya qilgan nidosida ham qandaydir yorug‘lik, qandaydir tozalik, qandaydir ajib shoironalik bor.

Abdulla Oripovning “Yillar armoni” deb nomlangan navbatdagi kitobiga kiritilgan yangi she‘rlarining ko‘pchiligida inson qalbining ashaddiy kushandalari bo‘lgan hasadgo‘ylar, g‘iybatchilar, fitna-fasodchilar, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va razolat haqidagi qarashlari yanada keskin ruh bilan ifodalanadi. Abdulla Oripov bir she‘rida shunday yozadi:

Sizdan nima ketdi, ey do‘sti aziz, Sog‘inmang menga ham bir zum yomonlik. Mendan nima ketdi, Sizga ham cheksiz. Saodat tilayin, tilay omonlik. Chindan ham, koshki edi, shoir aytgandek, odamzot hech qachon bir-biriga yomonlik sog‘inmasa, qani endi, hamma hamisha bir-biriga saodat va omonlik tilayversa. Shoirning bu ezgu orzulari sizning qalbingizga ham “mendand nima ketdi, yaxshilik qilsam 2 qabilidagi mardona tuyg‘ularni uyg‘otadi.

Abdulla Oripovning Erkin Vohidovga bag‘ishlangan “Arslon chorlaganda...” deb nomlangan she‘rida bu ikki zamondosh shoirning ulug‘ maqsadlarini arslonga o‘xshatadi. Buyuk qalb sohiblari bo‘lmish bu shoirlarning ezgu maqsadlar shohi – arslon qoshiga chorlagandi. Va bu ulug‘ maqsadlarga erishish uchun ularda matonat

ham, bardosh ham bor edi. Lekin ularga yo‘lda qumursqalar – razil va xudbin insonlar hamroxi bo‘ldilar.

Jamiki tiriklikka tanish bo‘lgan bu xatar faqat yoppa talamoqqagina yaratilgan. Axir inson ana shunday qumursqalar bilan olishib ulug‘ maqsadlariga erisholmay qolishi mumkin-ku. Bu she‘r tiriklikning xatarli hamrohi bo‘lgan qumursqanusxalarga ayovsiz aybnomadidir. Mana, o‘sha she‘r: Biz ham yuksaklarga tikkandik ko‘zni, Bizda ham bor edi matonat, bardosh. Arslon chorlagandi qoshiga bizni Lekin qumursqalar bo‘ldi safardosh. Jami tiriklikka tanish bu xatar, Qumursqa yaralgan yoppa talarga. Do‘stim, alam qilar, arslon bexabar Yem bo‘lib ketsak bu qumursqalarga.

Shoirning mazkur to‘plamdagi ko‘pgina yangi she‘rlarida inson qalbini ich-ichidan yemiruvchi, aslida esa mayda tashvishlar hisoblangan illatlar xususida so‘z ketadi.

**Xulosa:** Shoir go‘yo o‘zining otashin misralari bilan vijdoni uyg‘oq kishilarni olomon orasidan tortib chiqarmoqchi. Biroq shoir razillar razolatiga qancha ko‘p duchor bo‘lmasin, bedillar sitamidan qancha ko‘p ozor chekmasin, inson qalbining ezguligiga va bu ezgulikning manguligiga qattiq ishonadi. Shuning uchun ham u yozadi:

Dunyoda diyonat hali mavduddir, Hali mard yigitlar yashab yuribdi. Onalar oq suti hamon oq sutdir, Quyosh ham falakda porlab turibdi.

U xayrlashuv she‘rida:

Hayajon bu- o‘lim, kulfatdir – qo‘shiq, Qilt etgan shamoldan titramas yurak. Unga endi na dard, na quvonch, na ishq, Balkim tung‘ib qolgan bir orom kerak. Chindan ham dunyoning dardlarini, bani odamning sevinch va xasratlarini qalbidatuya-tuya, shoirning hastayuragi uchun “hayajon-o‘lim, “qo‘shiq-kulfat” bo‘lib qolmog‘igaham shubha qilmasabo‘ladi.

Mazkur tadqiqotning muallifi shoirning ana shu she‘riga quyidagi javob she‘rini yozgan.

Sizlar millat qonida oqayotgan har bir hujayrani ko‘ra oladigan, xalq va Vatan taqdiriga eng xolis tashxis qo‘yadigan iqtidor sohibisizlar. Bizning vazifamiz sizdek iste‘dod egalariga shart-sharoit, imkoniyat yaratish, sizning zimmangizdagi ulug‘ mas‘uliyat esa tariximizdan bugunimizgacha, kelajagimizgacha o‘tkir va odil qalam bilan adabiyotga muhrlashdir, xalqimiz, xususan, yoshlarimizni adabiyot orqali tarbiyalashdir, — dedi Prezidentimiz.

### **Adabiyotlar**

1. Shavkat Mirziyoyev: “Erkin Vohidov, Abdulla Oripovning o‘rni bilinyotganini his qildim” nutqi-2018.
2. Abdulla Oripov. Ko‘zlarim yo‘lingda. — Toshkent, 1966.
3. Abdulla Oripov. Onajon. — Toshkent, 1969.
4. S. Mamajonov. Saylanma. — G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. Toshkent, 1981.

5. N. Xudoyberganov. Ehtiros to‘lqinlari. — G‘afur g‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyati. Toshkent, 1970.
6. Norboy Xudoyberganov. Cho‘qqilar chorlaydi. — G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. Toshkent, 1978.
7. Ibrohim G‘afurov. Yurak-alanga. — G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. Toshkent, 1979.

## VAQT O'G'RILARI

O'zbekboyeva Durdonaxudoyberdi qizi

Guliston davlat universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabasi

**Anatatsiya:** Ushbu maqolada ulug' ne'mat deb atalmish vaqtni qadrlash, uni besamar o'tkazmasdan, to'g'ri rejalashtirish, vaqt o'g'rilari nimalardan iborat, insonlar uni to'g'ri anglab yetishi va hayotini zaharlashga yo'l qo'ymasligi to'g'risida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** vaqt qadri, vaqt o'g'rilari, vaqtni rejalashtirish, uyali aloqa vositalari, ko'p uyquning ziyoni, maqsadlar

Inson har tong ko'z ochib yangi kunni qarshi qarshi olar ekan, uning ixtiyoriga 24 soat vaqt beriladi. Bu degani unga berilgan 1440 daqiqa yoki 86400 soniyalik fursatdir. Shuncha vaqtdan ijobiy foydalana olgan inson ko'p ishlarga ulguradi, oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi va jamiyatda kerakli insonga aylanadi. Oltindan ham qadrligi, javhardan ham qimmatli bir narsa bo'lsa, u ham vaqt deb atalmish ulug' ne'matdir. Olimlarimiz, "Vaqt hayotdir. Inson hayoti esa uning tug'ilgan vaqtdan toki vafot etguncha yashab o'tadigan vaqtidir", - deganlar. Xo'sh, hozirgi kunda insonlar ushbu ulug' ne'matdan samarali foydalana olyaptimi, uni behuda narsalarga sarf etmayaptimi?, degan savol tig'ilishi tabiiy. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom : ikki narsa borki ko'pchilik uning qadriga yetmaydi. Biri - sog'liq, ikkinchisi esa-bo'sh vaqt", - deb marhamat qilganlar.

Boshlanayotgan har bir kun shunday nido qilar ekan: Ey inson men yangi kunman, mendan foydalanib qol deya. Vaqtdan to'g'ri va oqilona foydalanish uchun o'tayotgan har bir kunning har daqiqasini reja asosida tashkil qilish lozim. Vaqt o'g'rilari degan tushunchani eshitganmisiz? Har bir insoning o'zini vaqt o'g'rilari bo'lishidan xabaringiz bormi? Va uni o'ylagan maqsadlaringizni amalga oshirish uchun qanday salbiy jihatlari bor?

Vaqt o'g'rilari - bu insonning qimmatli vaqtini tortib oladigan turli xil buyumlar, o'y-xayollar, o'tmish xotirasi bilan yashash, kunning ko'p qismini uyquga sarflash va h. k. Yuqorida buyumlar deb so'z yuritib ketdik, bu hozirgi kunda rivojlanib ketgan va ko'pchilikning asosiy muammosiga aylanib ulgurgan mobil aloqa vositalardan foydalanish desak, yanglishmagan bo'lardik. Hozirgi zamonda deyarli hech kimni ayniqsa, yoshlarni uyali telefonlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Aloqa vositalarini juda ko'p foydali va imkoniyatli taraflarini e'tirof etmay iloj yo'q, lekin uning zararli tomonlari ham kam emas. U insonlarni, o'sib - ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni juda ko'p vaqtlarini o'g'irlab qo'yimoqda. Buni anglash uchun o'zingizga savol berib ko'ring : "Men bir kunda necha soat uyali telefondan foydalanaman?" Ana endi o'sha vaqt oralig'ida deylik, 1 soat bo'ladimi yoki undan ham ortiq vaqtni boshqa foydali ishlarga, masalan- kitob o'qishga sarflashni o'ylab ko'ringchi? Qancha orzularingiz amalga

oshishi va umringiz foydali ishlarga sarflanib, ulkan yutuqlarga erishishingiz faqatgina kelajakdagi xom - xayol emas, u ro'yoga aylanadi.

Uyali telefonlar insonning nafaqat vaqtini o'g'irlashi, balkim inson hayotining zavoli, uning ruhiyati va sog'lig'iga ziyon keltirishini anglagan holda ulardan o'z vaqtida foydalanishni maqsad qilaylik. Inson hayotida 1 kunda 8 soatlik uyqu normal uyqu deyilgan. Ammo bazi insonlar ko'p vaqtlarini uyquga sarflashadi va qadrli vaqtini o'g'irlab qo'yayotganligidan bexabar qolishadi. " Erta turgan kishining - rizqi unar ishining", - deydi ota - bobolarimiz. Erta turmoqlikni fayz-barokati o'zgacha. Aksariyat dunyodagi buyuk va boy insonlarning muvaffaqiyat kaliti- ularning erta uyg'onib, vaqtini juda ham qadrlashidir. Shunday ekan, ko'p uyqu qimmatli vaqtimizni o'g'irlab qo'yishiga yo'l qo'ymaylik.

Hayot vaqtning har bir daqiqasini anglab, qadrlab, ulardan oqilona foydalanib kelayotgan insonlar uchun go'zal gavdalanadi. Va hayot ham mana shunday insonlarga omad va muvaffaqiyatlarni tinimsiz yog'diraveradi. Ulug' ajdodlarimiz kunlarini, vaqt-u soatlarini foydali ish qilishga, go'zal axloqiy va ilmiy darajalarga yetishish yo'lida sarflashga urinar edilar. Shuning uchun ham ularning bugunlari kechagisidan, ertangi kunlari bugungisidan a'lo bo'lardi.

Ular: " Vaqt qilichdir, agar sen uni kesmasang, u seni kesadi. ", - degan hikmatli so'zga amal qilishgan.

Vaqt insonga qarab o'tirmaydi, u faqat oldinga shiddat bilan ildamlayveradi, ortga qaytmaydi. Kimlardir undan to'g'ri foydalanib, maqsadlariga erishsa, yana kimlardir uni isrof qilib, umrini ham besamar, isrofgarchilikda o'tkazib yuboradi. Vaqtni to'g'ri rejalashtirish - xuddi baxtga eltuvchi narvon kabidir. Narvonni birdaniga yuqorisiga chiqib bo'lmaydi, har bir zinasiga navbatma-navbat qadam tashlaganidek, vaqtni ham samarali rejalashtirish uchun amalga oshirmoqchi bo'lgan ishlaringiz va maqsadlaringizni boshlangan kuningizga to'g'ri taqsimlay olishingizdir. Aziz do'stlar, nafaqat ota - onangizni, balkim yurtboshimizni ishonchini oqlash uchun, go'zal maqsadlaringiz, orzu va niyatlaringizga erishmoqlik, mazmunli hayot qurmoqlik uchun, vaqtni to'g'ri rejalashtiraylik, uning har bir daqiqasidan unumli foydalanaylik. Zero vaqt o'g'rilari umringizni o'g'irlab qo'ymasin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1."Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch " I KARIMOV
2. Tarbiyaviy ishlar metodikasi, R.A.Mavolonova
3. Pedagogik psixologiya . Akramova F
4. internet saytlari:
5. Ziyonet

## NODIR YER IONLARINING MAGNITLANISH MEXANIZMLARI

Saidov Qurbon Sayfulloyevich  
Saidjanova Madina Shuxratovna  
Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya:** Terbiy nodir yer ionli ortaluminatning magnit xossalarini 420 – 750nm to'lqin uzunliklari intervalida, 90 - 300K temperatura oralig'ida harorat va spektral bog'liqliklari batafsil tadqiqot qilingan. TbAlO<sub>3</sub> kristallning [110] o'qi bo'ylab o'lchangan Verde doimiysining haroratga proporsionalligi, tajribaning berilgan geometriyasida Faradey aylanishida (tashqi H maydonda) Tb<sup>3+</sup> - NY-ion elektron holatlarining Van-flek "qo'shilishlari" mexanizmining hissasi o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Zeeman effekti, kristall maydon, Shtark effekti, kramers singletlari, granat struktura, ortoalyuminat, kvazidublet, kvaziizing.

Nodir yer (NE)-ioni qabul qiluvchanligiga qo'shiladigan bu ulush tashqi H magnit maydon qo'yilganda ionning asosiy holatiga qo'zg'olgan holatlarning «aralashishi» bilan bog'liq. Umuman aytganda u, kristall magnitlanganda kramers dubletlarining og'irlik markazi siljishi bilan belgilanadi.

Asosiy holati singlet bo'lgan (Pr<sup>3+</sup>, Eu<sup>3+</sup>, Tm<sup>3+</sup>) nokramers NE-ionlari uchun g'alayonlanish nazariyasi bo'yicha faqatgina asosiy holatga qo'zg'olgan sathchalarning «aralashishi» ni hisobga olganda noldan farqli magnit momenti yuzaga keladi (Van-Flek mexanizmi).

Granat kristall maydonidagi (Tb<sup>3+</sup>, Ho<sup>3+</sup>) nokramers NE-ionlarining asosiy holati ikkita yaqin joylashgan singlet-kvazidublet ko'rinishida bo'ladi. D<sub>2</sub> simmetriyali joy egallagan NE-ion uchun «izing» o'qi orientatsiyasi (nokramers NE-ionlari holidagidek) KM parametrlarining aniq kattaligiga bog'liq emas. Ammo, berilgan kvazidublet hosil qilgan shtark singletlari funksiyalari simmetriyasi bilan aniqlanadi.

Umuman aytganda, D<sub>2</sub> simmetriya holatida, «izing» o'qi yo'nalishi 2-tartibli burish o'qlarining biri bilan mos keladi (ya'ni kristallografik koordinatalar sistemasining o'qlaridan biri bilan). N tashqi magnit maydon tomonidan ajratilgan. NE-ionining (granat strukturasi -noekivalent pozitsiyani egallagan) kvazidublet energiya sathlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$E_n^{(\pm)2} = E_n^{(0)r} \pm \frac{1}{2} \Delta_n^{(r)}; \quad (1.5)$$
$$\Delta_n^{(r)} = \sqrt{\Delta_0^2 + (\mu_\alpha H)^2}$$

Bu erda  $\mu_\alpha = g_0 \cdot \langle a | \hat{j}_\alpha | b \rangle \cdot \mu_B$  - kvazidublet magnit momenti;  $E_n^{(0)}$  - kvazidubletning «og'irlik markazi;  $|a\rangle, |b\rangle$  - singletlarning to'lqin funkstiyalari;  $\Delta_0$  - past simmetik KM da kvazidubletning boshlang'ich ajralishi» («parchalanish»);  $\mu_\alpha$

parametrlar ( $\hat{j}_k$  burchakli moment operatori komponentasi)  $\hat{j}_k$  operator matrista elementlari kattalıkları bilan aniqlanadi, xuddi shunday bo'lar  $g$  - tenzor simmetriya o'qi (ya'ni «izing» o'qi) yo'nalishini aniqlaydi.  $Tb^{3+}$  va  $Ho^{3+}$  ionli granatlar – gallatlar va alyuminatlar uchun  $\Delta_0$  da parametrlar KM nazariyasi bo'yicha hisoblangan. Shuni takidlash kerakki odatda granat strukturasi  $Tb^{3+}$  va  $Ho^{3+}$  ionlar keskin anizotrop  $g$  - faktorga ega ( $g$ -faktor komponentalardan biri boshqa ikkitasiga nisbatan ancha katta bo'ladi), bu esa ular magnitlanishing «kvaziizing» xarakterini ifodalaydi.

Haqiqatdan, agar nokramers NE-ionining asosiy holati kvazidublet bo'lsa va asosiy multiplet qo'zg'olgan shtark sathchalaridan etarlicha katta energetik interval bilan ajratilgan holatlarning ( $g$ 'alayonlanish nazariyasi ikkinchi tartibda) «aralashishi» Van-Flek taklifi yordamida NE-sistemani magnitlanishi past temperaturada hisoblanganda, u ikki sathli sistema magnitlanishiga mos keladi. Xuddi shunday asosiy holatga ega nokramers NE-ionlar  $z$  - o'qiga perpendikulyar yo'nalishida (maydon bo'yicha chiziqli yaqinlashishida) magnitlanmaydilar.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Valiev U.V., Nekvasil V., Mukchamedhanova Sh.I., Dzhuraev D.R., Saidov K.S. Experimental definition of Zeeman Splitting of Excited States of  $Tb^{3+}$  ion in  $Y_3Al_5O_{12}$ .//Phys. Stat. Sol. (b), 1999, Vol.213, pp.493-501.
2. Саидов К.С. Поляризационно-оптические свойства иона тербия в кристалле. «Молодой учёный» научный журнал. №10. 2017. с.20-23.
3. Saidov K.S., Umedov Sh. K., Saidjonova M. Sh. Nodir yer elementli paramagnit granatlarning magnit xossalari.// Eurasian journal of academic research. Volume 1 Issue 01, April 2021,pp. 465-472.

## **WHY ARE SPEAKING SKILLS TAUGHT IN ENGLISH CLASSROOMS?**

Fazilatkhon Ikromova Vohidjon qizi  
Nilufarkhon Solieva Alisherjon qizi  
Kokand state pedagogical institute

In this global world, there is a need to share our ideas and thoughts with the people who live around the world in order to fulfill our desires and deeds. This is a competitive world and each and every English language learner wants to improve his/her speaking skills to sustain in this global market. Moreover, most of the selections in getting jobs depend on the communication skills of the individuals, especially, their speaking skills. The interviewers also recognize the talent of the individuals in the form of speaking skills within a short period of time. The job seekers those who can prove their skills at that particular moment will be occupying the best places in their career. Moreover, these speaking skills are also useful for professionals to develop their career. In addition to this, these speaking skills are more useful for the employees those who are working in business organizations to promote their businesses. It is also a known fact that excellent, outstanding and inspiring speakers highly motivate and win the hearts of the audience. As speaking skills play a vital role in many aspects, there is a need for EFL/ESL learners to concentrate more on them. Furthermore, the teachers are advised to implement several useful strategies in their classrooms in order to involve the learners more on learning speaking skills in their English classrooms.

With an ounce of regular practice, it is sure that the English language learners (ELLs) can immensely develop their speaking skills. Then they can perform well in the classroom discussions and debates and gradually develop their speaking skills. They will be in a position to give presentations on their own by leaving all the fears that they had in their minds. With regular practice of these skills, they can deliver short speeches also in the classrooms. Moreover, they build self-confidence among themselves and become stronger in decision-making and problem-solving. The learners can also develop sound business relationships with the other business partners and promote their businesses well. Furthermore, the ELLs show better performance in their job interviews so that they will get the best opportunities to settle down well in their career. They can also work well with their colleagues and try to develop their own career. Therefore, speaking skills play a pivotal role in developing the ELLs' overall performance.

Three Kinds of Speaking Situations



Fig: Three Kinds of Speaking Situations

The speakers expressed their opinion in a thoughtful, convincing and passionate way through speaking skills. There are three kinds of speaking situations such as interactive, partially-interactive and non-interactive. Telephone calls and face-to-face conversations are included in interactive speaking situations where speaking and listening are alternatives in English. In the interactive speaking situations, there will be a chance to ask for repetition, clarification or request for a slower speech from the conversation partner. Therefore, interactive speaking situations are more useful situations both for the speaker and the listener as they can understand the matter without having any further doubts. Whereas in partially interactive situations, a speech is given to the live audience and the audience does not interrupt the speaker's speech. In partially interactive conversations, the speaker can directly see the audience and also judge from their facial expressions and gestures whether the participants have understood his/her speech or not. Here the audience can clarify their doubts through the question and answer (Q & A) session that generally takes place at the end of the speech presentation. On contrary to these two, in non-interactive speaking situations, there will not be any interaction of the audience where speakers have to just record their speech for a radio broadcast. In all these situations, speaking is a major problem for the ELLs as it involves many things and it is not so simple to acquire good speaking skills in a day or two. Moreover, the ELLs have to do continuous practice and allot more time on speaking skills as they are quite difficult to acquire without proper practice. Therefore, the best way to improve the ELLs' speaking skills is by giving more emphasis on practicing the speaking skills both in and outside the classrooms.

#### The Advantages of Speaking Skills

Even if there are four other skills in the English language, speaking skills are the most effective one among them as a majority of communication is done through speech. Therefore, speaking skills are the most important method of communication. There is no doubt that proficiency in each skill is necessary to become a well-rounded communicator, but the ability to speak skillfully provides the speakers with several distinct advantages. The main advantages of speaking skills are:

- To participate actively in pair or group activities in the classrooms.
- To give a maiden and impressive speech on different occasions.
- To participate actively in debates and group discussions.
- To develop critical thinking among the learners.
- To pursue higher studies in foreign countries.

- To interact with people all around the globe.
- To promote the sale of products in the business.
- To make living abroad simpler and easier.
- To get better employment opportunities.
- To make use of the internet effectively.
- To perform well in job interviews.
- To travel to a foreign country.
- To do good international business.
- To earn high respect in the society.
- To communicate effectively with others.
- To increase the income of the individual.
- To boost up the speakers' self-confidence.
- To know the different cultures of the world.
- To interact with people all around the globe.
- To get better employment opportunities all over the world.
- To increase the ability of problem-solving and critical thinking.
- To improve the overall development of the speaker's personality.
- To highly motivate and attract the customers in buying the products.

Since there are many advantages of speaking skills, the English teachers should concentrate more on these skills and give the best priority to them as they are very useful for the overall development of the ELLs' performance. Therefore, the EFL/ESL teachers have to implement different strategies and techniques in their teaching in order to make their learners proficient in their speaking skills. In this regard, the ELLs have to put their whole efforts to practice speaking skills and allot more time to such activities in order to prove themselves in the contemporary world.

#### **References:**

- Khamkhien, A. Teaching English speaking and English speaking tests in the Thai context: A reflection from Thai perspectives. *English Language Journal*, 2010. pp. 184-200. Online.
- Mc Cafferty, S. G., Jacobs, G. M. & Dasilva Iddings, A. C. Cooperative Learning and Second Language Teaching. New York: Cambridge University Press, 2006. Print.
- Nation, I. S. P., & Newton, J. Teaching ESL/EFL listening and speaking. New York: Routledge, 2009. Print.
- Thornbury, S. How to Teach Speaking. Pearson: Longman, 2005. Print.

## **СОВРЕМЕННЫЙ СТЕНД ДЛЯ КАЛИБРОВКИ И ПОВЕРКИ ВЛАЖНОСТИ ГАЗА**

Олимов Бехзод Бобир угли

Исматуллаев Патхулла

Кафедра “Метрология, Стандартизация и сертификация”, Ташкентский  
Государственный Технический Университет имени И.А.Каримова

**Аннотация:** В статье описывается новый современный стенд для калибровки и поверки влажности газа. Приводится принципиальная экспериментальная схема стенда для калибровки и поверки влажности газов основанный на метод точки росы.


Знание влажности воздуха и прочих газов может оказаться существенным не только для контроля различных физико-химических и биологических процессов, а также в метрологической сфере и контроля качества продукции и услуг. В настоящее время измерение влажности газов требует более индивидуальность и инновационный подход от ученых. В статье рассматривается одна из самая современная и приоритетная схема.

Стенд для калибровки и поверки влажности газов состоит из следующих частей:

1. Компрессор воздушный, без масляный, спиральный.
2. Бак воздухоприемный.
3. Фильтр предварительной очистки.
4. Холодный (рефрижераторный) осушитель.
5. Линейные и конечные фильтры.
6. Адсорбер-сушилка.
7. Воздухораспределительный агрегат.
8. Генератор влажности.
9. Зеркальный образцовый гигрометр.

С помощью компрессора наполняется воздухоприемный бак, Компрессор должен быть без масляный, потому что, рекомендуется не допускать масло в бак.

В нижней части бака поставлен специальный кран, который предназначен



для слива собранной воды из бака. После бака установлен 3 мкм фильтр предварительной очистки или его можно называть фильтром грубой очистки. Он состоит из обычной мелкой сетки, предназначенного для удаления крупных пылевых частиц воздуха. Такие фильтры устанавливаются практически на всех климатических оборудованьях и защищают от пыли не только людей, но и внутренности самих приборов и сосудов.

Далее установлен холодный осушитель. При холодной регенерации часть потока отделяется от главного потока осушенного сжатого воздуха; он используется в качестве очищающего и регенерирующего воздуха. Перед подачей воздуха в осушитель его давление снижаются. Следовательно, воздух должен быть сухим. Он подаётся таким образом, чтобы регенерировался нижний слой адсорбента, воздух поглощает накопленную в нём влагу и уносит её с собой наружу. Воздух после регенерации не должен снова попадать в поток сжатого воздуха, после регенерации он является отработанным воздухом, так как баланс между остаточной насыщенностью адсорбента влагой и парциальным давлением потока регенерирующего газа устанавливается относительно быстро, для холодной регенерации необходимы автоматически переключающиеся циклы продолжительностью от 3 до 10 минут.

После холодного осушителя можно видеть адсорбер-сушилки. Сжатый воздух, высушенный с помощью адсорбционных осушителей, применяется обычно в наружных установках, подтвержденных воздействию заморозков, а также при высоких требованиях по степени очистки и сухости воздуха. Адсорбционные осушители удаляют влагу непосредственно из сжатого воздуха. Используемый при осушении сорбцией сорбент удерживает молекулы воды в порах и тем самым отделяет влагу от воздуха. Адсорбционные осушители холодной регенерации разработаны для непрерывной эксплуатации и доступны для широкого диапазона объемного расхода и давления. Адсорбционные осушители состоят из двух колонн - адсорберов, заполненных зернами адсорбента, которые посредством переключения используются поочередно. Влажный сжатый воздух проходит через один из адсорберов, где влажность поглощается в высокой степени адсорбентом (процесс адсорбции). Тем

временем во втором адсорбере одновременно удаляется удерживаемая адсорбентом влажность (процесс регенерации). По мере достижения насыщенности адсорбента влагой в том адсорбере, в котором происходит процесс адсорбции, адсорберы переключаются и процесс начинается сначала.

После двух адсорбер-осушки установлены фильтры грубого и тонкого очистки соответственно размерами 1 и 0,01 микрон.

В конце сжатый очищенный воздух через бак проходит в воздухораспределительный агрегат. Одновременно, генератор влажности передает влажный поток в воздухораспределительный агрегат. Генератор влажности воспроизводит требуемой относительной влажности. Затем, в воздухораспределительном агрегате смешается осушенный и увлажненный поток. Смешанный поток идет в зеркальной образцовый гигрометр, затем, поток через гигрометр двигается в лоток, который установлены проверяемые влагомеры.

Соответственно показаниями зеркального образцового гигрометра сличаются установленные приборы в стенд.

#### **Источники:**

1. [www.amsystems.co.uk](http://www.amsystems.co.uk)
2. [www.hanaplant.co.kr](http://www.hanaplant.co.kr)

## **МАФКУРАВИЙ ТАРБИЯ: ЁШЛАР ДУНЁҚАРАШИГА ИНТЕРНЕТНИНГ ТАЪСИРИ**

Усманова Хулкар Маматовна  
Турсункулова Мафтуна Улуғбек қизи  
Гулистон давлат университети

Дунёда ғоявий ҳамда информацион хуружлар, турли мафкуравий, маънавий таҳдидлар авж олаётган бугунги кунда ёшларимиз маънавиятини юксалтириш, тафаккурида соғлом дунёқараш асосларини шакллантириш муҳим аҳамиятга эга. Бунинг энг самарали усули мафкуравий тарбияни тўғри ташкил этиш. Илмий адабиётларда қайд этилишича: “Мафкуравий тарбия - инсон, ижтимоий гуруҳ, миллат дунёқарашини шакллантиришга, уларни муайян мақсадларни ифода этадиган ғоявий билимлар билан қуроллантиришга йўналтирилган жараён”[1.250].

Ҳақиқатдан ҳам бугунги кун кишиси ахборотга ташна. Лекин у қандай ахборотни кузатиб бораётгани ва қизиқаётганини ўрганиб бориш зарурдир. Бунда ёшлар айнан қандай йўналишдаги ахборотларни кузатиб бораётгани ва ўз тафаккур тарзини қайси ахборот манбалари билан бойитаётганини ҳисобга олмоқ зарур. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 29-моддасида: “...Ҳар ким ўзи истаган ахборотни излаш, олиш ва уни тарқатиш ҳуқуқига эга, амалдаги конституциявий тузумга қарши қаратилган ахборот ва қонун билан белгиланган бошқа чеклашлар бундан мустасно”[2.11] - деб ёзиб қўйилган. Юқорида таъкидлаганимиздек, бу ҳолат жамиятда ахборотлардан фойдаланиш маданиятини шакллантириш ва мафкуравий тарбия жараёни учун муҳим асосдир.

“Дунёнинг ривожланган мамлакатларидан бири – Канадада ўн етти ёшгача бўлган 6 минг бола ўртасида ўтказилган тадқиқот натижасига кўра, улар интернетдан фақат ахборот олиш мақсадида фойдаланишмас экан [3.34].

Канада ёшларининг ярмидан кўпи Интернет ва компьютер технологияларини ота-оналаридан яхшироқ билишини аётган. Уларнинг 80%и мустақил равишда Интернетга уланишини, ота-оналари компьютерга ҳимоя воситаси бўлган филтрлаш дастурини ўрнатиб қўймагани ва фарзандлари қандай сайтларга киришини назорат қилмаслигини тан олишди. Умуман олганда, уларнинг 65%и фарзандлари Интернетдан фақат уй вазифасини тайёрлаш учун фойдаланади, деган фикрдалар” [3.35]. Буни Ўзбекистон ёшлари мисолида ҳам кўришимиз мумкин. Айниқса, Интернетга кириш бугунги кунда телефон қурилмалари орқали осонгина амалга оширилаётганини инобатга олсак, уларнинг мафкуравий ва маънавий тарбияларига нечоғлик таъсир кўрсатаётганини англаб олиш қийин эмас.

“Ёшларнинг кундалик турмуши тартибидаги машғулотларни алоҳида даражаларга бўлсак, бунда ёшлар илм олишни энг охирги ўринга қўйишар

эканлар. Улар асосан Интернет орқали муסיқа тинглайди, электрон манзилни текширади, хуллас вақтичоғлик қилади. Ёшларнинг учдан икки қисми Интернетга янги дўстлар орттириш ва ким биландир суҳбатлашиш мақсадида уланади, уларнинг 15 %и бу муносабатларни кейинчалик реал ҳаётда давом эттирар экан. Юқоридаги маълумотлардан шунақа хулоса келиб чиқмоқдаки, Интернет ривожини, у бераётган имкониятлар ўзига хос қарамликни келтириб чиқармоқда“[4.108]. Бу қарамлик ҳам ижобий, ҳам салбий жиҳатдан таъсир доирасига эга.

“Аслида интернетнинг қамраб олган соҳаларини, фаолият доирасини, унинг ижобий ва салбий таъсир хусусиятларини маълум маънода чегаралаб бўлмайди. Лекин умумий ҳолда ёшлар кундалик ҳаётида тутган ўрнини қуйидагиларда ифодалаш мумкин:

*биринчидан*, мазкур тармоқ орқали дунё воқеаларидан тезкор ва қулай равишда хабардор бўладилар;

*иккинчидан*, дунёнинг деярли барча нуқталаридан жонли тарзда суҳбатлашиш, дўстлар орттириш, илмий, ижтимоий-иқтисодий, савдо-сотиқ ва бошқа қатор соҳаларда ҳамкорлик қилиш имконияти мавжуд;

*учинчидан*, барча фанлар ва соҳалар бўйича кераклича маълумотлар, китоблар ва бошқа манбаларга эга бўлиш;

*тўртинчидан*, шу ердан туриб бирор-бир катта ютуқни қўлга киритиш, иш топиш, дунёнинг нуфузли олий ўқув юр்தларининг талабаси бўлиш ва бошқа қулайликлар мавжуд;

*бешинчидан*, реклама қилишнинг энг қулай, арзон ва ҳамма\боп воситаси ҳисобланади;

*олтинчидан*, ёшлар ўз иқтидорлари асосидаги синовлар, кўрик танловлар, мусобақалар, турли лойиҳалар ва бошқаларда бевосита турган жойидан туриб иштирок этишлари мумкин бўлади.

Бугунги кунда интернетнинг ижобий хусусиятлари билан бирга унинг кўрсатаётган салбий таъсири, уларнинг олдини олишдаги муаммолар борган сари кўпайиб бормоқда” [4.106]. Интернетнинг салбий таъсирлари қаторига “Оммавий маданият”, тақлидчилик, ғарбона идеалларга кўр-кўрона эргашиш, “Лудомания”, яъни ўйинбозлик, мазмунан саёз бўлган турли хил жанрдаги фильмларни томоша қилиш, порнографик видео ва расмлар, ўзини-ўзи ўлдириш – худкушлик, диний экстремизм ва терроризм домига тушиб қолиш ва ҳ.зо. Демак, бу каби иллатларнинг олдини олиш, унинг салбий жиҳатларини ёшлар ҳаётига таъсирини чеклаш бугунги куннинг долзарб муаммоларидан бири ҳисобланади.

“Ривожланган мамлакатларда ота-она назоратини амалга ошириш учун кўплаб технологиялар, филтрловчи дастурий таъминот яратилган. Филтрловчи дастурий таъминотнинг уч кўриниши бор: “қора рўйхат” (рўйхатга киритилган манбаларга чиқиш блокировка қилинади), “оқ рўйхат” (фақат рўйхатга олинган манбаларга кириш мумкин), “нейтрал маркировка” (ёмон сайтларнинг

рейтингини яратиш, унга кўра, фойдаланувчи қайси сайтларга кириш-кирмасликни ўзи ҳал қилади)” “[5.117]

Таклифимиз, айнан Ўзбекистонда ҳам мазкур назорат амалга оширилса, кўзлаган мақсадларимизга етган бўлар эдик. Бу ўринда ёшлар маънавиятига интернетнинг мафкуравий таъсирини камайтириш учун қуйидаги амалий таклифларни бериш ўринли:

-ёшларни зарарли ахборот оқимларидан ҳимоялаш учун, улар онгида мафкуравий иммунитетни шакллантириш лозим;

-ёшларда ахборот истеъмоли маданиятини шакллантириш ва интернет тармоғида маънавий-маърифий, мафкуравий тарғиботни кучайтириш зарур;

-ёшлар назоратини амалга ошириш учун оила, таълим муассасалари ва маҳалла ҳамкорлигини янада кенг йўлга қўйиш лозим.

Шунингдек, мамлакатимизда 2020 йилнинг “Илм-маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш” йили деб эълон қилинганлиги, ёшлар маънавиятини юксалтириш ва уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича 5 та муҳим ташаббуснинг учинчиси – аҳоли ва ёшлар ўртасида компьютер технологиялари ва интернетдан самарали фойдаланишни ташкил этишга қаратилганлигидан келиб чиқиб, интернет тармоғини миллий қадрият ва анъаналаримизни ўзида акс эттирувчи веб-саҳифалар билан бойитиш, таълим муассасаларини интернет тармоғига улашда одоб-ахлоқ қоидаларига мувофиқ бўлмаган веб-саҳифаларидан фойдаланишга чекловларни жорий этиш, ёшларда ахборот ресурсларидан фойдаланиш маданиятини шакллантириш керак.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, бугунги кунда глобаллашув жараёнидан четга чиқиш ёки унинг таъсиридан халос бўлиш имконсиз ҳолатдир. Ёшларимизни турли ғарбона маданият, ёт қадриятлардан асраб қолишда, биз уларга ўзлигимизни англаш зарурлигини уқтиришимиз даркор. Бунда бизнинг миллий қадриятларимиз, урф-одатларимиз, диний дунёқарашимиз ва аждодларимизнинг маънавий-маданий ютуқлари аҳамиятини ёшлар онгига сингдиришимизни тақозо этади. Демакки, мафкуравий тарбиянинг бу борада аҳамияти катта. Зеро, ёшларимиз тафаккурида мафкуравий иммунитетни шакллантириш орқалигина миллий маънавиятимиз ва миллий қиёфамизни сақлаб қолишимиз мумкин.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Фалсафа қомусий луғат. –Т.: Шарқ, 2004. -250 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2001. -11 б.
3. Умаров Б., Жабборов М. Глобаллашув ва ёшлар тарбияси. –Т.: Академия, 2011. -34 б.
4. Ёшларнинг жамиятга ижтимоий мослашуви (этносоциологик тадқиқот) – Т.: Тафаккур, 2014. -108 б.
5. Ғойибназаров Ш. Оммавий маданият. –Т.: Ўзбекистон, 2012. -117 б.

## **BIZNES MODELLARINI STRATEGIK YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

Avulchaeva Feruza Jo'raquzievna  
Tayanch doktorant, Farg'ona politexnika instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada biznes modellarining ahamiyati, sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligiga ta'siri, strategik boshqaruv modellarni ishlab chiqish bo'yicha talab etiladigan mezonlar yoritilgan hamda korxonalariga tatbiq etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** model, biznes modellari, iqtisodiy model, strategik boshqaruv modeli, iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy natijalar, boshqaruv tizimi

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash, qo'shimcha qiymatli mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, boshqaruv tizimini zamonaviy tamoyillar asosida tashkil etish hamda biznes jarayonlarini modellashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xududlarda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida klasterlar, erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalarini tashkil etilib, ularga bosqichma-bosqich zamonaviy biznes modellari joriy etilmoqda.

Sanoat tarmoqlarida korxonalar sonini ortishi tarmoq ichidagi raqobat muhitini yuzaga keltiradi, bunday sharoitda korxonalar samaradorligini ta'minlovchi biznes modelini ishlab chiqish talab etilmoqda. Shu bois 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish muhim vazifa etib belgilangan.<sup>1</sup>

Ustuvor vazifalarni samarali ijrosini ta'minlash bo'yicha zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq etilmoqda. Natijada sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiluvchi milliy biznes modellari rivojlanib bormoqda.

O'zbekistonda sanoat korxonalarining biznes modellarini aksariyati "iqtisodiy" yondashuvga yo'naltirilgan. Bu yondashuv birinchi navbatda korxonaning iqtisodiy modeli bilan bog'liq bo'lib, bunda asosiy e'tibor daromad olish va foyda olish mexanizmiga qaratiladi.

Iqtisodiy model korxonaning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi omillarni fundamental munosabatlarini aks ettiradi. Iqtisodiy model eng muhim masalalarni qisqacha, ixcham ko'rinishda ko'rsatish imkonini beruvchi iqtisodiy voqelikni soddalashtirilgan ko'rinishi hisoblanadi. Iqtisodiy model o'zgaruvchan

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

tashqi muhit omillariga tez reaksiya beradi, bu esa o'z navbatida, korxonaning faoliyatini o'zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchanligini ta'minlashga imkon beradi.

Korxonaning iqtisodiy modelini ishlab chiqishda asosiy e'tiborni iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgan tuzilmani ishlab chiqishga qaratish talab etiladi. Shu nuqtai-nazardan korxonaning iqtisodiy modelini ishlab chiqishda quyidagi talablarga muvofiq jarayonlarni tashkil etish lozim:

- korxonaning to'liq iqtisodiy modelini yaratish;
- korxonaning ko'p yillik moliyaviy holati bo'yicha prognoz tuzish;
- moddiy va moliyaviy oqimlarni tezkor boshqarish;
- daromadlar va xarajatlar byudjetini asoslash;
- korxonaning rivojlanishini strategik rejalashtirish vositasini yaratish;
- eng yaxshi investitsiya strategiyasini tanlash;
- fond bozorida aksiyalarning investitsion jozibadorligini oshirish imkoniyatlarini topish;

– korxonaning yuqori rahbariyati, investorlar va aktsiyadorlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni oldindan aniqlash va hal qilish yo'nalishlarini belgilash hisoblanadi.

Bugungi kunda jahon mamlakatlarida "strategik" yondashuv asosida biznesni modellashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Strategik" yondashuvda korxonaning bozordagi joylashuviga e'tibor qaratilib, biznesni strategik rejalashtirishni nazarda tutadi. Asosiy masalalar qatorida iste'molchi uchun qiymat yaratish, korxonaning bozorda raqobatchilardan ajratish, istiqbollarni ko'rish, manfaatdor tashkilotlar doirasini aniqlash, aloqalarni kengaytirish va ittifoq tuzish masalalarini qamrab oladi.

Shu nuqtai – nazardan mamlakatimiz sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini ta'minlashda "strategik" yondashuv asosida biznesni modellashtirishni talab etmoqda.

Biznes modellarini yaratish - bu tashkilotning tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirini, resurslarni xaridorlar uchun qiymatga aylantirish jarayonlarini, shuningdek resurslarni takror ishlab chiqarish va rejalashtirilgan faoliyatdan olinadigan foydalarni fundamental omillarini tahlil qilishga asoslanadi.

Biznes-modelni yaratish - bu tashkilot yoki loyiha doirasida davriy ish bo'lib, odatda kichik strategik sessiyalar (uchrashuvlar) shaklida amalga oshiriladi, uning davomida soddalashtirilgan biznes modeli yaratiladi va foyda keltiradigan omillar chuqur tahlil qilinadi. Ushbu ishning muhim qismi tahlil natijalarini hisobga oladigan va biznesning uzoq muddatli rentabelligini maksimal darajaga ko'taradigan farazlarni o'zida mujassam etgan yangi biznes modelini yaratish yoki o'zgartirishdir.

Biznes modeli bu tashkilot yoki biznes strategiyasi bilan bog'liq bo'lgan eng muhim jarayonlardan biridir. Bizning metodikamizga ko'ra biznes modelini yaratish kompaniyaning strategiyasini ishlab chiqishning ajralmas qismidir

Biznes modeli - bu kompaniyaning strategiyasini operatsion darajaga etkazish va o'zgartirishga yordam beradigan va shu sababli kompaniyaning strategik maqsadlariga erishish ehtimolini oshiradigan muhim tushuncha hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, strategiyani amalga oshirish natijasi har doim ham bu uchun ajratilgan mablag'ga va hatto strategik loyihalarni boshqarish sifatiga bog'liq emas. Avvalo, natija, amalga oshirilgan ishlar va sarflangan mablag'lar uchun bahona bo'lib xizmat qilmaslik uchun strategiyaning o'zi qanchalik amalga oshirilishi yoki sozlanishi bilan belgilanadi.

Bunday sozlash va strategik rejalar sifatini oshirish vositalaridan biri bu kompaniyaning biznes modelini qurish yoki agar kompaniya bir nechta bozorlarda ishlasa, bir qancha biznes modellarini uyg'unlashtirilgan to'plami hisoblanadi.

Biznes modellarini ishlab chiqishda "strategik" yondashuv bo'yicha bir qancha tadqiqot ishlari mavjud. Fred R. Devid, Djon L. Tompson modellari nisbatan ko'proq tanilgan. Strategik boshqarishni modellashtirish borasidagi farqlarga qaramay, ular o'rtasidagi umumiylik ko'proq. Eng avvalo aytish joizki, istalgan modelda strategik boshqaruvni uch bosqichdagi jarayoni ajratiladi:<sup>2</sup>

1. Strategik rejalashtirish bosqichi (strategiyalar ishlab chiqish, strategik taxlil va tanlov)


2. Strategik tashkillashtirish bosqichi yoki tanlash strategiyaga mos ravishda tashkiliy tizimni sozlash (strategiyani tadbiq etish, amalga oshirish )

3. Strategik nazorat va tartibga solish bosqichi (strategiyani baxolash, ishontirish va ijroni baxolash)

Strategik rejalashtirish bosqichida raqobatbardoshlik ustunliklari kapitalizatsiyasi va rivojlanishi, saqlab qolishi va erishishga olib keluvchi tashqi va ichki omillar izlanuvchanligi, strategik holat taxlili, uning missiyasini aniqlash orqali korxonaga strategiyasi aniqlanadi. Strategik tashkillashtirish bosqichida barcha resurslarni bir joyga keltirish va korxonaga ichidagi munosabatlari, barcha maqsad, vazifa va tanlangan strategiyaga mos ravishda ishchilar ma'sulligini amalga oshiriladi. Ayni shu yerda korxonaga kerakli tashkiliy o'zgartirishlar kiritiladi va uning tuzilmaviy boshqarmalari siyosati ishlab chiqiladi.

Tadqiqotchilar Devid va Tompson taklif qilayotgan modellarning eng kamida ikkita kamchiligi mavjud: Birinchidan, ular strategik boshqaruv jarayonini kelib chiqishi nuqtasi, boshlanish nuqtasi borasida ma'lumot bermaydi. Shuni taxmin qilish mumkinki, bunday nuqta tashkilot missiyasi hisoblanadi. Unda, agar missiya belgilansa, u hech qanday tuzatishlar kiritishga muxtoj emas. Ikkinchidan, bunday modellar strategik boshqaruvni taktik va operativ boshqaruv bilan o'zaro tashkiliy bog'liqligini yashiradi. Shuning uchun uning tashkilotni boshqarish tizimidagi roli yashirinligicha qoladi (1-rasm).

<sup>2</sup> Djalalova I.A., Tursunov R.T. © "Biznes strategiyasi" (o'quv qo'llanma). – T.: TDIU, 2011, -213 b



1-rasm . Strategik boshqaruv modeli ( John L. Thompson, 1993 bo'yicha)<sup>3</sup>

Strategik boshqaruv jarayonining boshlang'ich punkti biznes g'oyaning tug'ilishi va tadbiri qilinishi deb bilish ma'qullanadi. Biznes- g'oya bu xar qanday tijorat va ishlab chiqarish faoliyatini "ruxi" xisoblanadi. "Ruxsiz" biznes bo'lishi mumkin emas. Biznes-g'oya asosida tashkilotning maqsadlari yuzaga keladi, ya'ni pirovard natijada o'z faoliyatidan erishmoqchi bo'lgan natija paydo bo'ladi.

So'ngra tashkilotning muddatdagi o'z biznesining strategik bo'shliqini qayerdaligi va shuningdek maqsadining moslashuvidan kelib chiqib uning strategiyasi aniqlanadi. Qabul qilingan strategiyalar asosida ma'lum vaqtdan so'ng erishish lozim bo'lgan maqsadlar tizimi ishlab chiqiladi. Bu maqsadlar tashkilotning maqsad moslashuvi bilan o'zaro mos keladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, biznesni modellashtirish har qanday kompaniyaning strategik boshqaruvining muhim qismidir. Ammo haqiqatan ham samarali va yutuqli rivojlanish strategiyalari intellektual kapital, innovatsion yechimlar va samarali vositalardan iborat. Shuning uchun ko'rib chiqilayotgan usul yangi biznesni prototiplash va rivojlanish strategiyasining asosiy elementlarini aniqlash uchun eng muhim vosita hisoblanadi.

O'zaro bog'liq biznesni modellashtirish tadbirkorlar va menejerlarga iqtisodiy foyda olish yo'llarida chinakam innovatsion echimlarni topishga va bozor imkoniyatlaridan foydalanish uchun yangi kontseptsiyalarni yaratishga imkon beradi.

<sup>3</sup> Leyni T.A., Semenova Ye.A., SHilina S.A. Brend – Menedjment: Uchebno-prakticheskoe posobie. – M.: «Dashkov i K o », 2008, 142b.

Biznes modellarini ishlab chiqishda nafaqat iqtisodiy samaradorlikka balki istiqbolli strategik rivojlanish yo'nalishlarini ham e'tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy va xorijiy tajribada ko'rsatilgandek, korxonani strategik boshqarishda turli modellar qo'llaniladi.

Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda model, odatda, iqtisodiy va matematik usullar nuqtai nazaridan rasmiylashtirilgan iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni aks ettirishning bir turi sifatida tushuniladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida strategiya ishlab chiqish vositasi sifatida model tushunchasi keng tarqaldi, bu matematik munosabatlar shaklida rasmiylashtirilishi shart emas, balki davom etayotgan dinamizmni aks ettiradi.

Umuman olganda sanoat korxonalarining biznes modellarini ishlab chiqish va takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar tadqiq etildi:

- sanoat korxonalarini muayyan biznes modeli asosida faoliyat ko'rsatishi maqsadga muvofiq bo'lib, bunda korxonalar tomonidan aniq strategik dasturlar ishlab chiqilishi zarur;

- strategik boshqaruv modeli asosan sanoat korxonalarini uzoq muddatli missiyasini ishlab chiqish uchun qo'llaniladi, model moliyaviy mablag'larni ortishiga xizmat qiluvchi tuzilma ishlab chiqilishini talab etadi, shu nuqtai-nazardan barcha tuzilmalar faoliyati natijasini iqtisodiy samaradorlik darajasini baholash lozim;

- korxonani biznes modeli kuchli raqobat muhitiga moslashuvchan, iqtisodiy inqirozlarni oldini olishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

2. Djalalova I.A., Tursunov R.T. © "Biznes strategiyasi" (o'quv qo'llanma). – T.: TDIU, 2011, -213 b

3. Leyni T.A., Semenova Ye.A., SHilina S.A. Brend – menedjment: Uchebno-prakticheskoe posobie. – M.: «Dashkov i K o », 2008, 142b.

4. Avulchaeva F.J. Sanoat korxonalarini iqtisodiy boshqarish modellarini takomillashtirish yo'llari. *Biznes-Ekspert*, №7, 2020, 104 - 106 betlar

## BUG‘LATISH STANSIYASIDA SATH PARAMETIRLARINI BOSHQARISHNING AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH

Fayziyev Shavkat Ismatovich  
Sayfiyev Hasan Olim o‘g‘li  
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

**Maqola mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda mavjud ishlab kelayotgan bug‘latish jarayonida sath o‘lchash datchiki va texnologiyasi eski davrda o‘rnatilgan bo‘lib, bugungi kun talabiga mutlaqo mos kelmaydi. Birinchidan ma‘naviy eskirgan, ikkinchidan difmonometr orqali o‘lchash jarayonida xatoliklar va chetga chiqishlarning yuqoriligi shular bilan bir qatorda AKT qisman qilinganligi ya‘ni dispatcher bir vaqtning o‘zida barcha jarayon uchun javob berishi lozim.

**Tayanch iboralar:** Bug‘latish stansiyasi, Nasos, bug‘ pechi, Kondensatsiyalash qurilmasi, parlanish, xomashiyo, pasterizatsiya.

Tomat pastasi xaridorlar tomonidan turli xil taomlarni tayyorlashda keng qo‘llaniladi. Sanoatda tomat pastasi asosida turli xil souslar tayyorlanadi va oziq-ovqat mahsulotlarini konservalash uchun ishlatiladi. Zamonaviy sharoitda oxirgi iste‘molchi uchun tomat pastasi odatda yuqori sifatli konsentrlangan xomashyodan tayyorlanadi.




### Tomat pastasi ishlab chiqarish liniyasi

- Kir yuvish mashinasi
- Ishqalash mashinasi
- Vakuum apparati
- Gomogenizator
- Saqlash hajmi

Tarkibida quruq moddalar miqdori 28..30% bo‘lgan tomat pastasini olish uchun mo‘ljallangan .

Sath va boshqa parametrlarni aniqlovchi(o'lchovchi) qurilmalar va biz tavsiya etayotgan o'lchov qurilmalari bug'latish stantsiyasidagi sath o'lchov qurilmasi sifatida dif monometridan foydalanilgan bo'lib, uning o'lchov aniqligi bosim, harorat va temperatura o'zgarishiga to'g'ri proporsional o'zgarib turadi (bunda o'lchov aniqligida chetga chiqish holatlari kuzatilishi mumkin) va ko'rsatkich mexanik bolib tashqi tasirlarga tasirchan va qiymatni analog ko'rinishda ( datchikka induktor strelkasiga faqat to'g'ridan qarash kerak bo'ladi)



O'lchagichlarning tashqarida joylashganligi ham oz bo'lsada o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Hozirgi kunda ishchi holatda emasligi tufayli operatorlar shaffof tutash idish (hisoblagichni olib o'rniga shisha truba o'rnatilgan) orqali kuzatib borishmoqda.

Bu esa sath nazorati uchun bir kishi doimo kimdir mas'ul bo'lishiga to'g'ri keladi.



**Biz taklif etayotgan** sath o'lchash qurilma Deltabar FMD71 / FMD72. Elektron differensial bosimni o'lchash tizimi keramika qoplamali va transmitterga ega 2 ta sensordan iborat. Deltabar FMD71 elektron differensial bosimini o'lchash tizimi bosimli idishlar yoki distillash ustunlari / evaporatatorlarda bosim yoki suyuqlik darajasini, hajmini yoki massasini o'lchash uchun mo'ljallangan. Yuqori bosim (HP – Hight position) sensori gidrostatik bosimni o'lchaydi. Past bosim (LP - Low position) sensori suv ustunidagi bosimni o'lchaydi. Daraja ikkita raqamli qiymat yordamida transmitterda hisoblanadi. Ushbu tizim differensial bosimni o'lchashning

an'anaviy muammolarini bartaraf etadi.

#### *Qisqacha xususiyatlar*

- Xato: Bitta datchikning 0,075%, "PLATINUM" versiyasi: bitta datchikning 0,05%
- Ishchi harorat:  $-25 \dots + 150 \text{ }^{\circ}\text{C}$
- Bosim o'lchash oralig'i: 100mbar ... 40 bar (1,5 ... 600 psi)
- Ishchi bosim chegarasi abs./max : 60 bar (900 psi)
- Membrana materiallari: Ceramic 316L, AlloyC
- Ishlash doirasi: 100 mbar ... 40 bar (1,5 ... 600 psi)

#### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda – hozirgi kunda ishlatilayotgan texnologiyalar asosida bug'latish siyansiyasining sath parametrlarini axborot kommunikatsiya tizimi yordamida boshqarishimiz juda effektiv bo'ladi. Chunki bunda inson qo'l mehnatini keskin kamaytirishimiz va samaradorlikni sezilarli darajada oshirishimiz mumkin bo'ladi

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Tomat ishlab chiqarish liniyasi haqda [https://www.agro-mash.ru/ob-proizv\\_tomat-pasta.htm](https://www.agro-mash.ru/ob-proizv_tomat-pasta.htm)
2. <http://www.ru.endress.com> Руководство по эксплуатации Deltabar FMD71, FMD72
  - <https://www.ru.endress.com/ru/Tailor-made-field-instrumentation/izmerenie-davleniya/Deltabar-FMD71> Deltabar o'lchagichlari haqida qisqacga malumotlar
3. Инструмент выбора "Applicator Sizing Electronic dp", доступный бесплатно на веб-сайте Endress+Hauser ([www.ru.endress.com/applicator](http://www.ru.endress.com/applicator)).
4. Дополнительная информация и файлы представлены на вебсайтах:
  - [www.ru.endress.com](http://www.ru.endress.com)
  - [www.hartcomm.org](http://www.hartcomm.org)
5. N.R.Yusufbekov, H.S.Nurmuhammedov, S.G.Zokirov. Kimyoviy texnologiyasi asosiy jarayon va qurilmalari. -T.: "Fan va Texnologiya", 2015, 848 bet.
6. RS485 haqida ma'lumot <https://ru.wikipedia.org/wiki/RS-485>

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR**

Tojikhujueva Nilufar  
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston Respublikasining turizm sohasining rivojlanish istiqbollari ko'rib chiqilgan, shuningdek bu sohani yanada rivojlantirish, Jahon mamlakatlari bilan olib borilayotgan xalqaro shartnomalar va olib borilayotgan chora tadbirlar misol qilib keltirilgan. Respublikada turistik salohiyatdan samarali foydalanishga to'sqinlik qilayotgan asosiy sabablar aniqlangan va quyidagi vazifalar keltirilgan. Turizm sohasida davlat siyosatining maqsadiga erishish.

Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylangan. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini modernizatsiya qilish, sohani barqaror rivojlantirish uchun me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish va takomillashtirish, chet ellik mehmonlarga xalqaro standartlarga muvofiq ravishda xizmat ko'rsatishni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz bu sohada muhim yutuqlarga erishdi, shu bilan birga xalqning tarixiy va madaniy merosini saqlash va ko'paytirish, milliy urf-odatlar va an'analarni tiklash, Respublikaning diqqatga sazovor joylarini tiklash va tartibga solishda bir qator ishlar amalga oshirildi. Respublikamizda zamonaviy, yuqori samarali va raqobatbardosh turistik kompleksni yaratish uchun mustahkam me'yoriy-huquqiy baza shakllantirildi.

1999 yil 20 avgustda qabul qilingan "Turizm tog'risida"gi qonun yurtimizda turizm sohasiga bo'lgan e'tibor yanada kuchayganidan dalolat beradi. Qonunga ko'ra, turizm infratuzilmasini takomillashtirish, shu jumladan investitsiyalarni jalb qilish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish, ta'lim va axborot faoliyatini kuchaytirish, soha mutaxassislarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha maqsad va chora-tadbirlar mavjud. 1992 yilda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning Farmoni bilan "O'zbekturizm" milliy kompaniyasining tashkil etilishi turizmning milliy modelini shakllantirishda muhim qadam bo'ldi.

O'sha vaqtdan beri ushbu tuzilma sanoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirdi, tegishli kadrlarni tayyorladi, yangisini yaratishda va mavjud moddiy-texnika bazasini kengaytirishda ichki va tashqi investitsiyalar oqimini rag'batlantirib kelmoqda. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan chora-tadbirlar samarasini go'zal zaminimizga sayyohlar sonining ortishidan bilish qiyin emas. Har yili, O'zbekistonga dunyoning turli burchaklaridan ikki milliondan ortiq odam tashrif buyuradi. Mamlakatimiz ayniqsa, Germaniya, Fransiya, Italiya, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Malayziya, Rossiya va Hindiston fuqarolari orasida mashhurdir. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, O'zbekiston xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faol rivojlantirmoqda, ushbu istiqbolli yo'nalishda

hamkorlikni chuqurlashtirish bo'yicha turli xil tashabbuslar bilan muntazam chiqib keladi. Ichki turizm sohasida muhim voqealardan biri Respublikamizning 1993 yilda BMTning Butunjahon turizm tashkilotiga (UNWTO) kirishi bo'ldi. U bilan hamkorlik doirasida 1994 yilda dunyoning 19 mamlakati Ipak Yo'li bo'ylab turizm tog'risida Samarqand deklaratsiyasini qabul qildi. 1999 yilda UNWTO, Yunesko va Yevropa Kengashi tomonidan qo'llab-quvvatlangan Turizm va madaniy merosni saqlash tog'risida Xiva deklaratsiyasi qabul qilindi. 2000 yilda Ipak Yo'li bo'ylab turizm togrisida Buxoro deklaratsiyani, unda barqaror turizmning afzalliklari ta'kidlangan va bu yo'nalishda madaniy va ekologik turizmi rag'batlantirish bo'yicha aniq qadamlar belgilangan. Bundan tashqari, respublikaning jahon sayyohlik sanoatidagi alohida o'rnini e'tirof etish uchun 2004 yilda Samarqandda rivojlanishni muvoffiqlashtirish bo'yicha UNWTOning mintaqaviy vakolatxonasi ochildi.

Shuni ta'kidlash kerakki, bunday vakolatxona faqat 2 mamlakatda Yaponiya va O'zbekistonda mavjud. Uning asosiy vazifasi nafaqat mintaqaviy balki xalqaro turizmni rivojlantirish yo'nalishlarini ko'rsatishdan iborat. Mamlakatimiz salohiyati turli davrlar va sivilizatsiyalarga oid 70 mingdan ziyod moddiy madaniy meros obyektlari, jumladan, Yuneskoning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan Buxoro, Xiva, Samarqand va Shahrisabz tarixiy markazlari, shaharlar, O'zbekistonning noyob tabiati, milliy taomlari, shuningdek xalqimizning mislsiz mehmondos'tligi sayohatchilarni jalb qiladi. Mamlakatimizda 1176 turistik tashkilot muvoffiqiyatli faoliyat yuritmoqda. Shu jumladan 621 turoperator, 555 mehmonxona korxonasi, 25 mingdan ziyod o'rindiqli mehmonxonalar tarmog'i zamonaviy xalqaro standartlarga javob beradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston sayohatlarning yangi turlarini, jumladan, ekologik turizmni faol ravishda joriy etmoqda. Respublikada qo'riqxonalar, milliy bog'lar, pitomniklar, tabiat qiriqxonalari, tabiiy yodgorliklar, biosfera qiriqxonasi ekoturizmni juda istiqbolli yo'nalishga aylantiradi. Bundan tashqari, mamlakatimizda geoturizm, tabiiy turizm, shuningdek alpinizm va ro.. rivojlangan. Hududlarda dam olish maskanlari va qulay infratuzilma obyektlari barpo etilmoqda. Turizm sanoatining hozirgi o'sish dinamikasi, mavjud haqiqatlar va istiqbollarni hisobga olgan holda, unga kadrlar tayyorlash turizmni modernizatsiya qilish zarurligini tasdiqlaydi.

O'zbekistonda turizm sohasini jadal rivojlanishini ta'minlash, mamlakatning jahon bozorida obro'sini shakllantirish va saqlashda respublikada muntazam ravishda o'tkazib turiladigan yirik tadbirlar muhim rol o'ynaydi. Har yili o'tkaziladigan eng muhim tadbirlardan biri "Ipak yo'lidagi turizm", Toshkent xalqaro sayyohlik yarmarkasi. Markaziy Osiyoda alohida e'tiborga loyiq yarmarkada turizm sohasining ilg'or vakillari ko'rishib, turizm sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha turli suhbatlar, shartnomalar muhokama qilinadi.

Mamlakatimiz vakillari respublikamizning turistik salohiyatini namoyish etish maqsadida chet ellarda o'tkaziladigan xalqaro yarmarka va ko'rgazmalarda ham doimiy ravishda qatnashadilar. Ularda ishtirok etish, jahon sayyohlik bozorida so'ngi tendensiyalardan xabardor bo'lishga, biznes shartnomalar tuzishga va chet ellik

shariklar bilan hamkorlikni rivojlantirishga imkon beradi. Shunday qilib O'zbekistondagi sayyohlik sanoatining jadal rivojlanishi, tarixiy va madaniy merosga hurmat, xalqaro standartlarga to'la mos keladigan infratuzilmalar yaratish, xalqaro aloqalarni mustahkamlash mintaqamizni eng rivojlangan mintaqaga aylantirdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. "Tourism in Uzbekistan: opportunities and new challenges" Musaev H.H.,
2. "Современное состояние и тенденции развития индустрии туризма в Узбекистане" Нарзиев М., Бабакулов А., Ерманов А.
3. "Development of tourism in Uzbekistan: problems, international cooperation, perspectives", Scientific project "Evolution of national statehood of Uzbekistan", URL: <http://www.uzstathood.uz>.
4. The UNWTO World Tourism Barometer, URL: <http://mkt.unwto.org/barometer>.
5. "Туризм станет стратегическим сектором экономики" URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2016/12/06/tourism/>
6. <http://www.ich.uz/en/> Intangible cultural heritage of Uzbekistan
7. <https://uzbektourism.uz/legislation>

## **O'ZBEKISTONDA TARJIMA NAZARIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

Abdunosirova Zarinaxon Anvarjon qizi

Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti ingliz tili va adabiyoti fakulteti  
2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekistonda tarjima nazariyasi va uning rivojlanish bosqichlari haqida fikrlar yuritilgan. Shu bilan birgalikda, tarjimaning maqsadi va vazifalari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** tarjima, rivojlanish, vazifalar va boshqalar

Keyingi yillarda yuzaga kelayotgan lingvistik tadqiqotlarda tarjima muammolariga katta e'tibor berilmoqda. Lingvistik tarjimashunoslik bo'yicha yaratilayotgan ko'pchilik tadqiqotlarda tarjima nazariyasi va amaliyotining juz'iy masalalari bilan bir qatorda mazkur sohaning mohiyatini aks ettiradigan umumnazariy muammolar ustida ham keng ko'lamda bosh ko'tarilmoqda. Bu hol lingvistik tarjimashunoslikning tadqiqotchilar e'tiborini borgan sari koproq o'ziga tortayotganligidan dalolat beradi. Tarjimaga lingvistik tarjimashunoslik nuqtai-nazaridan yondashib, quyidagicha tarif berish mumkin: Insoniyat faoliyatining murakkab shakli bo'lmish tarjima bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani (matnni), uning shakl mazmun birligini saqlagan holda, o'zga til vositalari asosida qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayondir. Demak, asliyat mansub bolgan til vositalari yordamida yaratilgan nutqiy ifoda (matn) tarjima tili qonuniyatlari asosida vujudga kelgan shunday ifoda bilan almashtiriladi. Shu yo'l bilan asliyat va tarjima tillari matnlarining mazmuniy-uslubiy adekvatligi yuzaga keltiriladi.

Mazkur ta'rif tillararo amalga oshiriladigan jarayonga aloqador bolib, insoniyat faoliyatining koproq qismi mazkur amaliyot bilan bog'liqdir. Shu tufayli "Tarjima" deganda aksariyat kishilar ko'z oldiga, birinchi navbatda, bir tildagi matnni ikkinchi tilga o'girish faoliyati namoyon bo'ladi. Tarjima insoniyat faoliyatining eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, u tufayli biz insoniyat taraqqiyoti tarixini barcha tafsilotlar bilan ochiq-oydin tasavvur etamiz. Tarjima xalqlar xalqasidagi do'stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, ular xalqidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi qudratli quroldir.

Tarjima turli xalqlar adabiyotlarining o'zaro aloqasi va bir-biriga ta'siri jaray

Muallif yaratgan badiiy-estetik voqelikni to'laligicha idrok etish uchun tarjimon keng mushohada quvvatiga ega bo'lgani holda, badiiy tarkib asosida lisoniy vositalarning mazmuniy va uslubiy-estetik jihatlarni to'g'ri anglashi, shu bilan birga muallif nazarda tutgan bosh g'oyani, uning niyat va maqsadlarini, ochiq oydin ko'zga tashlanib turgan voqea hodisalar tasviridan tashqari yana matn ortida turgan vokelikni, bir so'z bilan aytganda nafaqat lisoniy, balki g'ayrilisoniy omillarni ham to'la-to'kis tasavvur etishi zarur. Toki natija shunday bo'lsinki, asliyat o'z kitobhoniga qanday

badiiy- estetik zavq bahsh etsa, uning tarjimasini ham asarni asliyatda mutolaa qila olmaydigan kitobxonga huddi shunday taassurot in'om etsin. Kitobxon tarjimada zavq-shavq uyg'ota olmaydigan asarni muallif tomonidan past saviyada bitilgan, deb baholaydi, ya'ni yaxshi qilinmagan tarjima kitobxon tasavvurini chalgitadi.

Tarjimaning vazifasi - asliyat va tarjima tillari leksik, grammatik va stilistik hodisalari xalqasidagi uyg'un hamda tafovutli jihatlarni puxta o'zlashtirib olgan holda, asliyatning shakl va mazmun birligini ona tili vositalari yordamida qaytayaratishdan iboratdir. Bu tamoyilga rioya qilmaslik tarjimada aniqlikning, to'la to'kislikning, demakki, ifoda me'yorining buzilishiga, harfxorlikning sodir bolishiga olib keladi. Asl nusxa muallifidan voqelikni togri aks ettirish talab etilsa, tarjimondan asl nusxani bekamu-ko'st talqin etish talab qilinadi.

Tarjimada asl nusxaning shakl va mazmun birligini, yaxlitligini bejirim ifoda etish uchun tarjima tilida muqobil ifoda vositalari qidirib topish zarurati tug'iladi. Bu jarayon asl nusxa mazmunini o'zga tilda ifoda etishning qator imkoniyatlari orasidan eng maqbulini tanlab olishni taqozo etadi. Asl nusxa va tarjima tillari lisoniy imkoniyatlari odatda ozaro uyg'unlik holatida bolmasligi, yani ikki til soz va iboralarning mazmuni bilan estetik qiymati qator matniy holatlarda bir-birining ornini qollay olmasligi talay tarjimaviy qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bunday hollarda ifodaning badiiy-estetik qiymatini qaytayaratish tarjimaning asliyat matniga moddiy jihatdan emas, balki vazifaviy monand kelishini taqozo etadi. Tarjimaviy muammolarni hal qilish tarjimondan puxta filologik bilim va tegishli nazariy tayyorgarlikni talab qiladi. Tarjimon nazariy bilimni tarjima amaliyoti tahlili asosida ehtiyoj tufayli vujudga kelib, keng kolamda faoliyat korsatayotgan tarjima nazariyasidan oladi.

Mamlakatimizda tarjimachilik hozirgi kunda o'z tarixiga, rivojlanish xususiyatlariga, an'alariga, tadqiqot metodlariga hamda tamoyillariga ega bolgan ijodiy jarayonga aylanib qoldi. Uning nazariy asoslari tadqiqotchilar tomonidan yanada chuqurroq organilmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Karimov I. A. The most Important Tasks of Intensification of Democratic Reforms at the Present Stage. □ Tashkent: Uzbekistan, 1996. – b. 296.
2. Do'stmuhammedov J. Inglizcha ijtimoiy – siyosiy va umumiy qisqartirishlar. Toshkent: O'qituvchi, 1979.
3. Jalolov A. Xonazarov Q. Mustaqillik izohli ilmiy – ommabop lug'at. □
4. Toshkent: SHarq, 1998. □ b. 317

**BETAKROR SHOIR ABDULLA ORIPOV**

To'xtayev O'rin

TIQXMMI Qarshi filiali QXM fakulteti SXM ta'lim yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** O'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan atoqli shoir, taniqli jamoat arbobi, O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi muallifi, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning betakror ijodiy merosi haqida ma'lumotlar.

**Kalit so'zlar:** Shoir, noyob iste'dod egasi, yosh avlod tarbiyasi, Vatan

Abdulla Oripov - noyob iste'dod egasi. Chuqur falsafiylik, milliy ruh, diniy-axloqiy mezonlarga sadoqat shoir she'riyati asoslarini tashkil etadi. O'zbek xalqining milliy tiklanishi, hurfikrlilik va mustaqillik uchun kurashida Abdulla Oripov she'riyati katta o'rin tutadi. O'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan atoqli shoir, taniqli jamoat arbobi, O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi muallifi, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning betakror ijodiy merosi, uning Vatanga muhabbat, vafu va sadoqat tuyg'usini, olijanob insoniy fazilatlarni madh etgan yetuk badiiy asarlari, sermazmun hayoti va ijtimoiy faoliyatining xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, yosh avlod tarbiyasidagi beqiyos o'rni va ahamiyatini inobatga olib hamda tavalludining 80 yilligini munosib nishonlash va xotirasini abadiylashtirish kerakli aytili

O'zbekiston xalq shoiri, taniqli jamoat arbobi Abdulla Oripov 1941 yili Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Neko'z qishlog'ida dunyoga keldi. O'rta maktabni 1958 yili oltin medal bilan tugatgach, Toshkent Davlat universiteti filologiya fakultetining jurnalistika bo'limiga kirib, uni 1963 yili muvaffaqiyat bilan bitirdi.

1968 yildan buyon turli nashriyotlarda muharrir, Yozuvchilar uyushmasida kotib vazifalarida xizmat qilib keldi. Mualliflar huquqini himoya qilish agentligining raisi. Hozirgi kunda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisidir.

Abdulla Oripovning ijodi talabalik yillarida boshlangan bo'lib, uning birinchi she'rlar to'plami «Mitti yulduz» 1965 yili chop etilgan. Keyin shoirning «Ko'zlarim yo'lingda» (1967), «Onajon» (1969), «Ruhim» (1971), «O'zbekiston», «Qasida» (1972), «Xotirot» (1974), «Yurtim shamoli» (1974), «Hayrat» (1979), «Najot qal'asi» (1981), «Yillar armoni» (1983) she'riy to'plamlari bosilib chiqdi. Mazkur to'plamlarga kirgan she'rlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, ularda shoirning she'rdan-she'rga, to'plamdan-to'plamga, yildan-yilga o'sib, ijodi barkamollashib borganligiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, 70-yillardan keyingi asarlarida hayot va inson, jamiyat va tabiat haqidagi falsafiy mushohadalarining tobora chuqurlashib borayotganligi seziladi. Kuchli ehtirosli tuyg'ular ularda o'zining yuksak talqinini topib boradi. Bu, bora-bora teran fikr bilan yuksak badiiylkning omuxtasiga aylanib, shoirning ijodiy kamolotga erishganidan darak beradi.

Bunga Abdulla Oripovning «Saylanma» (1996) to'plamini o'qib amin bo'lishimiz mumkin. Ayniqsa, istiqlol g'oyasi, el-yurt mustaqilligi, ona Vatanni ozod va obod ko'rish istagi satrdan-satrga parvarish topib, ajib bir porloqlik hosil qiladi. Shoirning «Men nechun sevaman O'zbekistonni», «O'zbekistonda kuz», «Kuz» kabi 60-yillarda yozilgan she'rlaridayoq istiqlol nurlari jilva qilgandek bo'ladi. Xullas, Vatan va xalqqa mehr-muhabbat, tabiatni sevish, ardoqlash, imonli, vijdonli insonlarga madhiyalar o'qish, goh yig'lab, goh quvonib kuylash shoir tuyg'ulari ummonini tashkil etadi.

Abdulla Oripov ijodining hozirgi bosqichi yana ham tuyg'ularga boy, fayzli va serbarakadir. Jumladan, «Haj daftari» (1992) turkumiga kirgan she'rlarida endi shoir ma'naviyatimiz manbalarini kashf etish yo'lidan boradi. Qur'oni Karim, Hadisi shariflardan zamonaviy ma'nolar izlaydi va topadi. U dostonnavis va dramaturg sifatida ham ma'lum va mashhurdir. Xususan, «Jannatga yo'l» dostoni va «Sohibqiron» (1996) she'riy dramasi shoirga katta shuhrat keltirgan asarlardir.

Abdulla Oripov iste'dodli tarjimon sifatida Dantening «Ilohiy komediya» asarini o'zbek tiliga yuksak mahorat bilan o'giran. Nekrasov, L.Ukrainka, Shevchenko, R.Hamzatov, Q.Quliyev asarlarini ham ona tiliga tarjima qilgan. U O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining muallifi hamdir. 2000-2001 yillarda Abdulla Oripov asarlarining to'rt jildi nashr qilinib, keng kitobxonlar ommasiga manzur bo'ldi. Ijodkorning she'riy majmualari qator xorijiy tillarga tarjima qilingan va alohida kitob holda nashr etilgan. Abdulla Oripov - noyob iste'dod egasi. Chuqur falsafiylik, milliy ruh, diniy-axloqiy mezonlarga sadoqat shoir she'riyati asoslarini tashkil etadi. O'zbek xalqining milliy tiklanishi, hurfikrlilik va mustaqillik uchun kurashida Abdulla Oripov she'riyati katta o'rin tutadi.

Xulosa: O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotining laureati, Kaliforniya (AQSH) Fan, Ta'lim, Sanoat va San'at xalqaro akademiyasining haqiqiy a'zosidir. Mustaqilligimizning yetti yilligida unga birinchilardan bo'lib «O'zbekiston Qahramoni» degan yuksak unvon berildi.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Qahramoni va xalq shoiri Abdulla Oripov avalludining 80 yilligini keng nishonlash to'g'risida
  2. Abdulla Oripov. Najot qal'asi. — G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1980.
  3. Abdulla oripov. Surat va siyrat. — “Yosh gvardiya” nashriyoti, Toshkent, 1981.
  4. Abdulla Oripov. Mitti yulduz. — Toshkent, 1965.
- [http://mustaqillik.uz/oz/pages/aripov\\_abdulla](http://mustaqillik.uz/oz/pages/aripov_abdulla)

## **ТВОРЧЕСТВО ДОСТОЕВСКОГО – НОВЫЙ ТИП ХУДОЖЕСТВЕННОГО МЫШЛЕНИЯ В ЛИТЕРАТУРЕ XIX ВЕКА**

Азмиев Шермат Нурилла угли  
УзГУМЯ, магистрант

**Аннотация.** В статье рассматриваются новый тип художественного мышления в литературе XIX века в творчестве Достоевского. Творчество Достоевского, его художественное восприятие мира настолько ново, своеобразно и гениально, что он навсегда вошел как новатор в историю мировой литературы.

**Ключевые слова:** психологического направления в литературе, поэтика, символического реализма, сюжет, противоречивость творчества.

Творчество Достоевского развивалось в русле психологического направления в литературе, ставшего господствующим в XIX веке и сохранившим свое лидирующее положение и в XX столетии. Вклад писателя в развитие мировой литературы определяется, прежде всего, разработкой нового творческого метода - «символического реализма» - и созданием на его основе символического трагедийного идеологического романа - одной из самых оригинальных моделей философско-психологической прозы. В нем наиболее адекватно запечатлен образ новой эпохи через духовную трагедию героев и их идейные искания. Писатель с предельной остротой поставил проблему личности и ее судьбы, ее отношения к Богу и народу как важнейшую мировую проблему. Заглянув в глубину души человека, в сферу психики и человеческого бытия, найти новое измерение личности не только по наличному состоянию, но и по духовно-психологическому потенциалу был художественно реализован через радикальное обновление творческого метода и поэтики романа. Его мысль и творчество отличаются полемической заостренностью, стремлением критически переосмыслить и освоить философское и художественное наследие, выработать новый, современный тип мышления, соответствующий новому состоянию мира.

Достоевскому в высшей мере свойственно умение через историческое и злободневное выразить вечное и универсальное, видеть тенденции и перспективы исторического и духовного развития человечества. Философско-психологический роман указанного периода отразил трагическое содержание новой эпохи, деформацию системы духовных ценностей.

Творчество Достоевского, его художественное восприятие мира настолько ново, своеобразно и гениально, что он навсегда вошел как новатор в историю мировой литературы.

Главной художественной особенностью романа «Преступление и наказание» является тонкость психологического анализа. Психологизм в русской литературе был известен давно. Сам Достоевский использует также традиции М. Ю. Лермонтова, который стремился доказать, что «история души человеческой...

едва ли не интереснее и не поучительней истории целого народа». Для Достоевского в романе характерно проникновение в психологию изображаемых героев (будь то кристально чистая душа Сони Мармеладовой или темные изгибы души Свидригайлова), стремление не только передать их реакцию на имеющиеся тогда отношения между людьми, но и мироощущение человека в данных социальных обстоятельствах (исповедь Мармеладова).

Раскрыть душу, мироощущение героев помогает автору прием полифонии, многоголосия в романе. Каждый герой помимо участия в диалогах произносит бесконечный «внутренний монолог», показывающий читателю, что делается в его душе. Достоевский строит все действие романа не столько на реальных событиях и их описании, сколько на монологах и диалогах героев (сюда вплетается и его собственный голос, голос автора). Писатель тонко передает речевые особенности каждого образа, очень чутко воспроизводит интонационную систему речи каждого персонажа (это хорошо заметно в речи Раскольникова). Из этой творческой установки исходит и еще одна художественная особенность романа - лаконичность описаний. Достоевского интересует не то, как выглядит человек, а что за душа у него внутри. Так и получается, что из всего описания Сони запоминается одно только яркое перо на шляпке, совершенно не идущее к ней, а у Катерины Ивановны - яркий «не то платок, не то шаль», которую она носит.

Важной художественной особенностью можно считать и то, что роман «Преступление и наказание» требует от нас глубинного философского осмысления. Герои его (особенно Раскольников) - люди ищущие, одержимые одной идеей. Такой идеей, заставляющей главного героя забыть о собственном благополучии, становится идея о «крови по совести». Достоевский обсуждает ее с читателем, Родион с Мармеладовым, Порфирием Петровичем, с читателями в статье, написанной им.

Особенности психологизма прозы Достоевского, на наш взгляд, заключаются в следующем:

1. Достоевский изображает колебания от одной крайности к другой, движение сознания и подсознания между двумя безднами. В таком состоянии постоянно находится Раскольников.

2. Человеческая душа, по мнению Достоевского, во многом необъяснима и загадочна. Непредсказуемость внутреннего мира постоянно подчеркивается. Передаче психических переломов всегда сопутствует слово «вдруг».

3. Для создания психологической атмосферы используются эпитеты, указывающие на крайнюю степень внутренней напряженности. Используются детали внешнего, предметного мира, например интерьер, пейзаж, гамма цветов и запахов.

У Достоевского есть психологическая напряженность переживаний душевных конфликтов. Ему свойственно описание мельчайших деталей, черточек, которым

придается огромное значение. Свойственен поучающий тон проповедника, моралиста-наставника. Он хочет «переделать», или, «спасти мир» от «зла».

Неустаннне поиски справедливости порой заводили писателя в тупик, но и в самые тяжелые для писателя и для русского народа годы он продолжал искать путь избавления человечества от страданий и бед, которые несет с собой антигуманный строй. Этими мучительными поисками пронизаны его многие романы.

#### **ЛИТЕРАТУРА:**

1. Достоевский Ф.М. Братья Карамазовы. М., 1973. С. 263
2. Ницше Ф. Так говорил Заратустра // Ницше Ф. Собр. сочинений в 2-х т. М., 1989. Т. 1. С. 395.
3. Хейзинга Й. Homo ludens. М., 1992. С. 24.
4. Берн Э. Игры, в которые играют люди. Люди, которые играют в игры. Л., 1992. С. 37.
5. Барт Р. Мифологии. М., 1996. С. 67. 6: Там же. С. 61.
6. Медвецкий И. Е. Модель игрового сознания в романе Ф.М. Достоевского «Идиот» // Филологические науки. 1991. X® 3. С. 28.
7. Достоевский Ф.М. Братья Карамазовы. М., 1973. С. 14.
8. <https://rvb.ru/dostoevski/>

## **ТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ И ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ ПУСТЫННОГО ТУРИСТИЧЕСКОГО КЛАСТЕРА**

Таирова Мавлуда Мухаммедризаевна  
Темирова Дилноза Ахтамовна  
Бухарский Государственный Университет

**Аннотация:** В данной статье исследуется потенциал туризма с точки зрения культурно-исторических ценностей Бухары, качества услуг в сфере этнического, экологического, туризма, развития сельского и гастрономического туризма и предлагаются предложения по его улучшению. После негативного воздействия пандемии на экономику, особенно на туризм, проведен анализ стратегических планов Узбекистана по развитию и продвижению туризма, особенно в Бухаре.

**Ключевые слова:** Туристический потенциал, административный центр, спрос, турист, путешествие, шёлковый путь, потенциальный турист, туристическая индустрия.

Туризм - это отрасль, которая может оказать существенное влияние на социально-экономическое развитие регионов. Этот тип экономики имеет мультипликативный эффект, который обеспечивает получение доходов в смешанных секторах экономики.

Бухара - один из древнейших городов Средней Азии и один из крупнейших и самых известных торговых центров на Великом шелковом пути. Город известен во всем мире своей богатой и уникальной историей, сформировавшейся на протяжении тысячелетий, которая тесно связана с важнейшими этапами развития мировой цивилизации и внесла огромный вклад в развитие культуры, просвещения, духовные и религиозные ценности.

Бухарская область является одним из основных туристических городов Узбекистана благодаря высокому туристическому потенциалу, географическому положению в центре страны, расположенному на Великом шелковом пути.

Бухара - это «город-музей» с более чем 140 памятниками средневековой архитектуры. Многие памятники, такие как Пойи Калон, Кошмадраса, Минорай Калон и мавзолей Исмаила Сомони, были построены тысячи лет назад и до сих пор привлекают посетителей. В исламском мире название Бухара используется с добавлением Шариф, что означает Мукаддас. Следует отметить, что Бухара была объявлена культурной столицей исламского мира в 2020 году Исламской организацией по вопросам образования, науки и культуры (ИСЕСКО).

По итогам количество туристов, посетивших регион в январе-октябре 2019 года, составило 2,8 миллиона человек. Это в 1,5 раза больше, чем за аналогичный период прошлого года (1,8 миллиона). При этом количество

иностранных туристов составило 403,7 тысячи, увеличившись в 2,4 раза (169,0 тысячи на конец 2018 года).

Если мы посмотрим на анализ иностранных туристов по странам, 45% всех иностранных туристов приезжают из европейских стран. Это означает, что эти страны заинтересованы в региональном туристическом потенциале.

В 2017 году в области было 33 туристических компании, в 2018 году их количество достигло 56, а в октябре 2019 года - 108. В 2017 году в регионе также работают 65 переводчиков, в том числе 25 профессиональных гидов, 10 гидов среднего уровня, 110 переводчиков в 2018 году, в том числе 25 профессиональных гидов, 46 гидов среднего уровня и 211 переводчиков в октябре 2019 года, включая профессиональных гидов. Количество гидов составило 112, а количество промежуточных направляющих - 99.

Сегодня в Бухарской области внедряется система эффективного государственного управления и поддержки рынка туристических услуг, внутреннего туризма и туризма в целом. Следует отметить, что государство, стремясь развивать рынок туристических услуг, также предоставляет ряд льгот бизнесу, в том числе физическим и юридическим лицам, работающим в сфере туризма. В частности, Указом Президента Республики Узбекистан № ПФ-6002 от 28 мая 2020 года «О неотложных мерах по поддержке туристической отрасли для снижения негативного воздействия пандемии коронавируса» предусмотрена поддержка бизнеса, осуществляющего деятельность в сфере туризма. сектор в стране во время пандемии. Существует ряд льгот и помощи в виде ссуд, субсидий и грантов.

Сегодня инновационный туристический кластер (Bukhara Desert Oasis Spa) создан в историческом Ромитонском районе Бухары, точнее, пустынный туристический кластер в пустыне. Этот туристический кластер расположен на холме Боронтепа. Этот район расположен в древнем Варахшанском массиве. Кластер сочетает в себе несколько исторических периодов и их архитектуру.

В кластере есть луга, и 3 луга служат ресторанами. Камин также имеет сандалии и оборудован современным телевизором, кондиционером и wi-fi.

Кластер образует сад Сардоба. Эти комплексы, построенные как древние цистерны, обеспечивают орошение сада. Пляж в районе рассчитан на 500 человек.

В этом кластере туристам предлагаются следующие услуги:

1. Рыбалка;

2. Прогулка по пустыне на квадроциклах;

3. Вождение джипа. (Для тех, кто любит экстрим и адреналин, у нас есть джипы. Что может быть лучше, чем кататься по пустынной равнине вдали от городской суеты? Большие колеса, мощный двигатель - открытый мир, в котором машина едет куда угодно! водите себя на новом джипе в необратимых и диких широтах! Почувствуйте свободу: свободу передвижения, свободу от внешних и внутренних ограничений.

4. Путешествие на пустынном корабле. (Восток богат разнообразными животными. Можно покататься на славных верблюдах Древнего Востока, пересекая Великий шелковый путь по бескрайним пустыням Древнего Востока).

5. Спортивные автомобили. (Посетители Bukhara Desert Oasis Spa, мы хотим, чтобы вы воспользовались одной из их услуг, если вы любите вождение, адреналин, дрифт, здесь вы найдете современные спортивные автомобили. У нас есть несколько спортивных автомобилей для веселого отдыха.

6. Породные лошади. (Верховая езда - одна из самых увлекательных поездок, которая позволяет не только увидеть удивительные природные красоты, но и пообщаться с лошадьми - самыми красивыми и умными животными. Сидя в седле, вы можете полностью сосредоточиться на окружающем мире, Вы сможете насладиться великолепными видами бескрайней пустыни. С давних времен высоко ценились среднеазиатские лошади. Их дарили в дар Великим Правителям разных стран. У нас есть красивые, сильные и быстрые лошади, в которых вы найдете себя истинный Восток. можно почувствовать себя воином).

7. Хранение вина. (Вы ценитель качественного вина? Мы предлагаем вам попробовать разные сорта вина в нашем винном погребе. Мы оставим вам хорошее впечатление не только о вкусе вина, но и о внешнем виде нашего винного погреба. специальный раздел в сфере туризма. В нашей программе услуг вы можете продегустировать и купить самые удивительные сорта разных видов вин).

8. Теплица. (Тепличный комплекс - это производственный комплекс, предназначенный для размещения средств производства и выполнения трудовых процессов, в результате чего получается натуральный продукт, производимый в сельском хозяйстве.).

Сегодня этот кластер привлекает туристов и способствует развитию региона. Учитывая огромный туристический потенциал Бухары, целесообразно увеличить активность этого типа кластера.

### **Список литературы**

1. Абдуллоев А. Ж., Таирова М. М., Усманова А. Б. Особая характеристика агротуризма // Вопросы науки и образования. – 2020. – №. 11. – С. 95.
2. Абдуллоев А. Ж., Таирова М. М., Усманова А. Б. Малый бизнес в сельском туризме и агротуризме // Достижения науки и образования. – 2020. – №. 5 (59).
3. Усманова А. Б. Квалификация кадров в туристической сфере // Мировая наука. – 2019. – №. 4. – С. 471-473.
4. Таирова М. М. Оптимизация инфраструктуры туризма в Бухаре // Вопросы науки и образования. – 2018. – №. 15 (27).
5. Таирова М. М., Асадов Ф. Ш., Аминова Н. Б. Особенности развития устойчивого сельского туризма // Вопросы науки и образования. – 2020. – №. 11. – С. 95.

6. Болтаев Ш. Ш. Наиболее важные вопросы развития экологического туризма //Современные тенденции и актуальные вопросы развития туризма и гостиничного бизнеса в России. – 2017. – С. 26-31.
7. Рахматуллаева Ф. М. Социально-экономическое значение исламского туризма в развитии региона //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 9-3 (87).
8. Таирова М. М., Темирова Д. А., Муратова Н. У. К. Важные элементы развития сельского туризма //Вопросы науки и образования. – 2020. – №. 11 (95).
9. Рахматуллаева Ф. М. Развитие агротуризма в Бухарской области //Наука-Эффективный Инструмент Познания Мира. – 2019. – С. 93-94.

## **MUSTAQILLIKDAN KEYINGI DAVRDA NEMIS TILIDAN O‘ZBEK TILIGA HAMDA O‘ZBEK TILIDAN NEMIS TILIGA NASR VA NAZMDA QILINGAN TARJIMALAR**

Furkat Soatov Rahimnazarovich  
TMI nemis tili o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Mustaqillik yillariga qadar tarjima qilingan jahon adabiyoti durdonalari, asosan, rus tili orqali o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Bu esa o‘z navbatida asar ta’sirchanligining ma’lum darajada susayishiga sabab bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar:** bevosita va bilvosita tarjima, nasr va nazm tarjimasi

Mustaqillik yillariga qadar tarjima qilingan jahon adabiyoti durdonalari, asosan, rus tili orqali o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Bu esa o‘z navbatida asar ta’sirchanligining ma’lum darajada susayishiga sabab bo‘ladi. Mustaqillikdan keyin ko‘pchilik tarjimonlar barcha chet tilidagi asarlarni bevosita, ya’ni to‘g‘rida-to‘g‘ri o‘z ona tiliga tarjima qilishga kirishdi. Chunki bevosita tarjimada asar asliyatga yaqinroq va mazmundan uzoqlashmagan bo‘ladi.

Quyida mustaqillikdan keyingi davrlarda bevosita o‘zbek tilidan nemis tiliga tarjima qilingan siyosiy asarlarni keltirib o‘tamiz. [1. 44-b.]

❖ I.A.Karimov. “Usbekistan ein eigener Weg der Erneuerung und des Fortschritts”. Toshkent: Usbekistan, 1992. (o‘zbek tilidan nemis tiliga Baklitskaya tarjimasi);

❖ I.A.Karimov. “Usbekistan auf dem Wege der Vertiefung der Wirtschaftsreformen”. Toshkent: Usbekistan, 1995.

❖ I.A.Karimov. “Usbekistan an der Schwelle zum 21. Jahrhundert: Gefährdung der Sicherheit, Bedingungen der Stabilität und Garantien für den Fortschritt. Gerb. Tönnies Verlag. Verantwortlicher Verlag: Publishing House Usbekistan, 2005.

❖ A.X.Saidov. Immanuel Kantning falsafiy-huquqiy merosi va zamonaviy yurispudentsiya. (nemis tilidan Mirzali Akbarov tarjimasi. Toshkent. 2012).

### **Mustaqillikdan so‘ng nazmga oid asarlarning nemis tilidan tarjimasi:**

➤ Haynrix Hayne. Yoshlik iztiroblari, she’rlar. (nemis tilidan o‘zbek tiliga Abdulla Sher tarjimasi). Toshkent: G‘ofur G‘o‘lom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1997.

➤ Birgina sen kam... She’r va tarjimalar (nemischadan Mahmud Toshtemirov tarjimasi). Farg‘ona, 1998.

➤ Johann Wolfgang Gyote. Faust, tragediya (nemis tilidan bevosita tarjimon Posho Ali Usmonov). Toshkent. Alisher Navoi nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

➤ Lasst mir meine Träume. Deutsche-usbekische Anthologie. Freiburg, 2008.

➤ Yomg‘ir oralab. Toshkent. G‘ofir G‘o‘lom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.

➤ Yohan Wolfgang Gyote. G'arbu Sharq devoni (nemis tilidan Sadridin Salim Buxoriy (1985-90-yillarda tarjima qilingan)). Toshkent: Alisher Navoi nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.

➤ H.Hayne, Vandelin Mongol'd she'rlari, G.E.Lessing masallari, F.Shiller tragediyasidan parchalar. Ko'ngildagi gaplar (nemis tilidan O'ktamali Nurmatov tarjimasini). Farg'ona, 2010.

➤ H.Hayne, I.V.Gyote, F.Shiller, G.Keller she'rlari. Olmon she'riyatidan namunalar (nemis tilidan Shuhratxon Imyaminova tarjimasini). Toshkent. "Mumtoz so'z", 2012.

➤ Haynts Erhardt, yana she'riyat (nemis tilidan Oybek Ostonov tarjimasini). Toshkent. "Navro'z" nashriyoti DUK, 2012.

➤ H.Hayne, Y.V.Gyote, Bernhard Segher, Joseps Freiherr fon Reichendorff, Daniy Gortle, Maggie Shvarts. Suv parisi (nemis tilidan Ochilova Yulduz Pirim qizi tarjimasini). Qarshi. Nasaf, 2014.

**Mustaqillikdan so'ng nasrga oid badiiy asarlarning nemis tilidan o'zbek tiliga bevosita qilingan tarjimalari.**

✚ Jahon xalqlari ertaklari. Yetti oqqush (nemis tilidan Xurram Rahimov va Sharifa Salimova tarjimasini). Toshkent. Cho'lpon, 1991.

✚ Gyunter de Broyn. Tristan va Izolda (nemis tilidan Yo'ldosh Parda tarjimasini). Toshkent. "O'zbekiston", 1994.

✚ Yoxanna Shpiri. Haydi (nemis tilidan Yo'ldosh Parda tarjimasini). Yozuvchi nashriyoti, 1996.

✚ Annamarie Shimmel. Jonon mening jonimda (nemis tilidan Yo'ldosh Parda tarjimasini). Toshkent. Sharq, 1999.

✚ Olmon xandalari (nemis tilidan Yo'ldosh Parda tarjimasini). Toshkent. Ma'naviyat, 2000.

✚ Erix Kestner. Egizaklar (nemis tilidan Shahnoza Quvonova tarjimasini). Qarshi. Nasaf, 2001.

✚ Erix Kestner. Egizaklar (nemis tilidan Shahnoza Quvonova tarjimasini). Qarshi. Nasaf, 2001.

✚ H.Hesse.H.Hayne, Y.V.Gyote. tungi kapalak (nemis tilidan Gulchehra Sodiqova tarjimasini). Qarshi. Nasaf, 2002.

✚ Germaniya va islom (nemis tilidan Yo'ldosh Parda tarjimasini). T.: 2005.

✚ Hermann Hesse. Cho'l bo'risi (nemis tilidan o'zbek tiliga Mirzali Akbarov tarjimasini). Toshkent. Sharq nashriyot matbaa aksionerlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2006-yil.

✚ Verner Xayduchek. Frants Fumann ertaklari. (nemis tilidan Shuhratxon Imyaminova tarjimasini). Toshkent. Milliy universitet nashriyoti, 2006.

✚ Sirli guvoh (nemis tilidan Shuhratxon Imyaminova tarjimasini). Toshkent. Milliy universitet nashriyoti, 2007.

✚ Y.V.Gyote. Hikmatlar xazinasi (nemis tilidan Mirzali Akbarov tarjimasini). Toshkent. Sharq, 2008.

- ✚ Qadr tarozisi (nemis tilidan Hafiza Qo‘chqorova tarjimasi). Toshkent. Chinor, 2008.
- ✚ Umidsiz uy (nemis tilidan Furkat Soatov tarjimasi). Toshkent. Milliy universitet nashriyoti, 2009.
- ✚ Jenni Erpenbek. Makon istab (nemis tilidan Hafiza Qo‘chqorova tarjimasi). Toshkent. Gyote instituti, 2010. (2011-yil to‘la shaklda Nihol nashriyoti tomonidan chop etilgan).
- ✚ Yaralanga yurak (nemis tilidan Mohigul Bahodirova tarjimasi). Toshkent. Mumtoz so‘z, 2010.
- ✚ Frits Vyurtle. Andijon shahzodasi (nemis tilidan Yanglish Egamova tarjimasi). Toshkent. O‘qituvchi nashriyoti, 2011.
- ✚ Gottxold Efraim Lessing. Emeliya Galotti Tragediyasi (nemis tilidan Posho Ali Usmon tarjimasi). Toshkent. Yangi nashr, 2011.
- ✚ Y.V.Gyote. zakovat durdonalari (nemis tilidan Mirzali Akbarov tarjimasi). Toshkent. Yangi asr avlodi, 2012.
- ✚ Olmon nasridan namunalar (nemis tilidan Shuhratxon Imyaminova tarjimasi). Toshkent. Mumtoz so‘z, 2012.
- ✚ Ulrike Shultxays. Hikoyalar (nemis tilidan Mohigul Bahodirova tarjimasi). Toshkent. Mumtoz so‘z, 2012.
- ✚ Aql qachon kiradi? (nemis tilidan Shuhratxon Imyaminova tarjimasi). Toshkent. Mumtoz so‘z, 2013.
- ✚ Badiiy matnlar tarjimasi (nemis tilidan o‘zbek tiliga Shuhratxon Imyaminova tarjimasi). Toshkent. Milliy universitet nashriyoti, 2013.
- ✚ Y.V.Gyote. muhabbatnoma (nemis tilidan Yanglish Egamova tarjimasi). Toshkent. Sharq, 2013.
- ✚ Stefan Tsvayg. Ayol hayotidan yigirma to‘rt soat (nemis tilidan Botir Rahmonov tarjimasi). Toshkent. O‘zbekiston, 2013.
- ✚ Elke Haydenrayh, Bernd Shreyder. Azaliy ishq (nemis tilidan Hafiza Qo‘chqorova va Furkat Soatov tarjimasi). Toshkent. Nihol, 2013.
- ✚ Aka-uka Grimmlar (nemis tilidan Shahnoza Nazarova tarjimasi). Qarshi. Qarshi davlat universiteti nashriyoti, 2014.
- ✚ Yurgen Koppenshtayner. Avstriya (nemis tilidan Shuhratxon Imyaminova tarjimasi). Toshkent. Cho‘lpon, 2014.
- ✚ Arno Gayger. Quvg‘indagi keksa qirol (nemis tilidan Mirzali Akbarov tarjimasi). Toshkent. Faylasuflar nashriyoti, 2015.
- ✚ Aka-uka Grimmlar ertaklari. Mittivoylar sovg‘asi (nemis tilidan Xurram-Gulruh Rahimovalar tarjimasi). Toshkent. O‘zbekiston, 2015.
- ✚ Aka-uka Grimmlar ertaklari. Yalqov to‘quvchi (nemis tilidan Xurram-Gulruh Rahimovalar tarjimasi). Toshkent. O‘zbekiston, 2015.
- ✚ Aka-uka Grimmlar ertaklari. Bo‘ron kampir (nemis tilidan Xurram-Gulruh Rahimovalar tarjimasi). Toshkent. O‘zbekiston, 2015.

✚ Daniel Glattauer. Shimol shamoli shashti (nemis tilidan Hafiza Qo‘chqorova tarjimasini). Toshkent. Nihol, 2016.

✚ O‘zbek va olmon adabiyotidan tarjima namunalari (nemis tilidan Shuhratxon Imyaminova tarjimasini). Toshkent. Tafakkur, 2016.

✚ Olmon nasridan va o‘zbek olmon she‘riyatidan tarjima namunalari (o‘zbek tilidan nemis tiliga S.Radjabova, Mahzuna Rahimova, nemis tilidan M.Xasanova, P.Pirimqulova va O.Jabborovalar tarjimasini). Toshkent. Zamon poligraf, 2017.

✚ Frants Kafka. Jazo kaloniyasida (nemis tilidan Shahnoza Quvonova tarjimasini). Toshkent. Voris nashriyoti, 2017.

✚ Dorote Elmiger. Jasorat tafti (nemis tilidan o‘zbek tiliga Hafiza Qo‘chqorova tarjimasini). Toshkent. Turon, 2017.

✚ Frantz Holer. Sayr sayqali (nemis tilidan Hafiza Qo‘chqorova va Furkat Soatov tarjimasini). Toshkent. Akademnashr, 2018.

### **Mustaqillikdan so‘ng nasrga oid badiiy asarlarning o‘zbek tilidan nemis tiliga bevosita tarjimalari.**

✓ Der Sündensack. Schwänke, Anekdoten und Witze von Nasriddin Afandi aus Usbekistan. Gustav Kiepenheuer Verlag GmbH, Leipzig und Weimer, 1991.

✓ Usbekischer Volkshumor. Wer die Maus unter dem Arm kitzelt. Witze und Anekdoten um Nasriddin Afandi (o‘zbek tilidan nemis tiliga Yo‘ldosh Parida tarjimasini). Taschkent: Usbekistan, 1995.

✓ Gabriella Keller. Märchen aus Samarkand (o‘zbek tilidan nemis tiliga Xurram Rahimov tarjimasini). 2001/2002.

✓ Usbekische Volksmärchen (o‘zbek tilidan nemis tiliga Zohirjon Akramxonov tarjimasini). Taschkent: Adib nashriyoti, 2012.

✓ Geschichten entlang der Seidenstrasse. Weisheit des Orients (o‘zbek tilidan nemis tiliga Oybek Ostunov tarjimasini). Toshkent. Akademnashr, 2013.

✓ Abdulla Kahhor. Der Granatapfel (o‘zbek tilidan nemis tiliga Oybek Ostunov tarjimasini). Toshkent. Akademnashr, 2013.

✓ Alisher Navoiy hikmatlari. O‘zbek xalq ertaklari. O‘tkir Hoshimov – Urushning so‘ngi qurboni (o‘zbek tilidan nemis tiliga Shuhratxon Imyaminova, M.Qosimova, D.Saidova, Samariddin Yusupov, D.Nomozova, U.Eshonqulova, G.Ergashova va D.Yo‘ldoshavalar tarjimasini). Toshkent. Mumtoz so‘z, 2013.

✓ O‘roz Haydar. Falak favvorasi. Aforizmlar, sonetlar, she‘rlar (o‘zbek tilidan nemis tiliga Mirzali Akbarov tarjimasini). Qarshi. Nasaf, 2013.

✓ Isxoqjon Nishonov. Afg‘on shamoli (o‘zbek tilidan nemis tiliga Zohirjon Sodiqov tarjimasini). Friedber. Verlagshaus Schlosser. 2013.

✓ O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari (o‘zbek tilidan nemis tiliga Oybek Ostunov tarjimasini). Toshkent. Akademnashr, 2014.

✓ G‘ofur G‘o‘lom. Shum bola (o‘zbek tilidan nemis tiliga Oybek Ostunov tarjimasini). Toshkent. Akademnashr, 2014.

Mustaqillikdan so‘ng nafaqat nemis tilidan, balki boshqa tillardan, shu jumladan boshqa tillarga ham ko‘plab asarlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bevosita tarjima qilindi. Bu

quvonarli hol alabatta, biroq bunday asar tarjimalari ko‘payishi uning saviyasiga ham ta’sir o‘tkazmay qolmaydi degani emas. Ba’zi zo‘raki tarjimonlar na til va na tarjima mahoratiga ega bo‘lmay, bu ishga qo‘l urgani yaqqol namoyon bo‘lib qolmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Sh.S.Imyaminova. Badiiy asar tarjimasi. Kamalak. Toshkent-2018

**FOYDALANILGAN INTERNET SAYTLARI:**

1. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/suhbatlar/tarjima-nazariyasi-va-tanqidi-muammolari-davra-suhbati>

## BIR XIL NOMLI TRIGONOMETRIK FUNKSIYALARNI TENGLIGI HOSSALARIDAN FOYDALANIB YECHILADIGAN TENGLAMALAR

Muattar Tuxtabayeva  
Toshkent “Temurbeklar maktabi” bosh o`qituvchisi

**Annotasiya:** Ushbu maqolada bir xil nomli trigonometrik funksiyalar tengligi xossalaridan foydalanib, yechiladigan tenglamalar keltirilgan. Trigonometrik tenglamalarni bir xil nomli trigonometrik funksiyalarni tengligiga olib kelish usullari amalda misollar orqali ko`rsatib beriladi. Bundan tashqari teorema birga zaruriylik va yetarlilik shartlarining bajarilishi isbotlash orqali amalga oshiriladi.

**Kalit so`zlar :** Trigonometrik tenglama, teorema,  $\sin x$ ,  $\cos x$ ,  $\operatorname{tg} x$ , burchak

Ko`p trigonometrik tenglamalarni bir hil nomli trigonometrik funksiyalarni tengligiga olib kelish mumkin y`ani a)  $\sin \alpha = \sin \beta$ , b)  $\cos \alpha = \cos \beta$ , c)  $\operatorname{tg} \alpha = \operatorname{tg} \beta$  tengliklarni qanoatlantiruvchi ikkita  $\alpha$  va  $\beta$  burchaklarni topishga. Bu ikkita burchak teng bo`lish shartlarini ko`rib o`tamiz .

**Teorema I.** Ikkita burchak sinuslari teng bo`lishi uchun bu ikki burchak ayirmasi  $2n\pi$ ga teng bo`lishi yoki bu burchaklar yig`indisi  $(2n+1)\pi$  ga teng bo`lishi zarur va etarlidir .

**Zarurlik shartini isboti .**

Bizga  $\sin \alpha = \sin \beta$  berilgan bo`lsin . Yechimimiz  $\alpha - \beta = 2n\pi$  yoki  $\alpha + \beta = (2n+1)\pi$ ,  $n \in Z$  ekanligini isbot qilish kerak .

Berilgan shartga ko`ra  $\sin \alpha - \sin \beta = 0$ ,  $2\sin \frac{\alpha - \beta}{2} \cos \frac{\alpha + \beta}{2} = 0$ ,

Bu quyidagi hollarda bajariladi: 1)  $\sin \frac{\alpha - \beta}{2} = 0$ ,  $\frac{\alpha - \beta}{2} = n\pi$ , bundan  $\alpha - \beta = 2n\pi$ ,  $n \in Z$  bo`lishligi kelib chiqadi . Yoki 2)  $\cos \frac{\alpha + \beta}{2} = 0$ ,  $\frac{\alpha + \beta}{2} = \frac{\pi}{2}(2n + 1)$ , bundan  $\alpha + \beta = \pi(2n + 1)$ ,  $n \in Z$  bo`lishligi kelib chiqadi.

**Etarlilik shartini isboti :**

1) da  $\alpha - \beta = 2n\pi$ ,  $n \in Z$  yoki  $\alpha + \beta = \pi(2n + 1)$ ,  $n \in Z$  ekanligi berilgan .  $\sin \alpha = \sin \beta$  ekanligini isbot qilishimiz kerak .

$\alpha - \beta = 2n\pi$ ,  $n \in Z$  shartidan  $\alpha = \beta + 2n\pi$ ,  $n \in Z$  kelib chiqadi .

$\sin \alpha = \sin(\beta + 2n\pi)$ ,  $2n\pi$  bu funksiyani davri ekanligidan  $\sin \alpha = \sin \beta$  kelib chiqadi .

Yoki 2) da  $\alpha + \beta = \pi(2n + 1)$ ,  $n \in Z$  yoki  $\beta = \pi(2n + 1) - \alpha$ ,  $n \in Z$  u holda  $\sin \beta = \sin(\pi(2n + 1) - \alpha)$ ,  $\sin \beta = \sin(2n\pi + (\pi - \alpha))$ ,  $\sin \beta = \sin(\pi - \alpha)$ , yani  $\sin \beta = \sin \alpha$  ekanligi kelib chiqadi .

Misollar.

a)  $\sin 3,8\pi = \sin 1,2\pi$  bu ayniyat bo`ladi chunki  $3,8\pi - 1,2\pi = 2,6\pi = 5\pi$

b)  $\sin 5,3\pi = -\sin 2,7\pi$ , sinus funksiyamiz toq funksiya bo`lganligidan  $\sin 5,3\pi = \sin(-2,7\pi)$  va bundan  $5,3\pi - (-2,7\pi) = 8\pi$  bo`ladi .

v)  $\sin 880^{\circ} = \sin 380^{\circ}$  bu yerda  $880^{\circ} + 380^{\circ} = 1260^{\circ} = 7 \cdot 180^{\circ}$

g)  $\sin 3,2\pi \neq \sin 0,8\pi$  chunki bu yerda birorta shartlar bajarilmayapdi .Sababi bu ikki burchakni yig`indisi toq sondagi  $\pi$  ga teng bo`lishi kerak edi . Bu yerda bu ikki burchak yig`indisi  $4\pi$  ga teng bo`lib qoladi .

**Teorema II.** Ikki burchak cosinuslari o`zaro teng bo`lishi uchun bu burchaklar ayirmasi juft sondagi  $\pi$  ga yoki bu burchaklar yig`indisi juft sondagi  $\pi$  ga teng bo`lishi zarur va etarlidir .

Zarurlik shartini isboti .

Bizga  $\cos \alpha = \cos \beta$  berilgan bo`lsin . Yechimimiz  $\alpha - \beta = 2n\pi$  yoki  $\alpha + \beta = 2n\pi$  ,  $n \in \mathbb{Z}$  shartni qanoatlantirishini isbot qilish kerak .

Berilgan shartga ko`ra  $\cos \alpha - \cos \beta = 0$  ,  $-2\sin \frac{\alpha - \beta}{2} \cos \frac{\alpha + \beta}{2} = 0$  ,

Bu quyidagi hollarda bajariladi : 1)  $\sin \frac{\alpha - \beta}{2} = 0$  ,  $\frac{\alpha - \beta}{2} = n\pi$  ,  $\alpha - \beta = 2n\pi$  ,  $n \in \mathbb{Z}$ .

Yoki 2)  $\cos \frac{\alpha + \beta}{2} = 0$  ,  $\frac{\alpha + \beta}{2} = n\pi$  ,  $\alpha + \beta = 2\pi n$  ,  $n \in \mathbb{Z}$ .

Etarlilik isboti :

1) da  $\alpha - \beta = 2n\pi$  ,  $n \in \mathbb{Z}$  yoki  $\alpha + \beta = 2n\pi$  ,  $n \in \mathbb{Z}$  ekanligi berilgan .

$\cos \alpha = \cos \beta$  ekanligini isbot qilishimiz kerak .

$\alpha - \beta = 2n\pi$  ,  $n \in \mathbb{Z}$  shartidan  $\alpha = \beta + 2n\pi$  ,  $n \in \mathbb{Z}$  kelib chiqadi.

$\cos \alpha = \cos(\beta + 2n\pi)$  ,  $2n\pi$  bu funksiyani davri ekanligidan  $\cos \alpha = \cos \beta$  kelib chiqadi .

Yoki 2) da  $\alpha + \beta = 2n\pi$  ,  $n \in \mathbb{Z}$  yoki  $\beta = 2n\pi - \alpha$  ,  $n \in \mathbb{Z}$  u holda

$\cos \beta = \cos(2n\pi - \alpha)$  ,  $\cos \beta = \cos(-\alpha)$  , yani  $\cos \beta = \cos \alpha$

Misollar :

b)  $\cos 4,7\pi = \cos 3,3\pi$  bu ayniyat bo`ladi chunki  $4,7\pi + 3,3\pi = 8\pi$

b)  $\cos 15\pi = \cos 11\pi$  bu yerda  $15\pi - 11\pi = 4\pi$  demak bu ayniyat bo`ladi .

v)  $\cos 17,3\pi = \cos 11,3\pi$  bu yerda  $17,3\pi - 11,3\pi = 6\pi$

g)  $\cos 5,3\pi \neq \cos 3,7\pi$  chunki bu yerda birorta shartlar bajarilmayapdi .Sababi bu ikki burchakni yig`indisi toq sondagi  $\pi$  ga teng bo`ladi . Bu yerda bu ikki burchak yig`indisi  $9\pi$  ga teng bo`lib qoladi .

**Teorema III.** ikkita burchak tangenslari teng bo`lishi uchun bu burchaklarning har birida tangensi mavjud bo`lishlari va bu burchaklarning farqi  $k\pi$  , bu yerda

$k \in \mathbb{Z}$  bo`lishi zarur va etarlidir .

Etarlilik shartini isboti :

Berilgan :  $\operatorname{tg} \alpha = \operatorname{tg} \beta$  ,  $\alpha \neq (2k + 1)\frac{\pi}{2}$  va  $\beta \neq (2k + 1)\frac{\pi}{2}$  ,  $k \in \mathbb{Z}$   $\alpha - \beta = k\pi$  ekanligini isbot qilish kerak .

Shartimizni berilishiga ko`ra  $\operatorname{tg} \alpha - \operatorname{tg} \beta = 0$  ;  $\frac{\sin(\alpha - \beta)}{\cos \alpha \cos \beta} = 0$  , shartimizga ko`ra

$\cos \alpha \neq 0$  va  $\cos \beta \neq 0$  bo`lganligidan  $\sin(\alpha - \beta) = 0$  ; bundan  $-\beta = k\pi$  ,  $k \in \mathbb{Z}$

Zaruriylik shartini isboti:

Berilgan :  $\alpha - \beta = k\pi$   $\alpha \neq (2k + 1)\frac{\pi}{2}$  va  $\beta \neq (2k + 1)\frac{\pi}{2}$  ,  $k \in \mathbb{Z}$

$\operatorname{tg} \alpha = \operatorname{tg} \beta$  ekanligini isbotlash kerak .

Isbot :  $\alpha - \beta = k\pi$  ekanligidan  $\alpha = k\pi + \beta$  bundan  $tg \alpha = tg \beta$  ga  $\alpha$  ni o'rniga qiymatini qoyamiz .  $tg(k\pi + \beta) = tg \beta$  bo'ladi .  $\pi$  bu tangensni davri bo'lganligi uchun  $tg \alpha = tg \beta$  bo'ladi .

Misollar :

a)  $tg 9,7\pi = tg 1,7\pi$  bu yerda tangens ikki burchakda ham aniqlangan .  $9,7\pi - 1,7\pi = 8\pi$

b)  $tg 8,7\pi = -tg 1,3\pi$  ,  $tg 8,7\pi = tg(-1,3\pi)$  bu ikki burchakning tangensi mavjud. Va  $8,7\pi - (-1,3\pi) = 10\pi$

v)  $tg \frac{3}{2}\pi = tg \frac{5}{2}\pi$  ifoda ma'noga ega emas chunki tangenslar bu burchaklarda mavjud emas .Ikkinchi shart  $\frac{3}{2}\pi + \frac{5}{2}\pi = 4\pi$  bajarilsa ham .

g)  $tg 4,3\pi \neq tg(-2,5\pi)$  chunki bu yerda ikkala shart ham bajarilmaydi .  $4,3\pi - 2,5\pi = 1,8\pi \neq k\pi, k \in Z$  va  $tg 2,5\pi$  mavjud emas .

Shu hossalardan foydalanib trigonometrik tenglamalarni yechishga qo'llasak bo'ladi .

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Algebra va matematik analiz asoslari (I-qism, Toshkent, 2011. 10-nashri).
2. Algebra va matematik analiz asoslari (II-qism, Toshkent, 2011. 10-nashri).

## СОВРЕМЕННАЯ РЕЧЕВАЯ СИТУАЦИЯ В УСЛОВИЯХ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ

Джалилова Дилором

Преподаватель кафедры узбекского языка и литературы Шахрисабзского филиала ТГПУ им. Низами

**Аннотация.** Коммуникативная компетентность обычно означает способность устанавливать и поддерживать необходимые связи с другими людьми. Компетенция включает в себя набор знаний, навыков и компетенций, обеспечивающих эффективное общение. Этот тип компетенции включает в себя способность изменять глубину и объем общения, чтобы их понимали и понимали партнеры по общению.

**Ключевые слова:** Коммуникативная компетенция, состояние современной речи, основные черты и тенденции, профессионализм, вульгаризм, звуки, жаргоны

Коммуникативная компетентность — это опыт развивающегося и во многом осознанного общения между людьми, который формируется в контексте прямого взаимодействия. Процесс повышения коммуникативной компетенции связан с развитием личности. Средства регулирования коммуникативных движений являются частью человеческой культуры, и их ассимиляция и обогащение происходит по тем же законам, что и развитие, и воспроизводство всего культурного наследия. Во многих случаях получение коммуникативного опыта происходит только в процессе прямого взаимодействия. Из литературы, театра и кино можно также узнать о природе коммуникативных ситуаций, проблемах межличностных отношений и способах их решения. В процессе освоения коммуникативной сферы человек получает от культурной среды средства анализа коммуникативных ситуаций в вербальных и визуальных формах.

Коммуникативная компетентность подразумевает гибкость и свободу использования вербальных и невербальных средств общения и может рассматриваться как категория, регулирующая систему отношений человека к самому себе, к естественному и социальному миру.

Состояние современной речи — это вовлеченность широкой общественности в публичную речь, ее виды (политическая, военная, дипломатическая, академическая, церковная, деловая) и жанры (речь, лекция, проповедь, митинговая речь, общественное обсуждение и т. Д.)

Особенностью современной публичной речевой коммуникации является ее диалог: часто различные формы диалога, опосредованные средствами массовой информации (дебаты, дискуссии, полемика, теледебаты, интервью). Разговор телеведущего и его гостя в студии, как правило, предполагает присутствие другого, третьего участника - аудитории, что можно выразить известной

формулой: «Спасибо всем, что сегодня с нами. Иногда политические соперники, один в СМИ, заключают договор друг с другом, сначала завоевывая потенциальных избирателей и выступая от имени аудитории».

В общении диалог также проявляется в монологической форме речи. Чтобы быть эффективным, монолог (лекция, лекция, выступление на митинге, выступление учителя в классе и т. Д.) Должен включать средства диалога: обращение, вопрос или ответные действия, частицы, вводные слова и фразы, позволяющие слушатель должен общаться, пробуждать и поддерживать его или ее внимание и интерес к речи.

Состояние русского языка в наше время определяется рядом факторов.

1. Состав участников общественного и коллективного диалога стремительно расширяется: новые слои населения осваивают роль спикеров, роль писателей в газетах и журналах. С конца 1980-х годов тысячи людей с разным уровнем речевой культуры имели возможность выступать публично.

2. Резко ослаблены цензура и авто цензура в СМИ, которые ранее во многом определяли характер речевого поведения.

3. В речи усиливается личностное начало. Безликая и безадресная речь имеет конкретный адрес и заменяется личной речью. Биологическая природа устного и письменного общения растет.

4. Расширяется не только личное, но и публичное вербальное общение. Люди больше не говорят и не читают заранее записанные речи. Они говорят.

5. Меняются важные параметры течения устных форм публичного общения: способность докладчика обращаться к аудитории напрямую и взгляды аудитории на выступающих.

6. Ситуации и жанры общения меняются как в сфере общества, так и в сфере личного общения. Исчезла строгая сфера официальных связей с общественностью. В сфере массовой коммуникации рождается много новых жанров устной публичной речи. Сухого диктора радио и телевидения заменил новичок, который размышлял, шутил, высказывал свое мнение.

7. Психологическое неприятие бюрократического языка в прошлом (так называемого «вздора») растет.

8. Появляется желание разработать новые средства выражения, новые формы изображения, новые типы обращения к незнакомым людям.

9. Наряду с рождением названий новых событий возрождаются названия событий, которые были возвращены из прошлого, запрещены или отвергнуты при тоталитаризме».

Свобода и свобода речевого поведения приводит к расшатыванию языковых норм, увеличению языковой вариативности (разрешены разные варианты вместо единственной разрешенной формы языковой единицы).

Современные тенденции устной речи

Механизмы взаимодействия литературного языка с нелитературными областями речи нельзя считать полностью изученными. В этой связи большой

интерес представляют образ ассимиляции различными социальными диалектами, профессиональным жаргоном, жаргонным словарем, молодежным жаргоном. А также образ ассимиляции народным и литературным языками.

Нелитературный словарь делится на: 1) Профессионализм 2) Вульгаризм 3) Звуки 4) Жаргоны. Эта часть словаря отличается словесным и неформальным характером.

Профессионализм - это слово, используемое небольшими группами людей, объединенных определенной профессией.

Вульгаризмов - это грубые слова, которые обычно не используются образованными людьми в обществе, специальный словарь, используемый людьми с низким социальным статусом: заключенными, торговцами наркотиками, бездомными и так далее.

Сленг - это слова с загадочным значением, которые используются определенными социальными или общими интересами и не всем понятны.

Сленг - это слова, которые обычно считаются нарушением общепринятых языковых норм. Это очень выразительные ироничные слова, которые используются для обозначения вещей, о которых мы говорим в повседневной жизни.

«Жаргон»-речь относительно открытой социальной или профессиональной группы, которая отличается от общего разговорного языка особой структурой слов и словосочетаний. Это общий язык, понятный только в определенной среде, в котором содержит искусственные, иногда обычные слова и словосочетания.

В широком смысле авторитет человека в общении можно определить как его способности в межличностном восприятии, межличностном общении и межличностных отношениях.

Коммуникация в межличностном общении

- это не то же самое, что простой обмен информацией, потому что:
- между людьми существуют определенные межличностные отношения;
- эти отношения меняются;
- «мысль не равна буквальному значению слова».

### **Литература**

1. Александрова О.В. Некоторые вопросы логики, методологии и философии языка // вопросы Языка знания. -1985. - 72-73 с.
2. Бабанский Ю. К. Педагогика М., 2004. С. 33–34.
3. Звегинцев В.А. О научном наследии Вилгелма фон Гумбольта // Гумболт В. Избранные труды по языкознанию. - М.: 1984. -86 с.
4. Зимняя И. А. Психология обучения иностранным языкам в школе. М., 1991.
5. Лернер И. Я. Процесс обучения и его закономерности. М., 2004. С. 66.
6. Сафаров Ш. Система речевого общения. Универсальной и этноспецифической. Самарканд. Сам.отд.из-ва им. Гафура Гуляма. 1991. -170 с.

## **RUS TILI VA ADABIYOTI DARSLARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH**

Nabiyeva Dilshoda Urakovna

Nizomiy nomidagi TDPU Shahrizabz filialining o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida rus tili o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolar va uning yechimlari, ta'lim sifatini oshirish usullari, zamonaviy ta'limda o'qituvchiga qo'yiladigan talablar haqida izlanishlar olib borilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy ta'lim, bilim sifati, psixologik muammolar, guruh texnologiyalari, ta'limga zamonaviy yondashuv, og'zaki ish uslublari.

Ta'lim sifati zamonaviy ta'lim muassasalarining asosiy muammolaridan biridir.

Kipling shunday deb yozgan edi: «Ta'lim dunyodagi ne'matlarning eng buyukidir, agar u eng sifatli bo'lsa. Aks holda, bu umuman befoyda».

Talabalarning bilim sifatini oshirish uchun dars jarayonida quyidagilardan unumki foydalanish lozim:

- Darsga yuqori sifatli tayyorgarlik.
- Darsga, o'quv jarayoniga psixologik munosabat.
- Bilimlar sifatini nazorat qilish.
- O'qituvchining shaxsiyati, uning vakolati

Ushbu muammoni muvaffaqiyatli hal qilishda rus tili va adabiyoti darslarida, shuningdek, darsdan tashqari soatlarda faol foydalanadigan yangi ta'lim texnologiyalari va ularning individual elementlari yordam beradi.

Quyidagi ta'lim texnologiyalaridan faol foydalanish ushbu muammolar yechimiga olib keladi:

- guruh texnologiyalari (juftlikda, guruhda ishlash);
- muammoli-qidiruv mashg'ulotlari;
- tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyalari;
- integratsiya texnologiyasi;
- o'yin usullaridan foydalanish texnologiyasi;

Juftlik bo'yicha hamkorlik - bu hamkorlik va o'zaro yordam uchun ideal shakl. Bir juftlikda talabalar bir-birlarini tekshirishlari, yangi materiallarni mustahkamlashlari, o'tganlarini takrorlashlari mumkin.

Og'zaki ishda quyidagi turdagi topshiriqlardan foydalaniladi:

1. Qoidani o'zaro tekshirish (og'zaki so'roq qilish). Talaba yonidagi talabaga qoidani aytadi, misollar keltiradi, ularni tushuntiradi. Keyin talabalar rollarni almashadilar, bir-birlarini baholaydilar. O'qituvchi har qanday juftlikdan so'rashi mumkin.

2. Xuddi shu topshiriq biroz o'zgartirilgan: bitta talaba o'rganilgan material bo'yicha savol beradi, ikkinchisi javob beradi. Ularning suhbatlari doskada eshitiladi. Ta'lim muloqoti e'tiborni tortadi, ishga aralashishga undaydi.

3. Uy vazifasi bilan quyidagi og'zaki ish shaklidan ham foydalaniladi: biri so'raydi, boshqasi javob beradi. Savollar juda xilma-xil bo'lishi mumkin: uy mashqlarida ildizda urg'usiz unli uchun ikkita so'z toping, mavzu va asosiy g'oyani aniqlang, gapning grammatik asoslarini toping, muvofiqlashtirish, boshqarish, tobe bog'lanishga misollar keltiring. Ushbu ish murakkab uy vazifalarini tekshirish uchun foydalidir.

4. Bir juftlikdagi yozma ishlarda talabalar ushbu ish turini o'zaro sheriklari uchun lug'at diktanti shaklini juda yaxshi ko'radilar. Uyda talabalar o'rganilgan imlo qoidalariga binoan "Tuzilgan..." ko'rsatmasi bilan alohida kartada imlo yetishmayotgan diktant tuzadilar. Darsda kartalarni almashtirib, topshiriqni bajarib bo'lgach, ular quyida "Bajarildi..." imzosini olishadi. Kartalarni rasmiylashtirish imlo va tinish belgilarida hushyorlikni, mas'uliyatni rivojlantiradi, maktab o'quvchilarining so'z boyligini kengaytirishga yordam beradi, o'quv kitobi, ma'lumotnomalar bilan ishlashni o'rgatadi.

Bilim sifati - o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati natijalarini tavsiflovchi ajralmas to'plam: to'liqlik, chuqurlik, samaradorlik, moslashuvchanlik, konkretlik, umumlashtirish, sistematiklik, onglilik, kuch. Bu zamon bilan hamnafas bo'lish uchun doimiy ishlashni, yaxshilanishni talab qiladigan narsa.

Ta'lim sifatining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- maktab o'quvchilarini ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qitish sifati;
- maktab o'quvchilarining umumiy ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish sifati (darslik, matn bilan ishlash, reja tuzish, tahlil qilish, xulosa chiqarish qobiliyati va boshqalar);
- maktab o'quvchilarining tarbiyasi sifati (maxsus usullar bilan nazorat qilinadi);
- maktab o'quvchilarining shaxsiyatining rivojlanish sifati (emotsionallik, iroda, kognitiv qiziqish, motivatsiya va boshqalar);
- ijtimoiy moslashuv sifati (jamiyatda o'ziga xos "joy" topish qobiliyati).

Boshlang'ich ta'lim - bu bola rivojlanishining alohida bosqichidir. Birinchi marta ta'lim faoliyati etakchiga aylanadi. Ammo boshlang'ich maktab o'quvchisi ham o'ynashni yaxshi ko'radigan bola. Darsdagi bolalar qiziqish uyg'otadigan, shu bilan birga, ular yangi bilimlarni o'zlashtirgan holda, o'ylash, o'quv materiallari bilan ishlashni o'rganishlari uchun o'z ishingizni qanday tuzish kerak.

Buning uchun o'qituvchi ishini quyidagicha qurishi zarur:

- an'analarga rioya qilish va yangiliklarni joriy etish;
- malaka darajasini oshirish;
- eng yangi axborot texnologiyalarini o'zlashtirish va joriy etish;

Bunda o'qituvchi maktab o'quvchilarining odatdagi qiyinchiliklari va ularni tuzatish sabablarini aniqlaydi;

- talabalarning bilim sifati tizimining shakllanish darajasini ochib beradi;
- portfolio tuzish orqali maktab o'quvchilarining individual yutuqlarini qayd etadi;
- talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha loyiha tadbirlarini tashkil etadi.

Ta'limda doimo o'qituvchiga alohida rol beriladi, chunki u sifatli ta'limning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi va u ba'zi bir xususiyatlarga ega bo'lishi kerak, masalan:

- zamonaviy ta'lim texnologiyalariga ega bo'lish;
- o'quv materialini tushunarli qilish qobiliyati;
- o'qitish uslublarini ijodiy qo'llash;
- bolalar jamoasini tashkil qilish qobiliyati;
- bolalarga qiziqish;
- nutqning yorqinligi, xushmuomalalik, hayot bilan bog'liqligi, sinfdan tashqarida ishlash qobiliyati.

Zamonaviy sharoitda zamonaviy ta'lim texnologiyalari va usullarini o'zlashtirish zarur.

Endi ta'lim tobora ko'proq shaxsiy va shaxsiy ehtiyojlar o'rtasida muvozanat ta'minlanadigan va o'z-o'zini rivojlantirish (o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash) mexanizmini ishga tushirish orqali shaxsga ta'sir qilishning bunday texnologiyalari va usullarini yaratishga qaratilmoqda, shaxsning o'ziga xosligini anglash va jamiyatni o'zgartirishga tayyorligini ta'minlash.

Hozirda ta'limni individuallashtirish va tabaqalashtirish to'g'risida ko'p gapirilayotganiga qaramay, o'qituvchi ko'pincha ikkita sinf xonasi bir xil emasligini unutadi. Har bir sinf jamoasi o'ziga xos xususiyatlarga, diqqat markaziga va xatti-harakatlarning o'ziga xos xususiyatlariga ega. Hoh oliy ta'limdagi talabalar bo'lsin, hoh o'rta ta'lim o'quvchisi bo'lsin, ular uchun topshiriqlarni tanlashda bularning barchasini hisobga olish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Ta’lim – tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi O’zbekiston respublikasi prezidentining qarori PQ-4884 06.11.2020.
2. “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy – tadqiqot faoliyatini qo’llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora – tadbirlari to’g’risida” gi O’zbekiston respublikasi prezidentining qarori PQ-4963 25.01.2021.
3. “Xalq ta’limi tizimidagi maktabdan tashqari ta’lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PQ-4467 30.09.2019.
4. Ильичев А.В., Петровский В.С., Яковлев А.И. и др Внедрение информационных технологий в предметной и надпредметной деятельности / Под ред. А.В. Ильичева. – М.: Просвещение, 1995. – 240 с
5. Кулагина И.Ю. Возрастная психология: Развитие ребенка от рождения до 17 лет: Учеб. пособие / И.Ю. Кулагина; Ун-т Рос. акад. образования. - 4-е изд. - М. : УРАО, 1998
6. Образовательная программа Муниципального общеобразовательного учреждения «Средняя общеобразовательная школа №27» .

7. Тикунова А.И., В.П.Канакина. Сборник диктантов и творческих работ.// М., «Просвещение», 1992 г.
8. Электронные образовательные ресурсы нового поколения: в вопросах и ответах. – М.: Агентство «Социальный проект», 2007
9. Яковлев А.И. Информационно – коммуникационные технологии в образовании- М.: Просвещение, 2003
10. Яковлев А.И. Информационно-коммуникационные технологии в дистанционном обучении: Доклад на круглом столе «ИКТ в дистанционном образовании». – М.: МИА, 1999.

## МАЙНА (ACRIDOTHERES TRISTIS)НИНГ ХЎЖАЛИК АҲАМИЯТИ

Райимов Аваз Рустамович  
Рустамова Мохинур Аваз қизи  
Бухоро давлат университети

**Аннотация:** Дунё микёсида қушларнинг табиатда ва айниқса, халқ хўжалигидаги аҳамиятига доир қатор илмий тадқиқотлар амалга оширилган. Қушларнинг аҳамияти жуда хилма-хиллигини ва ўзига хос экологик шароитларга эга бўлган ҳар бир регионда турлича хусусият касб этишини ҳисобга олганда, ушбу масалани тур ареалининг турли ҳудудлари мисолида ўрганиш назарий ва амалий аҳамиятга эга.

**Калит сузлар:** Ғўза, Кўк каптар, Гўнгқарға, Зағизғон, Зоғча, Кўкқарға

Кенг тарқалган ва жуда кўп сонда учровчи майна Ўзбекистон шароитида нафақат қишлоқ хўжалиги соҳасида, балки бутун биоценозда муҳим экологик аҳамиятга эга эканлигини ҳисобга олганда, унинг хўжаликдаги аҳамиятига тегишли масалани ҳар томонлама чуқур ўрганиш, етказадигани фойдаси ва биозарарланишдаги иштирокини қиёсий таҳлил қилиш орқали баҳолаш ҳамда олинган натижаларни амалиётга жорий этиш долзарб саналади. Мазкур йўналишдаги тадқиқотлар амалий орнитологиянинг муҳим йўналишларидан бири бўлиб, қушларни жалб этиш ва уларнинг сонини бошқариш, инсон ва табиат орасидаги муносабатларни оптималлаштириш йўналишидаги ишлар самарадорлигини оширишга ҳам хизмат қилади .

Маълумки, ўтган асрнинг 50-70 йилларида республикада майнанинг сони бугунги кунга нисбатан анча кам бўлган. Шу сабабли унинг табиатдаги ва халқ хўжалигидаги аҳамияти ҳам ҳозиргидек долзарб аҳамият касб этмаган. Адабиётларда майнанинг табиатда ва айниқса, қишлоқ хўжалигидаги аҳамиятига, унинг фойдали ёки зарарли тур эканлигини баҳолашга тегишли бўлган бир қатор маълумотлар бор. К.Р.Ахмедов ва А.И.Иванов майнани узум, олча, қароли, олма ва бошқа меваларга зарар етказувчи зараркунанда сифатида таърифлашса, А.К.Рустамов, Х.С.Салихбаев, А.Н.Богданов, Д.Н. Кашкаров ва бошқалар унинг қишлоқ хўжалиги зараркунадалари билан озиқланишини ҳисобга олган ҳолда, фойдали қуш тури сифатида баҳолашади [3;4;5;6].

Н.М.Юдин майнани фойдали тур сифатида таърифлайди ва унинг чуғурчук ва соч каби турлар қатори чигирткаларни қиришда муҳим аҳамиятга эгаллигини, аммо улардан фарқ қилиб, мевали боғларга ва узумзорларга мутлақо зарар етказмаслиги ва фақат чигирткалар билан озиқланишини таъкидлайди [10].

Тадқиқот олиб борилган регионда майна зичлигининг ошиши, рақобатнинг кучайиши, трофик муносабатларнинг мураккабланиши билан боғлиқ ҳолда унинг озуқа спектрининг жуда кенгайиши ҳамда аҳамиятининг ўзгариши сабабли унга нисбатан бундан 80 йил олдин берилган юқоридаги таъриф бугунги

кунга мос келмайди. Бугунги кунда, майнанинг хўжаликдаги аҳамиятини аниқлаш ўта муҳим, мураккаб ва амалий орнитология олдидаги долзарб масалалардан бири саналади. Йил мавсумлари ва ҳаётий циклларига, яшаш жойидаги мураккаб трофик алоқаларга, инсоннинг хўжалик фаолиятига кўра, майнанинг аҳамияти ҳам ҳар бир ҳудудда ўзига хос.

Жануби-Ғарбий Қизилқум шароитида майнанинг эртапишар гилос, узумнинг барча навлари, анор, анжир, хурмо, ўрик, шафтоли, нок, помидор ва бошқа ўсимлик турларининг меваларига зиён етказиши, экилган кузги буғдой уруғларини истеъмол қилиш орқали туп сонининг камайишига сабаб бўлиши кузатилади. Аммо унинг кузги буғдойга етказадиган зарари *Passer indicus* ёки *Corvus frugilegus*га қараганда жуда кам. Майна донли экинларнинг уруғларини, асосан, чорва ва паррандаларни озиклантириш вақтида бериладиган омухта ем таркибидан олишади.

Маълумки, Ўзбекистонда мевачилик кўпроқ тоғ ва тоғ олди ҳудудларида ривожланган, Жануби-Ғарбий Қизилқумда эса асосий майдонларни ғўза ва бошоқли экинлар эгаллайди. Иккинчидан, бу ерда майнадек кўп сонда учровчи ҳашаротхўр турлар деярли йўқ, мавжудлари эса сони камлиги учун зараркунандаларни қиришда майнадек самара бермайди.

Юқоридагиларни инобатга олганда, майна Жануби-Ғарбий Қизилқум учун фойдали тур саналади. Тадқиқот ўтказилган ҳудудда унинг меваларга ва бошқа озуқа объектларига қараганда кўпроқ зараркунандалар билан озикланиши ва биотик муносабатлардаги фаол иштироки ҳам унинг фойдали тур эканлигидан далолат беради. Майнанинг дастлаб зараркунанда ҳашаротларни қиришда жуда самарали тур эканлиги учун иқлимлаштирилганлигини ва унинг тарқалишида ҳам ушбу хусусияти муҳим ўрин эгаллаганлигини инобатга олганда унинг фойдали тур эканлиги шубҳа уйғотмайди.

Майнанинг халқ хўжалигидаги аҳамиятини визуал баҳолаш орқали куйидаги натижалар олинди. Майна қишлоқ хўжалик экинларини экишдан бошлаб ҳосилни йиғиштириб олиш жараёнигача бўлган даврда экин далаларида энг кўп сонда йиғиладиган, фаол доминант тур саналади. Кузги арпа ва буғдойни ҳамда бедани ўриш, далани суғориш, ерга ишлов бериш вақтида майналар чўчиб қочган ҳашаротлар, тупроқдаги личинкалар билан озикланиши кузатилди. Турли ҳашаротлар билан зарарланган далалар, айниқса, деярли ҳар йили фитономус билан зарарландиган беда далаларида майналар тўдасининг йиғилиши кузатилади. Шунингдек, беда ва бошқа экинларни ўриш даврида ҳам майналар гала ҳолида кўплаб ҳашаротларни қиради. Бундай жамоа ҳолидаги трофик мослашувлар майнанинг ҳашаротларга қарши курашдаги самарадорлигини оширади. Майналар бу каби жойларнинг ҳашаротлар билан зарарланганлигини белгиловчи биоиндикатор бўлиб ҳам хизмат қилади.

Турли давлатларда қуш турларининг аҳамиятидан келиб чиққан ҳолда, унга нисбатан муносабат ҳам турлича хусусият касб этади. Жумладан, Венгрияда *Passer montanus*, *Passer domesticus*, *Corvus cornix*, *Columba livia*

Югославияда *Sturnus vulgaris*, *Passer domesticus*, *Streptopelia decaocto*, *Streptopelia turtur* Польшада *Corvus frugilegus*, *Sturnus vulgaris*, *Passer domesticus*, Франция ва Бельгияда *Passer domesticus* ва *Columba livia* қишлоқ хўжалигига зиён етказди. Шотландияда *Corvus cornix*, *Corvus corone*, *Corvus frugilegus*, *Pica pica*, *Corvus monedula*, *Columba palumbus*, *Passer domesticus* ва *Sturnus vulgaris* каби турлар “қора рўйхат”га киритилган бўлиб, уларни расмий равишда овлашга рухсат берилган. МДХ давлатларида *Corvus frugilegus*, *Turdus pilaris*, *Sturnus vulgaris* ва чумчуқларнинг қишлоқ хўжалигига, *Pica pica* ва *Corvus cornix*нинг эса ов хўжаликларига зиён етказиши тўғрисида маълумотлар бор. Худди шунингдек, дунё бўйича узум ва данакли мевалар ҳосили 10 %, бошоқли ва мой берувчи маданий ўсимликлар 5 % қушлар томонидан нобуд қилинади. Майна, чуғурчуқлар ва чумчуқлар гилосларнинг эртапишар навларига, узумларга сезиларли даражада зиён етказди [1;2;7]. Қизилқум регионида майнанинг бошқа ўсимлик меваларига қараганда кўпроқ узум навларига зиён етказиши кузатилди. Бу даврда аҳоли узумларни асраб қолиш мақсадида турли усуллардан фойдаланади.

Ўзбекистонда қишлоқ хўжалигида олиб борилаётган ислохотлар ва бу соҳанинг жадал ривожланиши натижасида йирик боғдорчилик, узумчилик хўжаликлари ташкил этилмоқда. Дехқончиликка бозор талабларига мос янги турдаги ўсимликлар кириб келмоқда. Экологик тоза, сифатли ва экспорт қилишга яроқли бўлган маҳсулотлар етиштириш эса қишлоқ хўжалигида зараркунандаларга қарши биологик кураш методларидан, жумладан, ҳашаротхўр қушлардан фойдаланишни тақазо этмоқда. Кейинги йилларда дунё миқёсида экологик тоза маҳсулот етиштиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу эса кимёвий препаратлар ўрнига биологик курашдан кенг ва самарали фойланишни талаб қилади. Майнани зараркунандалардан зиён кўрувчи агроценозларга жалб этиш орқали, унинг узумзор ва мевали боғлардаги сонини камайтириш имкониятлари мавжуд [8].

Қишлоқ хўжалиги зараркунандаларига қарши курашда ҳашаротхўр қушлардан фойдаланишнинг устунликлари қуйидагилардан иборат:

- зараркунадаларнинг кимёвий воситалар таъсирига мослашиши бундай воситаларни доимий равишда янгилаб туришни талаб қилади ва бу ўз навбатида, молиявий харажатларнинг ошишига, маҳсулот сифати ва маҳсулдорликнинг пасайишига олиб келади;
- кимёвий воситалар таъсирига нисбатан ҳашаротларда пайдо бўладиган мосланишлар майна ва бошқа ҳашаротхўр қушларнинг улар билан озикланишига тўсиқ бўла олмайди;
- майна зарарланган далада қисқа вақт ичида пайдо бўлиши ва ҳашаротларни қириш орқали даладаги ўсимликларнинг кўп қисмини зарарланишдан сақлайди;
- кимёвий воситалар кўпинча даладаги барча ҳашаротларнинг тўлиқ қирилишига, озуқа занжирининг узилишига сабаб бўлади, биологик курашнинг танлаб таъсир қилиш ва кўп сонда учровчи ҳашаротларни қириш хусусиятига

эгалити агроценозда биологик хилма-хилликнинг сақланиб қолишига олиб келади. Муайян биотопда майнанинг жуда кўп сонда учраши ва шу сабабли унинг хатти-ҳаракатида салбий хусусиятларнинг кўпайиши мазкур биотопда майнанинг яшаши учун зарур бўлган шароитларнинг оптимал даражадалиги билан боғлиқ бўлиб, бундан мазкур биотопдаги экологик ҳолатни баҳолашда ўзига хос индикатор сифатида фойдаланиш мумкин. Майнанинг кўп сонда учраши ва инсон билан ёнма-ён яшаши антисанитария ва эпидемиологияга тегишли муаммоларда иштирок этиши учун имконият яратади [9].

Юқорида таъкидланганидек, майналарнинг сони доимо маиший чиқиндилар билан ифлосланган жойларда кўп бўлади ва бу ерда учровчи қушлар жамоасида доминант турлардан саналади. Уларнинг бу каби жойларлардаги трофик алоқалари мураккаб бўлиб, улар бир вақтнинг ўзида ҳам салбий, ҳам ижобий хусусият касб этади. Жумладан, майна маиший чиқиндиларни истеъмол қилиш орқали санитарлик вазифасини бажариши билан бирга, мазкур чиқиндилар ва улардаги касаллик туғдирувчи организмларни атрофга тарқатиш орқали антисанитария ҳолатининг шаклланишига, бундай майдонларнинг кенгайишига, турли касалликларнинг тарқалишига сабаб бўлиши мумкин. Айниқса, туман марказлари ва шаҳарларда назоратсиз ёки ноқонуний шаклланган маиший чиқиндихоналарнинг кўплиги, бозорлару умумий овқатланиш шахобчалари атрофида антисанитария вазиятининг шаклланганлиги, озик-овқат маҳсулотлари, хомашёнинг очиқ ҳолда сақланиши ҳамда етарли даражада ҳимояланмаганлиги майнанинг уя қуриши, тунаши учун қулай имкониятларнинг мавжудлиги ва шу каби бошқа омиллар унинг бундай жойларда кўп сонда йиғилишига, салбий хусусиятларининг кўпайишига сабаб бўлади.

Майнани экологик омил сифатида ҳисобга олмасдан бунёд этилган иншоотлар ўз атрофида майналарни шовқин келтириб чиқарувчи ҳамда антисанитария каби атроф-муҳитни ифлослантирувчи омилга айлантириши қайд этилади. Кейинги йилларда майнанинг турли биозарарланишлардаги иштироки аҳоли орасида унинг зарарли тур эканлиги, шунинг учун сонини доимий назорат қилиш зарурлиги тўғрисида ҳар хил қарашларнинг пайдо бўлишига олиб келмоқда. Айтиш лозимки, айти вақтда аҳоли турар жойларидаги қушлар жамоасида майна доминант турлар қаторига қўшилиб улгурди. Тажовузкорлиги, рақобатбардошлиги ва бошқа экологик устунликлари билан айрим турларнинг (мусича, чуғурчук, кўк каптар, гўнқарға, зағизғон, зоғча, кўкқарға ва бошқа) ҳақиқий рақобатчисига айланди. Майналар ошқозонларидаги озуқа таркибининг ўрганилиши ва визуал кузатишлар натижасида уларнинг чорвачилик ривожланган хўжаликларда турли чорва моллари, паррандалар билан яқиндан трофик алоқада бўлиши натижасида мол канаси, сўна, чивин ва бошқа зараркунандалар билан озикланиши аниқланди. Бундай симбиоз муносабатлар, бир томондан, ижобий аҳамиятга эга бўлса, иккинчи томондан, майнанинг

айрим касалликлар ташилиши ва тарқалишида иштирок этувчи сифатидаги салбий хусусиятидан далолат беради.

Адабиётларда майнанинг қуш безгаги, кана, бит, юмалоқ ва тасмасимон чувалчанглар каби касаллик тарқатувчи зараркунандалар билан зарарланиши, қолаверса, уларнинг ташувчиси сифатида иштирок этиши тўғрисида маълумотлар бор. Майнанинг кўпайиши ва озикланишини ўрганиш жараёнида унинг уясида, танасида кана, бит сингари ва яна бошқа эктопаразитларнинг учраши қайд этилмади. Бу, эҳтимол, унинг ўзини тозалашда бошқа қуруқликда яшовчи кўпчилик қуш турлари каби қум, тупроқ ва қулдан эмас, балки сувдан фойдаланиши билан боғлиқ бўлса керак.

Таъкидлаш лозимки, республикамизда қушларнинг, жумладан, майнанинг экто ва эндопаразитларини эпидемиологик, серологик жиҳатдан ўрганиш масаласи долзарблигича қолмоқда. Бундай тадқиқотлар турли касалликларнинг олдини олиш билан бир қаторда, турнинг аҳамиятини баҳолаш ва шу асосда тегишли чора-тадбирлар ишлаб чиқиш имконини беради. Юқорида қайд этилганларга таянган ҳолда айтиш мумкинки, майнанинг аҳамияти ҳар бир регионнинг табиати ва хўжалик юритиш усулига кўра ўзига хос бўлади.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ильичев В.Д. Управление поведением птиц. – Москва: Наука, 1984. – С. 232-245.
2. Ильичев В.Д. Экология и управление поведением птиц / Серия Биология, № 3. – Москва, 1988. – 63 с.
3. Рустамов А.К. Расселение майны в бассейне Амударьи // Природа – 1946. – № 2. – С. 89-92.
4. Салихбаев Х.С., Богданов А.Н. Фауна Узбекской ССР. Птицы. Т.2 Ч.4. – Ташкент: Фан, 1967. – 184 с.
5. Ахмедов К.Р. Биология и хозяйственное значение майны в Таджикистане // Известия АН Таджикской ССР, отделение естественных наук. – Душанбе, 1953.
6. Кашкаров Д.Ю. Птицы. Майна – *Acridotheres tristis* L. Позвоночные животные Ферганской долины. – Ташкент: Фан, 1974. – С. 108-112.
7. Жабборов А.Р. Ўзбекистонда қушлар келтириб чиқарадиган биошикастланишларнинг назарий ва амалий жиҳатлари // Ҳайвонлар экологияси ва морфологияси. – Самарқанд, 2008. – Б. 38-44.
8. Кашкаров Д.Ю., Шарипов М.Ш. Рекомендации по охране и привлечению полезных птиц в условиях городов и сельских населенных пунктов Узбекистана // Информационное сообщение. – Ташкент, 1972. – № 67. – 11
9. Холбоев Ф.Р. Шаҳар қушларининг эпидемиологик аҳамиятини ўрганишга доир. – Жиззах, 2004. – Б. 149-150.
10. Юдин Н.М. Майна или афганский скворец *Acridotheres tristis*. Его биология и распространение в Средней Азии // Русский орнитологический журнал. – Том 18. – Экспресс-выпуск. – № 526. – Москва, 2009. – С. 2007-2017.

## ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ПРЕПОДАВАНИЮ РУССКОГО ЯЗЫКА

Ташева Азиза Камиловна

Учитель русского языка и литературы, Школа №5, Кашкадарьинская область,  
город Касан

**Аннотация:** Использование данных технологий на уроках имеет большие преимущества. Учебный процесс становится для учащихся интересным, развивает навыки самостоятельно получать знания в процессе взаимодействия и поиска. Повышается качество и прочность полученных знаний. Развиваются исследовательские навыки и умения. Параллельно с процессом обучения идет развитие коммуникативных качеств и формирование лидерских качеств личности.

**Ключевые слова:** преподавание, коммуникация, образования и другие

Инновационное обучение (от англ. innovation — нововведение) — новый подход к обучению, включающий в себя личностный подход, фундаментальность образования, творческое начало, профессионализм, использование новейших технологий. В настоящее время в школьном образовании используются следующие наиболее характерные инновационные технологии: информационно-коммуникативные технологии, проектно-исследовательские, личностно-ориентированные, игровые, уровневой дифференциации. Среди многообразия педагогических технологий чаще всего я использую технологию проблемного обучения. Основным качеством данной технологии определяется развитие высокого уровня мотивации к учебной деятельности, активизация познавательных интересов учащихся, что становится возможным при решении возникающих противоречий, создании проблемных ситуаций на уроке. В преодолении посильных трудностей у учащихся возникает постоянная потребность в овладении знаниями, умениями и навыками. Проблемное обучение можно применять на уроках, создавая проблемную ситуацию на любом его этапе. Проблемное обучение активизирует мыслительную деятельность, без которой школьнику очень сложно учиться, тем более с интересом. У большинства учащихся формируется положительная мотивация к изучению предметов, познавательный интерес. Возрастает эффективность развития интеллектуальных и творческих способностей учеников. Коммуникативный режим проблемного обучения и самообучения позволяет рационально организовывать и воспитывать культуру умственного труда. Проблемные уроки считаю удачными, если ученики смогли самостоятельно сделать один или несколько выводов; ученики смогли установить связи между явлениями; в обсуждении проблемы были вовлечены в той или иной степени все ученики; если после окончания урока у учеников есть желание обсудить предложенную

проблему с одноклассниками и учителем. Игровые технологии. Использование игровых технологий на уроках русского языка помогает в той или иной степени снять ряд трудностей, связанных с запоминанием материала, вести изучение и закрепление материала на уровне эмоционального осознания, что, несомненно, способствует развитию познавательного интереса к русскому языку как к учебному предмету. Немаловажно также и то, что игра на уроках русского языка способствует обогащению словарного запаса обучающихся, расширяет их кругозор. В своей работе также использую проектную деятельность. В основе проектной деятельности лежит коллективная, групповая или индивидуальная работа над решением практических задач. Чтобы решить их, требуется владение большим объемом знаний и определенными умениями: – интеллектуальными (умение работать с информацией и текстом, вести ее поиск и анализ, делать выводы); – коммуникативными (умение вести дискуссию, диалог, отстаивать свое мнение); – творческими (умение прогнозировать последствия того или иного явления, умение осуществлять обобщенные умственные действия в вариативных условиях решения учебных задач). При использовании проектной технологии учащиеся самостоятельно изучают и анализируют различные источники информации по теме; работают со словарями; с интернет-ресурсами; собирают, обобщают необходимую информацию; демонстрируют полученные результаты. Существует несколько классификаций нестандартных уроков: урок-семинар, урок-лекция, урок-беседа, урок-практикум, урок-экскурсия, урок-исследование, урок-игра, урок-КВН, урок-защита проекта, урок-диспут, урок-конференция, урок-театрализованное представление, урок-маскарад, урок-путешествие, урок-зачет. Практически все они позволяют задавать проблемные вопросы и создавать проблемные ситуации, решать задачи дифференцированного обучения, активизируют учебную деятельность, повышают познавательный интерес. Таким образом, инновационные технологии пробуждают интерес учащихся к предмету, развивают и обогащают речь учащихся; учебный материал, представленный в необычной форме, более прочно усваивается детьми, позволяет пробудить любовь и уважение к русскому языку.

#### **Литература:**

1. Алексеева, Л. Н. Инновационные технологии как ресурс эксперимента/ Л. Н. Алексеева// Учитель. — 2004. — № 3. — с. 28.
2. Панфилова А.П Инновационные технологии: активное обучение: учеб. пособ. для студ. / А. П. Панфилова.- М.: «Академия», 2009. — 192 с.— URL:  
2. <https://moluch.ru/conf/ped/archive>

## MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISH METODIKASI

Kalandarova Dilnoza Samandarovna  
Buxoro davlat universiteti Biologiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ta'lim jarayonida salmoqli o'rin egallagan "Muammoli (aqliy hujum) dars", "Munozarali (ilmiy munozarali va erkin fikrlash) dars"lari muammoli ta'lim texnologiyasiga asoslanadi. Mazkur darslarning o'ziga xos jihati dars davomida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarga asoslanadi. Muammoli ta'lim deb, o'qituvchi tomonidan pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng muqobil varianti yordamida, fikr yuritish qonuniyatlariga tayangan holda, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayonida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va bilish ehtiyojini qondirish maqsadiga yo'naltirilgan, shaxsning umumiy va maxsus rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan jarayonga aytiladi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, rivojlanish, va boshqalar

Muammoli ta'lim jarayonida o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirishi va aqliy faoliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Muammoli ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini orttirish, ko'nikmalarni malaka darajasiga yetkazish maqsadida qo'llanilib, unda o'quvchi o'quv materialini tahlil qiladi, taqqoslaydi, sintezlaydi, ma'lumotlarni umumlashtirib, yangi axborot oladi. Boshqacha aytganda, avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini yangi vaziyatlarda qo'llab, bilimlarni chuqurlashtiradi, kengaytiradi. Bilimlarni bunday o'zlashtirish usulini hech bir darslik va ustoz o'rgata olmaydi, faqat o'quvchilar muammoli vaziyatlarni hal etish jarayonida izlanadi va muammolar yechimini to'adi. O'quvchilarni ijodiy va mantiqiy fikr yuritishga o'rgatish, aqliy faoliyat usullarini egallashga, ularda ilmiy, tanqidiy-tahliliy, mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga olib keladi. Masalan, "Nima uchun o'rmonda quyonlar, bug'ular tomonidan po'stlogi yeb qo'yilgan yosh daraxt va butalar tezda nobud bo'ladi?" degan savolga javob topishi uchun o'quvchilar poyaning bajaradigan funksiyalarini eslashi, floema va ksilema o'rasidagi farqni belgilashi, poyaning tuzilishi va funksiyasini chog'ishtirishi, to'plangan ma'lumotlar asosida xulosa yasab, fikrini dalillashi lozim. Savolning bu tarzda muammoli qo'yilishi o'quvchilarda tahliliy va mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini egallashga imkon beradi. Muammoli ta'limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq:

- muayyan mavzuga oid o'quv materialini muammolashtirish;
- muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish;

- ta'lim jarayonini o'yin, mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish;
- o'qituvchi tomonidan muammoli metodlardan o'z o'rnida va samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;
- muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda o'quvchilarga bayon etish;

**“Tanqidiy tafakkur” metodi** o'quvchi qo'yilgan masala yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon qilish, o'zgalarning fikrlarini tanqidiy qayta idrok etish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishiga asoslangan. Odatda, muhim masalalarni hal etayotganda yuzaga keladi. Masalan: maktablarga yagona maktab formasi kerakmi? Bu narsa o'qituvchiga o'quvchilarning tinglash va muloqot qilish ko'nikmalarini, turli nuqtai nazardan tushunish malakasini rivojlantirish, bahsli masalalarni hal qilish, tahliliy mushohada yuritish va fikrlash layoqatini oshirish, ularning o'z fikrini shakllantirish mahoratini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

**“Nima uchun” sxemasini** umumta'lim fanlarining barcha mavzularini o'rganish jarayonida qo'llash mumkin. “Nima uchun” sxemasi-muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo'yicha fikrlar zanjiridir. Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi. “Nima uchun” sxemasini tuzish qoidasi bilan tanishadilar. “Nima uchun” so'rog'ini beradilar va chizadilar, shu savolga javob yozadilar. Bu jarayon muammoning dastlabki sababi aniqlanmaguncha davom etadi.

Kichik guruhlarga birlashadilar, taqqoslaydilar, o'zlarining chizmalarini to'ldiradilar. Umumiy chizmaga keltiradilar. 1. Aylana yoki to'g'ri to'rtburchak shakllardan foydalanishni o'zingiz tanlaysiz. 2. Chizmaning ko'rinishini - mulohazalar zanjirini to'g'ri chiziqli, to'g'ri chiziqli emasligini o'zingiz tanlaysiz. 3. Yo'nalish ko'rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo'lgan yo'nalishingizni belgilaydi.

#### **Foydalanilgan manbalar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 a'reldagi “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi ‘F-5712-son Farmoni. – T.// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.
2. M.Pardaeva. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompetentsiyaviy yondashuvni joriy etishning metodik tizimi boshqarish. ped. fan. dok. (pHD) ... diss. – T. : 2020.
3. M.Yuldashev. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishda ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish. ped. fan. dok. ... diss. – T.: 2016.
4. B. Xodjaev. Metod, usul va texnologiya... mazkur tushunchalarni farqlay olasizmi?. Mahrifat. – T.: 2018.

5. Созонова С. Д. Использование технологии проектного обучения на уроках в начальной школе. — Чита: 2018. — С. 95- 98.
6. Sh.Sattorov. Biz g'alaba qozonamiz. – T.: Bilim va intellectual salohiyat, 2018.
7. Safarova R va b. O'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish strategiyasi //

## KO'CHMAS MULK OBYEKTINI BAHOLASHDA (HARAJATLI, QIYOSIY YONDASHUV) UNING QIYMATINI ANIQLIGINI OSHIRISH

A.U.Xaliqov, B.G.Berdibayeva  
Toshkent arxitektura qurilish institute talabalari

**Annotatsiya:** Maqolada ko'chmas mulk hamda uni baholash faoliyatining paydo bo'lish tarixidan boshlab, bugungi kunga qadar erishgan yutuqlari, shuningdek, baholash faoliyatidagi qo'llaniladigan asosiy yondashuvlar misollari bilan tushuntirilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** ko'chmas mulk, baholash, baholash turlari, asosiy baholash yondashuvlari, ko'chmas mulk bozori, ko'chmas mulk qiymati

Dastlabki mulkni baholash ishlari XVIII asrga to'g'ri keladi. Baholashdan asosiy maqsad soliq solish bilan bog'liq bo'lgan. Mol-mulkni baholash ishlari Milan (1718 – 1759 yy) va Tirol (1771 – 1784 yy) da boshlangan edi<sup>1</sup>.

XIX asrning boshlarida g'arbiy Evropaning aksariyat mamlakatlarida ko'chmas mulkni tavsiflash, ro'yxatga olish va baholashni amalga oshiradigan kadastr ishlari amalga oshirildi. Yevropada ilk bor milliy boylik baholash 1664-yilda ingliz iqtisodchisi U. Petty tomonidan amalga oshirilgan. Keyinchalik Yevropaning boshqa mamlakatlarida ham mol-mulkni baholash jarayoni boshlangan. Masalan: Frantsiyada Milliy boylik 1789-yilda ilk bor baholangan bo'lsa, AQShda 1805-yilda, Rossiyada 1864-yilga to'g'ri keladi<sup>2</sup>.

1853-yilga kelib milliy boylikni o'lchashdagi vujudga kelayotgan metodologik muammolar xalqaro statistika kongresslarda asosiy mavzuga aylandi. 1947-yilga kelib Milliy daromad va boylik muammolarini o'rganish bo'yicha Xalqaro assotsiatsiyasi tashkil etildi hamda 1966-yildan beri assotsiatsiya "TheReviewofIncomeandWealth" nomli jurnalini chiqarishni boshladi<sup>3</sup>.

Baholash faoliyati va baholash bilan bog'liq tushunchalar yurtimizda yaqinda paydo bo'lib, bunga iqtisodiyatning ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruvidan bozor usullariga o'tishi jarayonining boshlanishi sabab bo'ldi. O'tish davrida davlat asosiy islohotchi ma'suliyatini o'z zimmasiga oldi.

Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy davlat va xo'jalik tizimini shakllantirish - hozirgi kunda Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Bozor mexanizmlarining rivojlanishi o'z navbatida, iqtisodiyotning barcha sohalarida raqobatchilik muhitining shakllanishini taqozo qiladi. Turli xildagi mulklarni baholash esa bu masalalarni hal qilishga qaratilgandir. Huquqiy davlatni shakllantirish va rivojlantirish masalalari mulkiy huquqlarni ham hisobga olgan holda, jamiyatning barcha a'zolarini teng huquqlar bilan ta'minlashni

<sup>1</sup> [www.wikipedia.com](http://www.wikipedia.com);

<sup>2</sup> [www.vuzlit.ru](http://www.vuzlit.ru) ;

<sup>3</sup> [vuzlit.ru](http://vuzlit.ru)

qamrab oluvchi butun bir majmuani o'z ichiga oladi. Shuning uchun istalgan huquqiy davlatning bosh maqsadi shu huquqlarni himoya qilish va ularni adolatli iqtisodiy baholash uchun sharoit yaratish hisoblanadi. Ushbu hujjat ming yillik Deklaratsiyasi (Birlashgan Millatlar Tashkilotining ming yillik Deklaratsiyasida (Bosh Assambleyaning 55/2 qarori 25 punkti bilan 2000 – yilning 8 – sentyabrida qabul qilingan) da shakllantirilgan, barqaror rivojlanish ko'rsatmalariga javob beradi. Shunday qilib, baholash faoliyatini rivojlantirish iqtisodiyotda islohotlar o'tkazish va O'zbekiston Respublikasida huquqiy demokratik davlat barpo etish jarayonining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi<sup>4</sup>.

Hozirgi vaqtda ko'chmas mulk ob'ektlarini baholashning o'nlab usullari mavjud bo'lib, ular uchta asosiy guruhdan yondashuvlariga birlashtirilgan: xarajatli, daromadli va qiyosiy. Ko'chmas mulkni ommaviy baholash uchun qiyosiy yondashuvdan foydalanish eng maqbul variant, chunki ushbu yondashuv qiymatni aniqlashda nihoyatda aniq natijalar beradi. Tijorat sohasida qo'llaniladigan ob'ektlarda asosiy o'ringa daromadli yondashuv chiqadi, shunga mos tarzda xarajatli yondashuv yangi qurilish ob'ektlari uchun eng maqbul variant hisoblanadi.

Ko'chmas mulk ob'ektlarining bozor qiymatiga ta'sir qiladigan omillar ob'ektiv, ya'ni aniq bitimning alohida olingan ishtirokchisi ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, va sub'ektiv – bitim ishtirokchisi ta'sir etishi mumkin bo'lgan omillarga bo'linadi. Baholash faoliyatida kuzatiladigan ob'ektiv omillar, asosan, iqtisodiy aniqlovchilar hisoblanadi, masalan, aniq bitimlar narxining o'rtacha darajasi. Har bir aniq bitimning narxi esa turli omillar ta'sirida shakllanishi mumkin va u anashu o'rta daraja atrofidagi tasodifiy kattalikni tashkil qiladi. Harajatlar yondashuvning muhim va qiyin jihati eskirishni aniqlash hisoblanadi. Ma'lumki, eskirish – bu foydalilikni va ko'chmas mulk ob'ekti qiymatini uni keltirib chiqargan sabablarga bog'liq bo'lmagan holda yo'qotishidir.

Harajatli yondoshuvda yer uchastkasining bozor qiymatini baholash yer uchastkasiga yuridik rasmiylashtirilgan egalik huquqi (egalik huquqi, mulkiy huquq va majburiyat huquqi) mavjud bo'lgandagina amalga oshiriladi. Ko'chmas mulk ob'ektlarini harajatli yondoshuv nuqtai nazaridan baholashda, qurilishi uchun zarur barcha material sarflar yig'indisi birinchi o'ringa chiqadi.

Qiyosiy yondashuv bozor sotuvlari tahliliga asoslangan va bozor iqtisodiyotida ko'pchilik ko'chmas mulk ob'ektlarini baholash uchun ishlatiladi. U baholovchi oson erisha oladigan bozor axborotiga asoslanadi va ko'chmas mulk ob'ekti haqida oddiy, mantiqan asoslangan mulohaza olishga imkon beradi. Qiyosiy yondashuv doirasida amalga oshiriladigan jarayonlarning asosiy mazmuni shundan iboratki, ko'chmas mulk ob'ektini sotib oluvchi unga analog bo'lgan ko'chmas mulk ob'ekti sotib olingan narxdan yuqorisini to'lamaydi. Ko'chmas mulkka nisbatan qo'llanilganda bu shuni anglatadi: agar bozorda ob'ekt almashtirilishi mumkin bo'lsa, u holda uning qiymati odatda o'rnatiladi Turar joy mulkiga nisbatan bu agar bozorda ob'ekt almashtirilishi

<sup>4</sup> Ko'chmas mulk iqtisodiyoti, M.Ikramov, M.Miraxmedov, V.Yodgorov, D.Mirjalilova

mumkin bo'lsa (odatda shunday ham bo'ladi) unda uning bahosi unga teng darajadagi xonadonni ko'p vaqt saralamasdan olish bahosiga teng bo'ladi.

Ko'chmas mulk obyektini baholash uchun (harajatli, qiyosiy) baholanish obyekti sifatida Toshkent shaxrining Mirobod tumanida joylashgan kvartirani olamiz.

Baholash obyekti haqida umumiy ma'lumot

1 - jadval

Xonadoning tavsifi	
<b>Joylashgan joyi</b>	O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Massiv Qo'z yilq 2, 11 dom, 3-xonadon
<b>Xonadonning umumiy maydoni, m.kv</b>	66,26 m.kv
<b>Muhandislik kommunikatsiyalarning mavjudligi</b>	Elektr energiyasi – shahar tarmog'idan; Issiq, sovuq suv – markaziy tarmoqdan; Kanalizatsiya – shahar tarmog'iga ulangan; Gaz – shahar tarmog'idan; Isitish tizimi – markaziy tarmoqdan; Telefon; Telekabel tarmog'i
<b>Qurilish maydonining zilzilaviy ko'rsatkichi</b>	Toshkent shahar mikroseymik xaritasi (KMK 2.01.03-96 “Seysmik tumanlarda qurilish”, ilova)ga asosan bino 9 ballik zilzilaviy hududda joylashgan

2 - jadval

Yaxshilashlar tavsifi	
<b>Umumiy tavsif</b>	Ko'p qavatli turar joy binosi umumiy maydoni 80 metr kv
<b>Qurilgan yili</b>	1980 yil
<b>Qavat / qavatligi</b>	1 / 4
<b>Qurilish sifati</b>	Qurilish ishlari – andozaviy (tipik loyihaga asosan) Pardozlash ishlari – a'lo
<b>Joriy foydalanish</b>	Turar –joy sifatida

Toshkent shaxridagi 3 xonali xonadonni baholashni o'tkazish vaqtida Toshkent shahrida joylashgan va o'z xususiyatlariga ko'ra baholash obyekti bilan o'xshash bo'lgan 3 ta obyektни tanlandi.

1 – obyekt haqida umumiy ma'lumot

3- jadval

Xonadonning umumiy tavsifi	
<b>Joylashgan joyi</b>	O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Sodiq Azimov ko'chasi
<b>Xonadonning umumiy maydoni</b>	75 m.kv

<b>Xonalar soni</b>	3
<b>Qavatlar soni</b>	6 / 9
<b>Muhandislik kommunikatsiyalarning mavjudligi</b>	Barchasi mavjud
<b>Mebel, texnikalar bilan ta'minlanganlik darajasi</b>	Mebel va texnika mavjud
<b>Texnik holati</b>	A'lo darajada
<b>Obyektning taklif narxi</b>	845 589 430
<b>1 kvadrat metr uchun taklif etilayotgan narx</b>	11 274 526

2 – obyekt haqida umumiy ma'lumot

4 - jadval

<b>Xonadonning umumiy tavsifi</b>	
<b>Joylashgan joyi</b>	O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shaxri, Mirobod tumani, Sodiq Azimov ko'chasi
<b>Xonadonning umumiy maydoni</b>	100 m.kv
<b>Xonalar soni</b>	3
<b>Qavatlar soni</b>	5 / 9
<b>Muhandislik kommunikatsiyalarning mavjudligi</b>	Barchasi mavjud
<b>Mebel, texnikalar bilan ta'minlanganlik darajasi</b>	Mebel va texnika mavjud
<b>Texnik holati</b>	A'lo darajada
<b>Obyektning taklif narxi</b>	1 162 700 000
<b>1 kvadrat metr uchun taklif etilayotgan narx</b>	11 627 000

3 – obyekt haqida umumiy ma'lumot

5 - jadval

<b>Xonadonning umumiy tavsifi</b>	
<b>Joylashgan joyi</b>	O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shaxri, Mirobod tumani, Fidokor ko'chasi
<b>Xonadonning umumiy maydoni</b>	75 m.kv
<b>Xonalar soni</b>	3
<b>Qavatlar soni</b>	8 / 9
<b>Muhandislik kommunikatsiyalarning mavjudligi</b>	Barchasi mavjud

<b>Мebel, texnikalar ta'minlanganlik darajasi bilan</b>	Mebel va texnika mavjud
<b>Texnik holati</b>	A'lo darajada
<b>Obyektning taklif narxi</b>	819 175 000
<b>1 kvadrat metr uchun taklif etilayotgan narx</b>	10 922 333

Baholanayotgan obyektimiz hamda analoglarimizni ekspluatatsiya qilish bilan bog'liq alohida cheklanishlar mavjud bo'lmaganligi bois, shuningdek, moliyaviy sotish shartlari bir xil bo'lgani uchun 0% miqdori beriladi. Oldi-sotdi jarayonida narxlarni kamaytirish -5% (o'rtacha miqdor sifatida) deb qabul qilindi. Bunga sabab sifatida ma'suliyati cheklangan jamiyat "SION GROUP" rieltorlik agentligining rasmiy internet saytida ko'chmas mulk obyektini sotish jarayonida obyekt narxini 10%gacha arzonlashtirish mumkin. Qavatlar orasidagi tafovutni yo'qotish uchun har bir qavat uchun  $\pm 2\%$  belgilanadi. Bunga ko'ra: 1-obyektimiz 6-qavatda joylashgani bois 8%, 2-obyektimiz 5-qavatda bo'lgani uchun 6% va so'ngi 3-obyektimiz 8-qavatda joylashganligi bois 12% deb qabul qilinadi. Hisob ishlarimizni jadval ko'rinishiga keltadigan bo'lsak, u quyidagi ko'rinishga keladi:

6 - jadval

<b>Исходные данные к сравнительному подходу</b>			
	<b>Таблица №2</b>		
<b>Наименование</b>	<b>Аналог №1</b>	<b>Аналог №2</b>	<b>Аналог №3</b>
<b>Объект аналог</b>	<b>Квартира</b>	<b>Квартира</b>	<b>Квартира</b>
<b>Право собственности</b>	Полное	Полное	Полное
<b>Финансовые условия</b>	Рыночные	Рыночные	Рыночные
<b>Условия продажи</b>	Типичные	Типичные	Типичные
<b>Расходы после покупки</b>	Отсутствует	Отсутствует	Отсутствует
<b>Дата выставления на торги/Дата продажи</b>	Текущая	Текущая	Текущая
<b>Снижения цены в процесс торгов</b>	Цена предложения	Цена предложения	Цена предложения
<b>Местоположение</b>	г. Ташкент Мирабадский район. Ул. Садыка Азимова	г. Ташкент Мирабадский район. ЦУМ	г. Ташкент Мирабадский район. Ул. Фидокор (быв. Чехова)
<b>Доступные инженерные сети</b>	Все коммуникации имеются	Все коммуникации имеются	Все коммуникации имеются
<b>Общая площадь</b>	75 кв.м.	100 кв.м.	75 кв.м.

Конструкция	Кирпичный	Кирпичный	Кирпичный
Этаж / этажность	6/9 этажный	5/9 этажный	8/9 этажный
Вспомогательные и дополнительные улучшения	Не имеется	Не имеется	Не имеется
Наличие мебели и техники	Без мебели и техникой	С мебелью и техникой	С мебелью и техникой
Наличие дополнительных удобств	Не имеется	Не имеется	Не имеется
Техническое состояние	Отличное	Отличное	Отличное
Цена продажи (предложения), у.е	79 999	110 000	77 500
Цена продажи (предложения), сум	845 589 430	1 162 700 000	819 175 000
Цена за единицу площади квартиры, сум/кв.м.	11 274 526	11 627 000	10 922 333

7 - jadval

Расчет стоимости квартиры сравнительным подходом					
					Таблица №3
Элементы сравнения	Ед. изм.	Объект оценки	Аналоги		
			Аналог №1	Аналог №2	Аналог №3
Цена предложения	сум		845 589 430	1 162 700 000	819 175 000
Общая площадь	м2	66,26	75	100	75
Цена за единицу общей площади	сум/м2		11 274 526	11 627 000	10 922 333
<b>Право собственности</b>		Полное	Полное	Полное	Полное
Корректировка	%		0%	0%	0%
Скорректированная цена	сум/м2		11 274 526	11 627 000	10 922 333
<b>Финансовые условия</b>		Рыночные	Рыночные	Рыночные	Рыночные
Корректировка	%		0%	0%	0%
Скорректированная цена	сум/м2		11 274 526	11 627 000	10 922 333
<b>Условия продажи</b>		Типичные	Типичные	Типичные	Типичные
Корректировка	%		0%	0%	0%
Скорректированная цена	сум/м2		11 274 526	11 627 000	10 922 333

<b>Расходы после покупки</b>		Отсутствует	Отсутствует	Отсутствует	Отсутствует
<b>Корректировка</b>	%		<b>0%</b>	<b>0%</b>	<b>0%</b>
<b>Скорректированная цена</b>	сум/ м <sup>2</sup>		<b>11 274 526</b>	<b>11 627 000</b>	<b>10 922 333</b>
<b>Дата выставления на торги/Дата продажи</b>		Текущая	Текущая	Текущая	Текущая
<b>Корректировка</b>	%		<b>0%</b>	<b>0%</b>	<b>0%</b>
<b>Скорректированная цена</b>	сум/ м <sup>2</sup>		<b>11 274 526</b>	<b>11 627 000</b>	<b>10 922 333</b>
<b>Снижения цены в процесс торгов</b>		Рыночная стоимость	Цена предложения	Цена предложения	Цена предложения
<b>Корректировка</b>	%		<b>-5%</b>	<b>-5%</b>	<b>-5%</b>
<b>Конструкция</b>		Кирпич	Кирпичный	Кирпичный	Кирпичный
<b>Корректировка</b>			<b>0%</b>	<b>0%</b>	<b>0%</b>
<b>Финансовые условия</b>		Рыночные	Рыночные	Рыночные	Рыночные
<b>Корректировка</b>	%		<b>0%</b>	<b>0%</b>	<b>0%</b>
<b>Местоположение</b>		г. Ташкент Мирабадский район, массив Куйлюк-2, дом №11	г. Ташкент Мирабадский район. Ул. Садыка Азимова	г. Ташкент Мирабадский район. ЦУМ	г. Ташкент Мирабадский район. Ул. Фидокор (
<b>Корректировка</b>	%		<b>0%</b>	<b>0%</b>	<b>0%</b>
<b>Этаж / этажность</b>		2/9 этажный	6/9 этажный	5/9 этажный	8/9 этажный
<b>Корректировка</b>	%		<b>8%</b>	<b>6%</b>	<b>12%</b>
<b>Дата выставления на торги/Дата продажи</b>		Текущая	Текущая	Текущая	Текущая
<b>Корректировка</b>	%		<b>0%</b>	<b>0%</b>	<b>0%</b>
<b>Доступные инженерные сети</b>		Все коммуникации имеются	Все коммуникации имеются	Все коммуникации имеются	Все коммуникации имеются
<b>Корректировка</b>	%		<b>0%</b>	<b>0%</b>	<b>0%</b>
<b>Наличие мебели и техники</b>		Без мебели и техникой	С мебелью и техникой	С мебелью и техникой	С мебелью и техникой

Корректировка	%		-3%	-3%	-3%
Наличие доп. удобств.		Не имеется	Не имеется	Не имеется	Не имеется
Корректировка	%		0%	0%	0%
Техническое состояние		Отличное	Отличное	Отличное	Отличное
Корректировка	%		0%	0%	0%
Величина поправки			0%	-2%	4%
Скорректированная цена	Сум		11 274 526	11 394 460	11 359 227
Весовой коэффициент			0,33	0,34	0,33
Цена за единицу общей площади строения	сум/м <sup>2</sup>	11 343 255	3 720 593	3 874 116	3 748 545
Стоимость объекта оценки	Сум	751 604 000			

Baholanayotgan obyektimizning 1 kvadrat metrqa narx belgilash uchun 3 ta analoglarimizning 1 m.kv narxlarini bi-biriga qo'shamiz:

$$3\ 720\ 593 + 3\ 874\ 116 + 3\ 748\ 545 = 11\ 343\ 255\ \text{so'm}$$

So'ngra topgan summani baholanayotgan obyektimizning umumiy maydoniga ko'paytiramiz:

$$11\ 343\ 255 * 66,26 = 751\ 604\ 000\ \text{so'm}$$

Demak, baholanayotgan obyektimizning qiyosiy yondashuv orqali topgan narximiz 751 604 000 so'mga teng.

Endi xarajatli yondashuv bilan hisoblaymiz. Baholash davomida TQUK (Bino va inshootlar tiklash qiymatining umumlashtirilgan qiymati) to'plamidan foydalanamiz. Baholanayotgan obyektimizni qurilish hajmini aniqlaymiz:  $66,26 * 3 = 199\ \text{m}^3$

TQUK to'plami bo'yicha eng o'xshash analogni topib, uning bir o'lchov birligi qiymatini hamda 1991-yil narxlaridagi tiklanish qiymatini belgilaymiz 1991-yildan 2003-yilgacha panel bino uchun 405,8 hamda g'ishtli bino uchun 411,4 koeffisientlar bo'yicha hisoblash belgilangan. Baholanayotgan obyektimiz g'isht bo'lganligi sababli 411,4ni olamiz. Tadbirkor daromadini 25% deb olamiz. Baholanayotgan obyektimiz va uning konstruksiyalari yaxshi saqlanganligi bois, ularning yemirilish ko'rsakchlari 5,1%ni tashkil qildi. Hozirgi hisob ishlarimizni jadvalga soladigan bo'lsak, u quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

#### Расчет стоимости квартиры затратным подходом

8 - jadval

Краткая характеристика и техническое состояние конструктивных элементов				
Кв-ра имеет сложную форму в плане	Общая площадь	66,26 кв.м	Объем	199 куб.

Расположена на 2-ом этаже 9-этажного жилого дома	Высота	3,00 м		м		
Восстановительная стоимость 1 куб.м строительства аналога по УПВС(ГККИНП-18-076-03, табл.№27, графа "а")				119,30 сум		
<b>Наименование элементов</b>	<b>Характеристика конструкций</b>			<b>Техническое состояние</b>		
Фундаменты	Сборных железобетонных блоков			не выявлено		
Стены, перегородки	Жженный кирпич			Хорошее		
Перекрытия	Ж/Б			Хорошее		
Кровля	Металлическая			Отличное		
Полы	Таркет и кафель			Отличное		
Проемы	Оконные проемы из пластикового профиля, дверные проемы МДФ			Отличное		
Отделочные работы	Повышенная отделка			Отличное		
<b>Наименование конструктивных элементов по УПВС</b>	<b>Уд.вес аналога</b>	<b>Уд.вес объекта оценки</b>	<b>Взвешен. знач.</b>	<b>Физ.износ, %</b>	<b>Функц.износ, %</b>	<b>Внеш.износ, %</b>
Фундаменты	7	6	0,4	<b>5,1</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>
Стены и перегородки	25	5	1,3			
Перекрытия	9	5	0,5			
Крыша	2	5	0,1			
Полы	7	5	0,4			
Окна, двери	13	5	0,7			
Отделочные работы	16	5	0,8			
Внутренние санитарно-технические и электрические работы	14	5	0,7			
Прочие работы	7	5	0,4			
<b>Итого</b>	<b>100</b>		<b>5,1</b>	<b>5,1</b>		
Общий объем квартиры						199 куб.

	м
Стоимость оценочной единицы в ценах 1991 г, по таблицам Сборника УПВС	119,3 0 сум
Поправочный коэффициент, характеризующий отличия между объектом оценки и объектом аналога:	1,10
корректировка на сейсмичность - 8 балльная зона	1,1
корректировка на полезную высоту	1
	2608
Полная восстановительная стоимость квартиры в базовых ценах 1991 г.	5,90
Договорный индекс удорожания СМР за 2003 г.	411,4
Индексы предприятий производителей по отраслям промышленности с 2003 по 01.12.2019 г.	17,06 1
	1830
Полная восстановительная стоимость квартиры на дату оценки (без учета накопленного износа)	9419 9,3
Прибыль девелопера, %	25
Накопленный износ, %	5,1
	2172
Стоимость квартиры с учетом прибыли девелопера и накопленного износа, сум	6415 4
	2172
<b>Стоимость квартиры, полученной затратным подходом, с учетом округления, сум</b>	<b>6400 0</b>

Shunday qilib, xarajatli yondashuv orqali hisoblaganimizda obyektning bahosi 217 264 000 so'mga teng bo'ldi.

Qiyosiy va xarajatli yondashuv orqali aniqlangan baholash obyektining qiymati o'rtasidagi farq quidagi jadvalda keltirilgan:

9 - jadval

Baholash obyekti joylashgan hudud	Qiyosiy yondashuvda aniqlangan narx	Xarajatli yondashuvda aniqlangan narx	Orasidagi farq, %
Toshkent shahri, Mirobod tumani	751 604 000	217 264 000	28,9

Baholashlar natijasi orasidagi normal farq 30% deb belgilangan, bizning natijalar o'rtasidagi farq ham 30%gacha.

**Foydalanilgan adabiyotlat hamda internet manzillari**

1. KMK 2.01.03-96 “Seysmik tumanlarda qurilish”;
2. “Ko’chmas mulk iqtisodiyoti”, M.Ikramov, M.Miraxmedov, V.Yodgorov, D.Mirjalilova, Toshkent – 2018;
3. [www.wikipedia.com](http://www.wikipedia.com);
4. [www.vuzlit.ru](http://www.vuzlit.ru)

## NAZAR ESHONQUL NASRIDA AYOLLAR OBRAZI

Oripova Nurafshon Olimjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti  
Adabiyotshunoslik (Oliy o'quv kurslari) yo'nalishi 1-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Nazar Eshonqul hikoyalarida ayol obrazi va uning ichki dunyosi, ruhiyatining tasviri xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** hikoya, obraz, adib, ayol

Nazar Eshonqul 1962-yil 15-iyunda Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanidagi Tersota kishlog'ida tug'ilgan.

Dastlabki asari — «Urush odamlari» (1988). SHundan so'ng yozuvchining «Momo ko' shiq» bo'lmaydi» (2004), «Momo qo' shiq» (2006) kabiasarlari nashr etilgan. F. K. Anittining «Hikoyalar va qissalar»ini, A. Kamyuning «Esselar»ini, CHexovning «Boloxonali uy» hikoyasini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Nazar Eshonqul hikoyalarining o'zaro - ruhan yaqinligi ma'naviy-axloqiy masalalar ustuvorligi bilan belgilanib, insonni badiiy tasvirlashdagi individual tafakkur tabiatining ijodiy yo'sini bilan xarakterlanadi. Ularda insonni badiiy tushunish hamda tushuntirishda ikki yo'nalish ko'proq ko'zga tashlanadi. Birinchidan, xalqimizning milliy mustaqillikka erishgungacha kechgan hayotidagi erkka tashnalik kayfiyati hamda milliy istiqloq arafasidagi odamlarning ruhiy holatlari va jamiyat hayotini yoritishga harakat qilinadi. Ikkinchidan, ezgulik, jaholat tantanasi uchun g'ov bo'lgan ma'naviy-axloqiy illatlarni fosh etishga intilish, haqiqatning tantana qilishiga ishonmagan, ko'ngli mudroq odamlar ruhiyatini jamiyat psixologiyasi bilan uzviy aloqadorlikda tahlil qilish va ana shunday behard kimsalar amal qiladigan falsafa mohiyatini ramzlar tilida ochib berish hamda shaxsning parchalanish sabablarini badiiy-falsafiy o'rganish alohida tamoyilni tashkil etadi. Bundan tashqari adibning nasrida ayollar obraziga ham alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, unda ayol ko'nglining nozik kechinmalari ruhi, muhabbat va nafrati yaqqol ko'zga tashlanadi.. Bu esa ijodkorlarning o'ziga xos va betakror ma'naviy-intellektual salohiyatidan vujudga keladi. «SHamolni tutib bulmaydi» hikoyasida ana shunday ayol obrazi ya'ni Bayna momo ruhiyatidagi ikki qutb - tiriklik bilan o'lim oraligidagi umr manzarasini chizish, kayfiyat -kechinmalari ranglarini ko'rsatish hikoyada ustuvor yo'galish kasb etadi.

“Yillar bilan birga hamma narsa o'zgarar, faqat Bayna momogina uni sezmas, guyo uning uchun vaqt o'sha holicha qotib qolgandek, uni o'sha ellik yil oldingi eri va o'g'lining o'ligini bolshovoy askarlar tepkilab ko'mishgan ustun oldidan topish mumkin edi” . Hikoyada jamiyat hayotidagi o'zgarishlar konkret holatlarni ko'rsatish orqali ayolning ichki kechinmalari, sabr-u bardoshi, metindek qalbi ko'zga tashlanadi. Ana shu voqelikdagi yangiliklar mohiyatini badiiy holatlar, lavhalar yaratish asnosida shaxs qalbiga murojaaaat etiladi. SHuni ham e'tirof etish lozimki, hikoyadagi ayol Bayna momo sho'ro davri nasridagi aksar qahramonlar singari

jamiyatdagi o'zgarishlarga, xalq hayotidagi yangilanishlarga o'z munosabatini bildiruvchi, o'z faoliyati bilan tirikligini go'zalliklar bilan burkovchi ijtimoiy faol shaxs emas. Unga o'z hayotini yaratuvchilik, bunyodkorlik faoliyati bilan boqiy lashtirishga safarbar o'ktam ayol xususiyatlari butkul yot. U biz aksar asarlarda o'rganib qolgan ma'nan va intellektual jihatdan etuk qiyofasi bilan ham ko'zga tashlanmaydi. Ayol jamiyat hayoti, xalq taqdiri va atrof tevaragida kechayotgan voqelik bilan na ruhan, na jisman uzviy robitalarga ega. N.Eshonqul talqiniga ko'ra, dunyo boqiy, hayot abadiy, tabiat fasllarining almashinib turishida inson umrining o'tkinchiligi anglashilsa-da, inson hayoti chegaralangan emas. SHuning uchunmi, tabiatdagi o'tkinchi daqiqalar bilan Bayna momo ko'nglidagi tuyg'ular evrilishi adib diqqatini ko'proq o'ziga tortadi. Tabiat fasllariga, borliqning jonli lahzalariga munosabatdan, odamlar bilan muomala-muloqotlardan yuzaga kelgan nafrat, o'kinch va alam kabi tuyg'ularning turfa ko'rinishlari ham Bayna momo, ya'ni ruhiyatidagi kechinmalar ma'nosidan voqif etadi.

N.Eshonqulning "Xayol tuzog'i" hikoyasida ham ham ayol obrazi yetakchilik qilmasa-da, Voqifning Robiyaga bo'lgan muhabbati, u bilan oila qurishdagi qarshiliklarni adib mahorat bilan tasvirlagan. Hikoyadagi Voqif irodasiz, o'z ixtiyorini qo'ldan boy bergan obraz sifatida namoyon bo'ladi. Robiya bunday insonni seva olmasligini o'z so'zlarida e'tirof etgan: "Binoning mavjud bo'lishi yoki bo'lmasligidan qat'iy nazar, bedaraklikka yuz tutgan qalbni faqat Yaratgangina muhokama qilishga qodirligini va hammamiz ham ertami kechmi baribir shu yo'lni tanlajagimiz va shu xulosani topajaglimizni yoqib bo'lingan o'choqdek oftobning so'lg'in nurlari to'kilib turgan, xuddi odamning o'tgan kunlari kabi xazonlar uyilib yotgan o'sha kuz oqshomi juda yaxshi tushunib yetgandim; alohal, o'lim malikasi quvlab yurgan va yelkasida uning nafasini his etib borayotgan g'ulu hamda aldovga muhtalo bo'lgan qalbning yo'qlik olamiga chekinishini tushunish unchalik qiyin emas edi... Yo'qlik binosini ko'ra olgan Voqifga tiriklar orasida ham, o'liklar orasida ham joy qolmagan ekan". Ushbu so'zlardan ayonki adib hikoyadagi Robiya obrazini erk, adolat, g'urur ramzi sifatida tasvirlagan. Robiyadagi sof ko'ngil ayolning yuzi sifatida hikoyada o'z aksini topgan.

Yozuvchi qalamiga mansub hikoyalarda ayol timsoli ba'zan dardli, ma'yuz, g'amgin, ba'zan esa jo'shqin, beqaror, qat'iyatli tasvirlangan bo'lsa-da, baribir ayol nozik xilqat ekanligi, u doim mehr va muhabbatga burkangan olamdagina sokin yashay olishi adib tomonidan jozibali tarzda bayon etilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Adibning har bir nasrida ayolning ulug'lanishi orqali o'zbek xalqining onaga bo'lgan yuksak e'tirofini ko'ra oldik.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. N.Eshonqul. "Shamolni tutib bo'lmaydi" O'zbekiston adabiyoti san'ati 1996
2. "Quyosh fasli" (Qissa va hikoyalar to'plami) Yozuvchi 1995
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## GEOGRAFIYA FANIGA HISSA QO'SHGAN OLIMLAR

Xoliqova Gulnoza Zafarovna

Farg'ona viloyati Beshariq tumani 2-sonli kasb-hunar maktabining Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Geografiyaning Yer yuzasidagi jismlar va hodisalarning uzviy aloqalari va rivojlanishi to'g'risidagi predmeti XIX asrning ikkinchi yarmida tabiatshunoslik va tabiiy geografiyaning ulkan yutuqlari bilan bog'liq holda sifat jihatidan batamom yangi tushuncha mazmuniga ega bo'ldi. Ammo, geografiyaning Yer to'g'risidagi umumiy fan ekanligi to'g'risidagi tasavvur ham mavjud edi.

**Kalit so'zlar.** Biosfera, geografik determinizm, Fridrih Ratzel, F.Rixtgofen, L.S. Berg P.P.Semyonov, "Osiyo Yer bilimi" asari, K.Ritter, Petr Petrovich Semyonov, tabiiy geografiya.

Geografiyaning rivojlanishiga juda katta hissa qo'shgan allomalardan biri – sayyoh, geografik tadqiqotlar tashkilotchisi, buyk rus olimi Petr Petrovich Semyonov – Tyanshanskiydir (1827 – 1914). U geografiyaning predmeti va vazifalari masalalari bilan ham bevosita shug'ullangan. U K.Ritterning "Osiyo Yer bilimi" asarining rus tilidagi nashriga yozgan so'zboshida keng va tor ma'nodagi geografiyani farqlaydi. Keng ma'nodagi geografiya Yer sharini qattiq, suyuq va gaz qobiqlari bilan birgalikda, uning boshqa sayyoralarga va unda yashaydigan organizmlarga munosabati qonunlarini to'liq tadqiq qiladi. Uning fikricha keng ma'nodagi geografiya tadqiqot predmetining o'zshashligi bilan o'zaro bog'liq bo'lgan fanlarning butun tabiiy guruhidir. Fanlarning bu guruhiga matematik geografiyani, Yerni va uning tuzilishi qonunlarini o'rganadigan tabiiy geografiyani, etnografiyani va statistikani kiritadi. Tor ma'nodagi geografiya Yer yuzasining fiziografiyasi, ya'ni uning doimiy, asrlar davomida tabiatning o'zi tomonidan belgilangan o'chmaydigan tuzulishini ham, inson qo'li bilan yaratilgan o'zgaruvchan, o'chadigan tuzulishini ham tasvirlashdir. L.S. Berg P.P.Semyonov – Tyanshanskiyning tor ma'nodagi geografiyasini mamlakatshunoslik deb hisoblagan edi. A.G. Isachenko esa (1971) yadrosini tabiiy geografiya tashkil etadigan tabiiy fan deb hisoblaydi. XIX asrning so'ngi choragida geografiya Yer yuzasi haqidagi fan ekanligi to'g'risida tushuncha vujudga keldi. Bu tushuncha nemis geografi va geologi Ferdinand fon Rihtgofen (1833 – 1905) tomonidan rivojlantirildi. F.Rixtgofen geografiya o'simlikni Yer yuzasiga bo'lgan munosabatda, insonni esa butun tabiatga bo'lgan munosabatda o'rganish lozimligini ta'kidlagan edi. Geografiyaning eng asosiy maqsadi F.Rihtgofenga ko'ra, jonli tabiatning jonsiz tabiat bilan bog'lik ekanligini hisobga olgan holda insonning jonli va jonsiz tabiat bilan aloqalari va munosabatlarini ochib berishdan iborat. U geografiyaning o'rganish predmetini quruqlik, dengiz va atmosferaning o'zaro ta'sirdagi Yer yuzasi (Erdoberfläche) deb hisoblagan; geografiyaning o'ziga xos maqsadi Yer yuzasida mujassam o'zaro ta'sirda namoyon bo'ladigan turli hodisalarga e'tiborni qaratilishi lozim, deb hisoblaydi. Uning fikricha, Yer yuzasining har qanday qismini geografik

jihtadan o`rganishni mukammal tabiiy geografik tasvirlashdan boshlash va shundan so`ng boshqa tabiiy tavsiflar va ularnig o`zaro aloqalarini tadqiq qilish lozim. Fridrih Ratzel (1844 – 1904) sotsial geografiyning tarkib topishiga asos solgan nemis olimi. U o`zining “Antropogeografiya” deb nomlangan asarida tabiiy fenomenlarning inson tarixi yo`nalishiga ta`sirini bayon qilgan. U asosiy e`tiborni tabiiy sharotlarning insonga ta`sirini emas, balki inson faoliyatiga ta`sirini o`rgangan. F. Ratzelning asarlarida “Biosfera” termini (tushunchasi) ilmiy barqarorlikka ega bo`ldi va tan olindi. F. Ratzel geografik determinizmni sotsial darvinizm bilan to`ldirdi, ya`ni biologik qonunlarni ijtimoiy munosabatlarni o`rganishga ko`chirishga harakat qildi. U kengayishga intiladigan davlatning organizm sifatidagi g`oyaning ham asoschisidir. Pol Vidal de la Blash (1845 – 1918) – geografiyaning rivojlanishiga salmoqli hissa qo`shgan fransuz olimidir. Uning fikricha geografik tadqiqotlarda asosiy e`tibor uncha katta bo`lmagan bir xil hududlarni bevosita o`rganish yo`li bilan inson va uning bevosita atrof muhiti (*milieu*) orasidagi mujassam o`zaro aloqalarga qaratilmog`i lozim. Fransiyada bunday hududlarni “*peylar (pays)*” deb atash qabul qilingan. Vidal geografik tadqiqot metodri to`g`risida bir qator g`oyalarni ishlab chiqqan. U xorologiya (yun. *choros* joy; *logos* fan, ta`limot) konsepsiyasini hududning o`zaro ta`sirda bo`lgan Yer yuzasining muayyan joylarini ifodalaydigan birligi orqali bog`langan ob`yektlar va hodisalarni o`rganish metodi sifatida qo`llab – quvvatlagan. Uning fikricha “...geografiya ...bilimlarning umumiy xazinasiga o`zining tabiat qo`shgan narsalarni qismlarga bo`laklamaslik, umuman butun Yer yuzasida ham, ularning joylashuvining ayrim rayonlari doirasida ham narsalarning nisbati va aloqasini tushunish qobiliyatini kiritadi” deb yozgan edi (Jeyms, Martin, 1988). Vidal de la Blash asos solgan fransuz geografiya maktabi geografiyaning tabiiy va ijtimoiy komponentlariga baravar e`tibor bergan. Shu maktabning yorqin namoyondalaridan biri E. de Martonne asosan tabiiy geografiya bilan shug`ullangan. U geografiyadagi an`anaviy bilimni geologiya, geofizika va biologik bilimlarning ishonchli asoslari bilan qo`sha bilgan. Martonnega ko`ra tabiiy geografiya hududning bir butun geografik tadqiqotini o`z ichiga oladi. Uning fikricha, geografiya Yer yuzasidagi fizikaviy, biologik va inson faoliyati bilan bog`liq hodisalarni, bu hodisalarning sababiy bog`lanishlarini o`rganadi. Uningcha geografiyaning predmetini fizikaviy, biologik va inson faoliyati bilan bog`liq hodisalarning Yer yuzasi bo`yicha taqsimlanishi va bunday taqsimlanishning sabablari tashkil etadi. Shu davrning fransuz geograflari uchun geografiya ilmiy bilimning bir yoki bir necha sohasiga mansubligi, tabiiy va iqtisodiy geografiya orasidagi dihotomiya (yun. *dicha* ikki qismga, *tomē* qirqma, kesma) masalalriga oid muammolar bo`lmagan. S. Valloh o`zining “Geografiya fanlari (Les sciences géographiques)” degan kitobida tadqiqotning bir paytning o`zida ham unitar (lot. *unitas* birlik), ham avtonom (yun. *autos* o`zi, *nomos* qonun) maydoni, ko`pgina fanlar uchun esa yordamchi bilim sifatidagi geografiya to`g`risidagi tasavvurini bayon qiladi (Jeyms, Martin, 1988). Uning fikricha, geografiya nafaqat o`zining juz`iy falsafasiga ega, balki inson olami uchun o`ziga xos falsafa hamdir.

Fransuz geograflarinng tushunchasidagi rayon nemis geografi O. Shlyutter tasavvuridagi madaniy landshaft (*Qo`lturlandschaft*) tusunchasiga deyarli o`xshash.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

1. Абдуллаев З. Экологические отношения и экологическое сознание. Т.: Фан, 1990.
2. Дедю И.И. Экологический энциклопедический словарь. Кишинёв.: Гл.ред. Молдавской сов. энциклопедии, 1989
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

## FRANSIYADA TA'LIM TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xidirova Maloxat Qozoqovna  
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatorida turuvchi Fransiya davlati ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** qonun, ta'lim, davlat, faoliyat

Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlaklar ichida yetakchi o'rinni egallaydi. Uning ta'lim tizimlari ham qadimiy va boy tarixga ega. Bu mamlakatda «Ta'lim haqidagi» Qonun dastlab 1955 yilda qabul qilinib, 1975 yilda unga bir qator o'zgarishlar kiritilgan. Fransiyada davlatining hozirgi davrida amal qilayotgan «Ta'lim haqidagi» Qonuni 1989 yil 10 iyulda qabul qilingan bo'lib, uning o'zgartirishlariga ta'lim strategiyasida ro'y bergan o'zgarishlar, mamlakatning ichki, tashki siyosatidagi islohatlar, yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet el pedagogikasidagi ilg'or tajribalarning mamlakat ta'lim tizimiga kirib kelishi, o'quv fanlarining uyg'unlashuvi va boshqalar sabab bo'ldi.

Fransiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustahkam faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbiarmonlikka, omilkorlikka o'rgatish, shunga yarasha kasb- korga ega qilishdan iborat. Bu yerda davlat maktablari, xususi maktablar, oraliq maktablar mavjud. O'qitiladigan fanlar ichida fransuz tili va adabiyoti, o'qish va yozuv alohida ahamiyatga molik. Ular uchun darsga vaqtining 30 foizi ajratiladi. O'rtacha haftalik soatlar 26 soatdan iborat, darsning davomiyligi esa 60 daqiqa. O'quv yili 5 chorak bo'ladi. Fransiyada maktablarida boshlang'ich sinflarda o'qish ertalabki va tushdan keyingi qismlarga bo'linadi. Ertalab o'quvchilar ona tilidan, tushdan keyin esa matematika va boshqa fanlardan saboq oladilar. Fransiya ta'limida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masaladir. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan:

- kichik gurux 2-4 yosh,
- urta gurux 4-5 yosh,
- katta gurux 5-6 yosh.

5-6 yoshlilar maktabga tayyorlov guruhi bo'lib, ularga Fransiyada shu yoshdagi bolalarning 100 foizini qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

Fransiyada boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadi. Boshlang'ich maktab bepul va majburiy. Uning vazifasi o'qish, yozish, hisoblash malakasini berishdir. O'quv mashg'ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Maktabda ovqatlanish pullik,

lekin arzonlashtirilgan narxlarda. Boshlang'ich sinflarda o'qish uch bosqichda amalga oshiriladi:

2000 yilda Fransiya maktablaridagi ahvol sinchiklab o'rganilib, o'quvchilarning ko'pchiligi darslarga kirmay, boshqa ishlar bilan mashg'ul ekanligi aniqlanib, bu kamchilikni tuzatish uchun choralar ko'rilmogda. Chunki aynan darsga kirmay yurgan bolalar o'rtasida giyohvandlik va huquqlarni buzish kabi holatlar ko'p uchraydi. Umuman, Fransiyada ta'lim tizimini rivojlantirish uchun katta mablaglar ajratiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Abdullaeva SH. va boshq. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – T.: Fan, 2004.
2. Abdullaeva SH., Xolmamatova L.A. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – T.: TAQI, 2005
3. [www.referat.uz](http://www.referat.uz)

## SHAXSNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sulaymonova Ra'no Do'stbekovna  
Qo'shmurodova Bonu Tolibjon qizi  
Guliston davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxsning individual xususiyatlaridan biri bo'lgan qobiliyat va uning tug'ma va orttirilgan sifatleri xususida so'z boradi

**Kalit so'zlar:** shaxs, qobiliyat, individual, muammo

Odamlarning o'quv, mehnat va ijodiy faoliyatidagi o'ziga xoslikni tushuntirish uchun psixologiya fani birinchi navbatda qobiliyatlar va iqtidor masalasiga murojaat qiladi. Chunki qobiliyatli odamdan avvalo jamiyat manfaatdor, qolaversa, o'sha insonning o'zi ham qilgan har bir harakatidan o'zi uchun naf ko'radi.

Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu-zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib etishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko'proq qobiliyat tushunchasi aql zakovat tushunchasi bilan bog'lab o'rganiladi.

Qobiliyatning tabiiy sharti, layoqat nerv tizimsining tuzilishi va funksiyalarining xususiyatlari tarkibida ekanligi, bu hodisa barcha morfologik va fiziologik sifatleri singari umumiy genetiga qonunlariga bo'ysunish farazining haqqoniyligini dalillaydi. F.Galtonning (Angliya) irsiyat qonunlari to'g'risidagi g'oyasi qobiliyatning tabiiy shartlangan xususiyatlari tavsifini ochib bera olmaydi, chunki unda dalilga muhtoj juda ko'p o'rinlar mavjuddir. SHuning uchun qobiliyat tabiatini biologik irsiyattan emas, balki turmush muhitining nasldan-naslga o'tishidan qidirish maqsadga muvofiqdir. Agarda insonning taraqqiyoti ijtimoiy tarixiy qonunlar bilan boshqarilishi tan olinar ekan, qobiliyatning taraqqiyoti biologik irsiyat qonunlariga bo'ysunishi to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas. YUqoridagi mulohazalarga asoslangan holda qobiliyat va layoqatlar muayyantabiiy zaminga bog'liq bo'lsa-da, lekin ular faqat tabiatning in'omi emas, balki insoniyat tarixiy taraqqiyotining bebaho (qimmatli) mahsulidir. Xuddi shu bois qobiliyatlarning namoyon bo'lishi shaxslar tomonidan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish davomida ijtimoiy shartlangan bilimlar va ko'nikmalarni tarkib toptirishning yaqqol usullariga bevosita bog'liqdir. SHuning uchun qobiliyatlar taraqqiyotining uzluksiz ta'lim tizimiga bog'liq ekanligi ta'kidlab o'tish muhimahamiyatga ega.

Ba'zan o'ta iqtidorli va qobiliyatli bola haqida gap ketsa, undagi bu sifat tug'ma ekanligiga ishora qilishadi. Talantli, genial olim, san'atkor yoki mutaxassis haqida gap ketsa ham xuddi shunday. Umuman qobiliyatlarning tug'ma yoki orttirilgan ekanligi masalasi ham olimlar diqqat markazida bo'lgan muammolardan. Psixologiyada tug'malik alomatleri bor individual sifatler layoqatlar deb yuritildi va uning ikki xili farqlanadi: tabiiy layoqat va ijtimoiy layoqat. Birinchisi odamdagi tug'ma

xususiyatlardan - oliy nerv tizimi faoliyatining xususiyatlari, miyaning yarim sharlarining qanday ishlashi, qo‘l -oyoqlarning biologik va fizilogik sifatlari, bilish jarayonlarini ta‘minlovchi sezgi organlari - ko‘z, quloq, burun, teri kabilarning xususiyatlaridan kelib chiqsa (bular nasliy ota-onadan genetik tarzda o‘tadi), ijtimoiy layoqat - bola tug‘ilishi bilan uni o‘ragan muhit, muloqot uslublari, so‘zlashish madaniyati, qobiliyatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar (ular ota-ona tomonidan yaratiladi)dir. Layoqatlilik belgisi - bu o‘sha individga aloqador bo‘lib, u bu ikkala layoqat muhitini tayyoricha qabul qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. Toshkent “YAngi asr avlodi”2008y.
2. Karimova V., Akromova F. Psixologiya. T.: 2000y.
3. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)

## МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР АҚЛИЙ РИВОЖЛАНИШИДА ЎЙИН ТЕРАПИЯСИНИНГ ЎРНИ

Курбонова Дилафруз Нормўминовна

Ўзбекистон Миллий университети Психология (фаолият турлари бўйича)  
1-босқич магистранти

**Аннотация.** Мактабгача ёшдаги болаларни ақлий ривожланишида, ўйин терапиясининг тутган ўрни муҳим ва беқиёсдир. Асосан бу ёшдаги болажонларимизни, деярли ҳар дақиқаси ўйин, кун бўйи, кун тартибидаги асосий фаолиятларида ҳам, ҳар бир ишни улар ўйин орқали бажаришади. Оилада асосан болажонларимизни кун тартибини тўғри ташкил қилган ота-оналаримиз уларни миллий қадриятларимизга асосланган ҳолда миллий руҳда тарбиялашса, миллий халқ ўйинларига асосланган ҳолда, болажонларимиз зерикиб қолмасликлари учун ўйинларни болани қизиқиши ва ёшини ҳисобга олган ташкил етсалар бу мақсадга мувофиқ бўлади.

**Калит сўзлар:** Жамият, оила, ота-она, бола, ўйин, мулоқот, ҳаракат, ижтимоий- муҳит, мактабгача таълим муассасаси, ижтимоий тармоқлардаги ўйин, дўстлар, педагог ва тарбиячилар.

Бугунги кунда Ўзбекистондаги ёш авлодни тарбиялашда энг аввало оила даргоҳи давлат мактабгача таълим муассасалари мактаб маҳалла ва ижтимоий муҳит телведине орқали олиб борилаётган ва бериб борилаётган таълим тарбияга оид ва турли ақлий ва жисмоний жиҳатдан, ҳар томонлама болажонларимизни ривожлантирувчи дунёвий билмлар берувчи, фикрлаш жараёнларини кенгайтирувчи зукколигни оширувчи ўйинлар, турли кўрсатувларнинг ўрни ва таъсири беқиёсдир. Мактабгача ёшдаги болаларнинг ақлий ривожланишида ўйин терапиясининг ўрни жуда муҳим ҳисобланади. Болажонларимиз оилада ва давлат мактабгача таълим муассасаларида турли ўйинлар жараёнида энг аввало жамо бўлиб ишлашни ўрганишади. Бирдамлик ва аҳилликни, галма-гал, навбат билан ўйини ва ҳар бир ишни бажаришади, бир-бирига нисбатан ҳурматни ўрганишади. Давлат мактабгача таълим ташкилотларида ўргатиладиган ва ўйнатиладиган дитактик ўйинлар, мантикий ўйинлар, сюжетли ролли ўйинлар, ҳаракатли ўйинлар, миллий халқ ўйинлари ва бошқа ўйинларни ўргатишда ва ўйнатишда тўғри ташкил қилиниб тўғри йўналтирилса болалар мантикий фикрлашга ўрганишади таҳлилий ва таққослашга ва атроф олам ҳақидаги билимлари бойийди дунё қараши кенгайди. Болаларни нутқи равон ва маъноли бўлиб сўз луғавий бойлиги ошади. Топқирлик ва зукколикга баҳо беришга яхши ва ёмонни фарқлашга ижобий ва салбий фарқларни ўрганадилар. Мактабга тайёргарлик жарёни ривожланади. Ўйин орқали нарса буюм ва предметларни номларини ва жиҳозларни ажратадилар ва айтадилар. Биласизми азиз ота-оналар! болангиз ўйин ўйнаш жараёнида болалар бутун дунё борлиқ ер-у самони ва

1. Barlas L. G. Introduction to the science of language. Lexicology. Etymology. Phraseology. Lexicography: Textbook / L. G. Barlas, G. G. Infantova, M. G. Seifulin, H. A. Senina; edited by G. G. Infantova. - Moscow: Flinta: Nauka, 2003. 256 p.
2. Belenkaya V. D. Essays on English-language toponymy. Moscow: Vysshaya Shkola, 1977. -277 p.
3. Belenkaya V. D. Toponyms as part of the lexical system of the language. 1969.

## KANTATA JANRIGA BIR NAZAR

Shodmonova Sevara

O'zbekiston davlat konservatoriyasi "kompozitorlik" yo'nalishi I bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqola kantata janriga bag'ishlangan bo'lib, unda ushbu janrning tarixi hamda bugungi kundagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Bundan tashqari kantata janrining o'zbek musiqa san'atida o'rni ko'rib chiqiladi.

**Tayanch so'zar:** kantata, xor, vokal-simfonik asar, solist.

Kantata, lotin tilidan tarjima qilinganda (santare-qo'shiq)-solistlar, xor va orkestr uchun mo'ljallangan vokal-instrumental asar hisoblanadi. Yevropa musiqa tarixida XV II asrning birinchi yarmida vujudga kelib, bir ovoz uchun mo'ljallangan vokal insho (Madrigal) hisoblanadi. Kantata o'zining aynan vokal tabiati bilan instrumental kompozitsiyadan farq qiladi.

Kantata konsertlar va cherkovlarda, dunyoviy va diniy mavzularda ijro etiladi. Ayniqsa, protestant cherkovida diniy mazmundagi kantatalar ko'p marotaba ijro qilinadi, mazkur ijrolar esa konservatoriyalarning bitiruvchi talabalari uchun vazifa bo'lib xizmat qiladi.

Kantata odatda bir nechta yakunlangan saxnalardan iborat bo'ladi. Kantata juda katta she'riy yoki nasriy adabiy matnlarni, undan avval esa asosan Injil hikoyalarini o'z ichiga oladi. Unga ko'ra, Kantata bo'linishi ikki turga: diniy (diniy mazmunga ega) va dunyoviyga bo'lingan. Kantatalarning mavzusi esa-tantanali, lirik, qayg'uli, quvnoq, hikoya, falsafiy xarakterlarda bo'lishi mumkin.

Kantata janrining keyingi rivoji esa Italiyaga borib taqaladi. Italiyada opera rivojlanishi bilan birga, kantataning bir nechta vokal raqamlardan tashkil topgan shakli ham ishlab chiqildi. Mazkur ishlanmaga ko'ra kantata tarkibiga quyidagilar kiradi: xor, rehitativlar, ariyalar va keyinchalik orkestr qo'shiqlari bilan duetlar. Kantata uning yaratuvchisi deb hisoblangan Karissimi tufayli rivojlandi. XVII asr boshidan XVIII asr oxiriga qadar Italyan kamer musiqasida Basso asosiy shakllardan biri bo'ldi.

Mazkur janrning asoschilaridan biri bo'lmish I.S.BAX vokal va instrumental asarlari orasida eng katta guruhni kantatalar tashkil qiladi. Ularning bugunga qadar ikki yuzdan ortig'i saqlanib qolgan, ammo juda katta qismi yo'q bo'lib ketgan. Bu janrdagi har bir asarni uch yuzta opus da yozilgan deb taxmin qilish mumkin. Ularning orasida ko'pchiligi dunyoviy kantatalardir, I.S.Baxning o'zi odatda ushbu asarni konsertlar, motetlar, ba'zan esa passionlar deb atagan.

Rus musiqasida esa kantatalar XVIII asrda paydo bo'lgan (Pa Skokov tomonidan yozilgan). XIX asrning boshida Kantatalar orasida A. N. Verstovskiyning "Butrusning Buyuk bayrami" va "Pompeyning oxirgi kuni" (birinchi — Pushkinning she'ri, ikkinchisi YU.K.Arnold librettosida) nomli asarlari ham o'rin olgan edi. Mazkur kantatalar sahna asari ko'rinishida — sahna, kostyum va orkestr bilan birga ijro etildi.

O'zbek musiqa san'atida esa 1945-1967 yillar oralig'ida vokal-simfonik asarlar orasida kantatalar ham aloxida o'rin egallagan edi. M.Leviyevning "Yorqin yo'l" (T.To'la so'ziga 1947-yil), va "Oq oltin" (Shayxzoda so'zi 1948 y) ushbu kantatalarning pafosi - sodda xalqning baxtli hayotidan iborat edi.

"Oq oltin" kantatasida ikki qarama-qarshi mavzular bir biriga kontrast qo'yilgan. Ular; xursand va baxtli kolxoz odamlari va Turkiston revalyutsiyasi. Kantataning 2-qismidagi "Qari kolxozchining ertagi" nomli xotiralarni yod olish

barcha mavzu va qarama-qarshiliklarni o'zida jamlaydi. Final xorida esa tantanavor yakun yasaladi. Mazkur ilk kantatalar o'zining yorqin, ifodaviy musiqiy til, xalq qo'shiqlariga asoslanish, orkestrning mahoratli ijrosi va boshqalar orqali keyingi yillarda yozilajak ko'plab shu janrdagi asarlarga ustun bo'lib xizmat qildi.

M.Ashrafiy tomonidan yozilgan "Baxt haqidagi qo'shiq" kantatasi kirish va besh qismdan iborat. Xor bilan boshlanuvchi kirish qismidan so'ng, "Xalqning asrlik orzusi" nomli 1-qism kirib keladi. O'zbek xalqining og'ir kechgan turmush hayoti haqida hamda ularning ko'p asrlik orzusini hikoya qiladi. Bu qismning ifodaviy kuyi (tenor solosi) mayin elegik tonda ijro qilinadi.

Kantataning 2-qismida xalqning baxtli hayoti tasvirlanadi. Soprano solosida ayollar xoridan iborat jamoa kuylaydi. 1-qismning intonatsion strukturasi juda yaqin. Uchinchi va to'rtinchi qismlardagi xalq hayoti tasvirlangan saxnalarda asrlar davomidagi orzu haqida bayon qilingan. Beshinchi qism ya'ni final tantanavor yakun topadi.

Keyingi yillarda esa bir qismli kantatalarni kompozitorlar tomonidan yangi talqinlari ijod etila boshlandi. Shular qatorida A.F.Kazlovskiyning Alisher Navoiy so'ziga yozilgan "Donolar maslahati" asari, S.Boboyev "Xosil bayrami" asari (R.Bobojonov so'zi), A.Xalimova "Qoraqalpog'iston" va "Qirq-qiz" nomli Kantata-poemasi X.Raximovning "Bahor" nomli kantatasi, I.Xamrayevning "O'zbekiston ayollari", Ya.Sherfedinovning "Yangi yer" nomli kantatalari ham o'rin egallagan edi.

Keyinchalik esa o'zbek musiqa ijodiyotida mazkur janr yanada yuqori cho'qillarga erishish o'rniga, aksincha asta-sekin yo'qolib bormoqda. O'zining musiqiy tarixiga ega bo'lgan o'zbek xalqida boy mavzular bisotini inobatga olsak, kompozitorlar tomonidan mazkur janrga qo'l urilmayotgani katta yo'qotish deb bilamiz. Bugungi kunga kelib ko'plab kompozitorlar ijodiy faoliyatini yuritayotgan bo'lsada, kantata janriga deyarli qo'l urilmadi. Mazkur janr o'zbek musiqasi tarixida kelajagida birdek saqlanib qolishidan umidvormiz. Kelajakda kompozitorlar tomonidan mazkur janrga ko'plab marotaba qo'l urib turli mavzularda va boy mazmunda asarlar yaratishlarini kutib qolamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. История узбекской советской музыки 2 том ., 1945-1967г
2. Популярная история музыки.,Горбачева.А.Е., 2002г
3. Словарь музыкальный энциклопедия., М.,1996г

## MARMAR KARERI CHIQINDISIDAN FOYDALANIB OQ SEMENT ASOSIDA SOVUQ BARDOSH BARDIYORNIY BETON OLIISH

Ziyodullayeva Madina Ilhomovna  
Ilmiy rahbar: t.f.n., prof. Gaziyeu Uchqun Abdullayevich  
Toshkent arxitektura qurilish instituti magistranti

### ANNOTATSIYA

Marmar kareri chiqindilari va oq sement asosida bardiyor buyumlarini ishlab chiqarish. Marmar chiqindilaridan foydalanib buyum ishlab chiqarishni jadallashtirish va qimmat baho xom ashyolar miqdorini tejash,maxsulotning umr boqiyiligini uzaytirish bo'yicha ishlar olib borildi. Marmarga ishlov berishdan hosil bo'lgan chiqindidan to'ldiruvchi sifatida foydalanish va to'ldiruvchi sarfini maksimal darajada tejash.Maxsulotning umr boqiyiligini uzoqligi va strukturasi shakllanish mexanizmi sovuqa bardoshlilikini oshirishga asoslangan.

**Kalit so'zilar:**Marmar chiqindilari,sement, tarkibli beton.

Hozirgi paytda O'zbekistonda marmar qazib olish va marmar buyumlar ishlab chiqarish rivojlanmoqda, "O'zqurilishmateriallari" AK ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston tabiiy tosh zaxiralari bo'yicha Rossiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Dunyoga mashhur Gazgan marmar, ayniqsa oq ranglarda, butun dunyoda mashhur. Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida joylashgan asosiy konlari.Mahalliy marmar konlarining potentsial quvvati yiliga 190 ming kub metrgacha marmar qazib olish imkonini beradi. Hozirgi vaqtda respublikada oltita yirik marmar konlari sanoat rivojida: G'azgan va Nurota (Navoiy viloyati), Zarband (Samarqand viloyati), Savukbuloq va Tomchiota (Qashqadaryo viloyati) va Oqsoq ota (Toshkent viloyati).Navoiy viloyatidagi G'azgan koni O'zbekistondagi eng yirik kondir. Uning umumiy zaxirasi 7,576 million kub metrga baholanmoqda.Tabiiy tosh qazib olish va qayta ishlash sanoatining oldida turgan muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish kompyuter texnologiyalari, avtomatlashtirish, modellashtirish usullari, tabiiy toshlarni qazib olish va qayta ishlashni ratsionalizatsiya qilish va optimallashtirish orqali texnologik jarayonlar va sanoat komplekslarini boshqarishni takomillashtirish bilan bog'liq.Bu shuni anglatadiki, har bir jarayon muhandisi texnologik jarayonlar modellarini qurishi, ratsionalizatsiya va optimallashtirish muammolarini shakllantirish va hal qilishi kerak.Bugungi kunda marmar kareri chiqindilari yilliga 4-5 mln kub metrga yetmoqda. Mavzuning dolzarbligi tog' jinslarini ishlab chiqarishdagi chiqindilarni qayta ishlatishga yo'naltirish muammolarni hal qilish.

Oq sement eng avvalo oqligi bilan farq qiladi.Ular tarkibiga oshirilgan miqdordagi SiO<sub>2</sub>(23.5-25.5%) Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> (5.5-7%) va oz miqdorda Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub>(0.4-0.5%) qo'shilgan kam temirli klinkerdan tayyorlanadi.Klinkerga oq rang kiritish uchun uni oqlaydilar,yani Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub> ni FeO gacha tiklaydilar.

Tajriba uchun Olmaliq KMK AJ 500 markali Oq Portlandsementidan

foydalanilgan.500 markali oq sement hamda marmarkar kareri chiqindisi,suv,marmar kareridan chiqan chiqindidan elanib olingan qumdan foydalanilgan.Tanlab olingan optimal tarkib natijalari kutilgan natijani berdi.Oddiy beton tarkibli beton bilan taqoslash ishlari olib borilganda kutilgan natijaga erishildi.Tajribalar belgilangan ketma ketlikda amalga oshirildi,jumladan kutilgan 28 kunlik betonning o'suvchanlik tarkibi urganilib borildi.28 kunlik tekshiruvdan keyin laboratoriya sharoitida eksperimentni sovuq bardoshlilikni yani muzlash erish F1000 ga erishildi.

Приложение №1

к протоколу испытания №

начало 26.04.2021 10:32

окончание 26.04.2021 15:02

### Результаты испытаний

Согласно ГОСТ 10060.3-95 и изменению №1 к ГОСТ 10060.3-95

№ образца	Возраст, сут.(усл.т)	Размер, мм	Объём, см <sup>3</sup>	Масса, г		Водопоглощение, %		Показатели морозостойкости			Марка бетона по морозостойкости F ( N)				
				исходная	насыщенная	по массе	по объём	ΔV, см <sup>3</sup>	Θx10 <sup>3</sup>	<Θ>x10 <sup>3</sup>					
2	3	100,0x100,0x100,0	1000,0	2200	2231kg/m <sup>3</sup>	1,0	2,5	0,00	0,00	0,01	1000 (1000) мелкозренистка				
		100,0x100,0x100,0		2200	2231kg/m <sup>3</sup>							1,1	2,6	0,02	0,02
		100,0x100,0x100,0		2200	2231kg/m <sup>3</sup>							1,1	2,6	0,02	0,02
		100,0x100,0x100,0		2200	2231kg/m <sup>3</sup>							1,1	2,6	0,02	0,02

Испытания провёл

### Adabiyotlar

1. Bojenov. P.I kompleksnoe ispolzovanie mineralnogo сыра dlya proizvodstva stroitelных materialov. Gosstroyizdat .1963
2. Toropov . N.AXimiya sementov promstroyizdat, 1956
3. Qodirova D.XNuriddinov Bog'lovchi moddalar va qurilish materiallarini tadqiq etish usullari. Toshkent 2014. Акрамов Х. А., Газиёв У. А. Қурилиш материаллари ва ашёларини ишлаб чиқаришда саноат чиқиндиларини қўллаш. – Т.: ТАҚИ, 2004.

## JAHON LINGVISTIK EKSPERTOLOGIYASIDA TARKIBIY QISMLAR MASALASI

Musulmonova Kamola Xusniddin qizi  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti  
o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Lingvistik ekspertologiya konfliktli sud ishlarida matn bilan ishlash zarurati tugilishi yangi soha-lingvistik ekspertologiya shakllanishi va tarqqiy topishiga omil bo‘ldi. Endilikda lingvistik ekspertologiya qanday tipdagi matnlar bilan ishlaydi degan savolga oydinlik kiritish va chegarasini belgilash masalasi dolzarblashdi. Maqolada jahon lingvistik ekspertologiyasida tarkibiy qismlarning tavsiflanishi va o‘zbek yozma matnlariga aloqadorlik masalasi yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** lingvistik ekspertologiya, lingvistik ekspertiza, tarkibiy qism, lingvist-ekspert, konfliktli matn, rasmiy ekspertiza, tashabbus ekspertizasi.

Turli ko‘rinishdagi matnlarni ekspertiza qilish jarayoni o‘ziga xos bosqichlarni qamrab oladi, bu jarayon lingvistik tahlildan tamoman farq qiladi. Mavjud nazariy bilimlar amaliyotga tatbiq etilib, ekspert tomonidan umumlashmalar hosil qilinadi. Har qanday matn ham lingvistik ekspertiza o‘tkazish obyekti bo‘la olmaydi. Ziddiyatli og‘zaki va yozma matnlar lingvistik ekspertiza o‘tkazish uchun asos vazifasini bajara oladi. Og‘zaki ko‘rinishdagi matnlar, telefon yozishmalari, audio va video xabarlar, favqulodda qo‘ng‘iroqlar turli irqiy kamsitish, haqorat, obro‘sizlantirish, tashviqotlarga qaratilgan ommaviy murojaatnomalar bo‘lishi mumkin. Yozma matnlar ko‘lami esa biroz kengroq.

Qo‘lyozma matnlar lingvistik ekspertizasida muallifning psixologik holati, yoshi, kasb turi kabi turli ma‘lumotlarni aniqlash imkoniyati birmuncha yuqori. Qo‘lyozma matnlar kriminalistik tadqiqotida yozma nutqning umumiy va xususiy alomatlarini ajralib turadi. Umumiy alomatlar nutq muallifining leksik, grammatik, stilistik imkoniyatlarini aniqlash va baholash imkoniyatini yuzaga keltiradi. Xususiy alomatlarda noadabiy unsurlar, ortiqcha so‘zlar, iboralarni noto‘g‘ri ishlatish, so‘zlar takrori, leksik so‘z boyligi yetishmasligi kabi unsurlar uchraydi. Bu esa ekspertga muallif haqida umumiy jihatlarni ochishga yordam beradi.

Sud jarayonida turli obyektlarni tekshirishda maxsus mutaxassisning malakasiga ehtiyoj tug‘iladi. Quyidagi ziddiyatli holatlarda aynan lingvist-ekspert malakasi zarur bo‘ladi:

- 1) sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini kamsitish bilan bog‘liq holatlar aniqlanganda;
- 2) ekstremistik faoliyat bilan bog‘liq holatlar aniqlanganda;
- 3) tovar belgilari, domen nomlari, savdo nomlari va boshqa intellektual mulk va mualliflik huquqi obyektlarining o‘xshashlik darajasini belgilash;

4) mualliflik huquqining buzilishi (plagiat) bilan bog‘liq holatlar aniqlanganda;

- 5) reklama mahsulotlarining salbiylik bilan bog‘liq holatlarini aniqlashda;
- 6) me‘yoriy hujjatlar, shartnomalar va boshqalarning mazmunini aniqlash;
- 7) og‘zaki suhbatlar va yozma matnlarda yashirin ma‘lumotlarni oshkor qilish;
- 8) lingvistning maxsus bilimlarini talab qiladigan boshqa holatlarda.

Lingvistik ekspertizani tarkibiy qismlarga ajratishda mutaxassislar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjud. Ushbu soha yigirmanchi asrning so‘nggi o‘n yilliklarida rivojlangan. M.A.Grachev talqinida esa lingvistik ekspertiza alohida turga ajratilgan har xil turdagi tadqiqot materiallari, moddalar, mahsulotlar, shuningdek, materialshunoslik bilan ish ko‘radigan yuridik sohaning tarmoqlaridan biri.<sup>1</sup> Biroq yana bir nuqtai nazar, E.I.Galyashina va E.R.Rossinskayaning so‘zlariga ko‘ra, lingvistik ekspertiza - bu nutq tekshiruvlari sinfiga kiruvchiga ekspertizaning alohida turi<sup>2</sup>.

Germaniyalik olim Jurgen Handkie fikrlariga ko‘ra, lingvistik ekspertizada ikki muhim omil mavjud:

- 1) ovozi xabarlar identifikatsiyasi;
- 2) yuridik matnlar identifikatsiyasi.

Birinchi turda olim ovozning fonetik xususiyatlari, ovoz tempi va uzunligi kabilarga e‘tibor qaratish lozimligiga urg‘u bersa, yuridik matnlar identifikatsiyasida o‘z joniga qasd qilishga qaratilgan xatlar, talab shakldagi so‘rovnoma matnlari, e-mail xabarlarini ajratib ko‘rsatadi.<sup>3</sup>

I.K.Brinyevga ko‘ra, lingvistik ekspertologiyada lingvistik ekspertizani turlarga ajratish muhim ahamiyat kasb etmaydi. Eng muhimi sohaga doir yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan iborat.<sup>4</sup>

L.V. Azhnyuk lingvistik ekspertizaning maxsus bilimlar talab qilinadigan ikki asosiy turini ko‘rsatadi. Birinchidan, bu ommaviy axborot vositalarida yoki boshqa biron bir yo‘nalishda nashr etilgan ommaviy matnlar (raqamli va bosma ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, televidenie va radio matnlari dasturlar, og‘zaki taqdimotlar, reklama matnlari, tovarlarda iste‘molchilar uchun ma‘lumot va xizmatlar, firma nomlari va boshqalar). Bunda til huquqiy tartibga solish vositasi sifatida ishlaydi. Ikkinchidan, sotsial munosabatlarni tartibga solish bo‘yicha lingvistik ekspertiza. Bunda turli normativ-huquqiy hujjatlar, shaxsiy yozishmalar asosiy obyekt bo‘lib xizmat qiladi. U o‘z fikrini quyidagi misol orqali dalillaydi: *Ipoteka shartnomasining X bandida ipoteka egasi nazarda tutilgan omonatchiga o‘ziga xos ma‘noda rasmiy talabni ma‘lum tarzda yuboradi sabablari (bu ma‘lum bir huquqiy*

<sup>1</sup> Grachev M. A. Problems of formation and the formation of language minority as a science.//Bulletin of the Nizhny Novgorod state University n. a. N. A. Lobachevsky. – 2010, – No. 4 (2). – S. 499.

<sup>2</sup> Galyashina E. And the foundations of judicial received any. – M.: Stance, 2003

<sup>3</sup> Handkie Jurgen. Forensic Linguistics - An Overview. [https://www.youtube.com/watch?v=n4wZ-O\\_f5ds.-2014](https://www.youtube.com/watch?v=n4wZ-O_f5ds.-2014)

<sup>4</sup> Federal state standard of higher professional education in the direction of training (specialty) 031003 forensics (qualification (degree) specialist) (as amended by the order of the Ministry of education and science of the Russian Federation dated 31.05.2011 No. 1975)

natijaga ega). Ushbu ipoteka shartnomasining Z bandi ipoteka egasi depozitga rasmiy xabarnoma yuborishi bilan ta'minlaydi boshqa sabablarga ko'ra ma'lum ma'no (bu boshqa qonuniy natijaga ega). Ipoteka egasi omonatchiga bitta rasmiy hujjat (ariza - talab) yuboradi, bu bir vaqtning o'zida rasmiy xabarni ham, rasmiy talabni ham anglatadi. Depozit bunday harakatlarning qonuniyligini shubha ostiga qo'yadi va qonuniylarni sharhlaydi.<sup>5</sup>

L.V.Azhnyuk tomonidan belgilangan tarkibiy qismlar boshqa olimlar va mutaxassislar tomonidan berilgan mulohazalarga nisbatan solishtirganda umumiyroq xarakter kasb etadi. Olim ikki turga ajratishda asosiy xususiyatlarga tayanadi va shunga ko'ra bo'linishni ma'qul topadi.

A.Baranov tomonidan taklif etilgan lingvistik ekspertiza tarkibiy qismlari esa tashkil etish shakliga ko'ra ajratilgan deyish mumkin:

1) rasmiy ekspertiza (sudning talabiga binoan amalga oshiriladi va u yuridik maqomga ega;

2) tashabbus ekspertizasi (har qanday manfaatdorning talabiga binoan amalga oshiriladi (jismoniy yoki yuridik shaxs).

Ko'rinadiki, bunda muallif lingvistik ekspertizaning asosiy parametrlariga urg'u berib o'tadi. Har doim ham lingvistik ekspertiza o'tkazishga ehtiyoj tug'ilmaydi. Sud jarayonida ayblanuvchi, gumondor, guvoh ko'rsatmalari, mavjud dalillar tahliliga asosan mavjud qonun hujjatlariga ko'ra sud hukmi chiqariladi. Biroq shunday vaziyatlar yuzaga keladiki, bunda nafaqat mavjud qonun hujjatlari, yuridik bilimlar, balki maxsus lingvistik bilimlarga ham ehtiyoj tug'iladi. Xususan, haqorat va obro'sizlantirish, mansabdor shaxs mavqeyiga putur yetkazish kabi ayblovlar; yoki turli ko'rinishdagi anonim xatlar va yozma matnlar avtorizatsiyasi masalasiga oydinlik kiritish (muallifning o'zi yozganmi yo'qmi, tashqi ta'sir sharoiti bormi yo'qmi, fonetik-leksik va grammatik jihatdan qaysi hudud vakillari nutqiga xos va h.) kabi holatlarda lingvist-ekspertning bilimi va tajribasiga ehtiyoj tug'iladi. Yuqorida keltirilgan A.N.Baranov ajratgan lingvistik ekspertizaning birinchi ko'rinishi ayni shu va shu singari vaziyatlarda tayinlanadi.

Ingliz lingvist-eksperti John Olsson lingvistik ekspertiza tarkibida matn avtorizatsiyasi, plagiatlik holatlari, ovozli xabarlar identifikatsiyasi kabi tarkibiy qismlarga alohida urg'u beradi.<sup>6</sup>

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ажнюк Л.В. Типология об'єктів лінгвістичної експертизи і методика їх дослідження / Леся Вікторівна Ажнюк // Мовознавство. – 2016. – № 3. – С. 6
2. Grachev M. A. Problems of formation and the formation of language minority as a science.//Bulletin of the Nizhny Novgorod state University n. a. N. A. Lobachevsky. – 2010, – No. 4 (2). – S. 499.

<sup>5</sup>Ажнюк Л.В. Типология об'єктів лінгвістичної експертизи і методика їх дослідження / Леся Вікторівна Ажнюк // Мовознавство. – 2016. – № 3. – С. 6

<sup>6</sup> John.Olsson. Forensic linguistics. Continuum International Publishing Group. New York-2008. P5

3. Galyashina E. And the foundations of judicial received any. – M.: Stance, 2003
4. Handkie Jurgen. Forensic Linguistics - An Overview.  
[https://www.youtube.com/watch?v=n4wZ-O\\_f5ds](https://www.youtube.com/watch?v=n4wZ-O_f5ds).-2014Federal state standard of higher professional education in the direction of training (specialty) 031003 forensics (qualification (degree) specialist) (as amended by the order of the Ministry of education and science of the Russian Federation dated 31.05.2011 No. 1975)

## FORTEPIANO CHOLG`USIDA YIRIK SHAKLDAGI ASARLAR USTIDA ISHLASHNING MUHIM BOSQICHLARI (L. BETXOVENNING “SONATA NO22” F- DUR MISOLIDA)

Muqaddam Atakulova Xatamovna  
Hulkar G`afforova Sattorovna  
Navoiy Shahar 1- son BMSM o`qituvchilari

**Annotatsiya:** Fortepiano uchun yozilgan yirik shakldagi asarlarning hajman va shakl jihatidan katta, o`ziga xos murakkablik tomonlarini o`rganishdagi ilg`or usullar- L. Betxovenning “Sonata No22” F- dur misolida tahliliy jihatdan yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** ekspozitsiya, repriza, temperament, musiqiy intuitsiya, applikatura.

Fortepiano cholg`u ijrochiligining shakllanishi va taraqqiy etishi, professional san`at turiga aylanib, bugungi kungacha rivoj topish jarayoni ma`lum bir tarixiy bosqichlarni qamrab olishi bilan ahamiyatlidir. Fortepiano ijrochiligining dunyo e`tibori va e`tirofiga sazovor bo`lishida O`zbekiston hamda Jahon kompozitorlari tomonidan yaratilgan durdona asarlarning o`rni benihoya katta.

Vena klassik maktabi namoyondasi L. Betxovenning fortepiano uchun yozilgan turli janrdagi asarlari, ayniqsa yirik shaklga kiruvchi sonatalari o`zining har tomonlama mukammal, birinchi bayondayoq ham mavzu, ham tonallik jihatdan o`zaro kontrast ikki mavzuning bir-biriga qarama-qarshi qo`yilishiga asoslanish strukturaviyligiga ega ekanligi bilan, ijrochidan yuqori bilim va ijro salohiyatini talab etadi. Buyuk nemis kompozitori L. Betxovenning fortepiano uchun yozilgan sonatalari ichida, shakliy noodaniy xarakterga ega (odatda sonatalar III qismdan iborat bo`ladi) II qisimli *F- dur* tonalligida yozilgan 22- sonatasining birinchi qismi 2 ta turli tonallikdagi garmonik mutanosib mavzuni o`z ichiga oladi:

In tempo d'un Menuetto.

Sonate N<sup>o</sup> 22.



Ushbu sonata ikki turli mavzuiylikka asoslanadi va birinchi mavzu- bosh tonallikda, ikkinchi mavzu esa- tobe tonallikda keladi hamda bu mavzularni ijro etishdagi murakkablik tomonlaridan biri musiqiy intuitsiya orqali o`ziga xos individual musiqiy obraz va ijro holatidagi emotsional temperament mustahkamlanishining ta`lab etilishidadir:



Sonataning ekspozitsiya qismidagi asarning bosh mavzusini asosiy tonallikda bayon etuvchi- bosh partiyasi, navbatdagi bo`limlarga o`tishga xizmat qiluvchi- bog`lovchi partiyasi, sonataning ikkinchi muhim mavzusini yordamchi tonalliklarning birida bayon qiluvchi- yordamchi partiyasi hamda yordamchi tonalliklarning birida yozilib, ekspozitsiya rivojini strukturaviy tugallovchi- yakunlovchi partiyalarning professional ijrosi qulay va to`g`ri applikatorani, texnik ijro hamda musiqiy intuitsiyani o`stirishga qaratilgan aniq va samarali texnik mashqlar sifatini talab etadi:



Sonataning yakunlovchi qismida templar almashinuvini- musiqiy ifodaviylik unsurlari va tovushlarning ohang uyg`unligi bilan boyitgan holda ijro etish, ravon ritm defektlarini, agogik nuanslar ketma- ketligini ijroda shakllantirish muhimdir:



L. Betxovenning ushbu sonatasi mumtoz sonata shakli tipologiyasiga xos bo'lgan bosh va yordamchi partiyalar mavzularining (ayniqsa ekspozitsiya mavzusi) qarama-qarshilik darajasi- keskin kontrass xarakterga asoslanishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qodirov R. “ Musiqa psixologiyasi”, –T., “Musiqa”, 2015.
2. Qodirov R. “ Musiqa pedagogikasi”, –T., “O`zDK”, 2015.
3. Neygauz G. “Ob iskusstve fortepiannoy igri”,- M., “Muzika”, 1988.

## OHANGARON VODIYSINING TABIIY RESURSLARI

Abduqahhorov Abdulaziz Aziz o'g'li  
TDPU

**Annotatsiya:** Insoniyatning yer yuzida barhayotligi uchun ikkita muhim manba zarur: tirik tabiat va foydali qazilmalar. Tirik tabiat bizni oziq-ovqat bilan taʼminlasa, yerosti boyliklari sanoatimiz ozuqasidir. Ushbu maqolada Ohangaron vodiysining tabiiy resurslari va qazilma boyliklari haqida so'z yuritiladi.

**Tayanch so'zlar:** Foydali qazilmalar, termal suvlar, paleolit davri, neolit davri, ko'mir havzasi.

Qora va rangli metallurgiya butunlay mineral xomashyo hisobiga ishlaydi. Kimyo sanoati uchun foydali qazilmalarning ulushi 75-80 %ga yetadi. Elektr quvvatining katta qismi issiqlik va atom elektr stansiyalarida ko'mir, neft, gaz va radioaktiv elementlar hisobiga ishlab chiqariladi. Transportning barcha turi (avtomobil, temir yo'l, aviatsiya) yonuvchi foydali qazilmalardan olingan quvvat bilan harakatlanadi. Qurilish materiallari sanoatining asosini minerallar va tog' jinslari tashkil qiladi. Yer osti suvlari ham foydali qazilma hisoblanadi. Ular nafaqat ichimlik suvi va sug'orish maqsadida, balki ko'plab miqdorda sanoat miqyosida osh tuzi, yod, brom, litiy, rubidiy, germaniy, uran kabi iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan elementlarni ajratib olishda ham ishlatiladi. Yer osti suvlarning ayrim turlari mineral shifobaxsh suvlar sifatida va issiqlik taʼminoti va elektr quvvati ishlab chiqarish (termal suvlar) uchun ham foydalaniladi. Odamzot jamiyatning hozirgi kunga qadar rivojlanishi bilan bir qatorda metallardan foydalanishi ham kengayib bormoqda.

Insoniyat tarixida eng uzoq davom etgan ibtidoiy jamoa tuzumida metallar hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan va faqat bu tuzumning eng so'ngi davrida birmuncha rol o'ynay boshlagan. Keyingi tuzumlarda esa metallar inson uchun eng zarur va kerakli bo'lib bordi, ya'ni tosh asri bilan metallar asri oralig'ida ular inson hayotiga kirib kelgan. Qadimgi tosh asrida (paleolit), bundan yuz minglab yillar avval, odamzod toshlardan yasagan ish qurollaridan foydalangan. Ular qo'pol, ishlov berilmagan pichoq ko'rinishida bo'lgan. Bu pichoqlarni yirik tosh bo'laklarini maydalab tayyorlaganlar. Ko'p ming yillar davomida toshga ishlov berish yo'llari asta-sekin takomillashib borgan. Paleolit davrida odam metallni bilmagan. Ammo ahyon-ahyonda unga tabiatdagi metallarning sof tug'uma bo'laklari uchrab turgan va ularni inson bezak sifatida ishlayotgan bo'lishi mumkin. Keyinchalik bu bo'laklarning toshlarga nisbatan yaxshiroq ishlanishi pachaqlanishini sezgan. Paleolit davri o'rniga neolit (yangi tosh asri) davri boshlanganda (bundan o'n minglab yillar avval) odamzod tosh buyumlarini silliqlash va teshishni o'rgangan. Neolit davri odamlarining ulkan yutug'i kremen jinsini 10 metrlik lahmlardan qazib olgani hisoblanadi. Keyinroq bu tajriba ma'danlarni qazib olishda qo'l kelgan. Inson aniq qachon metall qazib olib unga ishlov berganligini aniq belgilash ancha mushkul. Faqat

qaysi metallardan birinchi boʻlib foydalanish boshlanganligini taxmin qilish mumkin. Oʻz-oʻzidan ravshanki, bu tabiatda sof tugʻma holda uchraydigan metallar, yaʼni mis va oltin boʻlgan. Temir ham tabiatda sof holda uchraydi, ammo juda kam. Shundan kelib chiqib, odamzot ishlata boshlagan birinchi metallni «oltin» deyish mumkin. Toʻgʻri, oltindan mehnat quroli yoki qurol yasash mumkin boʻlmagan. Lekin u bilan tanishuv va muomila insonlarga boshqa metallarga ishlov berishda tajriba sifatida asqotgan.

**Foydali qazilmalari.** Foydali qazilmalardan qoʻngʻir koʻmir (Angren, Obpartak, Choʻchqabuloq, Jigariston), mis, rux, molibden, oltin (Qoʻshbuloq, Qizilolma, Novgarzon, Oltintopgan), flyurit (Gushsoy), alunit (Oqcha, Novgarzon), feruza (Ungurlikon, Objazsoy), qurilish materiallari bor. Oʻtga chidamli tuproq, qum, shagʻal, ohaktoshning zaxiralari kata.

Toshkent viloyati Ohangaron vodiysidagi qoʻngʻir koʻmir koni. Qurama va Chatqol togʻlari etagida. Geologik kon qidiruv ishlari 1934-yil dan boshlangan. Dastlabki shaxta 1940-yil da ishga tushirilgan. Koʻmirli havzaning maydoni qariyb 70 km<sup>2</sup>. Aniqlangan zaxirasi 860 m chuqurlikgacha 1,9 mlrd tonna (Oʻrta Osiyodagi barcha koʻmir zaxirasining qariyb 1/4 qismi). Koʻmir yura yotqiziqlari orasida joylashgan, qatlami juda serbar, qalinligi yer yuzasida 20 metrdan chuqurlikda 130 mert gacha. Koʻmir B2 markasiga mansub. Yonish issiqligi 13,9 MJ/kg. Koʻmir asosan ochiq usulda (2,5 mln tonna), qisman yer ostidan (0,5 mln tonna) qazib olinadi. Bundan tashqari «Yerostigaz» stansiyasida koʻmir gazga aylantirilib, yiliga 50 mln m<sup>3</sup> gaz ishlab chiqariladi. Koʻmir bilan birga kaolin ham qazib olinadi. Qatlamlar orasida portlandsement, flyus, burt hamda kanalizatsiya quvurlari ishlab chiqarish uchun xom ashyo boʻladigan jinslar koʻp.

### Adabiyotlar roʻyxati

1. Национальный доклад о состоянии окружающей природной среды и использовании природных ресурсов в Республике Узбекистана в 1994.-Т., 127 с.
2. Национальный доклад о состоянии окружающей природной среды и использовании природных ресурсов в Республике Узбекистан. -Т: 1977. -128 с.
3. Nomozov H., Qoroxonova Y., Amonov O. Yer resurslaridan foydalanish va himoyalash. – T., 2011.
4. Amanbayeva Z.A Tursunov X. Oʻzbekistonda ekologik muammolarni hal qilishda aholining roʻlini oshirish masalalari. // Geografiya fakultetining 30 yillik yubileyiga bagʻishlangan ilmiy konferensiyasi materiallari. – Samarqand: 1996. - 46-47-b
5. Amanbayeva Z.A Ohangaron shaxridagi ekologik vaziyat va uni yaxshilash muammolari Ozbekiston geografiya jamiyati axboroti T: 1998. T. 19. -72-74-b.
6. Amanbayeva Z.A Ohangaron vodiysida haydaladigan yerlar va yaylovlardan foydalanish, uning geografik-ekologik asoslari // Ozbekiston geografiya jamiyati axboroti.- T., 1999. T. 20 -91-93-b.

## AYOL HARBIY XIZMATCHILAR FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O`RNI

Paxratdinova Aruxan Kerimberdiyevna  
Qoraqalpog`iston Respublikasi

**Annotatsiya:** Maqolada Qurolli Kuchlar tizimida ayol harbiy xizmatchilarni kasbiy faoliyatga moslashtirishda psixologik xizmatning o`rni haqida so`z etilgan.

**Kalit so`zlar:** Qurolli Kuchlar, ayol harbiy xizmatchilar, psixologik xizmat, ayol harbiy xizmatchilarga psixologik yordam ko`rsatish.

Psixologik maslahat haqida so`z yuritar ekanmiz, ayol harbiy xizmatchilarni kasbiy faoliyatga moslashtirishda psixologik xizmatning o`rni o`ta muhimdir. Avvalo, Psixologik maslahat, psixologik xizmat terminiga diqqat qaratadigan bo`lsak, unga quyidagicha ta`rif beriladi: Olima Z.Nishonova Psixologik xizmat haqida: “Psixologik xizmatning asosiy mazmuni-sog`lom shaxsning o`shini ta`minlash, shaxs rivojlanishidagi turli qiyinchiliklarni korrektsiya qilish (tuzatish) kasb muammolarini o`rganish va hal qilishga turtki berishdir”<sup>1</sup>-degan fikrni bildiradi. Ushbu fikrlardan kelib chiqib Psixologik xizmatning predmetini 3 nuqtaiy nazardan olib qaraydi: 1) ilmiy, 2) tashviqot, 3) amaliy;

Bundan kelib chiqqan holda, harbiy sohada “Psixologik xizmat-ko`shinlarning ma`naviy-ruhiy ta`minoti tizimining muhim tarkibiy qismlardan biri bo`lib, u o`zida ixtisoslashtirilgan harbiy organlar, bo`linmalar va mansabdor shaxslarni mujassam etgan holda yagona tashkiliy tuzilmaga birlashtirilib, ularning faoliyati mazmuni esa “psixologik ish” tushunchasi bilan belgilanadi.”

Ayol harbiy xizmatchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda, harbiy qismlarda Psixologlar uchun alohida “Ruhiy yengillik xonasi” tashkil qilingan. Yangi ishga qabul qilingan harbiylar ayollarga xizmat faoliyatining o`ziga yarasha mashaqqatini tushuntirish va majburiyatini anglatish maqsadida psixolog tomonidan “Tanishuv” metodini qo`llab, bir-biri bilan tanishadilar.

«Ofitser qo`l ostidagi harbiy xizmatchilarni tarbiyalashda nafaqat harbiy jamoaning tarkibiy qismini shakllantirib boradi, shuningdek, yuqori harbiy tayyorgarlik ishlariga javobgar shaxs hisoblanadi. Ayniqsa, jamoadagi yo`qori psixologik muhitga, har bir harbiy xizmatchining sog`ligiga ham javob beradi.<sup>2</sup>»

Harbiy jamoada sog`lom muhitni shakllantirish maqsadida, “Ko`r va yo`lboshlovchi” mashqi bajariladi: Mashq davomida ayol harbiy xizmatchilardan biri “ko`r” ikkinchisi esa “yo`lboshlovchi” bo`ladi. “yo`lboshlovchi” “ko`rni” xonadagi avvaldan tayyorlangan to`siqlar stol-stul, koptokcha, kursi singari buyumlardan beshikast olib o`tishi zarur. Juftlikda amalga oshiriladigan bu o`yinda “ko`r” bilan

<sup>1</sup> Nishanova Z.T. “Psixologik xizmat”. T.,-2007, bet-4

<sup>2</sup> P.M.Махмудов: «Харбий психология ва педагогика» дарслик. Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардиями Харбий-техник институти; Тошкент-2019-йил, 149-бет.

“yo`lboshlovchi” o`rin almashib o`yin davom etadi. Mashq tugagandan so`ng mashq qay tarzda o`tganligi, qatnashuvchilarning his-hayajoni muhokama qilinadi<sup>3</sup>. Bu o`yin turi jamoada harbiy xizmatchilarning bir-biriga bo`lgan ishonchini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ayol harbiylardagi ruhiy zo`riqish holatining oldini olish uchun dastlab psixolog suhbat o`tkazadi. Suhbat-metodlar ichida psixologning birinchi quroli hisoblanadi. Depressiya holatini aniqlovchi testlar, Diqqat xotirani, Nerv fiziologik holatini aniqlovchi testlar olinadi.

Ruhiy va jismoniy zo`riqish, xizmat faoliyatining og`irligi va ayol kishining oilaga kam vaqt ajratishi, er-xotin, qaynona-kelin o`rtasida kelishmovchiliklar sababchi boladi. Doimiy ish tarzi xotin-qizlarning oilaviy muhitiga ham salbiy ta`sir ko`rsatadi. Oiladagi muhitni yaxshilash uchun ham psixolog tomonidan “Oila ta`sviri” usuli qo`llaniladi. Bunda ayol harbiy xizmatchilarga qog`oz, rangli qalam, flomasterlar berilgan holda oilasining rasmini chizib berish iltimos qilinadi. Rasmlar chizib bo`lingandan so`ng qizlar bilan alohida-alohida suhbat o`tkaziladi. O`zlari chizgan rasmga ta`rif beriladi va natijada oilada kim ko`proq muammolarga sababchi bo`lmoqda, muhitning yomonlashuviga nima sabab bo`layotganligini bilib olish mumkin. Holatni kuzatib o`rgangandan so`ng psixolog oilani saqlab qolish, oila mustahkamligi bo`yicha tegishli tavsiyalarini beradi.

Ayol harbiy xizmatchilar harbiy qismda psixologga doimo murojaat etadi. Zo`riqish bilan bog`lik bo`lgan xizmat faoliyatida ularni tinglaydigan va dalda bo`ladigan insonning borligi ularda o`ziga bo`lgan ishonchning ortishiga sababchi bo`ladi.

Hulosa qilib aytganda, ayol harbiy xizmatchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasi o`rganilishi zarur bo`lgan masalalardan biri bo`lib hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Karimov I.A., “Inson, uning huquq va erkinliklari-oliy qadriyat”.T.14-T., 2006 yil bet-121
- 2.Nishanova Z.T. “Psixologik xizmat”., T.,-2007, bet-4
- 3.Р.М.Махмудов: «Харбий психология ва педагогика» дарслик. Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардиями Ҳарбий-техник институти; Тошкент-2019-йил, 149-бет.
- 4.М.Давлетованинг иш тажрибаси “Ота-она-о`smir”, “о`smir-о`smir” тизимда ота-онalar bilan psixologik trening mashg`ulotlar,. Nukus-2020 yil, bet-20

<sup>3</sup> M.Davletovanning ish tajribasi “Ota-ona-o`smir”, “o`smir-o`smir” tizimida ota-onalar bilan psixologik trening mashg`ulotlar,. Nukus-2020 yil, bet-20

## KUYDIRILMASDAN GIZPERZICHLASH USULI BILAN OLINADIGAN PARDOZBOP G'ISHTNING TARKIBI, FOYDALI JIHATLARI VA KAMCHILIKLAR

Qosimov Erkin Umaraliyevich  
Pulatov Madaminjon Muhammadjon o'g'li  
TAQI

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekiston qurilish materiallari bozorida energiya tejamkor xom-ashyolarga talab katta bo'lganligini inobatga olib, iqtisodiy va resurstejamkor mahalliy chiqindilar asosida giperzichlash usuli bilan ishlab chiqariladigan pardozbop g'ishtlarning foydali jihatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** pardozbop g'isht, resurstejamkor, giperpres, keramika, sement, oxaktosh, dekorativ...

Giperpresslangan g'isht - bu sement-ohaktosh aralashmasidan yarim quruq giperpresslash usuli bilan ishlab chiqarilgan, keyin bug'lash kamerasida yoki oddiy isitiladigan xonada qotib olinadigan yuqori quvvatli qurilish material bo'lagi; asosan turli xil tuzilmalarni qoplash uchun mo'ljallangan.

Giperpresslangan g'ishtlarning tarkibi va ishlab chiqarish texnologiyasi giperpresslangan g'isht ishlab chiqarish uchun aralashmaning tarkibiga 8-15% yuqori sifatli sement, 2-7% rang berish uchun temir oksidi pigmentlari va 85-92% asosiy xom ashyo kiradi:

- ohaktoshli qobiqli tosh;
- Tirsak, dolomit, marmar, mergel;
- Ezilgan tosh ishlab chiqarishdan skrining;
- Keramika g'ishtlarini ishlab chiqarish bilan kurashish;
- Har xil chiqindilar: toshni qazib olish va kesishdan, ko'mir, mis va temir rudalarini boyitishdan;
- Yuqori o'choqli shlaklar va boshqa ko'plab materiallar.

Giper presslash - bu o'ta yuqori bosim ostida quyma mineral materiallarning nam aralashmasidan mahsulot hosil qilish usuli. Bosish effekti zarrachalarning shunchalik kuchli o'zaro ishqalanishiga olib keladi, ular orasida shunchaki yopishish emas, balki molekulyar darajadagi yopishish bo'ladi, ya'ni uyg'unlik - bu normal sharoitda moddaning ichidagi molekulalar o'rtasida mavjud bo'lgan tortishish, ammo har xil molekulalar o'rtasida emas moddalar.

Aslida zarralar bir-biriga payvandlanadi va bu yuqori haroratni ishlatmasdan sodir bo'ladi, masalan, loy g'ishtlarni yoqish yoki metallarni payvandlash. Shuning uchun yarim quruq giperpresslash sovuq manba deb ham ataladi. Natijada tabiiy toshga to'qima, kuch, sovuq va namlikka chidamliligi bo'yicha imkon qadar yaqin bo'lgan sun'iy material olinadi.

Qoliqlangan mahsulotlar bug'lash kamerasida (40-70 °S haroratda 8-10 soat) yoki g'isht 3-5 kun ichida pishadigan omborda quritiladi. Bu sizga tovar kuchining 50-70 foizini olishga imkon beradi, shundan keyin g'ishtlar kerak bo'lganda rustiklanadi (dekorativ chiplarga taqlid qiladi) va qurilish maydonchasiga yuboriladi. Giper bilan bosilgan g'isht 30 kun ichida haroratda noldan yuqori bo'lish sharti bilan devorda oxirgi kuchini oladi.



Texnologiyaning o'ziga xosligi tayyor mahsulotning dizayn o'lchamlariga yuqori aniqlikda muvofiqligini olishdan iborat. Burilish 0,5 mm dan oshmasligi mumkin (odatda 0,2-0,5 oralig'ida), bu  $\pm 2$  mm bo'lgan devor elementlari orasida eng "aniq" qum-ohak g'ishtining ko'rsatkichlaridan ustundir.

Giperpresslangan g'ishtlar uchun maxsus ishlab chiqilgan davlat standarti mavjud emas, shuning uchun ishlab chiqaruvchilar giper presslash natijasida olinadigan mahsulotlarning texnik xususiyatlari, shuningdek, loy g'ishtlar uchun standartlar (o'lchamlari va maqsadlari bo'yicha):


- TU 5741-021-00284753-99 "Giperpresslangan qurilish materiallari"
- GOST 530-2007 "Keramika g'ishtlari va toshlari. Umumiy tavsiflar"

#### Tasnifi

Giperpresslangan g'ishtlar boshqa ikkita g'isht turiga o'xshash xususiyatlarga ega - keramika va silikat:

- tayinlash bo'yicha - shaxsiy va yuz (silliqlik yoki poke va / yoki qoshiqlik bilan naqshinkor);
- dizayni bo'yicha - to'liq tanali va ichi bo'sh (teshilgan va yivli);
- shaklida - muntazam parallelepiped shaklida (o'tkir yoki yumaloq burchakli) va jingalak.

Malumot. Bir xil g'isht yuzlarining har bir jufti o'z nomiga ega: yotoq - eng katta (ishlaydigan) samolyotlar; qoshiqlar - o'rta kattalikdagi qirralar (ular tayyor devorda ichki va tashqi tomondan ko'rinadigan bo'lib qoladi); dumba - g'ishtning so'nggi yuzlari.



Shakllangan yoki shaklli g'ishtlarni maqsadlariga ko'ra ham ajratish mumkin: ba'zilari sof dekorativ funksiyani bajaradi, boshqalari uni amaliy bilan birlashtiradi - korniş, burchak va boshqalar. ", faqat bitta yoki ikkita yuzda yaratiladi.

Zilzilaga chidamli binolarni qurishda ancha yuqori narx tufayli qurilish (oddiy) g'ishtlardan foydalanish oqlanadi. Asosan, ikki tomonlama giper-presslash usuli bilan olingan mahsulotlar ajoyib qoplama material bo'lib xizmat qiladi, bu dekorativ effektdan tashqari strukturani mustahkamlaydi, yuqori namlik va boshqa salbiy ta'sirlardan himoya qiladi.

G'isht o'lchamlari  $L \times W \times T$ , mm:

- Yagona (1NF)  $250 \times 120 \times 65$
- Tor (0,6NF)  $250 \times 60 \times 65$

Uzunligi va qalinligi 230 va 65 mm bo'lgan birikmalar 107, 100, 56 yoki 50 mm bo'lgan kengligi kamroq emas.



Xususiyatlari

- 100 dan 300-400 kg / sm<sup>2</sup> gacha bo'lgan quvvat
- Ikki tomonlama giper presslash M100 dan past bo'lmagan, M500 sementdan foydalangan holda esa - M250-M300 oralig'ida navlarning bir xil mustahkamligini ta'minlaydi.
- Hajmi og'irligi 1900-2200 kg / m<sup>3</sup>
- Issiqlik o'tkazuvchanligi 0,43-1,09 Vt / (m • ° S)
- Sovuqqa chidamliligi 300 siklgacha
- F30 dan F300 gacha bo'lgan baholar.

- Suvni yutish darajasi 3-7%
  - Yong'inga chidamlilik guruhi NG (yonmaydigan)
  - to'liq mehnatga yaroqli va ichi bo'sh, navbati bilan rubl / dona:
    - o Asosiy xarajatlar taxminan 30-32 va 21-26 gacha
    - o Tor - 12-17 va 14,8-16,5
    - o jingalak 32-44
  - Garchi 12 rubldan boshlanadigan takliflar mavjud bo'lsa ham. 1NF uchun.
  - Binoning maksimal qavat soni cheklanmagan
- Giperpresslangan g'ishtlarning afzalliklari
- Agressiv muhit va iqlim ta'siriga chidamli;
  - Keramika va silikat mahsulotlarining ko'pchiligidan kuchliligi jihatidan ustun turadi;
  - mukammal silliq yuzalar tez yotishini ta'minlaydi, ohak va ishchi kuchiga sarflanadigan xarajatlarni tejaydi;
  - Xizmat qilish muddati (200 yilgacha) va estetikani saqlash nuqtai nazaridan bardoshli yoriqlar va tanaffuslar yo'q;
  - Qurilish maydonidagi har qanday mexanik ishlov berish huquqiga javob beradi;
  - sement ohak bilan yopishtirish quvvati keramikadan 75-100% yuqori;
  - Sement eritmasidagi devorning mustahkamligi xuddi shu eritma bilan yopishtirilgan keramikadan 50-70% gacha;
  - Yilning istalgan vaqtida devor ishlarini bajarish imkoniyati;
  - Amaldagi xom ashyoning mavjudligi va ekologik xavfsizligi.
- kamchiliklar
- Nisbatan yuqori narx barcha kuchlari, mukammal aniq geometriyasi, rang va to'qimalarining xilma-xilligi bilan giperpresslangan g'ishtlardan foydalanish doirasini toraytiradi;
  - Mumkin bo'lgan maksimal vaqtni qo'yishdan oldin g'ishtni quritish zarurati;
  - Qattiq g'ishtdan foydalanishda poydevorga etarlicha katta yuk.
- Pardozbop g'ishtning foydali jihatlaridan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash kerakki bunday g'ishtlar bugungi kunda energiya tejamkor va iqtisodiy tarafadan ancha samarali xisoblanadi..

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston milliy axborot agentligi sayti. 23.12.2021
- 2.«O'zqurilishashyolar» AK ning 2017-2021 yillardagi xisobot ma'lumotlari.
3. E.U.QOSIMOV “Qurilish ashyolari” Uzaxitektura qurilish “cho'lpon” nashr 2011 yil
- 4 Bosh direktor Tojiyev Abror “Sandiron Ceramic” pardozbop g'isht ishlab chiqaruvchi ko'p tarmoqli zavod manbalari..2020y
- 5 .B.A Askarov Qurilish konstruksiyalari. Toshkent.O'zbekiston,1995 – yil..

## **THE ROLE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES (ICT) IN THE PROCESS OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES**

Xoshimova Dilso`z Rasuljon qizi  
Baxromova Niginabonu Baxtiyorjon qizi  
Kokand State Pedagogical Institute

**Annotation:** the ways of improving teaching and learning foreign languages ICT are considered in the article. This article discusses the role of ICT in deep; simple and fast learning of foreign languages...

**Keywords:** ICT, innovative, audio, programs, exposure, activities

The president of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev Miromonovich is paying a lot of attention to the youth today. Especially creating great opportunities for them to learn foreign languages. For instance, spacious and bright rooms and modern Information and Communication technologies. Using information and communication technologies in the education of the youth makes them more interested in science, furthermore the lessons be more fun and they have a better understanding of the topic. Shavkat Mirziyoyev proposed to declare the year 2021 as “The Year of Supporting the Youth and Improving the Puplic Health.” Our president supports us in every way. “Dear boys and girls, never forget that our people, our Motherland, expect great things from you. The greatest happiness in the world is to fully justify such a high trust, to be worthy of it. And may such happiness, such honor and responsibility become your destiny, the main goal and meaning of your whole life!” the president said. “Every young man is as dear to me as to his parents” <sup>1</sup>Shavkat Mirziyoyev said in an interview with them. “I am confident that together with such an educated youth with a powerful creative potential, we will build a new Uzbekistan” the head of the state continued. The president advised young people to study more and improve their skills in all sphere. We, the youth certainly promise to justify the confidence of our president, Shavkat Mirziyoyev Miromonovich...

XXI century is the century of innovative technologies, where everything is computerized and automatized. Learning as well as teaching foreign language is not an exception. There are a great deal of different software for all grades and ages especially for young learners. In this article, it is going to be presented different computer programs directed to the teaching kids to learn foreign language which are easy to learn and joyful. If you want your children to have the best starting point when they are learning foreign language, you will need to use the Internet and new technologies because they are kids of a new era-era of digital technologies. Children learn naturally when they are having fun. Flashcards are a great way to teach and revise vocabulary and there are a lot of different games which kids can play with flashcard. In conclusion, learning foreign languages with the means of computer programs could be more effective and motivative. Playing these types of games with

flashcard has been proven to aid students in learning a foreign language quickly. They can develop reading, speaking, writing and listening skills with just playing games. Moreover, they are able to impress their teachers and mates with their results.

Learners can use ICT (Information and Communication Technologies) in developing and improving their language skills, in particular listening comprehension for the following good reasons:

- 1) Using a range of ICT tools and web-based environment can give learners exposure to practicing listening regularly, and consequently, become a more effective listener.
- 2) While listening to digital audio or watching a video clip, learners have the opportunity to pause at will, and listen and read a transcript. Moreover, learners can get instant feedback on what they have done (You watch a video clip, listen to audio and check answers immediately after watching, listening).

It is essential that when students use ICT in activities, that they understand its uses in the world. When it comes to ICT to students, creative work by students take on a whole new level. ICT is a creative medium, but you can go beyond just using paint or draw software. So while for some drawing may be the most creative use of ICT, there are other things you can do.

For example, you can help children make fantastic multimedia presentations using programs such as PowerPoint. This is a great idea for projects!

What about Lego robotics to teach them about the basics of educational robotics? ICT devices can also improve the sound quality of many recordings not just music, but also students' own voices. And also students can use the internet to search for pictures and other information for a project or story they may be doing.

You can organise activities where the students create animations using software even like PowerPoint or StopMotion programs.

ICT allows the teacher to produce and modify resources quickly and easily. Computers, software, cameras and range of ICT devices can all make teaching more effective and more fun for the pupil. There are a variety of ICT activities:

### **PowerPoint**

PowerPoint is a fantastic presentation tool: easy to use at a basic level, immediately gratifying and offering many different designs and visual enhancements.

### **Video**

Making films is an exciting and challenging activity for the classroom. Traditional stories can be performed, scenes from plays or books can be acted out and recorded for whole-class discussion, interviews can be filmed for media projects, persuasive writing activities can be brought to life with film-based 'evidence'.

Online listening activities are divided into those that are specifically scripted for English learners, while others consist of authentic materials which have been specially selected.

A very useful thing about the BBC audio/video is that it contains recordings of individual stories which are one to two minutes long. Learners can choose which topic they would like to listen to. The BBC site is predominantly British English.

CNN- Similarly to the BBC site, learners can listen to clips of individual news items or to whole programmes. The CNN site is predominantly American English.

Podcasts are audio recordings which are user can subscribe to and download to his/her computer or portable listening device such as an MP3 player. A podcast can be on any topic and include music and video. Video podcasts are also known as VODCASTS or PodClips. You can find detailed information related to podcasts from Podcasting Tools.

All in all, if we use Information and Communication Technologies to improve our students` listening skills, it will allow us to teach English language quickly and perfectly...

In addition ICT can save teacher`s time and inspire pupils to learn, so let`s get tapping those keypads, pointing those cameras and have some fun.

### **References**

1. Bakieva G.H. Stay in touch. 2012
2. Debi Riaz Kita Handayani. Skills and equipments for getting started. 2012.
3. Steve Walsh. Exploring Classroom Discourse: Language in action.

## **ASHTARXONIYLAR DAVRI DAVLATCHILIGI VA DAVLAT BOSHQARUVINING MANBALARDA YORITILISHI**

To'xtasinov Nurillo Ahmadullo o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti 1-kurs magistranti

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada ashtarxoniylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi, ular olib borgan siyosati va ushbu davrda yaratilgan manbalarning tarixchi olimlar tomonidan o'rganilishi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ashtarxoniylar, Jonibek Sulton, Dinmuhammad, Boqi Muhammad, Vali Muhammad, « Ubaydullanoma », «Tarixi Abulfayzxon »

Ashtarxoniylar davri Buxoro tarixi davlat boshqaruvida o'ziga xos o'rin egallagan bo'lib, ushbu sulola vakillari Shayboniylar sulolasidan so'ng Buxoro yerlariga taklif etilgan bo'lsalarda, legitim avlod sifatida taxtni adolat va ma'suliyat bilan boshqarganlar.

Aslida Ashtarxoniylar Jo'jixonning o'n uchinchi o'g'li To'qay Temur avlodidan bo'lib, XV asrning 80-yillaridan boshlab Astraxan (Xojitarxon)da hukmronlik qilganlar. Bu shahar Ivan Grozniy qo'shinlari tomonidan 1556 yilda egallangach, sulola yetakchisi Yormuhammad o'z yaqinlari bilan Buxoroga kelib o'rnashgan. Yormuhammadxonning o'g'li Jonibek Sulton tez orada xonning qizi Zuhro begimga uylanadi va shu tariqa Ashtarxoniylar Shayboniylar bilan yaqin qarindosh bo'lib qoldilar. Jonibek Sulton va uning o'g'illari Dinmuhammad, Boqi Muhammad, Vali Muhammad Abdullaxon ikkinchi hukmronligi davrida yuksak mavqega ega bo'lganlar[1]. Shayboniylar o'rtasidagi toju-taxt uchun kurash bu sulola vakillarining qirilib ketishiga sabab bo'ldi. Natijada yirik o'zbek qabilalari boshliqlari tomonidan Buxoro taxti Ashtarxoniy Jonibek Sultonga taklif etildi. U Xurosonda hokimlik qilayotgan o'g'li Dinmuhammad foydasiga taxtdan voz kechadi. Lekin Dinmuhammad Buxoroga kelishida qizilboshlar bilan to'qnashuvda halok bo'lgach, uning ukasi Samarqand hokimi Boqi Muhammad taxtga o'tqazildi (1601-1606). Lekin hokimiyat rasman Jonibek Sulton qo'lida bo'lib, uning nomidan tangalar zarb etilgan, uning nomi xutbaga qo'shib o'qilgan.

Boqi Muhammad xonlikdagi ichki siyosiy nizolarga chek qo'yishga harakat qildi, xonlikning shimoliy chegaralarini ko'chmanchi qabilalardan himoya qilish choralarini ko'rdi. Balx viloyatidan eronliklarni xaydab chiqarib u yerga ukasi Vali Muhammadni hokim etib tayinladi. Lekin XVII-asr boshlarida Buxoro xonligi hududi Abdullaxon ikkinchi davridagiga qaraganda juda qisqarib ketgan edi. Ashtarxoniylar Xorazmni va Xurosonning katta qismini butunlay qo'ldan boy berdilar. Toshkent uchun qozoq sultonlari bilan ko'plab urushlar olib borishga to'g'ri keldi.

Boqi Muhammaddan so'ng taxtga Vali Muhammad o'tirdi. Uning qisqa hukmronligi davrida (1606-1611) ichki kurashlar yanada kuchaydi, yirik o'zbek qabilalari beklari iqtisodiy-siyosiy jihatdan katta kuchga ega bo'lib, xon hokimiyatiga

bo‘ysunmas edi. Yangi xonning markaziy hokimiyatni kuchaytirishga bo‘lgan intilishi unga qarshi fitna bilan yakunlandi va taxtni Boqi Muhammadning o‘g‘li Imomqulixon egalladi.

Ashtarxoniylar davri davlat boshqaruv tizimi, mohiyatiga ko‘ra Shayboniylar davri davlat boshqaruv tizimiga deyarli o‘xshash edi. Oliy hokimiyat tepasida xon turgan, davlatning ichki va tashqi siyosatga bog‘liq barcha masalalar uning ixtiyori bilan hal qilinar edi. Lekin amalda ko‘pgina ashtarxoniy hukmdorlar yirik saroy amaldorlari qo‘lida o‘yinchoq bo‘lib qolgan bo‘lsada, joylarda mahalliy hokimiyat tamomila viloyat hokimlari ixtiyorida edi. Bu markaziy boshqaruvning zaifligi oqibati bo‘lib, u ko‘p hollarda mamlakatni inqirozga olib kelardi.[2]

Ashtarxoniylar davrida Buxorodan keyingi eng nufuzli shahar Balx bo‘lib, uni taxt vorisi boshqarardi. Davlat boshqaruvi ikki bosqichli bo‘lib, markaziy va mahalliy boshqaruv tizimiga ega edi. Bu davrda saroyda otaliq mansabi eng yuksak mansab darajasiga ko‘tarildi. Lekin, barcha saroy mansablarining nomlanishi va vakolati Shayboniylar davridagidan uncha farq qilmas edi. Otaliqdan tashqari devonbegi, parvonachi, mushrif, xazinachi va boshqa saroy amaldorlari davlat boshqaruvida katta ahamiyatga ega edilar.[3]

Ashtarxoniylar davrida tarixnavislik va adabiyot sohalarida bir qator qimmatli asarlar yaratildi. Ular ichida Mahmud ibn Valining «Baxr al-asror» asari, Muhammad Yusuf Munshiyning «Tarixi Muqimxoniy» asari, xoja Samandar Termiziyning «Dastur al muluk» asari, Mir Muhammad Amin Buxoriyning «Ubaydullanoma», Muhammad Vafo Karmanagiyning «Tuhfat ul-xoniy», Abdurahmon Davlatning «Tarixi Abulfayzxon» kabi tarixiy asarlari yaratildi.

“Ubaydullanoma” XVII asrda yozilgan tarixiy asar bo‘lib, muallifi Mir [Muhammad Amin Buxoriy](#). Mir Muhammad Amin Buxoriy Ashtarxoniylar sulolasi hukmdorlari [Subxonqulixon](#) va [Ubaydullaxon](#) (1702—1711) saroyida bosh munshiylik lavozimida xizmat qilgan. “Ubaydullanoma” Buxoro xonligining 1702—1716-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti haqida hikoya qiluvchi asardir. Asar 1716-yildan keyin yozilgan. Asarda [Abdulazizxon](#) va Subxonqulixon davrida [Buxoro xonligining](#) ijtimoiy-siyosiy ahvoli qisqa tarzda bayon qilingan. 1—80-boblarda Buxoro xonligining qariyb 15 yillik (1702—1711) ijtimoiy-siyosiy tarixi batafsil yoritilgan. Muallif mazkur asarida katta yer egaligi, aholidan yig‘iladigan soliq va jarimalar, Buxoro xonligining ma‘muriy tuzulishi, tarqoqlikning kuchayishi, mamlakat boshiga tushgan iqtisodiy qiyinchiliklar va uning ayrim sabablari kabi masalalarga keng o‘rin bergan. Asarda [Buxoroda](#) istiqomat qilgan olimlar, shoirlar, masalan, Sayido Nasafiy, Qosimxoja, mashhur qozilar haqida qisqacha, lekin e‘tiborga molik ma‘lumotlar keltirilgan. “Ubaydullanoma” asari A.A.Semenov tomonidan rus tiliga tarjima qilingan va 1957-yili Toshkentda nashrdan chiqarilgan.[4]

Abdurahmon tole (asl ismi Abdurahmon Davlat bo‘lib, Tole uning taxallusidir) (XVIII asr birinchi yarmi) – buxorolik munajjim, shoir va tarixchi. U Buxoro xoni Abulfayzxon (1711–47) zamonida yashagan va hukumat doiralariga, xususan nufuzli amir Abdulloh qushbegiga yaqin kishi bo‘lgan. Abdurahmon Tole "Tarixi

Abulfayzxon" asarining muallifidir. Bu asar XVIII asrning birinchi yarmidagi Turkistonning siyosiy ahvoliga oid qimmatli manba bo'lib, aniq ma'lumotlarga boy.[5]

Ashtarxoniylar davlatining siyosiy-iqtisodiy hayoti M.A.Abduraimovning asarlarida o'z aksini topgan[6]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bo'riboy Ahmedov. "Tarixdan saboqlar", T. "O'qituvchi", 1994.
2. A.Sagdullayev, O'.Mavlonov. "O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi", T., "Akademiya", 2006. 112 b
3. N.Abdurahimova, M.Isakova, Z.Suleymanova. "Davlat muassasalari tarixi" T., "Sharq", 2007.35 b
4. A.Madramov, G.Fuzailova. "Manbashunoslik", T.,2008. 235 b
5. A.Madramov, G.Fuzailova "Manbashunoslik", T.,2008. 236 b
6. Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI – первой половине XIX века.Т.1.-Ташкент: Фан,1970.-285с.
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## **The role and importance of the family in the formation of ecological culture in preschool children**

Quvvatova Mohira Khikmatillayevna  
Shaymatova Mahbuba Azamat qizi  
Termez State University

**Annotation:** In this article, we can learn how to organize the role of the family in the ecological education of preschool children.

**Keywords:** environmental problem, family, avesto, ecosystems, tree, national education, nature, nature, land, water, mountain, environment.

Mankind has been living in harmony with nature as a product of nature. However, over the centuries, the growing influence of the concepts of environmental and legal education surrounding humanity, as well as the irrational use of natural resources, has caused a lot of damage to the environment. As a result, changes in nature and the environment are causing unprecedented disasters. In particular, natural and man-made disasters in the environment, including strong winds, hurricanes, climate change, earthquakes, floods, mountain power, claim the lives of many people, causing great damage to the economies of countries. delivers.

Epics, fairy tales, proverbs, parables, legends and proverbs, which are examples of folklore, emphasize its need. The age-old traditions, customs and values that have been passed down from generation to generation, reflect the philosophy of life and way of life of the nation in their entirety. No matter what the period, no matter what the circumstances, our ancestors cared that their ancestors would be perfect people in every way. Because only physically and mentally healthy, spiritually high, deep knowledge and mature profession, morally pure children are the true successors of the generation, the owners of the country, the wealth of the nation, the rulers and providers of the state. a system of knowledge that represents the relationship between nature and man that is to be given to children is understood. Ecological education is the education of human attitude to the environment. Environmental education - the main purpose of education is to form in the younger generation a conscious attitude to the environment and its problems.

In the family circle, tell the children, "Don't spit on the water, don't pollute it, because all animals can drink it." Do not break the branches of the fruit-bearing trees, for they will bear fruit, and you will eat them. " At present, the level of environmental education is low. Cattle are grazed in fields (gardens) In the past, our people kept a special herd for their animals, or fed them in turn. Trees, plants and animals were not harmed during the family vacation. In folk tales, children learn about the ecological mistakes of our ancestors and their exemplary work. In fairy tales told to preschool children, the characteristics of animals and plants, their place in nature are revealed. As a result of mistreatment of animals and plants, the names of very rare animals and

plants are included in the red Book. Preserves are open. Preschool children should be taught to observe nature regularly, to be interested, to fight for the protection of nature, to preserve its beauty. Our ancient holy book, the Avesto, pays special attention to the cleanliness and handling of land, water, ground, room, clothing, food. It contains useful advice on how to place cemeteries away from cities and villages, how to burn them, how to cover corpses, how to tarnish lands. It is emphasized to make a few resins of streams, ditches, ponds, wells, where a human or animal corpse fell. Ut is the best place to plant grasses and fruit trees, where the water is smooth. The worst place is for a woman and her children to wander. Individuals who polluted the land and violated the rules of conservation were sentenced to "40 lashes of war."

It is strictly forbidden to wash or bathe in the living room. In the Avesto, the call to care for pets is strong. The Uzbek people have always been a true martyr of beauty and nature, respected and revered. Enjoyed all kinds of beauty, aspired to create beauty. Children's perceptions of beauty are arranged on the basis of the surrounding life: clothes, toys, intimate cultural relations of family members, arrangement, flower garden: works of art, music, songs, paintings. The family is the first school of beauty, the relationship of family members, the furniture of the house, the harmony of those things, the orderly placement, the care - nurtures the child's attitude to beauty.

**List of used literature:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Speech by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at a video conference with representatives of the chambers of the Oliy Majlis, political parties and the Ecological Movement of Uzbekistan. People's Speech, July 13, 2017
2. The book of Zoroastrianism "Avesto"
3. Concept "Development of ecological education in the Republic of Uzbekistan" VM-434 2019.27.05
4. RS Sultanov "Fundamentals of Ecology and Environmental Protection" Tashkent 2007

## **ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЭКОТУРИСТИК САЛОҲИЯТИ, ИСТИҚБОЛДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИШЛАР**

Худойбердиев Давлатбек Муҳаммадкул ўғли  
Ишқурбонова Дилшода Холбой қизи  
ЎзМУ География ва табиий ресурслар факултети

**Аннотация:** Замонавий туризм ва туристик хизматларнинг тобора тараққий этиши туфайли сўнгги йилларда экотуризм, агротуризм, экстремал шароитлар туризми каби ноанъанавий йўналишларга алоҳида эътибор кучайди. Жаннатмонанд юртимиз сайёҳликнинг барча йўналишлари, хусусан, экотуризм иситикболи учун ҳам улкан салоҳиятга эга.

Мақоланинг мазмун моҳиятида экотуризмнинг салоҳияти, ривожлантиришга қаратилган дастур ва лойиҳалар ҳақида сўз юритилади.

Президентимиз раҳнамолигида туризмни изчил ривожлантиришга қаратилган кўплаб дастур ва лойиҳалар ишлаб чиқилиб, ҳаётга муваффақиятли татбиқ этилмоқда. Давлатимиз раҳбарининг 1999 йил 30 июндаги “Ўзбекистонда туризм соҳаси учун малакали кадрлар тайёрлаш тўғрисида”ги фармони, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 10 октябрдаги “Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини янада қўллаб-қувватлаш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори бу борада муҳим дастури амал бўлмоқда.

Бугунги кунда илмий ва оммабоп адабиётлар, шунингдек, оммавий ахборот воситаларида экотуризмнинг ўрни ва аҳамиятини очиб беришга қаратилган кўплаб қарашлар олға сурилмоқда. Шу ўринда, "Ўзбекистон Республикасида экотуризмни ривожлантиришнинг аҳамияти нималардан иборат?" деган савол туғилади. Бунинг бир неча асослари бор:

Биринчидан, халқаро мақомдаги ташкилот ва муассасаларнинг маълумотига кўра, кўпгина туризм турлари йилига ўртача 5 фоизга ортиб бораётган бўлса, экотуризм йилига ўртача 20-30 фоизга кўпайиб бормоқда. Кўпгина мутахассис ва тадқиқотчиларнинг илмий тажриба ва хулосалари шуни кўрсатмоқдаки, экотуризм, туризмнинг янги ва ёш йўналиши бўлишига қарамадан, оммалашуви бошқа туристик йўналишларга нисбатан 2-3 баробар жадал кечмоқда;

Иккинчидан, Ўзбекистонда туризмнинг тарихий туризм, диний туризм, маданий туризм каби турлари бўйича муайян ютуқ ва тажрибалар базаси шаклланди;

Учинчидан, айти пайтда Ўзбекистонда 800га яқин туризм фаолиятини кўрсатувчи туроператорлик фирмалари, 600га яқин меҳмонхоналар, 30дан ортиқ муҳофазага олинган ҳудуд (кўриқхона, миллий боғ, нодир табиат ёдгорликлари ва ҳ.к.)лар, 60 та ўрмон хўжаликлари, фаолият кўрсатмоқда. Шунингдек,

Ўзбекистонда 400 дан ортиқ табиатнинг ноёб ёдгорликлари мавжуд. Ўзбекистон экотуристтик ресурс ва имкониятларга жуда бой. Туроператорлик фирмалари томонидан "Тошкент-Чорвоқ", "Тошкент-Билдирсой-Чимён-Тошкент", "Тошкент-Зомин-Айдаркўл-Тошкент" каби маршрутларда ўтказилган экотурлар, чўл худудлардаги туядаги сайр, нафақат Ўзбекистон, балки бутун дунё туристларининг катта эътибор ва эътирофларига сазовор бўлмоқда. Таҳлилларга кўра, экотуризм хизматларини кўрсатаётган туроператорлик фирмалари асосан, Чимён-Чорвоқ рекреация зонаси доирасида фаолият кўрсатмоқда холос. Бироқ, Ўзбекистоннинг Ҳисор, Боботоғ, Кўхитангтоғ (Сурхондарё), Чақчар (Қашқадарё), Нурота (Навоий-Жиззах), Зарафшон (Самарқанд), Туркистон (Жиззах), Олой (Фарғона), Қурама, Чотқол (Наманган) тоғлари, Қизилқум чўлидаги қолдиқ тоғлар, Қизилқум чўли, Орол денгизининг қуриган туби ва кодиқ шўр кўллар, Устюрт платоси, Мингбулоқ ботиғи, Денгизкўл, Амударё ва Сирдарё соҳилидаги тўқайлар, Мурунгов карери ва табиатнинг ноёб ёдгорликлари бўйлаб мажмуали ва мавзули экотурлар ташкил этиш тўлақонли йўлга қўйилмаган.

Ўзбекистонда ўзига хос жозиба ва такрорланмас манзараларга бой бўлган спелеотуризм (ғор туризми) катта имкониятларга эга. Айни пайтда Ўзбекистонда 500дан ортиқ ғорлар бўлиб, маълумотларга кўра, етарли туристик инфратузилмага эга бўлмаганлиги сабабли уларнинг бирортасига ҳам экотурлар ташкил этилмапти.

Ўзбекистон чўллари ва текислик худларида бархан, дюна, тўқай, шўрхоқ, тақир, кудуқларни, шунингдек маҳаллий чўпонлар яшаш тарзини намоён қилувчи ўтовларни томоша қилишга қаратилган туя сайрини ташкил этиш катта имкониятларга эга. Катта Чимён, Зомин, Чотқол, Кўксув, Писком, Ҳисор, Зарафшон, Олой, Қурама, Нурота тоғларида пиёда, треккинг турларини ҳамда алпинизмни ташкил этишга табиий географик шарт-шароит мавжуд. Шунингдек, тоғлардан оқиб тушувчи кўплаб серостона ва шарқироқ дарё ва сойлар (Угам, Чотқол, Писком, Кўксув, Тўполондарё, Шохимардон, Сангзор, Зарафшон ва ҳ.к.) ларда рафтинг туризмни ривожлантириш имкониятлари катта.

**Хулоса:** Илмий тадқиқот муассасалари ва мутахассисларнинг маълумотларига кўра, бугунги кунда экотуризмнинг ривожланиш йўналишлари ва истиқболлари табиат қонуниятлари ва геотизимлар барқарорлиги билан боғлиқ ҳолда шаклланимоқда. Ўзбекистонда рекреацион зоналар ташкил этиш таомиллари соддалаштирилади, экотуризм янада ривожлантирилади. Парламент қуйи палатасининг навбатдаги ялпи мажлисида депутатлар томонидан кўриб чиқилган "Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида"ги қонун лойиҳаси шунга ишора қилмоқда.

### Фойдаланилган Адабиётлар

1. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. Тошкент 2009.

2. Ўзбекистонда экотуризмни ривожлантириш концепсияси Экология хабарномаси. Тошкент 2007.
3. "Халқ сўзи" рўзномаси, Тошкент 2011.

## **ЗНАКОМСТВО С УСТРОЙСТВОМ ВЫСОКОВОЛЬТНОЙ КАМЕРЫ(САТСА) ЭЛЕКТРОПОЕЗДА “AFROSIYOV” (TALGO-250)**

**Жамилов Шухрат Фармон угли,**  
Ташкентский государственный  
транспортный университет, ассистент  
[shuhratjamilov@mail.ru](mailto:shuhratjamilov@mail.ru)

**Шоимкулов Асрор Абдунабиевич,**  
Ташкентский государственный  
транспортный университет, ассистент  
[Asrorbek.shoimkulov@mail.ru](mailto:Asrorbek.shoimkulov@mail.ru)

**Аннотация:** В данной статье рассматривается устройство, электрическая схема и детали высоковольтной камеры электропоезда “Afrosiyob” (Talگو-250).

**Ключевые слова:** напряжения, трансформатор, выключатель, преобразователь, камера высокого напряжения.

### **Введение**

Камера высокого напряжения предназначена для отслеживания, безопасности и блокировки, связанными с линией 25кВ. С одной стороны она принимает линию высокого напряжения непосредственно с крыши. С другой стороны, из самой камеры выходит питание 25kV для основных трансформаторов двух голов поезда.

### **Методы**

Основной функцией данного шкафа является подача на трансформатор напряжения питания 25кВ при необходимых условиях. Для этого устанавливается выключатель внутри камеры, который способен отключать линию, если это требуется TCMS или при превышении силы тока.

Для правильной диагностики со стороны TCMS состояния линии используются измерительные преобразователи, как напряжения, так и силы тока, данные которых считываются VCU. В момент обнаружения аномальной ситуации вырабатывает порядок открытия выключателя, открывая линию 25кВ, и оставляя без питания трансформатор.

Другая функция данного шкафа в том, что он предназначен для защиты первичной обмотки от перенапряжения, которое может возникнуть при подсоединении или отсоединении линии. С этой целью устанавливаются громоотводы внутри шкафа.

С другой стороны, существует секционный выключатель в камере высокого напряжения, посредством которого можно соединять цепи высокого напряжения обеих голов. Для этого необходимо, чтобы секционные выключатели камер обеих голов были в позиции проводимости, а не в позиции заземления.

### **Результаты**

Шкаф высокого напряжения (САТСА) включает в себя следующие компоненты:

- Основной выключатель: рассматривается в качестве прерывателя холостого хода, однополюсный, с заземлением 25кВ, предназначен для соединения и разъединения систем тяги обеих голов основной линии питания.
- Громоотводы: данные компоненты предназначены для защиты от перенапряжения, которые могут возникать при соединении/отсоединении.
- Секционный выключатель линии: Этот компонент обладает функцией объединения (или заземления) линии 25кВ, которая проходит в другую приводную голову состава посредством цепи высокого напряжения соответствующей головы.
- Измерительный преобразователь напряжения: Посредством данного компонента измеряется напряжение в клеммах основного трансформатора.
- Измерительный преобразователь силы тока: Посредством данного компонента измеряется сила тока, циркулирующего по первичной обмотке трансформатора.
- Измеритель энергии, потребляемой установкой, с соответствующими трансформаторами силы тока и напряжения.
- Кабель высокого напряжения, который объединяет камеру высокого напряжения с основным трансформатором.

### Обсуждение




Рис.1 – Электрическая диаграмма САТСА

Desyuntor – выключатель, Secciondor linea – секционный выключатель линии, Transductor de tension alterna primario – измерительный преобразователь переменного напряжения первичной обмотки, Pararrayos – громоотводы, Transductor de corriente de retorno – измерительный преобразователь возвратного тока




Рис.2 - Оборудование в камере высокого напряжения

1	Секционный выключатель линии
2	Выключатель
3	Секционный выключатель заземления
4	Громоотводы
5	Измеритель энергии
6	Измерительный преобразователь напряжения
7	Детектор дыма
8	Детектор огня
9	Изолятор

Высоковольтная камера состоит из вышеуказанных частей, и каждое устройство выполняет свою функцию. Например: Выключатель, рассматривается в качестве прерывателя холостого хода, однополюсный, с заземлением 25кВ, предназначен для соединения и разъединения систем тяги обеих голов основной линии питания.

Устройство и функции остальной части высоковольтной камеры будут рассмотрены в следующих статьях.

**Список литературы:**

1. Устройство и ремонт электровозов и электропоездов учебник для нач. проф. образования / А. В. Грищенко, В.В.Стрекопытов, И. А. Ролле ; под ред. А. В. Грищенко. — М. : Издательский центр «Академия», 2008.
2. Электрические машины и преобразователи подвижного состава: Учебник для студ. учреждений сред. проф. образования / А. В. Грищенко, В. В. Стрекопытов. — М.: Издательский центр «Академия», 2005.
3. Электрические железные дороги [Текст] : учебник / под ред. проф. В.П. Феоктистова, проф. Ю.Е. Просвинова ; Моск. ун-т путей сообщения; Самарская гос. акад. путей сообщения. - Самара : СамГАПС, 2006.

## МАЪМУРИЙ СУДГА ТААЛЛУҚЛИЛИК

Нишонова Умида Мирзаумаровна  
Наманган туманлараро маъмурий судининг судьяси

**Аннотасия:** Мазкур мақолада янги ташкил этилган маъмурий судларга тааллуқлилиқнинг узига хослиги тахлил қилинган ҳамда судга тааллуқлилиқ юзасидан таклифлар ишлаб чиқилган.

**Калит сузлар:** маъмурий суд, тааллуқлилиқ, судга тааллуқлилиқ, судгача низони хал этиш, судловлилиқ.

Мамалакатимизда суд ҳокимиятининг мустақиллигини таъминлаш, маъмурий органлар билан муносабатларда қонун устуворлигини, фуқаролар, шунингдек корхоналар, муассасалар, ташкилотларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини таъминловчи ҳокимиятнинг мустақил тармоғига айлантиришга, уни ихтисослаштириш, жумладан мамлакатимиз тарихида янги ташкил топган маъмурий судлар фаолиятини такомиллаштиришга оид кенг қамровли ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, Президентнинг “Судлар фаолиятини янада такомиллаштириш ва одил судлов самарадорлигини оширишга доир кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 24.07.2020 йил фармони билан 2021 йил 1 январдан Қорақолпоғистон Республикаси, вилоятлар марказлари ва Тошкент шаҳрида туманлараро маъмурий судларни ташкил этилиб, шу муносабат билан туман (шаҳар) маъмурий судларини тугатилди. Янги ташкил этилган туманлараро маъмурий судлар маъмурий ва бошқа оммавий ҳуқуқий муносабатлардан келиб чиқадиган ишларни кўришга ихтисослаштирилганлиги билан ахамиятли. Ҳозирга келиб маъмурий судлар маъмурий ва бошқа оммавий ҳуқуқий муносабатлардан келиб чиқадиган ишларни кўриб чиқмоқдалар.

Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодекснинг 26-моддаси талабига кўра маъмурий судга фуқаролар ва юридик шахсларнинг бузилган ёки низолашилаётган ҳуқуқлари, эркинликлари, қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш тўғрисидаги, маъмурий ва бошқа оммавий – ҳуқуқий муносабатлардан келиб чиқадиган ишлар тааллуқли эканлиги, бундан Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судига, фуқаролик ишлари бўйича судларга, иқтисодий судларга ва ҳарбий судларга тааллуқли ишлар мустасно эканлиги белгиланган. Қонун билан маъмурий судга тааллуқли ишлар жумласига бошқа ишлар ҳам кириши мумкин.

Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодексга мувофиқ, ҳар қандай манфаатдор шахс ўзининг бузилган ёки низолашилаётган ҳуқуқларини ёхуд қонун билан кўриқланадиган манфаатларини ҳимоя қилиш учун маъмурий судга мурожаат қилишга ҳақли. Манфаатдор шахс деганда, ўзининг бузилган ёки низолашилаётган ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари тўғрисида мурожаат қилаётган шахс тушунилади. Ўзининг бузилган ёки низолашилаётган ҳуқуқи бу -

фуқаронинг ҳуқуқлари ва эркинликлари бузилишига сабабчи бўлган, фуқаронинг ўз ҳуқуқлари ва эркинликларини рўёбга чиқаришга монеълик туғдирган, фуқаро зиммасига қонунга хилоф равишда қандайдир мажбурият юклатилишига сабабчи бўлган коллегиял ёки якка тартибдаги хатти-ҳаракатлар, ҳаракатсизлик ёки қарорлар тушинилади. Судга мурожаат қилиш ҳуқуқидан воз кечиш қонунга кўра ҳақиқий эмас.

Маъмурий судга тааллуқлиликни ҳал этишда жавобгар томонни тўғри аниқлаш ҳам муҳим. Давлат органи деганда, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2003 йил 9 декабрдаги ПФ-3358-сонли Фармони билан тасдиқланган Республика давлат бошқаруви органлари рўйхатида кўрсатилган вазирликлар, давлат кўмиталари, агентликлар, кўмиталар, марказлар, инспекциялар ва уларнинг ҳудудий органлари, “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси қонуни 22-моддасининг биринчи қисмига мувофиқ, маҳаллий ижроя ҳокимияти органлари (вилоят, туман ва шаҳар ҳокимликлари) ва ҳуқуқий оқибат келтириб чиқарувчи ҳужжатлар қабул қилиш ваколатига эга бўлган бошқа органлар тушинилади. Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари деганда, “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни 8-моддасининг биринчи қисмига мувофиқ, шаҳарчалар, қишлоқлар, ва овуллар, шунингдек, шаҳарлардаги, шаҳарчалардаги қишлоқлардаги ҳамда овуллардаги маҳалла фуқаролар йиғинлари тушинилади. Мансабдор шахс деганда, доимий, вақтинча ёки махсус ваколат бўйича тайинладиган ёки сайладиган, давлат органларида, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларида ҳокимият вакили вазифаларини бажарадиган ёхуд ташкилий – бошқарув, маъмурий-хўжалик вазифаларини амалга оширадиган ва юридик аҳамиятга эга ҳаракатларни содир этишга ваколат берилган шахс тушинилади.

Низо предметини маъмурий судга тааллуқлиликни белгилашдаги асос сифатида кўриб чиқадиган бўлсак, Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодексга мувофиқ, маъмурий суд томонидан кўриб ҳал этиладиган ишлар белгиланган бўлиб, унга кўра суд, идоравий норматив – ҳуқуқий ҳужжатлар юзасидан низолашиш тўғрисидаги, давлат бошқарув органларининг, маъмурий ҳуқуқий фаолиятни амалга оширишга ваколатли бўлган бошқа органларнинг, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг ва улар мансабдор шахсларнинг қонун ҳужжатларига мос келмайдиган ҳамда фуқаролар ёки юридик шахсларнинг ҳуқуқларини ва қонун билан кўриқладиган манфаатларини бузадиган қарорлари, ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) юзасидан низолашиш тўғрисидаги, сайлов комиссияларининг хатти-ҳаракатлари (қарорлари) юзасидан низолашиш тўғрисидаги, нотариал ҳаракатни амалга ошириш, фуқаролик ҳолати далолатномаларини ёзишни рўйхатга олиш рад этилганлиги ёки нотариуснинг ёхуд фуқаролик ҳолати далолатномаларини ёзиш органи мансабдор шахсининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) юзасидан низолашиш тўғрисидаги, давлат рўйхатидан ўтказишни рад этиш ёхуд

белгиланган муддатда давлат рўйхатидан ўтказишдан бўйин товлаш устидан шикоят қилиш тўғрисидаги ишлар, суд фуқаролар ва юридик шахсларнинг бузилган ёки низолашилаётган ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш тўғрисидаги маъмурий ва бошқа оммавий ҳуқуқий муносабатлардан юзага келадиган, қонун билан ўзининг ваколатига киритилган бошқа ишларни ҳам ҳал қилади. Суд ушбу қоидаларга амал қилган ҳолда ўзининг ваколатига тегишли ишлар туркимини аниқлаб олиш ва бу билан бошқа судларга, органларга тегишли бўлган ишларни иш юритувга қабул қилмасликни олдини олишга асос бўлади.

Шунингдек, маъмурий судга тааллуқлиликини аниқлашда судгача низони ҳал этишнинг боғлиқлиги шундаки, умумий қоидага кўра фуқаро ва юридик шахс ўз ҳуқуқлари ва эркинликларини бузадиган хатти – ҳаракатлар (қарорлар) устидан шикоят билан тобелик тартибида юқори турувчи органга ёхуд мансабдор шахсга мурожаат қилиши – қилмаслигидан қаътий назар, бевосита судга мурожаат қилиш ҳуқуқига эга. Бироқ, қонунларда судга мурожаат қилишдан олдин низони бошқача тартибда ҳал қилиш назарда тутилган бўлиши мумкин. Бунда муҳокамага қўйилаётган қарор ёки хатти ҳаракат маъмурий судга тааллуқли бўлсада, аввал ушбу қарор чиқарган ёки хатти ҳаракатни бажарган мансабдор шахси устидан юқори турувчи бўғинга шикоят қилинмай туриб маъмурий судга мурожаат этиб бўлмайди. Хусусан Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодексига, “Ихтиролар, фойдали моделлар ва саноат намуналари тўғрисида”, “Селекция ютуқлари тўғрисида”, “Интеграл микросхемалар топологияларини ҳуқуқий муҳофаза қилиш тўғрисида” ҳамда “Товар белгилар, хизмат кўрсатиш белгилари ва товар келиб чиққан жой номлари тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси қонунларида белгиланган. Ушбу қонунларга мувофиқ, солиқ органининг сайёр солиқ текширувлари ва солиқ аудити натижалари бўйича қабул қилинган қарорлари устидан суд тартибида шикоят қилиш фақат юқори турувчи солиқ органига шикоят қилингандан кейингина мумкин бўлиши (бу қоида Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитасининг қарори устидан шикоят қилишга нисбатан қўлланилмайди), Ўзбекистон Республикаси Интеллектуал мулк агентлигининг қарорлари устидан Ўзбекистон Республикаси Интеллектуал мулк агентлигининг Апелляция кенгашига мурожаат қилиш ва унинг қароридан норози бўлган тақдирда судга мурожаат қилиш муминлиги белгиланган.

Фуқаролар ва юридик шахс ўз ҳуқуқлари ва эркинликларини бузадиган хатти – ҳаракатлар (қарорлар) устидан шикоят билан аввало ушбу қарорни қабул қилган (хатти - ҳаракатларни содир этган) давлат органининг юқори турувчи тизимига мурожаат қилиши мақсадга мувофиқ бўлиб, мазкур ҳолат амалиётда низони тез ва тегишли суд ҳаражатларисиз ҳал қилинишига сабаб бўлади.

### **Фойдаланилган адабиётлар руйхати:**

1. Уз Р Маъмурий суд ишларини юритиш тугрисидаги кодекс,

2. Солик кодекс,
3. Маҳаллий давлат ҳокимлиги тугрисидаги қонун
4. Фуқароларни узини узи бошқариш органлари тугрисидаги қонун
5. Селексия ютуқлари тугрисидаги қонун,
6. Ихтиролар, фойдали моделлар ва саноат намуналари тугрисидаги қонун

## ОСОБЕННОСТИ СИНДРОМА PANDAS У ДЕТЕЙ

Мухтаржанова Хуснигул Нодирбековна  
Камалдинова Дилдора Бахтияровна

**Актуальность:** Большинство педиатры и неврологи на сегодняшний день обращают особое внимание на трансформацию нейроревматизма у детей. С одной стороны, наблюдается как бы стабилизация роста данного заболевания и сравнительно редкое появление его классических форм, с другой – отмечается учащение стёртых, легких форм, а с третьей – появление, хотя и редко, тяжелых форм, включая Choirea Mollis. Вцепочке патогенеза многих заболеваний у детей (в том числе и ревматизма) огромная роль принадлежит хронически протекающему и обостряющемуся тонзиллиту. В последние годы выдвинуто предположение о связи различных хореиформных гиперкинезов, тиков, миоклоний и неврозоподобных навязчивых состояний у детей с – гемолитическим стрептококком группы А(БГСА).

**Ключевые слова:** синдром PANDAS, стрептококк, тик, гиперкинез, дети.

**Цель:** Изучение особенности течения синдрома PANDAS у детей.

**Материалы и методы исследования:** Мы наблюдали 17 детей в возрасте от 7 до 15 лет с жалобами на гиперактивность, тикоподобные и хореиформные гиперкинезы, включая генерализованный тик (синдром Жиль де ля Туретта), эмоциональную лабильность, рассеянность, нарушение внимания, трудность засыпания, навязчивые тревожные мысли(обсессии), боязнь остаться одному, стремление совершать повторяющиеся ритуальные действия (компульсии), моргание, стереотипный наклон головы к плечу, шмыгание носом, обгрызание ногтей, похлопывание ладонями, пожимание плечами. У всех пациентов в возрасте 5-7 лет наблюдались у детского невролога или психиатра по поводу невроза навязчивых движений, генерализованного тика, «функциональных» гиперкинезов и находились на учёте у ЛОР-врача по поводу хронического тонзиллита. По разным причинам тонзиллэктомия не проводилась, но больным назначалась консервативная терапия, включая курсы антибиотиков. Всем детям проводили клиничко-неврологический осмотр, лабораторные и инструментальные методы исследования.

**Результаты исследования:** Острое начало и волнообразное течение с последующей полной или частичной ремиссией имело у всех 17 больных хронологическую связь с обострением хронического тонзиллита, повышением температуры. В мазках из зева у детей был выделен БГСА, умеренно положительными были острофазовые показатели (С-реактивный белок, криоглобулины и повышение титров антистрептолизина-О). Симптомы дисгении соединительной ткани (гипермобильный синдром, диспластическая кардиопатия) присутствовали у 9 детей. У 5 из 11 обследованных при МРТ-

ангиографии выявлена патологическая извитость сонных и позвоночных артерий. У 9 пациентов из 17 при записи на КЭГ зарегистрированы острые билатеральные спайк-волны. На ЭКГ у 11 больных зафиксировано снижение зубца QT, 9 детям из 17 выставлен выставлен диагноз метаболической или диспластической кардиопатии. По данным ЭхоКГ у 4 детей выявлен НМК 1 степени. Подтверждающих критериев в пользу ревматизма не выявлено.

Назначение адекватной терапии приводило к быстрому регрессу психоневрологической симптоматики. Применение препаратов типа ридазина, галоперидола, амитриптилина были назначены психиатром, малоэффективны при подобных состояниях.

**Вывод:** Сегодня имеются все основания неврологам совместно с кардиологами пересмотреть рутинные представления о лечении неврозоподобных хореиформных гиперкинезов у детей. Из этого контингента детей необходимо выделить пациентов с синдромом PANDAS и в терапии использовать новую тактику акцентируя внимание на антибактериальных, противосудорожных, противоревматических средствах, включая их как в период обострения так и при рецидивах.

#### **Список литературы:**

1. Евтушенко С.К., Перепечаенко Ю.М., Евтушенко Л.Ф., Морозова Т.М. PANDAS-синдром в кардиоревматологии // *Вестник физиотерапии и курортологии*. - 2005. - №4. - С. 31-33.
2. Тихомирова И.А., Чутко Л.С., Кропотов Ю.Д. PANDAS синдром как один из видов декомпенсации хронического тонзиллита у детей // *Российская оториноларингология*. - 2005. -Т. 19 - № 6. -С. 40–43.
3. Чутко Л.С., Сурушкина С.Ю. Синдром дефицита внимания с гиперактивностью: клиническая гетерогенность и возможности терапии // *Журн. неврол. и психиатр, им. С.С. Корсакова*. - 2008. - №8. - С. 75-80.
4. Swedo S.E., Leonard H.L. Pediatric autoimmune neuropsychiatric disorders associated with streptococcal infection (PANDAS) // *Int J Neuropsychopharmacol*. – 2001. – vol.4.(2). – P. 191-198.
5. Swedo S.E., Leonard H.L., Garvey M. et al. Pediatric autoimmune neuropsychiatric disorders associated with streptococcal infections: clinical description of the first 50 cases. *Am J Psychiatry* 1998;155(2):264–71.
6. Valldeoriola, F. Movement disorders of autoimmune origin // *J. Neurol.* — 1999.
7. Waldman, ID. Developmental normative data on the Test of Variables of Attention (TOVA) / I.D. Waldman, L.M Greenberg // *J. Child. Psychol Psychiat.* — 1993.
8. Wong C.J., Stevens D.L. Serious group a streptococcal infections. *Med Clin North Am* 2013;97(4):721–36.
9. Zuddas, A. Attention-deficit/hyperactivity disorder: a neuropsychiatric disorder with childhood onset / A. Zuddas, B. Ancilletta, P. Muglia, C Cianchetti // *Eur. J. Paediat. Neurol.* — 2000. — Vol. 4, № 2. — P. 53—62.

## РАСЧЕТ НАДЕЖНОСТИ ЗАДНЕГО МОСТА АВТОБУСА MAN

Абдувахидов Абдумуталлиб Абдубашир ўғли

Научный руководитель: к.т.н., доцент Таджибаев Абдунаби Абдурахмонович  
Ташкентский государственный транспортный университет


**Аннотация:** В Республике Узбекистан при эксплуатации автобусов MAN A22 CNG необходимо проводить его технические эксплуатации. Согласно информации о критической надежности по агрегату по наибольшему числу отказов возникает необходимость расчет дополнительных работ для увеличения безотказной работы.

**Ключевые слова:** надежность, задний мост, отказ, неисправность, модель, вероятность безотказной работы, последовательное соединение, элемент, детали критические надежности.

В Республике Узбекистан эксплуатируются современные автобусы MAN A22 CNG. В процессе эксплуатации для поддержания работоспособности этих автобусов проводятся техническое обслуживание по графику принудительно и а текущие ремонты по потребности. Обеспечение работоспособности зависят от эксплуатационной надежности агрегатов, в том числе заднего моста автобуса с учетом реальных условий эксплуатации.

Рациональные решения по обеспечению заданного уровня надёжности заднего моста в целом должны сочетать достаточную физическую надёжность элементов. Особую роль при этом играет физическая надёжность, характеризующаяся способностью элемента заднего моста, т.е. вероятности безотказной работы в условиях эксплуатации в течении заданного времени.

Надежность заднего моста автобуса, является простейшей расчетной моделью, состоящей из последовательно соединенных элементов (рис. 1.). При этом отказ каждого элемента заднего моста отказывает независимо друг от друга [1].



Т<sub>01</sub> Рис. 1. Схема последовательного соединения элементов  $R(L)$ , равна произведению вероятности безотказной работы  $R_n(L)$  отдельных элементов, т. е. [1]:

$$R_{3M}(L) = R_1(L) \cdot R_2(L) \dots R_n(L), \quad (1)$$

Вероятность безотказной работы  $R(L)$  элементов в интервале от 0 до  $L$  включительно определяется по формуле:

$$R(L) = \frac{N_0 - \sum_{i=1}^{N_0} m_i(L)}{N_0}, \quad (2)$$

где  $N_0$  – число объектов, находящихся под наблюдением (на начало эксперимента);

$m_i(L)$  – суммарное количество отказов по  $i$ -ому объекту за пробег  $L$ .

Применение этих формул (1) и (2) в процессе эксплуатации потребует информацию о деталях, критические по надежности по агрегату (заднего моста). Детали критические по надежности - это те детали, которые чаще других требуют замены, вызывают наибольший простой транспортных средств, трудовые и материальные затраты в эксплуатации.

Номенклатуру деталей, критических по надежности, определяют по наибольшему числу отказов, на которые приходится 80-90% всех отказов.

Например. Количество деталей, критические по надежности заднего моста – 6 шт. Ресурс этих деталей распределялось по закону распределения Вейбулла-Гнеденко и их характеристики, приведены в таблице 1.

Таблица 1

Характеристика распределения ресурса деталей критические по надежности заднего моста

№	Наименование детали	Средний ресурс, тыс км	Среднеквадратическое отклонение, тыс км	Коэффициент вариации,	Вспомогательные коэффициенты (для Вейбулла-Гнеденко)	
		$\bar{L}$	$\sigma$		$V$	$b$
1	1- деталь	174,15	72,33	0,4153	2,6	0,888
2	2- деталь	495	222,75	0,45	2,36	0,886
3	3- деталь	958,20	488,7	0,51	2,04	0,886
4	4- деталь	742,76	468	0,63	1,64	0,895
5	5- деталь	863,63	595,9	0,688	1,48	0,904
6	6- деталь	816	334,56	0,41	2,6	0,888

Значения вероятности безотказной работы заднего моста и его деталей критические по надежности в пробеге от 0 до 400 000 км приведены в таблице 2 и на рис. 2.

Таблица 2

Вероятность безотказной работы заднего моста и его деталей критические по надежности

Пробег, тыс. км	Вероятность безотказной работы	
	Детали	Задний мост

	$R_1(L)$	$R_2(L)$	$R_3(L)$	$R_4(L)$	$R_5(L)$	$R_6(L)$	$R_{ar}(L)$
0	1	1	1	1	1	1	1
20	0,9974	0,9996	0,9997	0,9978	0,9967	1,0000	0,9912
40	0,9841	0,9980	0,9988	0,9931	0,9909	0,9997	0,9651
60	0,9551	0,9948	0,9973	0,9866	0,9835	0,9992	0,9187
80	0,9074	0,9899	0,9951	0,9787	0,9749	0,9982	0,8512
100	0,8407	0,9829	0,9923	0,9694	0,9652	0,9969	0,7647
120	0,7567	0,9738	0,9888	0,9589	0,9547	0,9950	0,6637
140	0,6595	0,9626	0,9847	0,9474	0,9434	0,9925	0,5545
160	0,5548	0,9491	0,9799	0,9350	0,9314	0,9894	0,4446
180	0,4493	0,9333	0,9745	0,9217	0,9189	0,9857	0,3411
200	0,3491	0,9153	0,9685	0,9076	0,9059	0,9812	0,2497
220	0,2597	0,8951	0,9619	0,8928	0,8924	0,9760	0,1739
240	0,1844	0,8727	0,9547	0,8775	0,8786	0,9700	0,1149
260	0,1247	0,8484	0,9469	0,8615	0,8644	0,9632	0,0719
280	0,0801	0,8221	0,9385	0,8451	0,8499	0,9555	0,0424
300	0,0488	0,7941	0,9295	0,8282	0,8352	0,9470	0,0236
320	0,0281	0,7646	0,9200	0,8110	0,8202	0,9376	0,0123
340	0,0153	0,7337	0,9100	0,7934	0,8051	0,9274	0,0060
360	0,0078	0,7016	0,8994	0,7756	0,7899	0,9162	0,0028
380	0,0038	0,6685	0,8883	0,7575	0,7745	0,9042	0,0012
400	0,0017	0,6348	0,8768	0,7393	0,7591	0,8913	0,0005




Рис. 2. График изменения вероятности безотказной работы деталей критические по надежности заднего моста в зависимости от пробега (1...6 вероятности безотказной работы деталей, 7 заднего моста в целом).

По результатам табл. 2 и рис. 2, значения вероятности безотказной работы всех деталей, критические по надежности заднего моста, различаются по ресурсу. Вероятность работы безотказной работы заднего моста меньше, чем вероятности безотказной работы детали, которая оказывается самым слабым. График изменения вероятности безотказной работы заднего моста (рис. 2) резко снижается с увеличением пробега с начала эксплуатации.

На основании статических информации и показателей таблиц 1 и 2 можно разработать меры по обеспечению надежности заднего моста автобуса:

- определение дополнительных работ, которые необходимо выполнить во время технического обслуживания и ремонта, а также обеспечить их своевременным и качественным выполнением;

– составить карту надежности заднего моста и на ее основе разработать виды текущего ремонта.

### **Список использованной литературы**

1. Техническая эксплуатация автомобилей; Учебник для вузов. 4-е изд., перераб. и дополн. / Е.С. Кузнецов, А.П. Болдин, В.М. Власов и др. – М.: Наука. 2004. 535 с.

2. Основы теории надежности и диагностики: учебник для бакалавров высших учебных заведений/ А.А.Таджибаев, К.М.Сидикназаров, К.И.Ибрахимов, Н.В.Кузнецов; М-во Высш. и среднего спец. образования Республики Узбекистан.-Ташкент: Изд-во VNESHINVESTPROM, 2019.-256 стр.

## ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА ОҚОВА СУВЛАРНИ ТОЗАЛАШ ИНШООТЛАРИНИ РЕКОНСТРУКЦИЯ ҚИЛИШ УСУЛЛАРИ

Азимов Аъзам Саркор ўғли  
Охременко Ирина Марксовна  
Тошкент давлат транспорт университети

**Аннотация:** Мақолада оқова сувларни тозалаш иншоотларининг ҳолати атроф-муҳитнинг экологик хавфсизлиги ва барқарорлиги омили сифатида кўриб чиқилган. Муҳандислик коммуникациялари, хусусан канализация тизимларининг атроф-муҳитга салбий таъсирини олдини олиш ва бир қатор экологик муаммоларни бартараф этиш ўтган асрнинг ўрталарида ва мустақилликдан олдин барпо этилган оқова сувларни тозалаш иншоотларини реконструкция ва модернизация қилиш билан бевосита боғлиқ.

**Калит сўзлар:** оқова сув, тозалаш иншоотлари, реконструкция, механик тозалаш, ифлослантирувчи модда, аэроб стабилизаторлар, технологик схема.

Инсонларнинг турмуши, хўжалик фаолияти натижасида ҳосил бўладиган оқова сувлар атроф-муҳит ва она табиатни ифлослантирувчи энг хавфли омиллардан биридир. Оқова сувларни тозалаш, ҳосил бўладиган чўкиндиларни қайта ишлаш ва зарарсизлантириш эса ўзига хос мураккаб жараён саналади.

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасида жами 58 та оқова сувларни тозалаш иншоотлари мавжуд бўлиб, оқова сув тармоқларининг узунлиги 8,6 минг километри, жами оқова сув насос станцияларининг сони эса 257 тани ташкил этади. 2017-2020 йилларда илмий фаолиятга оид давлат дастурлари доирасида сув муаммолари ечимига қаратилган умумий қиймати 2,3 млрд.сўмлик жами 8 та лойиҳа молиялаштирилган, шундан 0,6 млрд. сўмлик 5 та фундаментал ва 1,7 млрд. сўмлик 3 та амалий лойиҳалар амалга оширилган [5].

2021 йилнинг 1 апрель ҳолатига республика аҳолисининг 17,0 фоизи яъни 5,9 млн. аҳоли марказлашган оқова сув хизмати билан таъминланган. Оқова сувларни тозалаш иншоотларининг 54 фоизи 1955-1980 йилларда, 26 фоизи 1981-2000 йилларда, 20 фоизи 2001-2020 йилларда ташкил этилган. Бугунги кунда уларнинг 84 фоизи таъмирталаб ҳолатда. Шунингдек, республикада фаолият юритаётган 1830 та саноат корхоналарининг 1664 таси (91 %)да локал тозалаш иншоотлари мавжуд эмас [4].

Янги оқова сувларни тозалаш иншоотларини қуриш катта маблағларни талаб қилади. Шу сабабли, мавжуд оқова сувларни тозалаш иншоотларини реконструкция қилиш орқали тозаланган сув сифатини талаб даражасига мувофиқлигига ва оқова сувларни тозалаш билан боғлиқ молиявий ҳаражатларни камайтиришга эришиш жуда муҳим. Бунда Ўзбекистондаги сув хавзаларининг экологик ҳолатини яхшилаш, тозалаш жараёнларини автоматлаштириш ҳамда

оқова сувларни тозалаш иншоотларининг ишлаш самарадорлигини ошириш уларни реконструкция ва модернизация қилишдан кўзланган асосий мақсад ҳисобланади.

Оқова сувларни тозалаш иншоотларини реконструкция қилиш лойиҳаларини тайёрлашда уларнинг ишлаш самарадорлигини ошириш билан бир қаторда эксплуатация харажатларини камайтириш имконини берувчи янги техник ва технологик ечимларни ишлаб чиқиш ва жорий этиш ҳамда амалдаги асбоб-ускуналарни такомиллаштиришга алоҳида эътибор қаратилади.

Тозалаш иншоотларига келиб тушадиган оқова сувларнинг таркиби ва миқдори ҳар хиллиги сабабли республикадаги оқова сувларни тозалаш иншоотлари бир-биридан конструктив хусусиятлари билан фарқ қилади. Шу сабабли, тозаланган оқова сувларни оқизиш ва уларни қайта ишлатиш учун экологик талабларнинг ўзгаришини ҳисобга олган ҳолда оқова сувларни тозалаш иншоотларини реконструкция қилиш усуллари ишлаб чиқишга эҳтиёж туғилади.

Ҳозирги кунда республика ҳудудидаги барча тозалаш иншоотлари оқова сувларни механик ва тўлиқ биологик тозалашни назарда тутувчи классик технологик схема бўйича фаолият юритади. Механик тозалаш иншоотлари таркибига панжаралар, қумтутгичлар ва бирламчи тиндиргичлар киради. Биологик тозалаш иншоотларида оқова сувлар аэротенклар ва иккиламчи тиндиргичлар ёрдамида тозаланаяди, баъзи ҳолларда эса биологик сув хавзалари орқали кўшимча тозаланаяди. Биологик усул билан оқова сувларни тозалашда, оқова сувлар таркибидаги майда эримаган, эриган ва коллоид кўринишидаги органик моддалар ҳаво ёрдамида биокимёвий жараёнда минерализация ҳолатига ўтказилади. Ҳосил бўладиган чўкиндиларни қайта ишлаш аэроб стабилизаторларида амалга оширилиб, лойқа майдонларига қуритиш учун юборилади.

Оқова сувларни тозалаш иншоотларини реконструкция қилиш лойиҳаларини ишлаб чиқишда аҳоли сонининг ортиб бориши ва экологик талабларни инобатга олган ҳолда мавжуд тозалаш иншоотларининг қувватини оширишга қаратилган техник ва технологик ечимларни ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади.

Шу муносабат билан, бош насос станцияларида ва механик тозалаш иншоотларида энерготежамкор ускуналар ва юпқа қатламли тиндириш технологияларидан; биологик тозалашда оқова сувларни тозалаш самарадорлигини 80 фоиздан 90-95 фоизгача ошириш имконини берувчи янги турдаги аэраторлардан, аэротенклар учун ҳаракатсиз микрофлорали сунъий юкламалардан фойдаланиш масалалари ўрганилмоқда. Шу билан бирга биогаз олиш ҳамда ўғит сифатида фойдаланиш учун чўкиндиларни биореактор-метантенкларда қайта ишлаш технологияларидан Ўзбекистон шароитида фойдаланиш имкониятлари кўриб чиқилмоқда. Ушбу таклиф этилаётган усуллар

реконструкция ишларини ёндош майдонларга таъсир кўрсатмаган ҳолда тегишли ҳудудларни ўзида амалга ошириш имконини беради.

Илмий-тадқиқот ва тажриба-конструкторлик ишлари асосида оқова сувларни тозалаш иншоотларини замонавий лойиҳалаштириш усулларини ишлаб чиқиш, шунингдек оқова сувларни тозалаш бўйича илғор маҳаллий ва хорижий тажрибалардан фойдаланиш устувор вазифа ҳисобланади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ю.А.Багаев, В.М.Вешкурцев, Т.М.Гундырева, Г.Н.Хуторнюк Новые технические решения на очистных сооружениях канализации г. Новосибирска. «Водоснабжение и санитарная техника» № 3, 2009 г., стр. 41-43;
2. Б.А.Вайсфельд, А.С.Шеломков Внедрение современных технологий в проекты сооружений очистки сточных вод и обработки осадков. «Водоснабжение и санитарная техника» № 8, 2009 г, стр. 48-54;
3. И.А.Богатеев, А.С. Керин, А.А.Сахно, К.А. Керин Разработка, проектирование и реализация систем обработки осадков сточных вод. «Водоснабжение и санитарная техника» № 1 2009 г, стр. 32-36.
4. <https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/environment>;
5. <https://mininnovation.uz/index.php?/uz/funded>.

## ЛАБОРАТОРНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ У ДЕТЕЙ С СИНДРОМ “PANDAS”

Мухтаржанова Хуснигул Нодирбековна

Элмурадова Зарина Аслановна

Ташкентский педиатрический медицинский институт

**Аннотация:** В последние годы выдвинуто предположение о связи различных хореоформных гиперкинезов, тиков, миоклоний и неврозоподобных навязчивых состояний у детей с  $\beta$ -гемолитическим стрептококком группы А (БГСА). В настоящее время ранняя диагностика ряда аутоиммунных заболеваний в том числе вызываемых  $\beta$ -гемолитическим стрептококком группы А и разработка дифференциально-диагностических критериев синдрома PANDAS, а также выбор тактики лечения и предупреждение осложнений при данной патологии весьма актуальна.

**Ключевые слова:** синдром PANDAS, заболевание, дети,  $\beta$ -гемолитический стрептококк группы А.

**Актуальность.** Мухтаржанова Х.Н., Тухтабаева К.А., Садыкова Г.К. В детском возрасте стрептококковая инфекция является прямым виновником развития психоневрологических заболеваний, сопровождаемых нервным тиком и обсессивно-компульсивными расстройствами [3, 5]. По данным некоторых авторов его клинические проявления могут быть переменными, но чаще всего характеризуются обсессивно-компульсивными нарушениями и тиками в сочетании с такими неспецифическими расстройствами, как лабильность эмоций, дефицит внимания, двигательная гиперактивность, синдром Туретта, [1, 2, 3, 4]. «Детские аутоиммунные нейропсихические нарушения, ассоциированные со стрептококковой инфекцией» (Pediatric Autoimmune Neuropsychiatric Disorders Associated with Streptococcal Infections, PANDAS) - относительно новый синдром, впервые описанный в 1998 г Swedo с соавт. [6].

Синдром PANDAS часто маскируется под обычные психоневрологические расстройства и потому рассматривается многими специалистами как самостоятельное состояние, не связанное с инфекционными заболеваниями носоглотки [2, 3].

Как описываются в литературах больные с диагностированным PANDAS синдромом нередко плохо реагировали на стандартную терапию тиков или обсессивно-компульсивного синдрома, но у них отмечались быстрое улучшение на фоне лечения с пенициллином, плазмаферезом, кортикостероидами или в/в введением иммуноглобулина [1, 4].

